Key words: Uzbek jadid intellectual, Turkey, Stambulsky darulfunun, "Mekhmonnomai Bukhara", "Zafarnama", "Firdavs ul-Iqbal", "Istoriya Azii", "Nur Usmaniya", "Kholis Efandi".

О ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МИЯНА БУЗРУКА САЛИХОВА

Аннотация

Современный узбекский джадидский интеллектуал Миян Бузрук Салихов находился в Турции в 1920-1927 годах и учился в стамбульском Дорулфунун. За это время он ознакомился с уникальными рукописями, связанными с историей Узбекистана, хранящимися в библиотеках «Дорулфунун», «Нур Усмания» и «Холис Эфанди» в Стамбуле, и сумел идентифицировать несколько рукописей, которые еще не известны науке и позже написал статью под названием «O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob» («Четыре важные книги по истории Узбекистана»), изложив свои научные взгляды на них в Узбекистане. Эта статья будет опубликована в сентябрьском-октябрьском номере журнала «Maarif va o'qitg'uchi» за 1927 год. Ниже исследуется статья Мияна Бузрука «O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob» («Четыре важные книги по истории Узбекистана»).

Ключевые слова: узбекский джадидский интеллектуал, Турция, Стамбульский дарулфунун, «Мехмонномаи Бухара», «Зафарнама», «Фирдавс уль-Икбал», «История Азии», «Нур Усмания», «Холис Эфанди».

MIYON BUZRUK SOLIHONING MANBASHUNOSLIK FAOLIYATIGA DOIR

Annotasiya

O'zbek jadid ziyolisi Miyon Buzruk Solihov 1920–1927-yillarda Turkiyada bo'lib, Istanbul Dorulfununida tahsil oladi. U mana shu vaqt mobaynida Istanbulning "Dorulfunun kutubxonasi", "Nur Usmoniya", hamda "Xolis Afandi" kutubxonalarida saqlanayotgan O'zbekiston tarixiga oid noyob qo'lyozmalar bilan tanishib, hali fanga ma'lum bo'lmagan bir nechta qo'lyozmani aniqlashga muvaffaq bo'ladi va keyinchalik O'zbekistonda ular haqidagi ilmiy qarashlarini ifodalab "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" nomli maqola yozadi. Bu maqola "Maarif va o'qitg'uchi" jurnalining 1927-yil sentabr-oktabr sonlarida e'lon qilinadi.

Quyida Miyon Buzrukning mazkur "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" maqolasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek jadid ziyolisi, Turkiya, Istanbul dorulfununi, "Mehmonnomai Buxoro", "Zafarnoma", "Firdavs ul-iqbol", "Osiyo tarixi", "Nur Usmoniya", "Xolis Afandi".

Kirish. O'tgan asrning 20–30-yillarida yashab ijod etgan Miyon Buzruk Solihov (1891–1938) nafaqat adabiyotshunos, balki iste'dodli tarixchi va manbashunos ham edi. Uning o'sha davr matbuotida bu sohalarga oid "Maqbaralar – diniy ekspluatatsiya quroli" nomli bir risolasi va "O'zbek", "Bedil", "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" nomli maqolalari e'lon etilgan. Bu sanab o'tilgan tadqiqotlar ichida olimning "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" maqolasi, ayniqsa, ahamiyatlidir. Mazkur maqola "Maarif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1927-yil sentabr-oktabr sonida bosilib chiqqan. Olimning bu maqolasi manbashunoslik sohasiga taalluqli bo'lib, unda Turkiyaning "Nur-Usmoniya", "Dorulfunun kutubxonasi", "Xolis afandi" kutubxonalarida saqlanayotgan O'zbekiston tarixiga oid to'rtta kitob tavsif qilingan. Bular: 1. Fazlulloh ibn Ruzbihonning "Mehmonnomai Buxoro". 2. Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma"ning o'zbekcha tarjimai. 3. Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol" (shu jildning

ichida yana Muhammad Rizo Ogahiyning "Riyo ud-davla", "Zubdat ut-tavorix" kabi asarlari ham bor). 4. Muallifi noma'lum bo'lgan "Osiyo tarixi" kitoblaridir.

Miyon Buzruk maqolaning umumiy mundarijasiga kiritilgan bu to'rt qo'lyozmaning har birini o'z nomi bilan ataladigan sarlavhalar ostida tavsif qiladi. Binobarin, aytilish mumkinki, bu maqola to'rt qismdan tashkil topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Miyon Buzrukning "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" nomli maqolasi haqida ilk marta sharqshunos olim R.P.Jalilova o'zining Fazlulloh ibn Ruzbehon Isfahoniyning "Mehmonnomai Buxoro" kitobiga yozgan so'zboshi maqolasida to'xtaladi [Жалилова Р.П., 1].

Bu masalaga keyinchalik yana shu muallifning o'zi "Sharqshunoslik" jurnalining 1991-yil 7-sonida bosilgan "O'rta Osiyo va Turkiya munosabatlari tarixidan" nomli maqolasida to'xtalgan [Жалилова Р.П., 2]. Bundan tashqari, Miyon Buzrukning bu maqolasiga akademik V.V.Bartold

arxivini tasnif qilgan olim N.N.Tumanovich ham to'xtalib, Miyon Buzrukning Fazlulloh ibn Ruzbehonning "Mehmonnomai Buxoro" asari qo'lyozmasini ilk marotaba kashf etgani va bundan akademik Bartold xabar topib Miyon Buzruk nomini e'tirof etganligini dalillar asosida keltirib o'tadi [Туманович Н.Н., 3]. Shuningdek, sharqshunos olim A.Ahmedov va tarixchi H.Bobobekovlar tomonidan nashrga tayyorlangan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari so'zboshisida ham Miyon Buzrukning "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" maqolasi tilga olinadi [Ахмедов А., Бобобеков Х., 4].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda, asosan, o'zbek jadidchilik harakati tarixiga oid shu kungacha yaratilgan ilmiy asarlarga tayanildi. Xususan, jadid ziyolilarining O'zbekiston zamonaviy tarixini yaratish borasidagi ilmiy izlanishlari natijalari hisoblangan asarlar va mustaqillik yillarida jadid ziyolilar ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar maqola ilmiy yo'nalishi va metodologiyasini belgilab beradi.

Tahlil va natijalar. Maqolaning birinchi qismida "Mehmonnomai Buxoro" asari tavsif etilgan. Ma'lumki, mazkur asar Muhammad Shayboniyxon tarixi haqida yozilgan bo'lib, uning muallifi Eronlik Fazlulloh ibn Ruzbihondir. Fazlulloh ibn Ruzbihonni Shayboniyxon o'ziga xos tarixchi etib tayinlagan va bu tarixchi xonning so'ngi o'n yildagi harbiy yurishlarida hamroh bo'lib, u bilan bog'liqlikda ro'y bergan voqea-hodisalarni o'z asarida mufassal yozib borgan. Kitob Shayboniyxonning hijriy 914 (milodiy 1508)-yilda Marv shahridan Buxoro orqali Qozog'istonga qilingan safaridan keyin yozilgan. Asardan harbiy-siyosiy ahvol bilan bog'liq voqea-hodisalaridan tashqari geografiya, iqtisod, etnografiya va madaniyatga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan. Shuningdek, muallif asarda turli munosabatlar bilan Shayboniyxonning tarjimai holi, shajarasi, tahsili, hijriy 905 (milodiy 1499)-yildan to o'lmiga qadar, ya'ni 10 yil ichida olgan yarlari, saroyidagi ish yuritish tartibi kabilar haqida ham ma'lumotlar beradi.

Miyon Buzruk "Mehmonnomai Buxoro" asarining mundarijasiga diqqat qilinsa, u o'z davrida yozilgan kitoblarga ko'ra yaxshi tartib va usul bilan yozilgan ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim maqolada mazkur kitobning 22 fasldan iborat ekanligini aytib, shundan ayrim fasllardagi masalalar haqida qisqacha ma'lumotlar ham beradi. Misol uchun, u kitobning "Ilmiy bahslar" deb atalgan bo'limiga to'xtalar ekan, uning 30 sahifadan iborat ekanligini, unda asosan, Buxoroda Shayboniyxon huzurida bo'lgan katta bir anjumanda Samarqand, Xuroson, Buxoro, Farg'ona ulomolari orasida bo'lgan turli munoqashalar tasvirlanganligini aytadi. Olimning fikricha, bu munoqashalar o'sha davr ilmiy saviyasini bilish uchun yaxshi namuna bo'la oladi. Olim, xususan, Chingizxon yasosi bilan shariatning meros haqidagi hukmlari qiyosida bo'lgan munoqasha o'ta darajada diqqatga sazovor ekanligini ta'kidlaydi.

"Mehmonnomai Buxoro" asari hijriy 915-yilda (milodiy 1509-y.) Hirotda yozib tugatilgan. Miyon Buzruk bu kitobning nomlanishi avval boshda "Safarnomai Buxoro" bo'lganini, keyin esa Shayboniyxon huzurida bo'lgan bir ulug' mehmondorchilik sharafiga xon tarafidan "Mehmonnomai Buxoro" deb atalganini aytadi va bundan ushbu kitobning aynan mana shu mundarijasiga hech bir aloqasi bo'lmagan nomlanishi tufayli katta bir kutubxonada saqlangani holda ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmasdan kelgan, deya xulosa chiqaradi.

"Mehmonnomai Buxoro" asarining ilmiy-tanqidiy matnini nashrga tayyorlab 1976-yilda Moskvada chop ettirgan marhum sharqshunos olim R.Jalilovning ushbu nashrga yozgan so'zboshisida aytilishiga ko'ra, dastlab Miyon Buzruk bu asar haqida taniqli turkolog olim, akademik A.N.Samoylovichga 1926-yilda Istanbuldan turib maktub

orqali xabar bergan [Jalilova R.P. 2]. Tez orada bundan akademik V.V.Bartold ham xabar topgan va bu haqda 1926-yil yanvar-fevral oylarida Turkiyada safarda bo'lib qaytganidan keyin, Ittifoq Fanlar akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslar kollegiyasi majlisida o'qigan "Turkiya safari to'g'risidagi ma'ruza"sida quyidagilarni aytgan: "Men A.N.Samoylovichdan Shayboniyxon uchun yozilgan, ammo fors tilida bo'lgan "Mehmonnomai Buxoro" asarining mavjudligi haqida xabar topdim, unga bu haqda Konstantinopoldan maktub orqali o'zbek Miyon Buzruk ma'lum qilgan; aftidan, ushbu asarning yagona nusxasi Nuri Usmoniyadagi 3431-raqamli qo'lyozmadir" [Туманович Н.Н., 3].

Ko'rinadiki, Miyon Buzruk topgan ushbu yangilik o'z vaqtida ilmiy jamoatchilikni befarq qoldirmagan, aksincha, u juda katta qiziqish uyg'otgan. Afsuski, Miyon Buzrukning bu xizmati ham uning nomi kabi tuzonli yillar qa'rida ko'rinmasdan unutilib kelindi. Faqat keyingi yillardagi Istiqlol sharofati tufayligina uning bu xizmatlari e'tirof etila boshlandi [Жалилова Р.П., 1, 2].

Miyon Buzruk maqolada Shayboniyxonning o'zbek tilida yozilgan she'rini va bu asarning qisqartirib olingan qismlarini chop etishga rozi bo'lgan "Turkiyot majallasi"ga berganini ham aytadi. Biroq noma'lum sabablarga ko'ra u nashr etilmagan. Maqola nashr etilgan "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 59-betida esa olim tomonidan Istanbuldagi "Nur Usmoniya" kutubxonasida saqlanayotgan "Mehmonnomai Buxoro" asaridan bir sahifaning fotokopiyasi berilgan.

Miyon Buzruk maqolasida tavsif qilingan ikkinchi qo'lyozma asar Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sining o'zbekcha tarjimasidir. Bu qo'lyozma ham hozirda Turkiyaning "Nur Usmoniya" kutubxonasida saqlanadi. Tarjima 1519-yilda Ko'chkinchixon (1510–1529) farmoniga ko'ra Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan amalga oshirilgan. Miyon Buzruk bu tarjimaning ahamiyati haqida to'xtalib: "Zafarnoma" kitobi qo'lyozmalari hamma joyda ko'p bo'lganidan bu tarjima mazmun va mundarija e'tiboriga ko'ra katta ahamiyatga ega emas, biroq XV–XVI asr o'zbek yozuv tilining jonli namunasini o'zida aks ettirgani bilan katta ahamiyat kasb etadi", degan haqli fikrni aytadi.

Miyon Buzrukning bu maqolasi haqida olim R.Jalilova "O'rta Osiyo va Turkiya munosabatlari tarixidan" nomli maqolasida batafsil to'xtalib o'tgan. Zero, uzoq yillar Miyon Buzrukning bu maqolasi bilan qiziqib kelgan R.Jalilova keyinchalik yana bu haqda hozir tilga olganimiz maqolani yozadi. Olima bu maqolada Miyon Buzrukning nafaqat "Mehmonnomai Buxoro" asari haqidagi, balki "Firdavs ul-iqbol Xorazmiy", "Osiyo tarixi", shu jumladan, "Zafarnoma"ning o'zbekcha tarjimasini haqida aytgan fikrlari bilan ham o'rtoqlashadi.

Oradan ancha yillar o'tganidan keyin Miyon Buzruk Solihov borib ko'rgan, o'qib o'rgangan va u haqda yozgan "Zafarnoma"ning o'zbekcha tarjimasini 1997-yilda o'zbek olimlari tomonidan nashrga tayyorlanib, "Sharq" nashriyot matbaa kontserni tomonidan kitob holda chop etildi.

Miyon Buzruk "Zafarnoma"ning kutubxonaga kelishi haqida gapirib, bu yerga u turk sultoni Mustafo uchinchi tomonidan hijriy 1171 (milodiy 1757)-yili vaqf qilinganligiga ko'ra, qo'lyozma u yerga ushbu sanadan oldinroq borib qolgan, degan taxminni ilgari suradi.

Uning maqolasida tavsiflangan navbatdagi uchinchi kitob Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiylar qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol Xorazmiy" kitobi qo'lyozmasidir. Bu qo'lyozma Turkiyaning "Dorulfunun kutubxonasi"da saqlanadi. U uch qismdan iborat katta kitob bo'lib, hajmi ikki ming qadar sahifani tashkil etadi. Uning "Firdavs ul-iqbol Xorazmiy" deb nomlangan birinchi qismi Shermuhammad Munis, qolgan "Riyoz ud-davla" va "Zubdat ut-tavorix" degan ikkinchi va uchinchi qismlari esa

Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansubdir. Miyon Buzrukning ma'lumot berishicha, mazkur qo'lyozmani Istanbuldan 1289–1290-hijriy (milodiy 1872–1873-yy.)-yillarda Xorazmga borgan shaxs Turkiyaga olib qaytgan. Miyon Buzrukning ta'kidlashicha, mazkur kitob u tomonidan topilgan kezlarda (1920-yillarda) hali undan ko'plarning xabari bo'lmagan. Bu kitob o'zbek tarixining muhim bir qismini mukammal va muntazam ravishda bayon etganidan va o'zbek tilida yozilganidan muhim ahamiyat kasb etadi, deya xulosa qiladi olim. Shuningdek, unda, xususan, Shayboniyxon davriga oid ma'lumotlar anchagina bo'lgani va bu ma'lumotlarning boshqa manbalardagi ma'lumotlar bilan muvofiq ekanligi ham aytiladi.

Miyon Buzruk tomonidan topilgan "Firdavs ul-iqbol Xorazmiy"ning Turkiya nusxasidan boshqa nusxalari ham keyinchalik topilgan. Hozirgi paytda uning bir nusxasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Maqolada tavsiflangan to'rtinchi qo'lyozma asar Istanbuldagi "Xolis afandi" kutubxonasida 3776-inventar raqami ostida "Osiyo tarixi" nomi ostida saqlanadi. Biroq Miyon Buzruk uni o'qib mazmuni bilan tanishganidan so'ng u faqat Farg'ona xonlari tarixi haqida bo'lganligidan unga "O'zbekcha Farg'ona tarixi" deb nom beradi. Bu asarning muallifi noma'lum. Miyon Buzruk uni "Mahzun" taxallusli kishi yozgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi. Kitob 696 sahifadan iborat o'rtacha kattalikdagi bir asardir. Kitobning aniq yozilgan vaqti ham ma'lum emas. Faqat Miyon Buzruk uni kitobning ikki joyidagi hoshiyasida qo'lyozma yozuvi bilan bir xil bo'lgan yozuvda hijriy 1298 (milodiy 1881) sanasi yozilganligini aytadi. U biroq kitobning tugallanishi bu sanadan keyin bo'lgan deya taxmin qiladi.

Miyon Buzruk asarning mundarijasi Oltin beshik sulolasidan bo'lgan Abdurahim Abdulkarim o'g'lidan boshlab, Erdanaxon, Norbo'taxon, Hojibek, Olimxon, Umarxon, Muhammad Alixon, Sulton Mahmud, Sheralixon, Xudoyorxon kabi Farg'ona xonlari tarixidan bahs etishini aytadi. Miyon Buzruk kitobda "Xususan, Muhammad Alixon zamonidan va uning Buxoro amiri tarafidan mag'lub etilib o'ldirilganidan ko'proq zikr etiladi", – deydi. Shuningdek, u asarning janri doston va roman shaklida turli hikoyalar va g'azallar berilib yozilganligini ham aytadi.

Miyon Buzruk maqolada asarning boshlanishidan bir parchani o'quvchilar tasavvur qilishlari oson bo'lsin uchun keltirib o'tadi. Bundan tashqari Miyon Buzruk bu kitobning qanday qilib Turkiya kutubxonasiga borib qolganligi haqida ham yozadi. Unga ko'ra, Orenburgdan qochib Makkada boshqa nom bilan yurgan Xudoyorxon bir kuni u yerda Turkiyalik Abdurahim afandi degan kishi bilan tanishadi va o'zini unga kim ekanligini bildiradi. Shundan keyin mana shu

Abdurahim afandini o'z nomidan vakil qilib Farg'onaga yuboradi. Bundan uning maqsadi xonligi tugab Farg'onadan chiqib ketayotgan paytida ba'zi boylarga tashlab kelgan pullarini olib, o'z yurtida qolib ketgan o'g'illariga berdirib qo'yish bo'ladi. Shu bilan Abdurahim afandi avval Istanbulga kelib Xudoyorxonning boshqa bir qiyofa bilan Makkada yurganini Sulton Hamidga xabar beradi. Keyin esa O'rta Osiyoga qarab yo'l olib, Toshkentda Xudoyorxonning katta o'g'li Muhammad Aminbek bilan ko'rishadi hamda Xudoyorxonning pullarini olish uchun Qo'qon va Andijon tomonlarga ham boradi. Bu kitob ham xuddi shu paytda xonzodalarga topshirish uchun asar muallifi tarafidan Abdurahim afandiga topshiriladi. Bu rivoyat mazmunini Miyon Buzruk asar muallifining o'z kitobiga yozgan ilovasidan oladi va o'sha ilovadan parcha ham keltiradi. Mana shu voqeadan keyin kitob Abdurahim afandi orqali Turkiyaga olib o'tib ketilgan, deb yozadi Miyon Buzruk.

Maqola so'ngida Miyon Buzruk bu asarning ma'naviy inqiroz yillarida yozilganligi uchun mukammal emasligi, unda oz ma'no ko'p so'z bilan ifodalanganligi, madh va sanolari, g'azal va nazmlari ko'pligi va ayni zamonada usul va tartibsiz qilib yozilganligini ham aytib o'tadi. Biroq O'zbekistonning uch-to'rt asrlk qorong'u tarixi ayrim nuqtalarini yoritishga ko'makchi bo'lishida shubha yo'q, deya xulosa qiladi muallif.

Darhaqiqat, garchi yaqin zamonlarda bo'lib o'tgan esa-da, ishonchli manbalar kamligidan Qo'qon xonligi tarixi hanuzga qadar to'liq o'rganilmagan. Oddiygina bir misol, marhum prof. Sh.Yusupovning ta'kidlashicha, hozirgacha ham Xudoyorxonning tug'ilgan va o'lgan yili aniqlangan emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, Miyon Buzrukning "O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob" maqolasida tavsif qilingan asarlar O'zbekiston tarixining Shayboniyxon hukmronligi davridan to uch xonlikning tugatilishi davrigacha, ya'ni XVI asrdan boshlab Rus istilosigacha bo'lgan davrini yoritish uchun xizmat qiladi. Bu manbalarning topilishi esa XX asr boshlarida O'rta Osiyo tarixini o'rganayotgan olimlar uchun juda ham muhim sanalar edi. Chunki o'sha paytlarda O'rta Osiyoning temuriylar hukmronlik qilgan davri haqida ma'lumot beruvchi asarlar ko'p bo'lgani holda undan keyingi davrlari haqida ma'lumot beruvchi manbalar kamyob sanalgan. Shuning uchun bu davr tarixini o'rganishda qiyinchilik mavjud bo'lgan. Shuningdek, Miyon Buzruk bu maqolani yozgan kezlarda Turkiston tarixi, madaniyati o'ziga xos jarayon sifatida juda katta qiziqish bilan o'rganilayotgan edi. O'tgan asr boshlarida bu jarayon mahsuli o'laroq o'zbek millati tarix sahnasiga yangidan shakllanib chiqdi. Demak, aytish mumkinki, bu xayrli ishga o'z vaqtida Miyon Buzruk ham ilmiy jamoatchilikni hali fanda noma'lum bo'lgan muhim manbalardan xabardor etish orqali sezilarli hissa qo'shishga muvaffaq bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Джалилова Р. П. Предисловие / Фазлаллах ибн Рузбихан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя). М., 1976. С.43.
2. Жалилова Р. Ўрта Осиё ва Туркия муносабатлари тарихидан // Шарқшунослик, 1991 йил. 7-сон.
3. Туманович Н.Н. Описание архива академика В.В.Бартольда. И.И.Умняков. Аннотированная библиография трудов академика В.В.Бартольда. М., 1976. С.301; Бу ҳақда яна қаранг; Ўрта Осиё ва Туркия муносабатлари тарихидан // Шарқшунослик, 1991. №2. 102–105-бетлар.
4. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмедов., Ҳ.Бобобеков. Тошкент: Шарқ НМАК, 1997.
5. Юсупов Ш. Худодёрхон ва Фурқат. 24-бет.



Mukaddas ABDURAHMANOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: Mabduraxmanova20@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-6987-3501

Professor Z.Xolmanova taqrizi asosida

LEKSIK OMONIMLARNING LINGVOKOGNITIV TADQIQI

Аннотация

Maqolada omonimlarni lingvokognitiv aspektida o‘rganish asoslari yoritilgan. Dunyo tilshunosligida omonimiyaga doir tadqiqotlarning, asosan, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigma asosida o‘rganilgani qayd etilgan. Tildagi omonimiy hodisasi talqinida turlicha yondashuvlar, o‘zaro zid qarashlarning mavjudligidan qat’iy nazar omonimiy hodisasining til o‘zlashtirishda, voqelikni, fikrni yashirin tarzda ifodalashda va badiiy matnda turli xil ma’nolarni anglatishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: omonim, omonimiy, leksik omonim, omonimik qator, dominanta, mental omonim qiyosiy-tarixiy paradigma, sistem-struktur paradigma, lingvokognitiv xususiyatlar, antroposentrik paradigma.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ОМОНИМОВ

Аннотация

В статье раскрыты основы изучения омонимов в лингвокогнитивном аспекте. Отмечается, что исследования омонимии в мировой лингвистике изучаются преимущественно на основе сравнительно-исторической, системно-структурной парадигмы. Несмотря на наличие разных подходов и противоречивых взглядов на трактовку явления омонимии в языке, показано значение явления омонимии в овладении языком, скрытом выражении действительности и мысли, значении разных смыслов в художественном тексте.

Ключевые слова: омоним, омонимия, лексический омоним, омонимический ряд, доминанта, ментальный омоним, сравнительно-историческая парадигма, системно-структурная парадигма, лингвокогнитивные особенности, антропоцентрическая парадигма.

LINGUOCOGNITIVE RESEARCH LEXICAL HOMONYMS

Annotation

The article reveals the basics of studying homonyms in the linguocognitive aspect. It is noted that studies of homonymy in world linguistics are studied primarily on the basis of a comparative-historical, systemic-structural paradigm. Despite the presence of different approaches and contradictory views on the interpretation of the phenomenon of homonymy in language, the significance of the phenomenon of homonymy in mastering language, the hidden expression of reality and thought, and the meaning of different meanings in a literary text is shown.

Key words: homonym, homonymy, lexical homonym, homonymic series, dominant, mental homonym, comparative historical paradigm, systemic structural paradigm, linguistic-cognitive features, anthropocentric paradigm.

Kirish. Jahon tilshunosligida omonimlar muayyan til doirasida va tillararo muammo sifatida tadqiq etilgan. Bir til doirasidagi tadqiqotlarda lingvistik yo‘nalish ustunlik qiladi [1]. Sinxron aspektdagi izlanishlarda omonimlarni leksik-semantik, struktur-grammatik jihatdan tahlil qilish yetakchilik qiladi [2]. Omonimlar leksik, grammatik xususiyatlar va so‘z yasaliş jarayoni mahsuli sifatida tahlil etilgan [3]. Tadqiqotlarda omonimlarning shakllanish omillari yoritilgan, polisemiya hodisasiga munosabati [4], badiiy-stilistik imkoniyatlari o‘rganilgan.

A.A. Shaykeyevich omonimlar termini ostida so‘z va so‘zshakllarini nazarda tutgan, ma‘no strukturasi leksik ma‘nodan tashqari grammatik ma‘noni ham e‘tiborga olgan [5]. Bir tizimdagi tillar doirasidagi izlanishlarda hodisaning umumiy va farqli jihatlari, tillararo hodisa sifatida namoyon bo‘lishi, yondosh tushunchalarga munosabati, leksik-semantik xususiyatlari tahlil etilgan [6].

Omonimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyati lingvistik aspektdagi tahlillar asosida amalga oshirilgan bo‘lib, hodisaning mohiyatini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Omonimlarning tildagi o‘rni va lingvokognitiv yo‘nalishdagi tadqiqotlar. Omonimiy muammosi tilshunoslik ilmi qacar qadimiydir. Ba‘zi tilshunoslar omonimlarni tilning lug‘at boyligi deb bilsa,

boshqalari omonim bu "tilning nuqsoni" (A.A.Reformatskiy, A.N. Gvozdev) deb bilishadi. L.A. Bulaxovskiy, O.S. Axmanova, R.A. Budagov kabi tilshunoslar omonimiyani tan olishgan, hatto ba‘zi hollarda nutqni yoki matnni tushunishni qiyinlashtirsa-da, unga til nuqsoni sifatida qarashmagan. Omofon va omograflar omonimning turi yoki omonimga yondosh soha sifatida qaralgan [7].

Tildagi omonimiy hodisasi, uning muloqotdagi o‘rni, kommunikatsiya jarayonidagi vazifasi olimlar tomonidan turlicha baholangan. Xususan, I.S.Logacheva olimlarning omonimlar haqidagi qarama-qarshi fikr va baholarini tahlil qilgan. Omonimlarning tinglovchiga qiyinchilik tug‘dirishi sabab tildagi nuqson sifatida qaralgani, muloqot uchun "samarasiz" deb baholangan, matnni idrok qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda retsiyentning vaqtga reaksiyasi cho‘zilgani asosida muloqot jarayonini sekinlashtiradi, deb xulosa qilingani qayd etilgan. O‘z navbatida, fikr ifodasidagi o‘rni nuqtayi nazaridan omonimiyning polisemiya kabi so‘zlovchi uchun samarali ekanligi, tilning ixchamligini ta‘minlaydigan ijobiy hodisa sifatida baholangan, omonim, omofon, omoshaklning muloqotda qiyinchilik tug‘dirmasligi, doimo nitqiy vaziyat va kontekstda neytrallashuvi haqidagi fikrlar keltirilgan [8]. Bu o‘rinda omonimlarni tildagi "samarasiz va ortiqcha" deb baholagan qarashlar til

hodisalariga yuzaki yondashishning bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaymiz. Negaki tilshunoslar qayd etganlaridek, tilda ortiqcha yoki samarasiz hodisa bo'lmaydi. Har bir til hodisasi nutq jarayoni mahsuli sifatida ma'lum bir lisoniy omil va lingvistik, mantiqiy maqsad asosida shakllanadi. Dunyo tillarining aksariyatida omonimiya hodisasi mavjudligi, muayyan tilning ichki taraqqiyot omillari va boshqa tillar ta'sirida yuzaga kelishi bu hodisaning lingvistik qonuniyatlar asosida shakllanishi hamda kommunikatsiya jarayonida turli funktsiya bajarishini ko'rsatadi. Ch. Davlyatova "til belgisining assimetriyasi, ya'ni ifoda plani bilan mazmun plani o'rtasidagi umumiy tafovutlar tilning "nomukammal tuzilishi" natijasi emas, balki muqarrar va zaruriy hodisa bo'lib, ularsiz tabiiy inson tili me'yoriy holda namoyon bo'lmasligi va rivojlana olmasligini qayd etgan [9].

Omonimiya borasida olib borilayotgan tadqiqotlarning ma'lum bir qismida lingvokognitiv, psixolingvistik tahlillar kuzatiladi. Bu esa tildagi omonimiya hodisasining muloqot vositasi taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatish bilan bir qatorda, til sohiblarining tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlashga ham xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida og'zaki omonimiya tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar mavjud. Tadqiqotlarda mahalliy tillarni o'rganishga bo'lgan talabning yuqori ekanligi qayd etilgan. Mahalliy tillardan biri sifatida Sumatra Utara provinsiyasi janubidagi turli hududlarda uchraydigan mandailing mintaqaviy tili qayd etilgan. Mandailing tilidagi omonimiya shakli, omonimiya munosabatlari yoritilgan. Ma'lumotlar Labuhanbatu, Sungai Kanan tumani, Batang Gogar qishlog'idagi o'troq aholi og'zaki nutqidan olingan. Ma'lumotlarning to'g'riligi turli xil adabiyotlardan havolalar berish orqali isbotlangan. Mandailing tiliga oid bir xil shakldagi mustaqil morfemalar, omonimiya shaklidagi kompleks shakl, ya'ni murakkabmorfemalar o'rganilgan [10].

Omonimlar ma'lum bir hissiy, aqliy jarayonlar yoki voqea-hodisalarga miya javob reaksiyasini o'rganuvchi yo'nalish usullari yordamida ham tahlil qilingan.

Anna Yurchenko yetakchiligida amalga oshirilgan tadqiqotda ko'p ma'noli va omonim so'zlar turlicha qayta ishlangani, ammo so'zlarni qayta ishlash mexanizmlari hali ham aniq emasligi qayd etilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi metonimiya, metafora va omonimlarni tushunish jarayonini o'rganishga qaratilgan. Tajriba sifatida ishtirokchilardan ikki so'zdan iborat va omonim tarkibli birikmalarni o'qish so'ralgan. Natijalarda ko'p ma'noli so'zlarning metonimik va metaforik ma'nolarini tushunish o'rtasida farq kuzatilgan. Metonimik va literal sezgilar o'rtasidagi birlamchi ta'sir mental leksikada ravona ifodaga ega, degan fikr tasdiqlangan. Bundan farqli ravishda, polisemantik so'zlarning majoziy ma'nolari so'zlarning asl ma'nolariga juda cheklangan birlamchi ta'sir ko'rsatishi, xuddi shunday natijalar omonimlar uchun ham xos ekanligi ta'kidlangan. Tadqiqotchilar metaforik ma'nolar mental leksikonda alohida ifodalarga ega bo'lishi kerak, degan xulosaga kelishgan [11].

Xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlarda omonimiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish usullari ishlab chiqilgan. Imlo o'zgarishlari tilni qayta ishlashda muammolarga olib kelgan til, ya'ni yapon tili misolida omonimlarni ajratib turadigan va omofonlarni birlashtirgan so'z ma'nosini klasterlash usuli taqdim etilgan. Tokenlarni alohida semantik guruhlarga klasterlash uchun matnli (kontekstli) tartiblash usulidan (BERT) foydalanilgan. Bu usuldan sinonimik misollarni bitta tasviriy shaklga solish uchun ham istifoda etilgan. Bu normallashtirishning ahamiyatini til modelida ham, transliteratsiyada ham ko'rish mumkin [12].

Omonimiya va polisemiya o'rtasidagi farq, so'z ma'nosini aniqlash texnik imkoniyatlar va amaliy tajribalar yordamida amalga oshirilgan. So'zlarni omonim yoki ko'p ma'noli deb tasniflash, so'z semalarining grafiklarini tugunlar

va ular orasidagi semantik bog'liqlikni alohida qirralar sifatida tasvirlash haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy omonimlar bazasini yaratish, shuningdek, mavjudlarini yangilash masalasi ko'tarilgan. Ma'lumotlar bazasi omonimlar ro'yxatini va ularning qisqacha ta'riflarini o'z ichiga olishi, ular WordNetning tegishli qidiruv tizimlarida ko'rsatilganligi qayd etilgan. Omonim va ko'p ma'noli so'zlar to'plami nisbatan baholanishi va ishlab chiqilgan usullar omonimlar miqdorini aniqlashda eng samarali natijalarga olib kelishi asoslangan [13].

Omonimlar tarjimasini bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Talabalarning foydalanish paytida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan biri sifatida omonimlarni ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilish masalalari o'rganilgan. Ikki tili lug'at yordamida omonimlarning passiv tarjimasini, ya'ni ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilish jarayonlarida uchraydigan muammolar yechimi, ikki tili lug'atdan foydalanish shartlari tavsiflangan. Tarjima jarayonida talabalar foydalanadigan strategiyalar anketa usulida aniqlangan. Ikki tili lug'atdan foydalanish samaradorligi test asosida baholangan. Natijalar omonimlar uchun yetarlicha ekvivalentlar taqdim etmagani sababli ikki tili lug'atlarning omonimlar tarjimasida har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavmasligi ko'rsatilgan. Bunday lug'atlar bilan ishlashda talabalar kontekst mazmuniga kirishmagani va so'zma-so'z tarjimaga ergashgani qayd etilgan.

Tadqiqotlarda omonimiyani o'rganish leksik semantikaning asosiy muammolarini hal qilish uchun juda muhimligi qayd etilgan. Omonimlarning tarjima, jonli nutq va hissiy klasterlar kontekstida o'ziga xosliklarini tavsiflovchi farazlar taklif qilingan. Gipotezalarni sinab ko'rishga imkon beruvchi yangi izohli omonimlar resursi taqdim etilgan (WSD resurslari). Bu resurslar omonimiya va polisemiyaning farqlash uchun o'ziga xos qadamdir [14].

Tadqiqotlarda maktabgacha va boshlang'ich maktab o'quvchilarining omonimlarni o'rganish va tushinishda qiyinchiliklarga duch kelishi alohida ta'kidlangan. Alohida xaritalashning qiyinligi yoki metalingvistik ko'nikmalarning yetishmasligi omonimlarni o'rganish va aniqlashni qiyinlashtirishi aytilgan. Omonimlarni aniqlash yuzasidan tajribalar o'tkazilgan. Tajribada jami 60 nafar uch yoshli bolaning omonim juftlarini tanlash qobiliyati va ularning omonimlar umumiy belgiga ega bo'lsa-da, ikki xil ma'noni ifodalashini tushunish darajasi o'rganib chiqilgan. Tajribada jarayonida subyektlardan omonim juftlarni aniqlash so'ralgan. 2-tajribada omonim juftliklari va omonim bo'lmagan juftliklar belgilangan, so'ngra bolalardan bu juftliklar bir xil shaklga ega egamasligi va ular bir xil narsa yoki bir xil narsa emasligini aytish talab qilingan. Tajribada bolalarga bir nechta omonim va omonim bo'lmagan juftlardan har birining yarmi ko'rsatilgan, so'ngra rasmlar to'plamidan nom va toifa mosligini aniqlash so'ralgan. Ushbu tajribalardan bolalar omonim juftlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan metalingvistik ko'nikmalarga egaligi; bundan tashqari, omonimlar ikki xil kategoriyani ifodalashini anglab yetganliklari aniqlangan.

Tadqiqotlarda polisemiya va omonimiya tushunchalari farqlangan. Xitoy tilida polisemiya va onomimiya bo'lgan munosabat lug'atlar orqali ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda ma'no va assotsiatsiyalarga boy so'zlar va xitoyliklar duch keladigan ba'zi muammolar tahlilga tortilgan. Ko'p ma'noli inglizcha so'zlar sxemalar shaklida tasvirlangan va bu kabi so'zlarning aqliy leksikondagi shakli tuzilmasi taxminiy ravishda ko'rsatib berilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda omonimlardagi domanta belgilar ajratilgan. Bu holat omonimning qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Omonimlar bilan bog'liq assotsiatsiyalar o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotlardagi tajribalardan biri omonimlarni o'rganish jarayonidagi aniq faraz (gipoteza)ni tasdiqlashga qaratilgan.

Birinchi faraz: bolalar omonimlardan qochadi, chunki bir so'z bir ma'noga ega, degan qarashni ma'qullashadi.

Ikkinchi faraz: bolalar o'zlari omonim yig'adi va hatto kattalar lug'atida bo'lmagan omonimlar ham yaratadilar.

Uchinchi faraz: So'z o'rganishda omonimlarning ta'siri mavjud emas.

Tajriba ushun 28 nafar o'quvchi olingan, o'quvchilarga 8 ta ma'lum va 8 ta yangi so'z berilgan. Misollar keltirilmagan, lekin o'quvchilarning aytib bergan hikoyalardan yaratilgan yangi gaplar orqali matn (kontekst)ni bilish chastotasi o'rganilgan. Masalan, 8 ta ma'lum so'z yangi so'zlar bilan birlashtirilib, multfilm shaklida qo'yib berilgan. Keyin bolalar, rasm orqali savol-javob qilingan va agar ular tegishli so'zni ayt olsa, to'g'ri deb hisoblangan. Natija shuni ko'rsatganki, omonimlarni o'rganish yangi so'zlarni o'rganishdan osonroq bo'lgan. Ikkinchi faraz tasdiqlangan.

Tadqiqotlarda omonimiyaning so'zlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Omonimlarning yangi so'zlarga qaraganda tezroq o'zlashtirilishi asoslangan. Ma'lum fonologik shakllarning so'zlarni o'rganishni osonlashtirishi qayd etilgan. O'quvchilar shakl ma'lum ekanligini va bu, o'z navbatida, fonologik ishlov berish (shaklni o'zlashtirish) jarayonini qulaylashtirishi va natijada so'zni o'rganish ham tezlashishi aniqlangan. O'quvchilarning so'z o'rganishda omonimiyadan qochishi yoki o'xshash shakllarni mazmunan moslab ololmasligi aytilgan. So'z o'rganishning boshlanishida omonimlarni o'zlashtirish qiyinligi, lekin keyinchalik shakl bir xilligi yordamida oson o'zlashtirilishi dalillangan [15].

Izlanishlarda flektiv paradigmalarini modellashtirish bo'yicha takliflar berilgan bo'lib, omonimlardagi tizimlilikni baholashning aniq mezoni belgilab berilgan. Asosan Hind-Yevropa va Afrika-Osiyo aholisi tiliga moslashtirilgan modellarning bitta flektiv til ichidagi tizimli omonimlarni modellashtirishda adekvat o'lchov vazifasini bajarishi qayd etilgan.

Omonimlarni aniqlashning uch omili asosida tajriba o'tkazilgan: 1.Lug'at boyligi. 2. Grammatik savodxonlik. 3. Oldingi bilimlarga asoslanish.

Tadqiqot 30ta ingliz tili asosiy fani bo'lgan talabalar orasida o'tkazilgan. Shug'ullanish uchun 60 ta omograf va omonimlar tanlangan (ingliz lug'atida eng ko'p uchraydiganlari orasidan). Dastlabki mashg'ulotda bo'lmagan boshqa 20ta omonim va ikkita savol-javob testlari (omillarni aniqlash uchun) ham taqdim qilingan. Yangi so'zlar lug'ati omonimlarni o'zlashtirishning eng muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

Omonimlarni o'zlashtirish 6 bosqichli metodologiya asosida tekshirilgan:

1-bosqich: talabalarning to'g'ri omonimni tanlash qobiliyati bo'yicha test o'tkazilgan.

2-bosqich: omonimlarni o'zlashtirish omillarini o'rganish bo'yicha savol-javob amalga oshirilgan.

3-bosqich: talabalarga asoslovchi ko'rsatmalar bilan dalillash o'rgatilgan.

4-bosqich: omonimlarni o'zlashtirish bo'yicha qayta test o'tkazilgan.

5-bosqich: 2-bosqich qayta o'tkazilgan.

6-bosqich: tadqiqotga munosabat baholangan [16].

Ushbu tadqiqotlardan shu xususiyat ma'lum bo'ladiki, xorij tilshunosligida omonimiya hodisasini har xil baholash holatlari mavjud. Shunga qaramay omonimlarni til hodisasi sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmaga asoslangan tadqiqotlarda omonimlarning tavsifi keltirilgan, ko'rinlarishlari tasniflangan, yuzaga kelish omillari ko'rsatib berilgan. Lingvokognitiv yo'nalishdagi tadqiqotlarda omonimlarning ifoda etilishi, tushunilishi, omonimlarni o'zlashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Xulosa. Til hodisasi sifatida omonimiya lingvistik qonuniyatiga ega. Adabiy til doirasidagi omonimik qatorlarning ma'lum bir tarixiy bosqichda qo'llanishini, shakliy va talaffuz bir xilligini taqozo qiladi.

Tajriba natijasida til sohiblarining omonimik qatorlarni xotirada tiklash jarayonlarida, omonim sifatida baholashlarida me'yordan chekinish hollari kuzatildi. Tarixiy so'zlar, arxaik birliklar, sheva so'zlari, so'zlashuv uslubiga xos leksemalar omonimik qator uzvlari sifatida keltirildi. Bu holat omonimiyaning birinchi navbatda mental hodisa ekanligini asoslaydi.

Omonimlarni o'zlashtirish miya faoliyati bilan bog'liq. Ko'p ma'noli va omonim so'zlarni tushunish, esda saqlash, xotirada tiklash uchun me'yoriy holda rivojlangan aqliy qobiliyat talab qilinadi. Psixolingvistlar miya rivojlanishi orqada qolgan shaxslarda omonimlik va ko'p ma'nolilikni tushunish bilan bog'liq muammo bo'lishini qayd etganlar. Bu holat, ayniqsa, mavhum tushunchani ifodalovchi omonim shakllarni o'zlashtirishda murakkablikni yuzaga keltiradi.

Xorij tadqiqotlarida tajriba natijasi sifatida omonimlarning boshqa so'zlarga nisbatan oson o'zlashtirilishi haqida so'z yuritilgan. Me'yoriy darajadagi tafakkurga ega bo'lgan inson omonimlarni oson o'zlashtiradi, me'yoriy darajaga ega bo'lmagan shaxs omonimni o'zlashtira olmaydi. Ammo omonimlarni tushunish muammoligicha qoladi. Omonimiya nutqdan tashqari mavjud, nutqda birikmalar ta'sirida omonimiya bartaraf bo'ladi.

Omonimlar inson xotirasida kognitiv maydonning muayyan qismidan joy oladi. Kognitiv semantik maydonda omonimik qatorlararo munosabat, omonim uzvlararo munosabat farqlanadi. Omonimik qatorlar o'rtasidagi munosabat omonimlarning qo'llanish chastotasini belgilasa, omonim uzvlar aro munosabat omonimik qatoridagi dominantlikni belgilaydi. Omonim so'zining qo'llanishi ham yondosh tushunchalar dominantligi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Amir Ahmad Habibi. Using translations to distinguish between homonymy and polysemy (Omonimiya va polisemiyaning farqlash uchun tarjimalardan foydalanish). Department of Computing science. University of Alberta, 2020.
2. Барановская В.Г. Лексико-грамматические омонимы в языке древнерусских памятников XI-XIV вв. В кн.: Исследования по словообразованию и лексикологии древнерусского языка. – М., 1969. – С. 268-295.
3. Барзилович А.М. Сходство и различие явлений лексической омонимии в русском и украинском языках. Вісн. Київського ун-ту. Сер. філології, 1972. – №14. –С.118-125.
4. Богданова И.А. Структурно-семантическая характеристика лексической и лексико-грамматической омонимии современного английского языка. Автореф. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2004. – 24 с.
5. Боронина И.А. О роли омонима в японской классической поэзии. – Народы Азии и Африки.–М, 1964. –№2. –С. 145-155
6. Bradley Hauer, Grzegorz Kondrak. One Homonym per Translation (Har bir tarjima uchun bitta omonim). Copyright, 2020. –P.7895-7902.
7. Давлятова Ч. А. Омонимия как системная категория (на материале таджикского языка). Автореф. дисс...канд.филол.наук. Душанбе, 2017.

8. Ibragimova Z. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining ilmiy ahamiyati / O'zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2021.
9. Kevin Heffernan, Yo Sato. Homonym normalisation by word sense clustering: a case in Japanese. Proceedings of the 28th International Conference on Computational Linguistics, pages 3324-3332. Barselona, Spain (online), December 8-13, 2020.
10. Laongphol Jitsuda. Developing Ability to Translate Homonyms and Homographs via Training in Part of Speech Identification and Dictionary Use. Copyright of Prince of Songkla University, 2013. –P.33
11. Логачева И.С. Языковая омонимия: многообразии подходов о оценок. // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. – 2009. – С. 53-55.
12. Никатуева З.Ш. Полисемия и омонимия в даргинском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Махачкала, 2003. – 26 с;
13. Rodiyah Harahap, Abdul Gapurb. Homonym in mandailing language. Homonim dalam Bahasa mandailing. Copyright, 2020, Genta Bantera: Jurnal Ilmiah Kesastraan, ISSN:2503-2135 (print), 2656-1085 (online). –P.47-50.
14. Табутарова О.А. Омонимия как проявление лексических, грамматических и деривационных связей в современном бурятском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. –Улан-Удэ, 2013. – 28 с.
15. Шайкевич А.Я. О принципах классификации омонимов // Процессы развития в языке. – М., 1959.– С. 127.
16. Yurchenko A., Lopukhina A., Dragoy O. Meaning relatedness in polysemous and homonymous words: an erp study in Russian/Electronic copy available at: <https://ssn.com/abstract=3291173>.
17. Holly L. Storkel and Junko M. Young. Homonymy in the Developing Mental Lexicon (Mental leksikonning rivojlanishida omonimlarning o'rni). Sommerville, MA: Cascadilla Press. 2004.



Feruz ABDURAXMONOVA,
O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti dotsent v.b., PhD
E-mail: feruzaxon8484@gmail.com

O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, f.f.d J.Eshonqulov taqrizi asosida

CLASSIFICATION OF YOR-YOR SONGS ACCORDING TO AREAL CHARACTERISTICS

Annotation

This article focuses on issues such as regional features of Yor-yor performed in different regions, differences in performance, and connection with traditions. When studying the yor-yor genre into regions, it is necessary to take into account some areal distribution. Because they look different even in the same region, district and village, and their dialect, toponym sign and tone change. Special attention is paid to aspects such as the place of performance of the song, the method of performance, its connection with tradition and any custom of ceremony, description of characters, attitude to music, ethnic composition of the population.

Key words: areal, ceremony, territory, bride, wedding, tradition, lyric, motive, halfa.

КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕСЕН ЁР-ЁР ПО АРЕАЛЬНЫМ ХАРАКТЕРИСТИКАМ

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется таким вопросам, как региональные особенности исполнения Ёр-Ёра в разных регионах, различия в исполнении и связь с традициями. При изучении жанра йор-йор по регионам необходимо учитывать некоторое ареал распространения. Потому что даже в одном и том же регионе, районе и селе они выглядят по-разному, меняются их диалект, топонимический знак и тон. Особое внимание уделяется таким аспектам, как место исполнения песни, способ исполнения, ее связь с традицией и каким-либо обычаем или обрядом, описание персонажей, отношение к музыке, этнический состав населения.

Ключевые слова: территория, обряд, территория, невеста, свадьба, традиция, лирика, мотив, халфа.

YOR-YOR QO'SHIQLARINING AREAL XUSUSIYATLARIGA KO'RA TASNIFLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli hududlarda ijro etib kelinayotgan Yor-yorlarning areal xususiyatlari, ijro farqlari, urf-odatlar bilan bog'liqligi kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Yor-yor janrini hududlarga bo'lib o'rganishda ba'zi areal tarqalishini ham hisobga olish lozim. Chunki ular bir viloyatda, tuman va qishloqda ham turli ko'rinishga ega bo'lib, shevasi, toponim belgisi va ohang o'zgaradi. Unda qo'shiqning ijro o'rni, ijro usuli, urf-odat va biron udum yoki marosim bilan bog'liqligi, obrazlar tavsifi, musiqaga munosabati, aholining etnik tarkibi kabi jihatlar alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: areal, marosim, hudud, kelin, nikoh to'yi, urf-odat, lirik, motiv, xalfa.

Kirish. O'zbek marosim folklori alohida hududlar kesimi jihatidan kam o'rganilgan. Bu borada ba'zi olimlarimizning ma'lum bir hududga tegishli ilmiy tadqiqotlari va maqolalari mavjud, xolos. Unda folklor janrlarini areal o'rganishning yo'nalishlari, nazariy va amaliy muammolari haqida aniq taklif va mulohazalar bildirilmagan bo'lsa ham, biroq marosim folklorini areal o'rganish lozimligi va zarurligi to'g'ri qayd etilgan. Marosim va urf-odatlar bilan birga, to'y qo'shiqlari ham hududiy jihatdan farqlanadi. Xalq og'zaki ijodi va etnografiyasini o'rgangan olimlarimiz ma'lum bir hududga doir bir necha etno-folkloristik tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek nikoh to'yi marosimi folklorini muayyan hududlar materiallari asosida o'rgangan folklorshunos, etnograf va musiqashunos olimlar M.Alaviya, J.Qobulniyozov, H.Razzoqov, O.Sobirov, K.Ochilov, O.Safarov, S.Ro'zimboyev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, O.Ismonova, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, S.Davlatov, G.Tosheva, S.Soatova, L.Xudoyqulova, N.Sabirova va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin.

O'zbek folklorini areal tadqiq etishning ba'zi masalalarini xususan, to'y marosim janriga tegishli kelin-salom qo'shiqlarini areal o'rganishning ayrim muammolarini yoritishga adabiyotshunos F.Ikromxo'jayev e'tibor qaratadi. Kelin-salom boshqa turkiy xalqlarda ham keng tarqalganligini

hisobga oladigan bo'lsak, F.Ikromxo'jayev janrni tarqalish xususiyatiga ko'ra gomogen (bir xalq doirasida) va getrogen (turli xalqlar doirasida) areal o'rganishni tavsiya etadi.[3.] Bu ajratib o'rganish o'rinli qayd etilgan bo'lib, avvalo janrni bir xalq doirasida chuqur o'rganish kerakligi, turli xalqlar doirasida o'rganish, ularni qiyoslash orqali aniq umumiy xulosalarga kelish, janrning xususiyatlari, poetikasini tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, Yor-yorlarni ham turli xalqlar doirasida o'rganish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Marosimlarni areal o'rganishda, o'zbek va tojik xalqlarining ko'p asrlik qo'shni ekanligi, aralash hayot kechirishi, turmush tarzidagi umumiylik ularning badiiy tafakkurida ma'lum mushtaraklik kasb etishi muhim rol o'ynaydi. Bu hududlar bo'yicha o'rganilgan tadqiqotlarda ham yaqqol seziladi. Turli millatlar birga yashaydigan hududlarda ham urf-odatlarda o'xshashlik va farqli jihatlar ajralib turadi. Shuning uchun, hududlar alohida o'rganilganda turli metodlardan birgalikda foydalanish ma'lum xulosalar berish imkonini tug'diradi. Masalan, ma'lum hudud Yor-yorlarini tipologik, lingvopoetik, qiyosiy tahlil etish va hokazo.

Tahlil va natijalar. Yor-yor janri respublikaning barcha hududlarida keng tarqalgan. Janrning bir xalq doirasida tekshirishda tarqalish doirasini aniqlash uchun, faollik darajasini tekshirish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, lirik

janrlarda kechinma, lirik qahramon, mavzu, tasvir hamda ifoda vositalari, motiv, she'riy shaklga oid band, vazn, qofiya kabilarni tahlil etish areal xususiyatlarini belgilashda muhim belgilardir.

Bizningcha, Yor-yor qo'shiqlarini quyidagicha hududlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: 1. Qashqadaryo – Surxondaryo areal hududi; 2. Samarqand areal hududi; 3. Buxoro – Navoiy areal hududi; 4. Farg'ona – Andijon areal hududi;

5. Namangan areal hududi; 6. Toshkent areal hududi; 7. Jizzax – Sirdaryo areal hududi; 8. Xorazm areal hududi va boshqalar.

Yor-yor janrini bunday hududlarga bo'lib o'rganishda ba'zi areal tarqalishini ham hisobga olish lozim. Chunki ular bir viloyatda, tuman va qishloqda ham turli ko'rinishga ega bo'lib, shevasi, toponim belgisi va ohang o'zgaradi. Unda qo'shiqning ijro o'rni, ijro usuli, urf-odat va biron udum yoki marosim bilan bog'liqligi, obrazlar tavsifi, musiqaga munosabati, aholining etnik tarkibi kabi jihatlar alohida e'tibor qaratiladi. Albatta, yuqoridagi hududlar – faqat Yor-yor qo'shiqlari uchun xosdir. O'zbek folklorining boshqa janrlarini hududiy yoki areal o'rganishda esa har bir janrning o'ziga xosligi va shakllanish holatidan kelib chiqqan holda, mutlaqo o'zgacha hudud va areallar belgilab olinishi mumkin. Olimlarning bir xil hududni kuzatishlarida ham ba'zi farqlar mavjud bo'lib, bular ma'lum hududdan kelib chiqib xulosa qilishga ham bog'liqdir. Chunki Yor-yorning bir hududda bir necha yo'llari ham kuylanaveradi.

Yor-yor qadim davrlardan buyon kuylanib kelayotgan marosim qo'shig'idir. U bilan bog'liq urf-odatlar ham talaygina. Zero, har bir hududning Yor-yor bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlari va irim-sirimlari bir-biridan farq qiladi. Janrning hududiy o'ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadida ayrim hududlarning ba'zi Yor-yor namunalarini bir-biridan farqli jihatlarini xususida to'xtalib o'tamiz.

Nikoh marosimlarining hududiy o'ziga xosligini ajratib turuvchi muhim belgilaridan biri uning qaysi urf-odatlar bilan bog'liqligidir. Bu qo'shiq va aytimlarda ham ko'rinadi. Bunda aytuvchi, mazmun, uslub va ohang o'zgaradi. Bir hududda har xil millat vakillarining yashashi ham areal farqlanishiga va urf-odatlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Buni G.Toshevaning tadqiqotida ham ko'rish mumkin: “Vohada istiqomat qiluvchi o'zbeklar, tojiklar, arablar, turkmanlarning nikoh to'yi marosimlarida mushtarak va o'xshash tomonlar mavjud bo'lsa-da, muayyan farqli tomonlari ham borligi dala tadqiqotlari orqali aniqlandi”[9.84].

Qashqadaryo vohasi o'zbek to'y marosim folklorini ilmiy tadqiq etgan folklorshunos olim S.Davlatov: “qadimda kelinning dugonalari uni o'rtaga olib, hovlidagi gulxanni uch marta aylantirib Yor-yor aytilayotgan paytda, kuyov ikki jo'rasi bilan tomga chiqib turgan. Bunday irimning asosida erkak kishisining obro'si, mavqesi hamma vaqt oilada baland bo'lsin degan ma'noni anglatadi [2], – degan ma'lumotni keltiradi. Bu odat turkiy xalqlarning ko'pchiligida mavjud. Ishda vohaga xos bo'lgan bir necha yor-yorlar tahlil qilingan. Masalan:

Kuyov yigit ta'rifin qilay bayon, yor-yor,
Yigitlarning ichida Sohibqiron, yor-yor[2.]

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani aholisi odatiga ko'ra, nikoh to'yi kuni kelin o'zining uyida emas, balki biron yaqin qarindoshi yoki qo'ni-qo'shnisidida bo'lish odati mavjud. Bu odat “qiz berkinar” deb nomlanib, nikoh to'yi tizimiga mansub qadimiy udumlardan biri sifatida ramziy ma'no kasb etadi. Kuyovjo'ralardan ikki nafari qiz “berkingan” xonadonga borib, o'sha yerdan kelinni ajratib olib chiqishadi. Kelin parangi-chachvonga o'rangan holda, dugonalari qurshovida, Yor-yor sadolari bilan o'z xonadoniga kirib keladi. Bu Yor-yorlar chimildiqqacha davom etadi.

Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida Yor-yorlar nikoh to'yidan tashqari “beshik to'yi”, “xatna to'yi”ning xotin oshi va “motam marosimlari”da ham kuylanadi. Beshik to'yida Yor-yorning kuylanishi bir necha tadqiqotlarda qayd etilgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbek to'y marosimlarini tadqiq etgan olim O.Ismonova ijro o'rniga ko'ra Yor-yorning boshqa to'ylarda ham mavjudligini alohida qayd etadi: “Beshik to'yi”da qiz tomonning ota-onasi beshik yasatib, o'n-yigirma ayol bilan kuyov xonadoniga alla, Yor-yor aytib kirib keladilar. Marg'ilonlik axborotchi Adolatxon G'ulomovanning aytishicha, bu marosimda quyidagi Yor-yor ijro etiladi:

Hay-hay o'lan, jon o'lan, jonona qiz, yor-yor,
Go'dak tug'ib chorlagan polvon qizim, yor-yor,
Olloh bergan farzanding yo'ldosh bo'lsin, yor-yor,
Umidli xonadoningga boshliq bo'lsin, yor-yor[4.]

Tahlil va natijalar. Chunki ikki ma'noda anglaganda ham satrlar ma'no beradi. Ammo bu badiiy san'atning shakliy vazifasi, xolos. Aslida uning botinida asosiy vazifa yashirin. "Ko'z yumish" inson hayotining so'nggi nuqtasi degani. Lekin shoir "tug'ilmoq" so'zini qo'llashi bilan kitobxon fikrini butunlay boshqa yo'lga burib yuboradi. Qahramon har kun quyosh, yer bilan xayrlashar ekan, erta yana tug'ilishidan umidvor. Holbuki, u shu ko'z yumishdayoq qayta uyg'onmasligi mumkin. Kishini hayotga shukronalik bilan qarashga, har yangi kunni ochiq yuz bilan qarshilashga aynan shu so'nggi ikki misra o'rgatadi. Aynan ulug' umid bor Shoir "Davra" deb nomlangan yana bir she'rida tazod san'atidan juda mohirona foydalangan: Og'izlarda bulutday ko'pik, Yuzlari – oq, ichlari – qora. Qizig'i bu zotlar qaylarda, Kimlarnidir qilar idora. Bu she'rdagi qo'llanilgan tazod san'atini tahlil qilishdan oldin, birinchi misrada qo'llanilgan tashbeh san'ati orqali ifodalangan kinoyaga diqqatni qaratish maqsadga muvofiq bo'lardi. Shoirning "Og'izlarda bulutday ko'pik" o'xshatishi orqali lirik qahramonlarning naqadar jirkanch kimsalar ekanligi istehzo orqali darrov anglashiladi. Odatda, og'iz ko'pirishi hayvonlarga xos xususiyat. Savol tug'iladi: inson og'zi qachon ko'piradi? Birinchidan, inson haddan tashqari bo'kib ichganda. Ikkinchidan, ko'p gapiradigan odamning og'zi ko'piradi va bu nodonlik belgisi, ilmsizlik alomati. Uchinchidan, xalqimizda "og'iz ko'pirtirib gapiradi" iborasi ko'p uchraydi. Bu ham maqtanish, ko'p gapirish kabi salbiy xislatlardan darak beradigan ibora. Xulosa qiladigan bo'lsak, davradagilar ichib olgan va shu shirakayflik zavqi bilan hadeb yolg'on gapirib, og'iz ko'pirtirishayotgan edi. Shoir bejizma bunday o'xshatishni keltirmaydi. Balki, oxirgi misrada ta'kidlangandek, yuqori amallarda turgan kimsalarning barcha so'zlari qanchalar chin-u yolg'onligini ko'rsatib beradi. Aynan bu fikr isbotini esa ikkinchi misradagi ta'zod san'ati orqali ochib beradi: "Yuzlari – oq, ichlari – qora". Mudom Vatan taqdiri, tarixi va kelajagi bilan kuyib-yongan shoirning yuqoridagi she'ri yana mustamlakachilik yillari haqida so'zlaganidan darrov voqif bo'lamiz. Insonning rangi uning fe'l-atvorini, aqlini belgilamasligi esa tazod san'ati orqali juda chiroyli asoslab berilgan. Shavkat Rahmon she'rlaridagi tashbehlar, ayniqsa, o'ziga xos xususiyatga ega. Bu tashbehlar kitobxondan o'ta sinchkovlikni, ziyraklikni talab etadi. Buni bir qarashda shunchaki o'xshagan va o'xshatilgan narsa deb ham qabul qilish mumkin. Ammo teran nigoj bilan shuni anglash mumkinki, har bir qo'llangan tashbeh asosli va ayni chog'da o'ta tabiiy. 233 Tun chirqirab o'sar yobonda, O'sganiday bir tup gulxayri. Tunning "o'sishi"ga nisbatan bir oz e'tiroz tug'ilishi mumkin. Lekin xuddi shu holat kuzatilsa, bu e'tiroz o'z-o'zidan bartaraf bo'ladi. Negaki, kun botishi arafasida qorong'ulik, avvalo,

pastdan boshlanadi va yuqoriga qarab quyuqlasha boradi. Bu holatni uyda tashvishlar yoxud boshqa sabablar bilan aniq kuzatish kenglikdagiga nisbatan mushkul. Bundan tashqari daraxt yoki o'simlikning o'sish makoni ham yobondir. Shu sabab ham shoir yobonni tanlaydi. U yerda tunning "gurkirab o'sishi" juda aniq kuzatiladi. Xuddi shu o'xshatish beyosita gulxayrining o'sishiga o'xshatiladi. Bu to'rtlikning keyingi ikki misrasida esa husni ta'lil san'atining chiroyli namunasini ko'rish mumkin: Boshlanadi singan suvlarda, Yalangayoq oylarning sayri. "Husni ta'lil" arabcha "chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi. Shoirning yuqoridagi misrasiga diqqatni qaratadigan bo'lsak, oyning yer atrofida aylanishi, astronomiyadan yaxshi bilimziki, tabiiy hodisadir. Suvga yorug'lik tushishi natijasida suvning sinishi ham fizikaviy qonun sanaladi. Shoir esa bu kabi tabiiy hodisalarni yalangayoq oylarning sayri deya izohlaydi. Bu o'xshatishlar ham juda chiroyli dalillangan va ayni chog'da asosli ham. Oyning aksi suvga tushadi, shu sabab ham shoir bejiz singan suvlarga murojaat qilmaydi. Demak, shoir bo'lish, she'r yozish, faqat jimjimador so'zlarni qo'llash degani emas. Ularning asosi, mohiyati qayerga borib taqalishini ilm ko'zi bilan ko'ra olish ham kerak. She'r qachon hayot hodisalari bilan hamnafas yaratilsa, o'shanda o'quvchi qalbini tezroq va osonroq zabt eta oladi. Bundan tashqari, Shavkat Rahmon she'riyatida tajohuli orif san'atining ham ajoyib namunalarini ko'rish mumkin. "Tajohuli orif – bilib-bilmaslikka olish" ma'nosini ifodalovchi she'riy san'at. Shoirning baytda aks ettirayotgan biror obrazli iborani aniq aytmasdan o'zini bilib bilmaslikka olgandek ko'rsatishini nazarda tutadi. Shavkat Rahmon ijtimoiy hayotda inson yetuk ongli mavjudotligini, uning ehtiyoji cheksiz ekanligini ta'kidlar ekan, shu bilan birga tuban insonlar ham borligini unutmaydi. Shoir muhit, davr adolatsizliklari natijasida inson yuragida tug'ilgan alamli iztiroblarni ro'y-rost ko'rsatadi. Bunday yurak iztiroblarini esa shoir istiora vositasida juda maromiga yetkazgan. "Istiora" – arabcha so'z bo'lib "biror narsani omonatga (vaqtincha) olmoq" degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uning haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. Ko'pincha, ikki ma'no o'zaro o'xshashligiga asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbeh san'atiga yaqin turadi. Istiora aksar hollarda tashbihi kinoyaga, ya'ni mushabbihi tushirilgan tashbehga teng keladi: To'lib ketdi qarg'aga osmon Hatto arang ko'rinadi kun Qarg'alarni, Go'yo qag'illab, Uchib yurar parchalangan tun. Tun – bu tutqunlik, o'z erki, ozodligidan mahrum bo'lgan xalq, millat fojiasi. Bunday holatni shoir fe'lidagi o'jarlik, mardlik, jo'mardlik ko'tara olmaydi. Shoir yolg'onni, mansabparastlikni, munofiqlikni, adolatsizlikni yoqtirmaydi. U metaforik obraz yordamida tuzumdagi qusurlarni – boshqalar ko'ra olmagan, ko'rmagan, balki ko'rishni xohlamagan nuqsonlarni oshkor etadi. Shavkat Rahmonning voqelikka, olingan masalaga haqiqat va adolat ko'zi bilan qarash, uning xalqning qismati, qaramlik fojiasiga befarq emasligi, xalq manfaati yo'lida har qanday kurashga tayyor ekanligi har bir yaratgan obrazida sezilib turadi.

Xulosa va Takliflar. Shoir she'riyatining umumlashtiruvchi kuchi, falsafiy chuqurligini oshirishda metafora, epitet va istioralarga asoslangan obrazlar muhim rol o'ynaydi. N.Mirzayeva "XX asr she'riyatida metaforik obraz muammosi" avtoreferatida buni shunday asoslaydi. "Shu jihatdan dissertatsiyada shoirning asarlari Xurshid Davron, Muhammad Yusuf she'rlari bilan qiyoslanadi va 70- 80-yillar o'zbek she'riyatida hech kim Shavkat Rahmonchalik metaforik obrazdan "ko'p va xo'p" foydalanilmagan degan xulosaga kelinadi".

ADABIYOTLAR

1. Shirinova A. Shavkat Rahmon she'r va shoirlik haqida // "Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim" jurnali, 2021-yil 20-may. №3-son. – B.120-124.
2. Shavkat Rahmon. Uyg'oq tog'lar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1986. – B. 47. 2. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq NMK, 1997. – 384 b.
3. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.



Sevara BEKMURODOVA,
Teacher of Shakhrisabz state pedagogical institute
E-mail: dalerxonov@gmail.com

Reviewed by: U. Mahmudova PhD, Associate professor of Karshi State University

SIMILARITY FACTORS OF RAILWAY TERMINOLOGY OF UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

The transport system is one of the developing spheres in Uzbekistan. The lexicological property of railway system is enriching, which requires to do a linguistic analysis on certain ways. This paper find out what reasons builds up similarity between the railway terms in Uzbek and English languages. The comparative-etymological method is used to properly accomplish the task. The taken terminology elements are common terms used in both uzbek and english railway system.

Key words: translation, loan words, railway, terminology, International Standards.

ФАКТОРЫ СХОДСТВА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Транспортная система является одной из развивающихся сфер Узбекистана. Лексикологические свойства железнодорожной системы обогащаются, что требует проведения лингвистического анализа по определенным направлениям. В данной статье выясняется, по каким причинам возникает сходство железнодорожных терминов в узбекском и английском языках. Для правильного решения задачи используется сравнительно-этимологический метод. Взятые элементы терминологии представляют собой общепринятые термины, используемые как в узбекской, так и в английской железнодорожной системе.

Ключевые слова: перевод, заимствованные слова, железная дорога, терминология, международные стандарты.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI TEMIRYO‘L TERMINOLOGIYASINING O‘XSHASHLIK OMILLARI

Annotatsiya

Transport tizimi O‘zbekistonda rivojlanayotgan sohalardan biridir. Temiryo‘l tizimining leksikologik xususiyati boyib bormoqda, bu esa ma‘lum yo‘llar bo‘yicha lingvistik tahlil qilishni taqozo etadi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi temiryo‘l atamaları o‘rtasidagi o‘xshashlik qanday sabablarga ko‘ra yuzaga kelishini o‘rganadi. Vazifani to‘g‘ri bajarish uchun qiyosiy-etimologik usul qo‘llaniladi. Qabul qilingan terminologiya elementlari ham o‘zbek, ham ingliz temiryo‘l tizimida qo‘llaniladigan umumiy atamalardir.

Kalit so‘zlar: tarjima, o‘zlashgan so‘zlari, temiryo‘l, terminologiya, xalqaro standartlar.

Introduction. The development and expansion of railway networks have played a pivotal role in shaping the infrastructure and connectivity of nations worldwide. As railway systems continue to evolve and integrate within the global landscape, the importance of standardized terminology becomes increasingly crucial for effective communication, safety, and operational efficiency. The terminology used in the railway domain encompasses a diverse range of technical terms, from equipment and infrastructure to operational procedures and safety protocols. While English has often served as the lingua franca in international railway communications, many countries maintain their unique linguistic heritage within this technical domain. Uzbek, as an example, represents a language with a rich cultural and historical background[13], where the development of railway terminology has been influenced by both indigenous factors and external linguistic borrowings. This research paper aims to explore the cross-linguistic comparison of railway terminology between Uzbek and English languages, focusing on analyzing the commonality factors and identifying the linguistic patterns and trends that contribute to the standardization or divergence of terms. By adopting comparative analysis, the study seeks to enhance our understanding of the interplay between language, culture, and

technical specialization in the realm of railway terminology, offering insights that could inform future efforts in terminology harmonization and linguistic diversity management within the global railway industry.

Literature review. In this qualitative research conducted, research papers, scientific books, theses are widely studied and compared. The works of Abduvakhob Madvaliyev are the foundation for doing research in terminology problems in uzbek sphere. Furthermore, the data from the completed researches of D.Mirsagatova, Z.Allayorova, J.Bekmurodov, Yurdakul Ayşe and Eckehard Schnieder have been analyzed deeply to reach the results.

Research Methodology. This study employs a qualitative research design to conduct an in-depth exploration of the cross-linguistic comparison of railway terminology between Uzbek and English languages. Qualitative methods allow for the detailed analysis of linguistic patterns, cultural influences, and commonality factors in railway terminology.

Cultural and Historical Contextualization.

Investigating the historical and cultural factors that have influenced the development and adaptation of railway terminology in Uzbek and English languages through literature review and expert insights.

Commonality Factors Identification:

Conceptual Alignment: Identifying common concepts and thematic areas where Uzbek and English railway terminology converge or diverge.

Standardization and Harmonization: Assess the extent to which railway terminology in Uzbek and English languages adheres to international railway communication standards and practices[3].

Analysis and results. The examination of railway terminology in Uzbek and English languages reveals both commonality factors and divergent linguistic patterns, reflecting the interplay between cultural heritage, historical context, and technical specialization within the railway domain.

The historical and cultural backdrop significantly influences the development and adaptation of railway terminology in both languages. In Uzbek, the railway system's emergence in the late 19th century under the Russian Empire laid the foundation for linguistic borrowing from various sources, including Russian, as evidenced by terms like "Silindr" (cylinder) and "Lokomotiv" (locomotive). Additionally, indigenous linguistic elements and borrowings from neighboring languages contribute to the unique Uzbek

railway lexicon. Conversely, English railway terminology reflects a blend of indigenous terms and borrowings from Latin, Greek, and Old French, owing to historical interactions and technological advancements in Western Europe.

Vogue industry accounts the emergence of first railway happened in the 16 th century in the Europe. Meanwhile the world's first passenger railway was built in England on October 27, 1825. It connected the cities of Stockton and Darlington, and was originally supposed to carry coal from the mines to the port of Stockon. According to Sputnik news Uzbek railway system has 136-year history, in 1880 railway structure started to emerge under Russian empire, according to uzbek official railway site. Railway transport terminology as loan words appeared with the introduction of railway system in the country. In that era the reason for similarities of the different countries' railway word load was Shared European Influence, Both Russian and English railway systems have been influenced by developments in Western Europe, particularly in countries like Britain, France, and Germany. As a result, they share some common technical terms and practices(table 1).

Table 1.

Uzbek term	Russian Equivalent	English Equivalent	Origin Language	Definition/Description
Silindr	Цилиндр	cylinder	Greek/Old French/Greek (debated)	the surface traced by a straight line moving parallel to a fixed straight line and intersecting a fixed planar closed curve
Granit	Гранит	granite	Latin	a very hard natural igneous rock formation of visibly crystalline texture formed essentially of quartz and orthoclase or microcline and used especially for building and for monuments
Gidravlika	Гидравлика	hydraulics	Greek	a branch of science that deals with practical applications (such as the transmission of energy or the effects of flow) of liquid (such as water) in motion
Inertsia	Инерция	inertia	New Latin	a property of matter by which it remains at rest or in uniform motion in the same straight line unless acted upon by some external force
Lokomotiv	Локомотив	locomotive	Latin	a self-propelled vehicle that runs on rails and is used for moving railroad cars
Telegraf	Телеграф	telegraph	Greek	an apparatus for communication at a distance by coded signals

Loanwords and Borrowings. Loanwords, also known as borrowings, are words borrowed from one language and incorporated into another. This borrowing process typically occurs due to cultural contact, trade, colonization, or technological advancements. Loanwords can enrich a language by providing new vocabulary to express concepts that may not exist or are not commonly used in the borrowing language. Classifications of loanwords are based on various factors, including the direction of borrowing, the degree of

adaptation, and the semantic field. Here are some common classifications:

Both languages may borrow terms from each other or from a common source, especially in areas where there has been significant exchange or collaboration. For instance, Uzbek might borrow terms from English if there's a specific technological innovation or concept originating from English speaking countries(table 2).

A table in the methodology section to showcase borrowing words related to railway terminology:

Table 2: Borrowing Words in Railway Terminology between Uzbek and English

Uzbek Term	English Equivalent	Origin Language	Definition/Description
Elektr	Electric	English	Electric locomotive
Stansiya	Station	English	Railway station
Vagon	Wagon	English	Railway carriage or wagon
Signalizatsiya	Signalization	English	Railway signaling system
Passajir	Passenger	French	Railway passenger

Conclusion. The cross-linguistic examination of railway terminology between Uzbek and English languages has revealed several intriguing insights into the linguistic and cultural factors influencing the domain-specific vocabulary in both languages. This discussion synthesizes the findings of the comparative analysis and investigates the implications of the observed commonalities and divergences.

Firstly, the prevalence of loanwords and loan translations in both Uzbek and English railway terminology underscores the interconnectedness of languages in a globalized world. Both languages have incorporated terms from other linguistic sources, reflecting historical interactions, technological advancements, and cultural exchanges. For instance, words like "train" in English and "poyezd" in Uzbek, though phonetically distinct, share a common semantic origin,

illustrating how languages adapt and evolve through contact with other linguistic systems.

However, despite the observable parallels, notable disparities exist in the lexical composition and morphological features of railway terminology between Uzbek and English. These variations can be attributed to linguistic typology, cultural specificities, and historical developments unique to each language. For instance, while English exhibits a preference for compound nouns (e.g., "railway track"), Uzbek tends to employ descriptive phrases or nominalizations (e.g., "temiryo'l yo'li"), reflecting distinct lexicalization patterns and word-formation strategies.

Moreover, the analysis identified instances of terminological gaps and semantic mismatches between Uzbek and English railway terminology, particularly in specialized domains such as signaling and infrastructure. Such

discrepancies underscore the challenges inherent in cross-linguistic communication and highlight the importance of terminological standardization and harmonization efforts within international railway networks. Addressing these disparities requires collaborative initiatives involving

linguistic experts, domain specialists, and policymakers to develop comprehensive terminological frameworks that accommodate linguistic diversity while ensuring clarity, accuracy, and interoperability.

REFERENCES

1. Allayarova, Boymuratovna Zebiniso. "Conceptual basis of linguistic value in agricultural terms." *International journal on integrated education*, vol. 3, no. 12, 2020, pp. 476-480, doi:10.31149/ijie.v3i12.1064.
2. Azimova, Aziza. "Konchilik terminlarining yasalish usullari." *International journal of recently scientific researcher's theory* 1.6 (2023): 227-232.
3. Bekmuradov, Jakhongir, "Linguistic challenges in the standardization of uzbek language terms" (developing new terms to reflect emerging technologies and concepts), vol. 34 (2023): *Gospodarka i innovacje*
4. Bucknall, rixon, *our railway history*, 1970, london, [england] : Allen & unwin, 234 pages
5. D. Mirsagatova. A description of methods for analyzing railroad terminology as a linguistic component for particular objectives (on the material of english language) // *sai*. 2023. №b2.
6. Dobson, George, *russias railway advance into central asia*, 1890, london, h. Allen & co., y, Waterljo pmce and at Calcutta, 439 pages
7. Kubanova, Ilmira Sharifovna. (2024). The development of railway transport terminology observed in both english and uzbek languages. *Open herald: Periodical of methodical research*, 2(3), 108–111.
8. Rustamova, Dilrabokhon, Odilboyeva, Umida, Linguistic factors of formation of terms, *central asian journal of literature, philosophy and culture*, volume 4 issue, 2023, p 82.
9. Sultanova, Shahnoza. "Tilshunoslikda lingvistik terminlarning qiyosiy tahlili." *O'zbekiston milliy universiteti xabarlari*, 2022, [1/3 issn 2181-7324.]
10. Yurdakul, Ayşe, and Eckehard Schnieder. "Standardization of english navigation terminology in railway traffic domain." *Journal of civil engineering and architecture* 9 (2015): 57-63.
11. Ortiqova Gulmira G'anisher Qizi 2024. Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan bir qancha neologizmlar tahlili. *Journal of Universal Science Research*. 2, 1 (Jan. 2024), 379–386.
12. <https://archive.org/details/centurydictipt100whituoft>
13. <https://archive.org/details/centurydictipt100whituoft/page/n3/mode/2up>
14. <https://oz.sputniknews.uz/20230806/ozbekiston-temir-yollari-hayratlanarli-faktlar-37631301.html>
15. <https://uic.org/>
16. <https://www.etymonline.com/>



Sevara **BERDIMURATOVA**,
Termiz davlat universiteti magistranti
E-mail: gavhar.salomova@mail.ru

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD Sh.Kayumova taqrizi asosida

ASPECTS OF STUDYING THE LEXICAL AND GRAMMATICAL TRANSFORMATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES

Annotation

The paper deals with the study of lexico-grammatical transformations in the translation of literary text from English. Despite the large number of works covering this issue, the problem of translating literary texts is not dismissed. There is a need to systematize and study the types of lexical and grammatical transformations, used in translating literary texts, in practice. To solve the tasks in this paper, the following methods were used: comparative analysis of the comparison of the translation text with the text of the original work, transformational, quantitative, statistical analyses.

Keywords: translation, translation transformation, adequate translation, lexical additions, permutations, grammatical substitutions, narrowing, generalization, compensation.

АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ПЕРЕВОДЧЕСТВЕ

Аннотация

Статья посвящена исследованию лексико-грамматических трансформаций при переводе художественного текста с английского на язык. Несмотря на большое количество работ, посвященных этой проблеме, проблема перевода художественных текстов не остается без внимания. Возникает необходимость систематизировать и изучить на практике виды лексических и грамматических преобразований, используемых при переводе художественных текстов. Для решения задач данной работы были использованы следующие методы: сопоставительный анализ сравнения текста перевода с текстом оригинального произведения, трансформационный, количественный, статистический анализы.

Ключевые слова: перевод, переводческая трансформация, адекватный перевод, лексические дополнения, перестановки, грамматические замены, сужение, обобщение, компенсация.

ZAMONAVIY TARJIMADA LEKSIK-GRAMMATIK TRANSFORMASIYANI O‘RGANISH ASPEKTLARI

Annotation

Maqola adabiy matnni ingliz tilidan tarjima qilishda leksik va grammatik o‘zgarishlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu muammoga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar bo‘lishiga qaramay, badiiy matnlarni tarjima qilish muammosi e‘tibordan chetda qolmaydi. Badiiy matnlarni tarjima qilishda qo‘llaniladigan leksik va grammatik o‘zgarishlar turlarini tizimlashtirish va amaliyotda o‘rganish zarurati tug‘iladi. Ushbu ishning muammolarini hal qilish uchun quyidagi usullardan foydalanildi: tarjima matnini asl asar matni bilan taqqoslashning qiyosiy tahlili, transformatsion, miqdoriy, statistik tahlillar.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjima transformatsiyasi, adekvat tarjima, leksik qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar, grammatik almashtirishlar, toraytirish, umumlashtirish, kompensatsiya.

Introduction. The term “transformation” in translation studies is used to show the relationship between the source and target language expressions, the substitution in the process of translation of one form of expression by another, a substitution that we figuratively call conversion or transformation. Thus, the operations described below (translation transformations) are essentially inter-lingual operations of meaning “re-expression”. The main purpose of the translation is to achieve adequacy.

The main task of an interpreter at achieving adequacy is to skillfully produce various translation transformations so that the text of the translation as accurately as possible conveys all the information contained in the original text while observing the appropriate norms of the target language. It is supposed that the results of this study will serve to solve the following problems in the field of translation studies:

1. Reveal the features of literary translation, as well as the peculiarities of using transformations in li translation;
2. Reveal the translation transformations in the source text of the chosen work;
3. Determine the practical expediency of using these transformations in the translation of the chosen work;

4. Carry out quantitative and statistical analysis of the translation transformations in the considered extracts taken from the work;

5. Reveal inadequacies and mistakes of the translator and give our own translation. The practical value of this work lies in the possibility of further use of the material for studying translation transformations in the course of theory and practice of translation.

Literature review. Aldous Huxley is one of the recognized masters of the so-called “intellectual novel”, which became widespread in the 20th century. Huxley himself called his works to be “the novels of ideas”. The confrontations of completely opposite viewpoints and paradoxical systems of thought engenders an unexpected satirical effect in his works. “Eyeless in Gaza” is a novel written by Huxley in 1936, which became one of the main creative performance of the writer. The work by A. Huxley has been translated into Russian by M.Lovin. We have chosen the novel by A. Huxley “Eyeless in Gaza” as an object of study. The actual research material is presented on the basis of the following principles:

case study of the work; existence of the translation that has entered into “gold reserves” of foreign literature (the

author of the translation — M.Lovin); conceptual in tense ness of the text snippets, chosen to analyze transformations. Their high position in semantic structure of the work. Since the scope of this work does not allow of full comprehending of the text case of examples, in most cases there are the combinations of utterances of the source text and transformation and classification (Komissarov,2002; Barkhudarov,1975; Latyshev,1981; Toury,1995, Harris,1970; Esin et al, 2016; Khabibullina,2015; Bessonova,2011). The theoretical basis for this study was the classification of translation transformations given by V.N. Komissarov, L.S.Barkhudarov. L.S. Barkhudarov notes that, first of all, the highest possible level of translation equivalence of the text should be achieved (Barkhudarov,1975). V.N.Komissarov considers the translation transformations to be “transformational change by means of which it is possible to make a transition from the original units to the translation units” (Komissarov, 2002). The translational transformations, in his opinion, have a formal and semantic character, transforming both the form and the meaning of the source units. The adequacy of the translation is always connected with the skills of a competent statement of the translation problem and the ability to make the necessary transformational translation. The main objective of this study is to comprehensively study the translation, but the analysis was carried out with consideration of the integral context of the literary translation. The following methods were used in the work: comparative analysis of contrasting the translation text with the text of the original work, transformational, quantitative, statistical analyses.

Research Methodology. To conduct a quantitative analysis, we have chosen the key “textemes” of the novel: 1. Scene on the roof of a Mediterranean villa 2. Anthony’s attempt to generalize his understanding of the modern world and the concept of personality. 3. An episode in the London Library after a painful face-to-face meeting with Brian’s bride; 4. Miller’s sermon in Mexico. Huxley entrusted him with expressing the ideas that would eventually become the key for his understanding the world. Rendering from one language into another requires the use of various transformations. All kinds of transformations (explication, lexical additions, permutations, grammatical replacement, sentence fragmentation and integration, semantic development, narrowing, generalization, compensation, etc.) are used in translating fictional literature, however, the choice of these or those methods directly depends on the chosen by a translator strategy or model of translation.

Transliteration and transcription are the most frequently used methods of transformation when translating proper names. When translating, M.Lovin transcribed not only from the basic, source language of the work (English), but also from other languages - for example from the French language: Chaise-longue (p. 1) From the German language: “Grindelwald, 1912” (p. 7), 1912” (p. 14). From the Dutch language: Van der Weyden’s holy women (p.16). The methods of translation of the names of different teachings and their followers combine both transliteration with transcription and historically developed forms of translation. The original text of the novel comprises interesting examples of the transliteration of name from Russian into English, which the translator translated back. This phenomenon can be called “reverse transliteration”. What a lot of satisfaction I got out of old Pavlov when first I read him (p. 67)

Calquing is a rather rare phenomenon in literary translation, and, what’s the main – it is the most difficult transformation encoded when conducting translation analysis of the text: Simplya French funeral of the first class(p. 2) – Concretization and generalization are, perhaps, the most common methods of translation.

This is primarily due to the fact that the semantic field of meanings in different languages does not always coincide: the translator specified the word earth, thus disclosing its second dictionary meaning: earth-red (p.15) -clay-red (p. 21). There are methods of concretization aimed at disclosing of the context of the original. This kind of concretization is close to addition, with the only difference that the clarifying unit substitutes for the unit of the original language. This form of concretization is presented in the following example: As we were riding to see one of his Indian patients in the mountains (p. 11)

–In the following example, we observe a method of generalization, close to omission. Here the translator replaced the name of G. Flaubert’s novel with a general abstract notion: In to shape, of course.

Analysis and results. As a rule, the units of translation that undergo complex lexico-grammatical transformation, preserve proper substantiation of the lexicon between the target language and the source language. Such transformations include set expressions, which, however, cannot be attributed to compensation. In the text one can find also the examples that are close to pure grammatical substitutions and even zero translation, however, as in previous cases, their translation is restricted to lexical combinations that are relevant in this context: Not working? (p.4) –Anti-aphrodisiac (p. 2). In general, lexico-grammatical replacement is one of the most frequently used methods One of the most complex methods of translation, requiring profound knowledge of both the source language and (and even to a greater extent) the target language is metaphorical transformation.

It can be conditionally divided into three constituent parts: remetaphorization, metaphorization and demetaphorization. Quite a frequent phenomenon is the so-called “zero remetaphorization”- when the metaphor is rendered by a zero translation, and its meaning coincide either partially or completely in the source language and the target language: And Mary, how mad deningly desirable even in a carapace, even beneath funereal plumes! (p. 2) Demetaphorization was carried out, as a rule, by means of descriptive construction, or corresponding set expression: Flame coloured beach pyjamas (p. 3). M. Lovin,when translating,also has to turn to substitutions for parts of speech. Substitution for parts of speech is the necessary step when translating. It often happens that the parts of the speech of the units to be translated of the source language and the target language do not coincide. In the text of the novel there are the following types of substitutions for parts of speech, applied by the translator: - substitution of verbal noun for verb; - substitution of adjective for noun; - substitution of adjective for a phrase “preposition + noun” and vice versa: - substitution of adverbial turn “preposition + noun” for adverb; - substitution of nominal predicate for verbal and vice versa; - substitution of indefinite form of the verb for for noun; - substitution of noun for verb. For example, The Bolinskys had given a party without inviting him (p. 10). –Hideously hot! (p.4) – Отвратительная жара! (p. 10); The dramas of memory (p. 2). Without serious nervousness (p. 135).

Thus, grammatical replacement is an important tool of an interpreter, considering the difference between the typology of the source language and the target language, and also because many members of the sentence (subject, predicate, complement) are often translated via different syntactic constructions. When translating realities, the interpreter often refers to the method such as compensation (Nasibullova,2016). Also this way of translation is used to render lexically unmotivated equivalents of set expressions: 'Come!' he protested (p 5) - Transposition is a frequent way of

translation, requiring the interpreter to have a good knowledge of the language into which he translates.

Otherwise, the translated text risks to be communicatively and syntactically unnatural. In Russian quite often –as distinct from English, - the correlation between utterances and even sentences is indicated by means of conjunctions and connective words. In the English language, the composition of complex sentences is the only way to express the relation of one utterance to another if there is a threat of distortion of a meaning: The May night was still and warm; in less than six weeks they would be sitting for their scholar ship examinations, Brian and Anthony at Eton, Mark Staithes at Rugby (p. 164). Sometimes sentence fragmentation is the result of a complex transformation of the participial phrase: Looking at her flushed, averted face, Brian was filled with compassion a tenderness (p. 171)

Conclusions. Summing up, one can draw the following conclusions:

When translating of the work under consideration, the translator used all known translation transformations;

According to usage, all translation transformation can be tentatively divided into three groups:

Those that are not practically used (calquing);

Those that are rarely used (transcription, transliteration, sentence integration and fragmentation);

Those that are in high usage (complex lexicogrammatical substitution, concretization, omission);

Frequency analysis of the four extracts from the work shows that complex lexicogrammatical transformations was used mostly often by the translator— 73%, among lexical transformations, concretization is the most frequent of such transformations (19% out of 27%);

REFERENCES

1. Barkhudarov .1975. L.S. Language and Translation. (Issues on General and Concrete Theory of Translation). –M.: International Relations, 240 p.
2. Bessonova A.N. 2011. Complex Lexico-Grammatical Transformations as a Way to Solve General Linguistic Problems of Translation// Nauka and Sovremennost. № 13-3. – P. 18-21.
3. Esin O., Gorobets E., Nikolaeva N. 2016. Pain questionnaires: Linguistic aspects of translation into Russian language// Journal of Language and Literature. P. 231- 234 Harris Z. 1970. Papers in Structural and Transformational Linguistics. Dordrecht, P. 559- 560.
4. Huxley A. 2004. Eyeless In Gaza. – London: Vintage Books, 504 p.
5. Komissarov V. N. 2002. Contemporary Translation Studies. – M.: «ETS» Publishing House, 406 p.
6. Khabibullina E.K., Yusupova A.S. 2015. Lexical transformations in the translations of the modern Tatar literature into the Turkish language// Journal of Sustainable Development. P. 164-168.



UDK:811.512.133'34(091)

Nargiza G'ULOMOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulomovamoi@mail.ru

F.f.d., dots. M.Abjalova taqrizi ostida

ОТБОР ГАЗАЛЕЙ КОЛЛЕКЦИИ «ХАЗАЙИН УЛ-МААНИ» ДЛЯ ВЛАСТНОГО КОРПУСА АЛИШЕРА НАВАИ Аннотация

Статья посвящена важным вопросам развития в области компьютерной лингвистики. Освещаются инновационные исследования по изучению научного и творческого наследия Алишера Навои, в частности, некоторые размышления о создании авторского корпуса Алишера Навои на основе книги “Хазойин ул-маони”. Сближение Алишера Навои с народом, превращение его бесценного духовного наследия в достояние души будущих поколений - чрезвычайно сложный научный процесс. В век цифровых технологий грамматическая и семантическая маркировка лингвистических особенностей аннотированных лексических единиц в Навоийских газелях, доступность и читабельность произведений Навои для широкой публики, а также расширение их аудитории в глобальной сети.

Ключевые слова: авторский корпус, газель, диван, семантический тег, частота, статистический анализ, частота, статистический анализ.

SELECTION OF GHAZALS OF "HAZAYIN UL-MAANI" COLLECTION FOR ALISHER NAVAI AUTHORITY CORPUS

Annotation

The article is devoted to important issues related to the development of the field of computer linguistics. Some comments about the creation of Alisher Navoi's authorship corpus based on the "Khazayin ul-maoni" kulliyat, which are being carried out in the research of the scientific and creative heritage of Alisher Navoi, are highlighted. Bringing Alisher Navoi closer to the people, turning his priceless spiritual heritage into the mental property of the future generation is a very complex scientific process. In the age of digital technologies, the linguistic features of the explanatory lexical units in Navoi's ghazals are presented in the corpus by grammatical and semantic tagging.

Key words: author's corpus, ghazal, divan, semantic tag, frequency, statistical analysis.

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI UCHUN "HAZOYIN UL-MAONIY" KULLIYOTI G'AZALLARINING TANLANISHI

Annotatsiya

Maqola kompyuter lingvistikasi sohasini rivojlantirish borasidagi muhim masalalarga bag'ishlangan. Alisher Navoiyning ilmiy va ijodiy merosini o'rganish borasida olib borilayotgan innovatsion tadqiqotlar, xususan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti asosida Alisher Navoiy mualliflik korpusining yaratilishi haqida ba'zi mulohazalar yoritilgan. Alisher Navoiyning xalqqa yaqinlashtirish, uning bebaho ma'naviy merosini kelajak avlod ko'ngil mulkiga aylantirish o'ta murakkab ilmiy jarayon hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asrida Navoiy g'azallaridagi izohtalab leksik birliklarning lingvistik xususiyatlarini grammatik va semantik teglab korpusda taqdim etilishi, Navoiy asarlarining keng ommaga tushunarli va o'qishli bo'lishi, global tarmoqdagi auditoriyasining ham kengayishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: mualliflik korpusi, g'azal, devon, semantik teg, chastota, statistik tahlil.

Kirish. Jahon tamaddunida barcha yo'nalishlar singari tilshunoslik sohasida ham kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni topish, saqlash, qayta ishlash, tahrirlash va keng ommaga yetkazishning qulay usullarini yaratishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bu esa kompyuter texnologiyalari sohasi uchun ulkan vazifani vujudga keltirdi. Ayni damda matnli ma'lumotlarga zarar yetkazmay kompyuter xotirasiga kiritish, ishonchli saqlash, qulay va hammabop tarzda foydalanuvchiga yetkazib berish korpus lingvistikasi sohasi bilan bevosita bog'liqdir [1]. Alisher Navoiy MKdan XV asr bilan hozirgi zamon tilidagi yangilanish va bugungi ijtimoiy hayotda ba'zi so'zlarning iste'moldan chiqishi, faollashish va passivlashish holatlarini bilib oladi, Navoiy ijodidagi muayyan so'z qo'llanish bo'yicha statistika va uning chastotasini, g'azallarda qo'llangan she'riy san'atlarni tezkor, aniq va to'liq bilib oladi. Mualliflik korpusidagi semantik tahlillarning ishonchli ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi korpusning ishonchligini kafolatlaydi, korpusda lingvistik hodisalarning butun spektri to'liq aks ettirilganligi –

zaruriy ma'lumotlarni har tomonlama va obyektiv o'rganishga imkon beradi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Badoyi’ ul-bidoya” (“Badiylikning boshlanishi”) devoni Husayn Boyqaroning taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig’i bilan Navoiyning o’zi tartiblagan ilk devon hisoblanadi. Shoir bu devonning debochasida devon tartib berish masalalariga to’xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko’rsatib o’tadi: “Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o’ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi’durur va ulus kitobatida shoyi’, to’rt harfg’a taaruz qilmaydururlar. Chun so’z arusi nazm haririning matbu’ kisvatin va mavzun xil’atin kiyib, jilva og’oz qilsa, huqqayi yoquti dog’i o’ttuz ikkita gavhardin qachonkim to’rtig’a nuqson voqi’ bo’lsa, muqarrardurkim, jamolig’a andin qusur va kalomig’a andin futur voqi’ bo’lg’usidurur [3]. Alisher Navoiy bu o’rinda devonni g’azallar bilan boshlash, ularni 28 ta harf emas, balki 32 harf (پ – chim, ج – je, جوف – gof va ل و م – lom-alifni ham qo’shgan holda) bilan tugallash zarurligini aytdi [4]. Mazkur ma'lumot 56 so'zdan iborat bo'lib, 36 tasi izohtalab, ya'ni

hozirgi zamonda iste'molda emas, ular semantik izohlanmasa, oddiy kitobxon ma'lumot mazmunini tushunolmaydi. Bundan Navoiyning hatto nasriy manbalaridagi izohtalab so'zlarni maxsus ID kodlar orqali identifikatsiyalash va ularning kontekstual tushunchasini semantik teglab mualliflik korpusi bazasiga kiritishning muhim ekanligi ayon bo'ladi. Navoiy kulliyotidagi devonlarni inson umrini majoziy to'rt faslga qiyoslab nomlagan bo'lsa-da, ular tarkibiga kiritilgan g'azallar mazmunan yosh davri bilan mutanosib emas. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar" da:

Yoshing ellik bo'ldi, yuz qo'yg'il fano tufrog'ig'a
Kim, shabob ayyomi aysh-u beadablig' chog'ib as.
"Navodir ush-shabob" da:

Ey Navoiy, huzn ila o'tkar qarilig' mehnatin,
Chun yigitlik bordi aysh-u ishrat ayyomi bila.

Yana:

Yoshim ellik bo'ldi yuz hasrat yesamkim sudi yo'q,
O'zni maydin hush tutay chun o'tti umrum xushrog'i.

"Favoyid ul-kibar" devonida esa umrning bahori – yoshlikni aks ettiruvchi g'azallar mavjud, ya'ni shoirning ta'biri bilan aytganda: "...yigitlik avoilida bayonim kilkidin namoyish devonig'a va oroyish bo'stonig'a kiribdurkim, ul navodir tamoshosidin yigitlik mulkida g'avgo solibmen va mulk yigitlari ko'nglidin orom va qarorni olibmen": [5].

Mast o'lub bir dam shabob ayyomini tut mug'tanam
Kim, yigitlik dam-badam o'tmakdadur ayyom aro.

Yoki:

Ishq ajab dard emish, dardqadur chora sabr,
Vahki, Navoiy base oshiq-u bechoradur.

Shubhasiz, "Xazoyin ul-maoniy" Navoiyning ulug' kashfiyotidir. Bu devon ulug' shoirning butun hayoti davomida yaratgan barcha 16 xil lirik janrga mansub bo'lgan deyarli barcha o'zbekcha she'rlarini o'z ichiga olgan [6]. Shoir ushbu kulliyotni hozirgi ko'rinishdagi mukammal holatda tartiblash uchun 6 yildan (1492-1498-yillar) ortiq vaqt sarflab, uning ichki tuzilishiga nihoyatda mustahkam tarzda tartib bergan va 16 turdagi lirik janrni 4 devonga mazmunan mutanosiblikda joylashtirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Navoiy devonlari uning boshqa asarlari kabi, adabiyot, san'at va ilm-fan ahllarining diqqat-e'tiborini tezda o'ziga jalb qildi, kitobxonlar orasida shuhrat qozondi. Navoiy yaratgan devonlarga bo'lgan qiziqishning ortib borishi natijasida XV asrning o'zidayoq Sulton Ali Mashhadiy, Abdujalil kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Muhammad bin Nur, Sulton Muhammad Xamdon kabi mashhur xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan. To'rt devondan iborat mazkur kulliyot qo'lyozmalari ko'chirish miqdori bo'yicha Navoiy asarlari ichida birinchi o'rinda turadi [7]. Qo'qon xoni Muhammad Alixon 1838-yili chiqargan farmonga binoan Muhammad Siddiq Tunqotar zimmasiga Alisher Navoiy "Chor devon"idan 300 nusxani xonlikning eng yaxshi xattotlari tomonidan ko'chirtirish vazifasi

1-jadval. "G'afur G'ulom" va "Tamaddun" nashriyotlari nashrlarida devonlardagi farqli ko'chirilgan so'zlar:


G'azal raqami	"G'afur G'ulom" nashriyotida chop etilgan	"Tamaddun" nashriyoti da chop etilgan
	"G'aroyib us-sig'ar"	"G'aroyib us-sig'ar"
29	Er tutar ko'nglumda gardundin judo bo'lg'an balo	Yor tutar ko'nglumda gardundin judo bo'lg'an balo
36	Bir sari qulog'ingda gavharmu ekin yoxud	Har sari qulog'ingda gavharmu ekin yoxud
36	Bir jonibida o'ning axtarmu ekin oyo?	Har jonibida o'ning axtarmu ekin oyo?
67	Go'yiga boshimni yozin yetkurub chavgonin o'p	Ko'yiga boshimni yozin yetkurub chavgonin o'p

Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi devonlarning har biriga 650 tadan g'azal joylashtirgan va ularni ham qofiyalanishiga ko'ra arab alifbosi, ham miqdori bo'yicha qat'iy tarzda tartiblagan: [14]. "alif" harfi bilan

yuklangan[8]. Yuzlab hattotlar bir vaqtning o'zida Navoiy asarlarini ko'chirishgan. Kotiblar Navoiyning ushbu muborak asarlarini ko'chirishni sharaf deb bilganlar va shu asar ta'sirida o'z kechinmalarini tushirar ekanlar, faxrlanganlar [9]. Navoiy devonlari asrdan asrga, kitobdan kitobga o'tib borishi bilan o'z tuzilishi, tartibi, hajmi, matni va boshqa jihatlari turli o'zgarishlarga uchraydi.

Tahlil va natijalar. Hamid Sulaymonov "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlarini XV-XVI asrlarda ko'chirilgan nodir nusxalar hamda Toshkent, Leningrad, Dushanbe, Boku, Parij, London va boshqa shaharlarning kutubxona va muzeylarida saqlanayotgan ko'p sonli qo'lyozmalarni qiyosiy o'rganib, "Xazoyin ul-maoniy"ning hozirgi matn ko'rinishini nashrga tayyorladi [10]. Uning asosida kulliyot keyinchalik bir necha nashriyotlarda chop etildi. 2013-yilda "G'afur G'ulom" nashriyoti tomonidan bosmadan chiqarilgan 10 jildli Alisher Navoiy to'la asarlar to'plamining 1-jildida kulliyotning ilk devoni "G'aroyib us-sig'ar" [11]. devoni 2011-yilda "Tamaddun" nashriyoti tomonidan chop etilgan nashridagi g'azallar bilan qiyosiy tahlil qilinganda aynan g'azallardagi ba'zi so'zlarning yozilishida farqlarni kuzatish mumkin. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kirgan 67-g'azalning 1-baytidagi "Go'yiga boshimni yozin yetkurub chavgonin o'p" misrasi bir devonda go'yida, ikkinchi devonda ko'yida so'zlari bilan boshlangan (1-jadval). Shu bilan birga, ushbu izohtalab so'zlarning ma'nosi izohli lug'atlarda turli ma'nolari ifodalab keladi. Shoir ushbu o'rinda qanday ma'nodagi so'zdan foydalanilganini bayt mazmunidan bilib olish mumkin bo'ladi. G'oyida [12]. – "chavgon" o'yinida o'rta qo'yib, ot ustida uchi egri uzun tayoq bilan o'ynaladigan kichkina yog'och to'p, ko'yida– ko'chasida, yo'lida ma'nolarini ifodalaydi. "Favoyid ul-kibar" devonidagi 8-g'azalning: "Chu derlar insonni mushtiq o'ldi nisyondin" deb boshlanuvchi to'rtinchi baytini bir devonda nisyon – esdan chiqarish, unutish, ikkinchi devonda isyon – itoatsizlik, bo'ysunmaslik, qo'zg'alon ma'nolarini anglatadi. G'azallardagi ayrim so'zlarning bu tarzda farqli ko'chirilganligi g'azal mazmunini to'g'ri tushinishga mone'lik qiladi, natijada shoir ko'zlagan maqsad oydinlashmay qoladi. G'azallarda yuzlab bunday farqli o'rinlarni kuzatish mumkin. "Mahbub ul-qulub" asarining "Kotiblar zikrida" deb nomlangan o'n yettinchi faslida Navoiy: "Xushnavis kotib so'zga oroyish berur va so'zlaguvchiga osoyish yetkarur" deb yozadi [13]. Ma'lumki, arab alifbosidagi harflarda nuqtalar ham muhim ahamiyatga ega: kotibning birgina diqqatsizligi so'zning asl ma'nosiga zarar yetkazishi haqida shoir: "Ulki, bejo nuqta bila "habib" (do'st)ni "habis" (yaramas) qilg'ay va "muhabbat"ni "mehnat" – aningdek habisi mehnatzadag'a yuz la'nat" deydi. Kotibning xatosi o'quvchini haqiqatdan chalg'itishi, xat mohiyatini yanglish tushinishga sabab bo'lishi, kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

This article discusses the classification and stages of development of phrases in the Uzbek literary language. The study of word combinations, their structure and their classification according to the representation of the governor component are covered. Types, expressions and stages of development of simple and complex word combinations are analyzed. Currently, the syntax of word combinations in Uzbek linguistics is formed on the basis of formal-functional analysis, as a result of the direction of system and substantial analysis. It is being studied in depth with the help of form, content and location factors. So, the classification of word combinations will be very effective if it is studied together with the further achievements of Uzbek linguistics.

Key words: Word combination, simple, complex, noun and verb combinations, classification, formal-functional, system-structural, substantial analysis methods, formal, substantive, locational factors, syntactic communication, types of relations, adaptation, management, negotiation methods.

КЛАССИФИКАЦИЯ СЛОВСОЧЕТАНИЙ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются классификация и этапы развития словосочетаний узбекского литературного языка. Освещается изучение словосочетаний, их структуры и их классификация по представленности главного компонента. Анализируются виды, выражения и этапы развития простых и сложных словосочетаний. В настоящее время синтаксис словосочетаний в узбекском языкознании формируется на основе. Основа формально-функционального анализа, в результате направленности системного и содержательного анализа, детально изучается с помощью факторов формы, содержания и местоположения. Итак, классификация словосочетаний будет весьма эффективной, если ее изучать вместе с дальнейшими достижениями узбекского языкознания.

Ключевые слова: словосочетание, простые, сложные, именные и глагольные сочетания, классификация, формально-функциональная, системно-структурная, методы, анализа, формальный, семантический, локационные факторы, синтаксическая связь, отношений, согласование, примыкание, управление, методы исследования.

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z BIRIKMALARI TASNIFI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilidagi so‘z birikmalarining tasnifi va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritiladi. So‘z birikmalarining o‘rganilishi, tuzilishi va hokim komponentining ifodalanishiga ko‘ra tasnifi yoritilgan. Sodda va murakkab so‘z birikmalarining turlari, ifodalanishi hamda taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Hozir o‘zbek tilshunosligida so‘z birikmalari sintaksisi formal-funksional tahlil asosida shakllangan usul bilan birga sistem va substansial tahlil yo‘nalishi natijasida shakli, mazmuni va joylashish omillari yordamida chuqur o‘rganilmoqda. Demak, so‘z birikmalari tasnifi o‘zbek tilshunosligining keyingi yutuqlari bilan birga o‘rganilsa katta samara beradi.

Kalit so‘zlar: So‘z birikmasi, sodda, murakkab, otlı va fe‘lli so‘z birikmalari, tasnifi, formal-funksional, sistem-struktur, substansial tahlil usullari, shakli, mazmuni, joylashuv omillari, sintaktik aloqa, munosabat turlari, moslashuv, boshqaruv, bitishuv usullari.

Kirish. So‘z birikmalarini alohida sintaktik birlik sifatida o‘rganish eramizgacha ikkinchi asr oxirlarida dastlab Misrda Apolloni Diskolning “Sintaksis” asarida kuzatiladi. Bu asarda A.Erman va A.Gardiner kabi misrshunoslar so‘zlarning grammatik tomondan bog‘lanishlariga nisbatan “ismlar birikmasi”, “predikatsiz kichik so‘zlar guruhi” yoki “frazza” kabi atamalarni qo‘llaydilar.(20.B.5-9.) Keyinchalik bu ta‘limot jahon tilshunosligida keng rivojlandi va asosiy sintaktik birliklar qatoridan o‘rin egalladi.

Rus tilshunosligida sintaktik birliklar haqidagi dastlabki fikrlar M.V.Lomonosovning “Российская грамматика” (1757) asarida ko‘zga tashlanadi. Keyinchalik rus tilshunoslaridan F.A.Buslayev, A.A.Potebnya va boshqalar sintaksisning asosiy birliklari haqida o‘z mulohozalarini bildira boshladilar.Jumladan, F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiylar asosiy sintaktik birlik sifatida so‘z birikmalarini tan olib, gapni ham so‘z birikmalarining bir turi deb qaraydilar. So‘z birikmasi atamasi rus tilshunosligiga

dastlab A.X.Vostokov tomonidan olib kirilgan bo‘lib, keyinchalik bu yo‘nalish F.F.Fortunatov, M.N.Peterson, A.M.Peshkovskiy, V.P.Suxotin, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov kabi yetuk olimlar tomonidan atroflicha yoritildi.Ayniqsa, rus tilshunosligida so‘z birikmalari haqidagi ta‘limot akademik V.V.Vinogradov tomonidan chuqur tahlil qilindi va quyidagicha ta‘rif berildi: “So‘z birikmalari narsa, harakat birligini ifodalovchi, sintaktik jihatdan tashkil topgan va semantik tomondan bir butun hisoblangan ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning birikishidir.” (9.B.310) Keyinchalik so‘z birikmalari haqidagi tushunchalar rus tilshunosligida formal-funksional yo‘nalishda nazariy tomondan keng o‘rganilgach, barcha turkiy tillarga tatbiq qilina boshladi. Natijada, qozoq tiliga M.Balaqayev (2), qoraqalpoq tiliga N.A.Baskakov (4.B.55-85.), tatar tiliga M.Z.Zakiyev, ozarbayjon tiliga Y.Seidov(20), turkman tiliga K.Sariyev(17) va boshqalar turkiy tillar doirasida keng o‘rgandilar.

O'zbek tilshunosligida so'z birikmalari haqidagi dastlabki nazariy ma'lumotlar jadid ma'rifatparvarlaridan A.Fitratning "Nahv" asari orqali kirib kel- di.(21.) Unda SBlari haqidagi asosiy nazariy ma'lumotlar berilgan bo'lib, so'z uyushmasi, so'z qoshumi, kelishilganlik, aniqlog'ich, to'ldirg'ich, bosh so'z, kesim kabi atamalar qollanilgan.Bu asar haqida professor A.Nurmanov: " Hali o'zbek tili sintaksisining mundarijasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar biror izga solinmagan bir davrda bu asarning vujudga kelishi o'zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea bo'ldi "- degan edi.(14.B.15.)

Keyinchalik bu yo'nalish etuk tilshunos olimlardan A.N.Kononov(12), S.N.Ivanov(11), N.A.Baskakov(3) va o'zbek tilshunoslaridan professor A.G'ulomov(10), F.Abdullayev(1), M.Asqarova(10), A.Safayev(18)kabi yetuk olimlar tomonidan o'rganildi. Keyinchalik, sodda so'z birikmalari A.A.Koklyanova, X.Abdullayev, X.Xolyarov, F.Ibrohimova, B.To'ychibayevlarning, murakkab so'z birikmalari M.Sharipov, N.Bozorbayev, A.Madaminovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida nazariy jihatdan alohida yoritildi(13).

Natijada turkiy tillarda formal-funksional tilshunoslik asosida shakllangan sintaktik ta'limot quyidagi yo'nalishlarda tasnif qilina boshladi.Barcha turkiy tillarda so'z birikmalari tuzilishi jihatdan sodda va murakkab birikmalarga ajratildi.Dastlab turkiy tillarda so'z birikmalarining nazariy tomonlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan professor N.A.Baskakov ularni quyidagi xususiyatiga ko'ra tasnif qiladi. U SBlarini atributiv-substantiv va atributiv-atributiv kabi ikki guruhga ajratib, ularning har birining murakkablashish jarayonlarini ko'rsatib berdi. Atributiv-substantiv murakkab SBlari o'z navbatida otli va fe'lli kabi turlariga ajratiladi. Shundan ism SBlarining 10 ta, fe'lli SBning 3 ta turini, jami atributiv-substantiv SBlarning 13 xil murakkablashish holatlarini ko'rsatadi. Bunday aniqlovchili MSBlari tarkibida obyektli va obyektisiz bir qancha sodda SBlarining mavjud bo'lishi ham ta'kidlanadi.(3.B.129-163)

Murakkab SBlari yuzasidan maxsus tadqiqotlar olib borgan T.Sayrambayev qozoq tilidagi MSBlarini hokim bo'lagining morfologik tabiatiga ko'ra ot va fe'lli, sintaktik aloqa usullariga ko'ra esa otli SBlarni bitishuv, moslashuv va boshqaruv usullari; fe'lli SBlari esa bitishuv va boshqaruv usullari yordamida murakkablashuvini aniq misollar orqali ko'rsatib bergan edi.(14.B.83-196.)

Turkiy tillar tarixiy-tipologik tasnifi yuzasidan alohida tadqiqot olib borgan professor N.A.Baskakov SBlarini quyidagi uchta tamoyil asosida tasnif qiladi: 1) semantik; 2) morfologik; 3) sintaktik-funksional(3). Ammo turkiy tillarda keng tarqalgan semantik va morfologik tamoyil SBlari tabiatini to'la ochib bera olmasligini alohida ta'kidlaydi. Shu boisdan ham u o'z tadqiqotlarida sintetik-funksional tamoyilga alohida ahamiyat beradi. Natijada SBlari sintetik-funksional xususiyatlariga ko'ra: a) atributiv-substantiv (A.S.); b) atributiv-atributiv (A.A.) kabi sodda va murakkab so'z birikmalariga ajratiladi. Masalan, qoraqalpoq tilidagi yeng jaman, jaqsi oqig'an sodda SBlaridan yeng jaman adam, jaqsi oqig'an bala kabi atributiv-substantiv MSBsi yuzaga kelganligi ko'rsatiladi. Bunday aniqlovchili MSBlarining tobe qismi bir butun holda hokim bo'lak vazifasidagi ism (ot, sifat, son kabilar)ning biror belgi-xususiyatlarini aniqlab kelishi mumkin. Shuningdek, aralash MSBlari bitishuv, boshqaruv usullari orqali sintaktik aloqaga kirishishi natijasida sodda SBlarining murakkablashishi ham ko'rsatiladi: katta daraxt – katta mevali daraxt – mevalari g'arq pishgan katta mevali daraxt – mevalari g'arq pishib yerga to'kilayotgan katta daraxt kabi.

Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, atributiv-substantiv xarakterdagi otli MSBlarning tobe qismi bir butun holda determinativ aniqlovchili birikmadan iborat

bo'ladi. Aniqlanmish bo'lak esa ism guruhiga kiruvchi substantiv munosabatni tashkil etib ot, sifat, son, olmosh kabi so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Atributiv-holli yoki adverbial SBlari ham aniqlovchi-aniqlanmish qismlardan iborat bo'lib, belgining belgisini anglatuvchi yangi atributiv-holli yoki adverbial birikmalarni tashkil etadi. Masalan, eng burun, kelgan bola kabi.

Murakkab atributiv fe'lli SBlari: erkin fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalamoq, kelajakda erkin fikrlaydigan o'z fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda ravon bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalamoq kabi fe'lli MSBlari tarkibida asosan bitishuv va boshqaruv usuli bilan tobelangan bir nechta kichik-kichik SBlarini uchratamiz. Lekin ularning hammasi bir butun holda hokim so'z vazifasidagi tarbiyalamoq (fe'lli) bilan tobeli aloqaga kirishib, determinativ-atributiv munosabatini hosil qiladi.

Xullas, professor N.A.Baskakov tomonidan SBlarining hokim bo'lagi vazifasidagi mustaqil so'zning qanday turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra ikkita katta guruhga, ya'ni keng ma'noda otli va fe'lli birikmalarga ajratiladi. Shuningdek, tobe qismning sintaktik funksiyasidan kelib chiqib esa, ular atributiv, substantiv, adektiv, adverbial SBlariga ajratiladi. Bunda ularning ma'no-munosabatlari ham alohida e'tiborga olinadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining substansiyal tahlilida so'z birikmalari tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga ajratilib ularning murakkablashish jarayoni so'z birikmalari zanjiri shaklida izohlanadi.Sodda birikmalar ikkita mustaqil so'zdan tashkil topsa, murakkab birikmalari ularning kengayishidan hosil bo'ladi.(18.B.302-306) Murakkab so'z birikmalari ikki xil holatda murakkablashib kelishi ko'rsatiladi.Agar murakkab SBsi tarkibidagi bir so'z oldingi so'zga hokim, keyingi so'zga tobe bo'lsa, so'z birikmasi zanjiri hosil bo'ladi.Masalan: Katta darvozaning ro'parasidagi yo'lakning tepasiga qafasda osib o'yilgan bir juft qumrini juda yaxshi korar edim.(G' G') Mazkur gapda katta darvoza, darvozaning ro'parosi, ro'paradagi yo'lak, yo'lakning tepasi, tepasiga qafasda osib qo'yilgan, bir juft qumuri kabi SBlari zanjirini hosil qilishi mumkin.Lekin barcha murakkab so'z birikmalari ham bu tarzda zanjir hosil qila olmaydi. Masalan: Kuyovlar kiyadigan qalampir nusxa marg'uloncha do'ppisi uning salovatini oshirib yubordi.(H.N.) Bu jumladagi murakkab SBsini alohida-alohida birikmalarga ajratish mumkin emas. SBlarini hosil qilgan har bir so'z yoki a'zoda yaxlit holda mavjud bo'lishi ma'noviy, shakliy va joylashuv omillari bo'ladi.Masalan: Vatanni sevmok SBning tobe qismida tushum kelishigi qo'shimchasi –ni etakchilik qilgan.Demak bu mustaqil so'zlarning o'saro birikishida dastlab SH (shakliy), keyin M (mazmuniy) va oxirida J (joylashuv) omillari ustunlik qilgan. Demak, SB lari tarkibidagi mustaqil so'zlarning o'zaro birikishida mantiqiy-grammatik vositalar muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari A.N.Baskakov "Hozirgi turk tilidagi so'z birikmalari"nomli asarida so'z birikmalarini: a) struktur-grammatik; b) funksional-semantik xususiyatlariga ko'ra tasnif qiladi.(5.B.13-15)

1.Struktur-grammatik yo'nalishda quyidagi ikki jihatga e'tibor beriladi: a) leksik-morfologik jihati. Bunda otli va fe'lli SBlari o'zaro turli sintaktik aloqa usullari yordamida birikishi ko'rsatiladi.

b) sintaktik munosabatiga ko'ra (teng va tobeli); sintaktik aloqa usuliga ko'ra (bitishuv, boshqaruv, moslashuvli) kabi bir nechta turlarga ajratiladi.

Demak, SBlari tarkibini aniqlash birikma tarkibida ishtirok etgan barcha so'zlar miqdoriga qarab emas, bu mustaqil so'zlarning birikma tarkibida bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. Ular tuzilishi jihatdan sodda va murakkab turlarga ajratiladi. So'z turkumlarining hokim bo'lagi

vazifasini mustaqil so'zlar bajarib kelsa yordamchi so'zlar ular tarkibida sintaktik aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Funktsional-semantik tamoyilda aniqlanayotgan bo'lakning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlaridan kelib chiqib tasnif qilinadi. Ularning substantiv va atributiv, aniqlovchili qism esa o'z navbatida adektiv-adverbial kabi turlardan iborat bo'lishi ko'rsatiladi.

SBlarini tasnif qilishda faqat birikma tarkibidagi so'zlar tarkibi emas, ularning semantik xususiyatlari ham hisobga olinadi. Shu boisdan uch va undan ortiq leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan, ammo semantik jihatdan bo'linmaydigan, bir butun holda bir ma'no mundarijasiga ega bo'lgan va butunligicha bir hokim so'z bilan munosabatga kirishishdan SBlari sodda birikmalar deb ko'rsatiladi (10.B.23-28.) Masalan: besh qavatli bino, baland bo'yli yigit, bu yilgi bahor, oliy ma'lumotli qiz kabi. Bunday sintaktik butunliklar turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham shaklan murakkab, mazmunan sodda SBlari sifatida o'rganiladi, sintaktik aloqa mavjud bo'lishiga ko'ra sodda, qo'shma va murakkab kabi turlarga ajratadi. (7.B.13-15) Masalan: hovlidagi o'rik (bitishuv), odobli o'quvchi (bitishuv), maktabdan kelmoq (boshqaruv) kabi birikmalarni sodda SBlariga kiritadi.

Umuman o'zbek adabiy tilidagi SBlari tasnifini uning taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq holda tasnif qilish

kerak. Sintaktik birliklar taraqqiyoti quyidagi bosqichlarda taraqqiy topdi: 1) sobiq sho'rolar davri – formal-funksional yo'nalishida; 2) mustaqillik davri - substansiyal tahlil usuli natijasida takomillashdi. Demak, SBsining taraqqiyot jarayonini etiborga olgan holda quyidagicha tasnif qilinishi lozim. SBlari dastlab tuzulishi jihatdan sodda va murakkab, hokim bo'lakning ifodalanishiga ko'ra – ot (keng ma'noda), fe'l va ravishli birikmalarga ajratiladi. (10.B.26-28) Istiqoldan keyingi davrda SBlarini tashkil etuvchi a'zolarining o'zaro birikishi – ma'noviy, shakliy va joylashuv omillariga ko'ra tasnif qilina boshladi. Demak, quyidagi xalqqa murojaat SBsi sodda, ot boshqaruvli, SH (shakliy), M (mazmuniy), J (joylashuv) omili bilan birikkan, to'ldiruvchili birikma tarzida tasnif qilinishi lozim.

Xullas, yuqorida tahlil qilingan tadqiqotlarda SBlari tasnifi professor N.A.Baskakov ta'kidlaganlaridek, sintaktik, morfologik va sintetik-funksional tamoyillar asosida amalga oshirilib kelmoqda edi. Demak, hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor SBlarining tuzilishi, morfologik tabiyati va sintaktik vazifalariga qaratilgan bo'lsa, tilni substansiyal tahlil qilish natijasida ularning shakliy, mazmuniy va joylashuv omillariga ham ahamiyat berildi. Natijada, so'z birikmalari sintaksisi har tomonlama to'la tasnif qilina boshladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? – Тошкент, 1973.
2. Балакаев М. Основные типы словосочетаний в казахском языке. – Алматы, 1957;
3. Баскаков Н.А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. – М., 1975. – С. 132-136.
4. Баскаков Н.А. Словосочетания в каракалпакском языке: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Синтаксис. – М., 1961.- 55-85;
5. Баскаков А.Н. Словосочетания в современном турецком языке – М., 1974.
6. Базарбаев Н.Сложные словосочетание в тюркских языках.(на материалы узбекского казахского языка): Автореф. дисс... канд.филол. наук.- Тошкент,1970
7. Бердалиев А. Ўзбек тилида сўз бирикmalari синтаксиси. – Тошкент, 1990. – Б. 13-15.
8. Виноградов В.В. Вопросы изучения словосочетаний // Вопросы языкознания, 1954. № 3. – С. 310.
9. Виноградов В.В. Исследования русской грамматике.-М. Наука.1975.
10. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1987. 4-нашр. – Б. 102;
11. Иванов С.Н.Очерки по синтаксису узбекского языка. -Л. Изд. ЛГУ.1959;
12. Кононов А.Н.Грамматика узбекского литературного языка.-М.1960;
13. Мадаминов А.Ҳозирги ўзбек адабий тилида предикатив моделдаги мураккаб сўз бирикmalari: Филология фан. номзод.дисс...автореф.- Тошкент,1983.
14. Nurmanov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.-Toshkent.O'zbekiston.2002.
15. Сайрамбаев Т. Сложные словосочетания в современном казахском языке. – Алматы, 1981;
16. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B R.v a b.Hozirgi o'zbek adabiy tili.Darslik.-Toshkent,2010.
17. Сариев К.С. Словосочетание в туркменском литературном языке: Именные словосочетания,ч.1.– Ашхабад, 1972.
18. Сафаев А. Исследование в синтаксису узбекского языка. – Тошкент: Фан. 1968.
19. Сулайманов А., Холяров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1979;
20. Сеидов Ю. Словосочетание в современном азербайджанском языке. – Баку, 1965;
21. Fitrat A. Nahv. 4-nashr. Samarkand – Tashkent: O'zdavnashr.1930.
22. Петровский Н.С. Сочетания слов в египетском языке. – М.: Наука, 1970. – С. 5-9.



UDK: 82.331

Matluba MALLAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti professori, f.f.d Z.Mirzayeva taqrizi asosida

ADABIYOT FANI MILLIY VA XORIJ O'QUV DASTURLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyot fani o'quv dasturlarining ta'lim sifatidagi ahamiyati, o'quv dasturlariga xos xususiyatlar, o'zbek va xorij o'quv dasturlaridagi umumiylik, xususiylik kabi masalalar muayyan misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konseptual xilma-xillik, o'quv dasturlari, globallashtirish, integratsiyalashuv, ta'limni individuallashtirish, konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ЗАРУБЕЖНЫХ ПРОГРАММ ПО ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной статье на конкретных примерах анализируется образовательная значимость учебных программ по литературоведению, особенности учебных программ, общность и специфика узбекских и зарубежных учебных программ.

Ключевые слова: концептуальное многообразие, образовательные программы, глобализация, интеграция, индивидуализация образования, конструктивизм, бихевиоризм, гуманизм.

COMPARATIVE ANALYSIS OF NATIONAL AND FOREIGN LITERATURE PROGRAMS

Annotation

This article analyzes the educational significance of literary studies curricula, the features of curricula, the commonality and specificity of Uzbek and foreign curricula using specific examples.

Key words: conceptual diversity, educational programs, globalization, integration, individualization of education, constructivism, behaviorism, humanism.

Kirish. Adabiyot fani o'quv dasturlari konseptual xilma xilligi bilan ajralib turadi. Chunki adabiyot ham, adabiyot o'qitish metodikasi ham boshqa fanlar kabi o'zgaruvchan, rivojlanish xususiyatiga ega. Demak, adabiyot fanlariga oid o'quv dasturlarini yaratishda ham eng avvalo yangilanib borayotgan nazariyalarga, global ta'limda aks etayotgan yevrilishlar, eng muhimi, globallashtirish, integratsiyalashuv sabab talabalar, o'quvchilar tafakkuridagi o'zgarishlarga ahamiyat berish zarur hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan ta'lim standarti va o'quv dasturlarining aksariyati, afsuski, o'rganuvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga emas balki quruq g'oyalari (dry ideas) ni shakllantirishga, yoshlarni faqat oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun bo'ladigan test sinovlariga tayyorlash uchun xizmat qilgan. 2020-2021 yillarda yaratilgan Milliy o'quv dasturi avvalgilarga nisbatan mukammalroq, o'quvchilarda XX asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

O'quv dasturlari adabiyot fani o'qitishning fundamental asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan adabiyot fanidan yaratiladigan o'quv dasturlari o'quvchilarning, talabalarining o'z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma'naviy qarashlarini yuksaltirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugun adabiyot fanlarini o'qitishda *konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlari, o'rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahlilga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta'limda integrativ yondashuv nazariyalari, ta'limni individuallashtirish va personallashtirish* kabi ko'plab yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Adabiyot fanidan o'quv dasturlarini yaratishda, milliy metodikaga oid manbalarni

boyitish hamda uni xalqaro standartlarga mos rivojlantirishda, tabiiyki, yuqorida qayd etilgan ta'lim nazariyalari, global ta'lim imkoniyatlaridan, birlamchi manbalardan bevosita, o'rinli foydalanish va uni milliy adabiy ta'limga tadbiq etish talab etiladi.

Ta'limi rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanidan yaratiladigan o'quv dasturlarida bizdan farq qiladigan bir qancha jihatlari bor. Ta'lim standartlari, o'quv dasturlari talabalar, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni belgilaydi. Ulardagi kompetensiyalar aniq va ob'yektiv belgilanib, spiralsimon shaklda rivojlanib boradigan kichik kompetensiyalarga bo'linadi. Masalan, o'quvchi asar syujetining tarkibiy elementlari, (perspektiva, retrospektiva...), badiiy asardagi stilistik figuralar (metafara, metonimiya kabi), ayrim epizodlarning badiiy matn mazmuniga ta'sirini izohlay olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shuningdek, standartlar o'quvchida badiiy asarni to'liq o'qish ko'nikmasini shakllantiradi. Bunda o'qituvchilarga o'quvchilar o'qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro'yxati beriladi. O'qituvchi tavsiya qilingan ro'yxatdagi adiblar va asarlarni o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'zi tanlaydi. Bunda o'quv yili davomida o'tilgan asarlar soni muhim rol o'ynamaydi, tanlangan asarlar to'liq o'qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv dasturlari bevosita hayot bilan bog'liq, o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. O'quv dasturlarida aks etgan kompetensiyalar adabiyot darsliklarida aks etadi. Masalan, Angliya va Amerikada nashr qilingan adabiyot darsliklarining deyarli barchasida *"Think critically"* (tanqidiy tafakkur), *"Connect to life"* (asarning bugungi kun bilan bog'liqligi) *"Extend interpretation"* (Keng ko'lamlil talqin) kabi qismlar mavjud bo'lib, bularning barchasi o'quvchining tafakkuri

rivojiga xizmat qiladigan savol va topshiriqlardan iborat bo'ladi[1]. Ularda badiiy matn bilan ishlashning muayyan bosqichlari (asarni o'qishdan oldin, o'qish davomida va o'qishdan keyin) mavjud. Har bir bosqichning o'z maqsadi va uslublari bor.

Xorijdagi adabiyot fanlari o'quv dasturlariga xos yana bir muhim jihat badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga, adabiyotni san'atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o'quvchi hayoti bilan aloqasini ta'minlash, o'quvchida og'zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi bugun "mahalliy" o'qitish strategiyalaridan o'qituvchi va o'quvchining adabiy ta'lim haqidagi fikrlarini tiniqlashtirishga xizmat qiladigan global yondashuvlar tomon qadam tashlashi, adabiy matnni *qanday o'rganish emas nima uchun o'rganish* kabi muammolarni masala qilib qo'yishi va badiiy asar mazmunini chuqurroq tushunishga olib borish yo'llarini kashf etishi talab etiladi.

Ma'lumki, badiiy estetik jihatdan san'at darajasiga ko'tarilgan, chuqur ijtimoiy g'oyaviy mazmunga ega badiiy asarlarga o'quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va adabiyot haqidagi fikrlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada o'zbek adabiyoti ta'limidagi murakkab va keng qamrovli muammolardan biri bo'lgan uzviylik va uzluksizlikni mantiqan to'g'ri ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyoti ta'limida mazmuniy uzviylikni ta'minlashda tabiiyki, o'quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzluksizligini ta'minlash lozim. Bundan tashqari, o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari - adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o'qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi.

O'zbek adabiyoti fanidan o'quv dasturlarini yaratishda o'rganuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda o'rganuvchining ehtiyojlari (student's needs; learner's needs) ni ham e'tiborga olish kerak. 11 sinf adabiyot darsligidagi Yusuf Hoj Hojibning "Qutadg'u bilik" ("Saodatga eltuvchi bilim") asari turkiy adabiyotning ilk namunasi, o'z davridagi ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalarni ramziy obrazlar vositasida badiiy talqin qilgan asar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoki Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni badiiy-g'oyaviy xususiyatlari bilan o'zbek klassik adabiyotining shoh asarlaridan sanaladi. Insoniyat taraqqiyotida, jahon adabiyoti, san'ati va madaniyati rivojida alohida o'ringa ega bo'lgan, har bir kitobxon mutolaa qilishi zarur deb hisoblangan milliy va jahon adabiyoti durdonalarining o'quv rejaning o'rin olishi har jihatdan to'g'ri va shunday bo'lishi ham kerak. Ammo shu o'rinda ta'lim standartlarida yoki o'quv dasturlarida mavjud tanlanma figuralar o'quv rejani yaratgan mualliflarning badiiy asarga individual munosabati, fikr qarashlari, qiziqishlari va ularni "bilishi kerak" nuqtai nazaridagi miopik (shaxsiy) qarashlari asosida tavsiya qilinish holatlari ham mavjudligini inkor qilolmaymiz. Ma'lumki 17 yoshli o'quvchining ma'naviy ehtiyoji 30- 40 yoshli kitobxonning ma'naviy ehtiyojidan keskin farq qiladi. O'qituvchi "qiziq" deb bilgan badiiy asar uning o'quvchisi uchun u darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan uzluksiz ta'lim bosqichlari uchun o'quv rejalar shakllantirilayotgan jarayonlarda muayyan usullar (masalan, so'rovnomalar, individual tartibdagi suhbatlar) orqali o'quvchilarning ma'naviy, hayotiy ehtiyojlarini ham hisobga olish lozim bo'ladi. Masalaga bunday yondashuv, birinchidan, badiiy asar va o'quvchi ma'naviy ehtiyoji o'rtasidagi mutanosiblikni vujudga keltiradi va bu adabiyot darslarini yanada qiziqarliroq va jonliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ta'lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi yoshlar virtual olamda ulg'ayaptilar. Virtual, texnika olamining bir qancha ijobiy xislatlari barobarida uning salbiy oqibatlarini ko'plab balog'at yoshidagi farzandlarimizni "siylab" o'tayotgani ham ma'lum haqiqat.

O'n yetti, o'n sakkiz yosh yuqori sinf o'quvchilari ongidagi o'zgarishlarning eng muhim davri hisoblanadi. Bu davrda ular umid va umidsizlik, topish va yo'qotish, sevgi va nafrat, sadoqat va hiyonat, qadriyat, insoniylik kabi masalalar mohiyatini to'g'ri va atroflicha anglashga ehtiyojmand bo'ladilar. Ko'pchiligi esa "pul hamma narsani hal qiladi" qabilidgi noto'g'ri qarashlarga ergashib boshi berk ko'chalarga kirib qoladi. Moddiylik g'am alamni, gunohni, yo'qotishlarni, umidsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qila olmasligini anglashda esa ulardagi hayotiy tajriba yetmaydi. Mana shunday davrda ular ongidagi ma'naviy bo'shliqni adabiyot to'ldiradi. Adabiyot ularga najot quroli bo'lib xizmat qiladi. Zotan inson huqularini ilk bora himoya qilish va ularni zalolatdan qutqarish maqsadida nozil bo'lgan Ollohning kalomi QURON karim yaratilgan davrdan boshlab so'z san'ati insoniyatning og'ir kechmishi, qirg'in va halokatida, unga ozodlik, erkinlik, o'zlikni anglash kabi eng ulug' tuyg'ularni in'om etib, muallimlik qilganligi isbotlangan.

Hayot hech kimga "*qanday qilib*" degan savolga javob bermaydi, shuningdek inson muammolarining yechimiga ko'rsatmalar berish imkoniga ham ega emas. Qolaversa, turli xil tur va janrlarga xos badiiy asar namunalarini, jumladan, roman, hikoya yoki drama ham bugun yoshlarimizni o'rab olayotgan muammolarni to'laqonli bartaraf etish kuchiga ega emas. Aniqroq qilib aytganda adabiyot davolash shakli emas ammo *o'rganish vositasidir*. Chunki asarlarda savob va gunohlar, hayotiy yo'qotishlar, adolat, yoxshilik, yomonlik va yana bir qancha umuminsoniy xususiyatlar aks etgan voqea hodisalar bayon qilinadi. Keng doiradagi nuqtai nazarlar, konsepsiyalar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, badiiy asarda aks etgan voqea hodisalar orqali o'quvchi eng kamida o'zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. O'zi sevib, hayotiy ehtiyoji o'laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o'quvchining hayot haqidagi qarashlarini, konsepsiyalarini tartibga solishda, to'g'ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali o'quvchi yangi dunyoni ko'rishni o'rganadi.

O'quv dasturlariga kiritilgan ijodkorlar, tanlanma figuralar nisbatan talabalar yoki o'quvchilarning ham o'z shaxsiy munosabatlari bo'ladi. Ayrim holatlarda talabalardan yoki maktab o'quvchilaridan ham "nima uchun bu asarni o'qishimiz kerak" yoki "falon asar o'rniga falon asarni o'rgansak bo'lmaydimi?" degan savollarni ko'p eshitamiz. O'qituvchining mazkur savolga javobi o'quvchining notanish badiiy asarga mehr muhabbatini uyg'otishga bo'lgan dastlabki qadam. O'qituvchining savolga munosabati talabalarni adabiyotga yaqinlashtirish va ularni badiiy asarga bog'lashga, qiziqishini orttirishga rag'bat berishi kerak. Zotan adabiyot o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilariga nisbatan maxsus intizom va tartibga, muayyan kognitiv maqsadlarga ega bo'ladi. Uning eng muhim, fundamental maqsadlaridan biri mudom ma'naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishda bo'lishdan iboratdir. Adabiyot o'qituvchisi bergan ta'lim rag'batini yoki Qodiriy, Cho'lpon, Tolstoyning o'qish jarayonlaridagi ta'limiy yondashuvlar ularni bir kun kelib adabiyot o'qituvchisi, yo shoir yoxud yozuvchi bo'lish orzulariga katta rag'bat beradi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ta'lim standartlari rivojlangan Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika kabi mamlakatlarning o'quv dasturlarini yaratish (Curriculum development) bilan bog'liq ilg'or tajribalarini, sinovdan o'tgan

yondashuvlarini milliy ta'limga olib kirish o'qitish va o'rganish sifatini o'sishida, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda va sohani jahon standartlariga mos rivojlanishida muhim faktorlardan biri bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Jumladan, Britaniya ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy o'quv dasturlaridan foydalaniladi. Ularda muayyan fan, xususan, adabiyot ham o'z yo'nalishlarida:

A)konseptual masalalarni;

B) global muammolarni;

V) adabiyotning pragmatik xususiyatlarini;

G) jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlarini

Va yana ko'plab muhim jihatlarni qamrab oladi.

Talabalar va o'quvchilar orasida plyuralistik tafakkur, fikrlar erkinligiga qaratilgan o'quv dasturlarining yaratilishi milliy adabiy ta'lim imkoniyatlarini yanada kengaytirish, o'qitish bilan birga o'rganishning samarali usullarini yaratish, an'anaviylikdan zamonaviylik sari qadam qo'yish orqali adabiy ta'lim taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Arthur N.Applebee, Abdea B. Bermuder etc. World Literature/ Evanston, Illinois, 2008.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. An'anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, 2020
3. Mirzayeva Z. Badiy asar tahlili: lokaldan globalga. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti IV an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2023.



UDK: 81.303.446.4

Ilham MAMASOLIYEV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ilhom70@bk.ru

G.R. Derjavin nomidagi Tambov davlat universiteti va Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotzenti f.f.n. I.O. Mashenkova taqrizi asosida

DERIVATIONAL FUNCTIONS OF WORD FORMATION OF BORROWED WORDS USED IN NEWSPAPERS

Annotation

The article analyzes the derivational functions of the formation of borrowed words using suffixation and prefixation and their participation in the formation of new lexemes in the Russian and Uzbek languages. In this regard, it outlines the derivational functions of word-forming morphemes. The role and relationship of such methods as affixation, syntactic, semantic, conversion, acronym and abbreviation methods in the formation of assimilation lexemes was also studied from the point of view of completing the enrichment of the vocabulary of the Uzbek language.

Key words: borrowed words, word formation, suffixation, affixation, syntactic method, semantic method, conversion.

GAZETA MATNLARIDA QO'LLANILADIGAN O'ZLASHMALARNING SO'Z YASALISHIDAGI DERIVATSION VAZIFALAR

Annotatsiya

Maqolada rus va o'zbek tillarida o'zlashgan so'zlarning suffiksatsiya va prefiksatsiya yordamida derivatsion funksiyasi yasalishi va ular ishtirokida yangi leksemalarning yasalishi tahlil qilingan. Shu munosabat bilan so'z yasovchi morfemalarning derivatsion vazifalari tavsiflanadi. O'zbek tilining lug'at tarkibini boyitishni yakunlash aspektida affiksatsiya, sintaktik, semantik, konversiya, akronomik va abbreviatura kabi usullarning o'zlashtirish leksemalarning hosil bo'lishidagi o'zni va munosabati ham o'rganildi.

Kalit so'zlar: o'zlashgan so'zlar, so'z yasalishi, qo'shimcha, affiksatsiya, sintaktik usul, semantik usul, konversiya usuli.

ДЕРИВАЦИОННЫЕ ФУНКЦИИ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ГАЗЕТНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В статье анализируются деривационные функции образования заимствованных слов с помощью суффиксации и префиксации и их участие в образовании новых лексем в русском и узбекском языках. В этой связи она описывает деривационную функцию словообразующего морфема. Также была изучена роль и взаимосвязь таких методов, как аффиксация, синтаксический, семантический, конверсионный, акронимический и аббревиатурный методы в образовании ассимиляционных лексем в аспекте завершения обогащения словарного запаса узбекского языка.

Ключевые слова: заимствованные слова, словообразование, суффиксация, аффиксация, синтаксический метод, семантический метод, конверсионный метод.

Введение. Способы образования слов в современном языкознании понимаются в диахроническом и синхронном аспектах. В диахронной форме способ образования слова является приемом, посредством которого сформировано то или другое слово. В синхронном аспекте метод словообразования является устойчивым для современной системы языка средством выражения деривационных значений. Как отмечает Е.А. Земская, данный термин «используется для ответа на вопрос, с помощью какого средства (или каких средств) выражается деривационное (словообразовательное) значение того или иного слова» [3]. Ученые отмечают: «можно без преувеличения сказать, что различие точек зрения по целому ряду вопросов, относящихся к области учения о словообразовании, объясняется степенью глубины наших знаний о системной сущности языка вообще и его словообразовательного яруса – в частности» [1].

Обзор литературы. Заимствования из иностранных языков как один из источников, обогащающих словарный запас изучаемого языка, традиционно изучаются в рамках таких дисциплин, как лексикология, лексикография, стилистика, социолингвистика, культура речи. Повышенная активность

процессов деривации и интенсификация языкового развития современных медиа обусловила интерес к исследованию неологии, благодаря чему современное языкознание накопило существенный корпус исследований, в том числе труды Е.А. Земской, В.В. Лопатина, Г.В. Поповой, а в узбекском языкознании классификация заимствованных языковых единиц рассматривалась с общетеоретической точки зрения или сосредоточивалась на выявлении их генетических источников. Лексикологи сосредоточили внимание на проблеме уточнения терминологического аппарата, связанного с усвоением слов. Кроме того, объем и содержание понятия «ассимиляция», причины ассимиляции, виды завожных единиц, ассимиляция лексем в ассимилирующем языке, признаки адаптации.

Методология исследования. В исследовании использованы методы компонентного анализа, классификационного анализа, структурного анализа, сравнения и логического обобщения, статистического анализа и лингвистического описания. Кроме общенаучных методов анализа, синтеза, сравнения, комментирования, к общелингвистическим и специальным методам исследования относятся методы лингвистической и прагматической интерпретации, а также метод анализа компонентов, в том числе при

установлении компонентов коннотаций в структуре словарного значения, метод анализа дефиниций словарного состава, метод сопоставительных описаний, с помощью которых были выявлены особенности семантического характера исследуемой единицы.

Анализ и результаты. Семантические и содержательно-структурные закономерности образования новых слов в узбекском словообразовании, их взаимосвязь на языковых уровнях, семантические, стилистические, аксиологические, прагматические функции, которые они выполняют в структуре текста, и в процессе речевого общения, давно привлекающих внимание лингвистов [5; 12]. В пределах системы словообразования используются понятия: словообразовательная основа, словообразовательное значение, словообразовательное средство, словообразовательный способ, словообразовательный тип слова, закономерность словообразования, принципы словообразования, которые широко исследуются на материале национальных языков [11; 6].

На материале узбекского языка гораздо глубже изучены способы образования и этимологические источники лексических единиц, заимствованных из иностранных языков и зафиксированных в узбекских лексикографических источниках. Также была изучена роль и взаимосвязь таких методов, как аффиксация, синтаксический, семантический, конверсионный, акронимический и аббревиатурный методы в образовании ассимиляционных лексем в аспекте завершения обогащения словарного запаса узбекского языка. Однако принципы применения и методы словообразования, а также этимологические источники иноязычных слов, вошедших в узбекский язык в годы независимости, по сей день не стали объектом исследования. Данная ситуация предполагает рассмотрение феномена овладения иностранным языком как специфической системы в структуре газетного дискурса.

В целом, в соответствии с методами, используемыми в газетах «Народное слово» и «Голос Узбекистана», присвоение можно разделить на четыре основных типа: аффиксация (суффиксация, префиксация, парасинтетические формы), композиция (сложение слов, телескопические слова), преобразование и аббревиатура.

Деривация – одно из основных понятий в системе словообразования, в процессе которого производное слово образует мотивированную новую лексическую единицу. Мотивация искусственного слова состоит в том, что его звуковая форма и значение зависят от другого корневого слова [7]. Поэтому уместно отдельно рассмотреть способы образования заимствованных слов.

Термин «аффиксация» представляет собой широкое понятие и включает в себя суффиксацию, префиксацию и парасинтетические методы. В словаре проф. А.Ходжиева термин “аффиксация” трактуется следующим образом: «Аффиксация - 1. Вообще прибавление аффикса к основе, создание слова или формы с помощью аффикса: (вопрос (сора+q) - словообразование, образование опросной (сора+ди) формы» [10]. Газетный стиль характеризуется появлением специфических аффиксальных приставок с определенным набором аффиксов, а также необычным сочетанием существительных и аффиксальных приставок.

Принятие заимствованных слов через аффиксацию является продуктивным методом в газетном дискурсе, и он делится на две основные группы: 1) усвоение слова с помощью суффиксов; 2) усвоение слова с помощью префиксов. При методе аффиксации аффиксы представлены с использованием определенных суффиксов и проявляются в виде морфологических аффиксов.

Суффиксы и префиксы являются словообразовательными инструментами с морфологической точки зрения. Вспомогательные морфемы, словообразовательные форманты, отражают в себе мельчайшие словообразовательные элементы языка.

Суффиксация, то есть образование предлогов с помощью суффиксов, проявляется в текстах газет «Народное слово» и «Голос Узбекистана» как метод с наиболее плодотворными и красочными формами.

Различаются три случая, характерные для процесса суффиксации:

1) словообразовательные суффиксы, специфичные для исходного языка, также сохраняются в устойчивом языке;

2) новые слова образуются путем добавления словообразовательных суффиксов языка, которые ассимилируются с основой слова, взятого из исходного языка;

3) слово, заимствованное из исходного языка, и слово, созданное на основе лексических норм соответствующего языка, используются параллельно в газетных текстах.

Рассмотрим эти типы суффиксации последовательно. Во многих случаях усвоение принятого слова осуществляется с помощью суффиксации, характерной для исходного языка, и ее методы стали схожими для обоих языков, но мы также сталкивались с несоответствиями.

Суффиксация (суффиксальный способ словообразования) – «выражение деривационного значения с помощью суффикса и системы флексий производного слова» [2].

Один из наиболее продуктивных словообразовательных способов современного русского языка. В отличие от префиксации, в результате суффиксации производное слово может относиться как к той же части, что и производящее, так и к другой [2].

К указанному способу словообразования относится и нулевая суффиксация – «выражение деривационного значения производного слова с помощью нулевого суффикса» [2].

При создании лексических единиц, используемых в дискурсе газеты «Народное слово», используются узбекские словообразовательные суффиксы, такие как, **-лик**, **-лаш**, **-ик**, добавляются в основу изучаемого слова, активно участвует.

сущ.+**лик**: креативлик, (креативность); рентабеллик (рентабельность). Например, Махсулот сотишда маркетинг тизими ахборот консалтинг тизими ривожлантириш оркали фермер хужаликларида махсулот этиштириш **рентабеллигини** ошириш белгиланган. «Халк сўзи» 27. 01.2015

Шунга кўра, сохада ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, уларда ижодкорлик, **креативликни** янада ривожлантириш максидида янги лойихалар ишлаб чиқарилмоқда. «Янги Ўзбекистон». 23.04.2021 №81(337).

сущ.+**лаш**: название: диверсификациялаш (диверсификация) идентификациялаш (индексация), сертификатлаш (сертификация); Например, 2015 йилда иктисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш модернизация ва **диверсификациялаш** жараёнларини изчил давом эттириш хисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йул очиб бериш – устувор вазирамиздир. «И. Каримов маърузасидан “Халк сўзи” 27. 01.2015.

Ягона интерактив давлат хизматлари порталининг мобил иловаси оркали 30 турда хизмат кўрсатиш мумкин, холос. Унинг атига 11 таси интерактив хизматлардир.Электрон **идентификациялаш** тизими

хамда электрон рақамли имзо билан ишлаш ривожланмаган. «Янги Ўзбекистон». 12.05.2021, №96 (352)

сущ.+ик: некинлик (биометрический), дуалистик (дуалистический).

Например, Европанинг баъзи мамлакатларида Иқтисодий кодекс ишлаб чиқилмоқда. **Дуалистик** тизимдаги мамлакатларда Тадбиркорлик кодекси қабул қилинса, иқтисодий блок триада, яъни Фуқаролик кодекси, Савдо кодекси ва Тадбиркорлик кодексига асосланади. «Янги Ўзбекистон». 04.11.2021, №89(345)

Америкалик таникли социолог А.Маслоунинг инсон эҳтиёжлари **иерархик** пирамидасининг биринчи каватиди, яъни асосида одамнинг физиологик (органик) эҳтиёжлари жойлашгани бежиз эмас. «Янги Ўзбекистон». 04.11.2021, №89(345).

Наряду с производными словами, образованными с помощью этих суффиксов, в газетных текстах параллельно используются слова собственные, например: реанимация - жонлантириш/ возрождение; дезинфекция – дезинфекция/ юқумсизлантириш.

Отметим, что в интернациональной лексике слов, сформированных по интернациональным морфемам и выполненных префиксом, существует множество новых слов, которые все чаще становятся популярными из-за процесса глобализации и которые регулярно используются в газетах «Народное слово» и «Голос Узбекистана». Наиболее часто используемые префиксы включают следующие префиксные морфемы:

анти-: антидемократик, антивирус;

гипер-: гиперинфляция, гипермаркет,

гипертекст;

интер-: интернационализация, интерактив, интернет; Например, Ягона **интерактив** давлат хизматлари порталининг мобил иловаси орқали 30 турда хизмат кўрсатиш мумкин, холос. Унинг атига 11 таси **интерактив** хизматлардир. «Янги Ўзбекистон». 12.05.2021, №96 (352)

инфра-: инфратузилма, инфраструктура; Например, Саноат зоналари **инфратузилмасини** яхшилашга ажратилаётган маблағлар янги ишлаб чиқилган лойиҳаларни жойлаштиришда тадбиркорларга қулайлик яратади. Бу нафақат маҳаллий ишбилармонлар, балки чет эллик инвесторлар, учун ҳам катта имконият. «Янги Ўзбекистон». 29.05.2021, №108 (364).

кибер-: киберхавфсизлик (кибербезопасность), кибержиноятчилик (киберпреступность); Например, Шахнинг хуқуқ ва эркинликлари кафолатини кучайтириш, суриштирув ва тергов фаолиятини адолатли, холис ва ҳаққоний олиб бориш бўйича самарали механизмларни жорий этиш, **киберхавфсизликни** таъминлаш ва **кибержиноятчиликка** қарши курашиш

бўйича изчил иш олиб боришимиз лозим. «Янги Ўзбекистон». 25.10.2021, №212 (468).

экс-: Давлат хизматлари марказлари орқали 150 дан ортиқ давлат хизматларини “ягона дарча” тамойили асосида тақдим этиш йўлга қўйилди.Шунингдек, **экстерриториал** хизмат кўрсатишда 18 турдаги хужжатларни талаб қилиш амалиёти бекор қилинди. «Янги Ўзбекистон». 21.10.2021, №209 (465).

Выводы и предложения. Особое место в образовании новых слов занимает композиция или способ сложения слов. В общем языкознании под способом композиции понимают образование новых слов в результате соединения нескольких (двух и более) слов или основ из одного слова. «Композиция (лат.) – Сложение слов. Составные слова. Сложное слово – это слово, содержащее более одного лексического значения» [10]. С помощью этого синтаксического приема в газетном языке образуется много новых заимствованных сложных слов. Компоненты, составляющие такие сложные приобретения, различны и могут быть как самостоятельными словами, так и вспомогательными морфемами, утратившими теперь свою синтаксическую самостоятельность. Например: мотель (мотор+отель), евровидение (Евро+телевидение) и другие.

К гибридным образованиям можно отнести систему искусственных сложных слов, образованных на основе иноязычно-узбекского образца, которая формируется в результате взаимодействия заимствованных слов и словообразования. Существует тенденция составлять гибридные формы из элементов ассимилированного, которые заменяют исходные перифразы или больших сложных терминов. Зачастую один из элементов (узбекский) имеет поясняющее значение или служит для обобщения понятия терминов, поэтому в данном случае он имеет минимальную смысловую нагрузку. Количество гибридных производных слов в текстах газет увеличивается. Помимо того, что они используются как самостоятельные лексемы, они комбинируются, в виде первой части слов используется также как словообразовательные элементы, например: бизнес-класс, грин-карта, сайт, интернет-конференция, интернет-журнал, интернет-кафе, интернеткласс, интернет-компьютер, интернет – бизнес и т.д.

Таким образом, определенный пласт заимствованных слов в газете «Народное слово» и «Голос Узбекистана» состоит в основном из комбинированных заимствований, сделанных по двум формам: один из элементов, составивших сложные заимствования, сделанные по первой схеме, знаком адресату определенным образом два элемента сложных заимствований совершаемых по второй форме.

ЛИТЕРАТУРА

1. Евсеева И.В. Комплексные единицы словообразовательной системы // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2011. – № 3 (47). – С. 188– 194.
2. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособие. – 3-изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 328 с.
3. Земская Е.А. Словообразование как деятельность. — М.: Высшая школа, 1992. – 220 с.
4. Исакова Н.А. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси, Самарқанд, 2021 й. 164 б.
5. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тили сўз ясашига бир назар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1987. - №3. – 36-38 б.
6. Рахимов А. Лексик семантик деривация муаммолари. Т., 2011. – 168 б.
7. Турниёзов Н.К. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. - Самарқанд, 1990.
8. Хасанова Д.О. Заимствованные лексические единицы как база словообразования // Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 3 (7) 2010. – 164-166 с.
9. Ҳамраева Ё. Ўзбек тилининг ўзлашма сўзлар ўқув изохли луғати. – Т.: Янги аср авлоди. 2009.

10. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Т.: Фан, 2002. - 165 б.
11. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. -Т.: “Ўқитувчи”НМИУ 2007. – 168 б.
12. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши. -Т., 1989. – 109 б.



Aziza MIRZAYEVA,

*Buxoro Davlat universiteti tayanch doktoranti,
BDTI ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi
azizamirzayeva539@gmail.com
Filologiya fanlari doktori I.G'aniyev taqrizi asosida*

INTERTEXTUALITY, REMINISCENCE IN THE "PERCY JACKSON" PANTOLOGY

Annotation

In the process of analyzing the book of the American writer Rick Riordan "Percy Jackson and the Lightning Thief", a significant role of reminiscence in this work was established. The author in his work often uses references and language games, the element of which is reminiscence. The purpose of this article is to examine the use of reminiscences and determine their meanings.

Key words: postmodernism, intertextuality, transtextuality, reminiscence, allusion, Greek mythology.

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ, РЕМИНИСЦЕНЦИЯ В ПЕНТАЛОГИИ «ПЕРСИ ДЖЕКСОН»

Аннотация

В процессе анализа книги американского писателя Рика Риордана "Percy Jackson and the Lightning Thief" установлена значительная роль реминисценции в данном произведении. Автор в своей работе часто использует ссылки и языковую игру, элементом которой выступает реминисценция. Целью данной статьи является рассмотрение использования реминисценций и определения их значений.

Ключевые слова: постмодернизм, интертекстуальность, транстекстуальность, реминисценция, аллюзия, греческая мифология.

"PERSI JEKSON" PENTALOGIYASIDA INTERTEKSTUALIK, REMINISSENSIYA

Annotatsiya

Amerikalik yozuvchi Rik Riordanning "Percy Jackson and The Lightning Thief" kitobini tahlil qilish jarayonida ushbu asarda reminissensiyaning muhim roli aniqlandi. Muallif o'z ishida elementi reminissensiya hisoblangan havolalar va til o'yinidan foydalanadi. Ushbu maqolaning maqsadi reminissensiyalardan foydalanishni ko'rib chiqish va ularning ma'nolarini aniqlashdir.

Kalit so'zlar: postmodernizm, intertekstuallik, transtekstuallik, reminissensiya, allyuziya, Yunon mifologiyasi.

Kirish. Intertekstuallik nazariyasining paydo bo'lishi va tadrijini kuzatish shuni ko'rsatdiki, intertekstuallik – postmodernizm davriga oid tushuncha, u o'zida postmodernizmning "olam kaosdan iborat" qabilidagi tamoyilini aks ettiradi. Biroq keyingi izlanishlar, ayniqsa. Jerar Jenett tadqiqotlari intertekstuallikni torroq tushunishga olib keldi va J.Jenett keng ma'nodagi intertekstuallik tor ma'nodagisi bilan ayniyat hosil qilmasligi hamda chalkashlik tug'dirmasligi uchun transtekstuallik atamasini taklif qildi. Aslini olganda intertekstuallik va transtekstuallik o'rtasida prinsipial farq yo'q, faqatgina hodisaning ilk paydo bo'lishi va keyingi rivoji o'rtasidagi tafovutni ko'rsatish uchun transtekstuallik istilohi qo'llandi. Transtekstuallik intertekstuallikdan tashqari hodisalarni qamrab oladi. Intertekstuallikka oid bahslarda biz ko'proq J.Janett qarashlariga tarafdor bo'lganimiz sababli ham mazkur ilmiy ishda transtekstuallik atamasini qo'llashni ma'qul ko'rdik. Vaholanki, tadqiqotda aynan matnlaro aloqadorlik masalalari Rik Riordan ijodi misolida tadqiq etiladi.

Adabiy reminissensiyalar matndagi so'zlarning yangi, qo'shimcha ma'nolarini yuzaga keltiradi, asosiy matnning yashirin ma'nolarini, ko'pqatlamli, ko'prejali tabiatini yuzaga chiqaradi. Ko'p kitob o'qigan, e'tiborli va dunyoqarashi keng bo'lgan kitobxon biror asarni o'qir ekan undagi muayyan so'z yoki jumlagi oldin ham duch kelganligini biladi. Xuddi mana shu narsa reminissensiyadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'kidlash lozimki, reminissensiya adabiy tasvir usuli o'laroq asarning g'oyaviy-badiiy tahlili chegaralarini kengaytiradi, muallifning ichki maqsadini anglashga yordam beradi, kitobxonni qiziqarli intellektual o'yinga chorlaydi. Reminissensiya va allyuziya

bir-biriga o'xshaydi-yu, birinchisi shoir ijodida umuman yoki uning konkret asarida mavhum shaklda yoki xotira tarzida voqelanadi, ikkinchisida esa hammaga ma'lum tarixiy yoki adabiy faktga havola tarzida voqelanadi. Shu tariqa, sitata, allyuziya va reminissensiyadan muddao bitta: muallif maqsad-g'oyasini to'ldirish, adabiy an'analarga vorisilikni voqelantirish. Reminissensiyani dejavyuga o'xshatish mumkin. Dejavyu ham kam uchraydigan holat, shuning uchun ham muallif uni o'z asariga ko'chirishni istaydi, shu bilan asar kutilmagan ta'sir kuchiga ega bo'ladi, sirlik kasb etadi. Reminissensiyada oldingi madaniy-tarixiy faktlar, muallif va asarlar xuddiki harir parda ortida yuz ko'rsatadi. Muallif va kitobxon o'yini kechayotgandek tasavvur paydo bo'ladi. "Oldingi madaniyat bilan qancha chuqur tanish bo'lsang, keyingisini shuncha chuqur egallaysan" qabilidagi gap aynan mana shu stilistik usullarni ifodalayotgandek. Sitata, allyuziya va reminissensiya ko'pgina mutaxassilarning fikriga ko'ra intertekstuallik shakllaridir.

Rik Riordanning petalogiyasida juda ko'p mifologik qahramonlar va qadimgi yunon xudo/ma'budlarini uchratamiz. Rik Riordan intertekstuallikning yuqorida eslatilgan shakllari yordamida uslubiy jihatdan yorqin individual asarlar yaratdi. Sinchkov va dunyoqarashi keng kitobxon kitobxon unda oldin ham muayyan adabiy matnlarda uchratgan ifodalar, qahramonlar, sahnalarni tanib ola oladi.

Pentalogiyaning ilk romani birinchi bobidayoq bosh qahramon Persi Jekson guruhi bilan ekskursiyaga yo'l oladi. Ayni shu ekskursiya chog'ida Persi jonajon o'rtog'i Grouverni himoya qilaturib Nensi Bobofitni turtib yuboradi. Missis Dods unga muzeyga borishni buyuradi Mistika xuddi ana shu nuqtadan boshlanadi: «Your time is up, she hissed. Then the

weirdest thing happened. Her eyes began to glow like barbecue coals. Her fingers stretched, turning into talons. Her jacket melted into large, leathery wings. She wasn't human. She was a shriveled hag with a bat wings and claws and a mouth full of yellow fangs, and she was about to slice me to ribbons”.

Tadqiqot metodologiyasi. “Vaqtigiz tugadi, - dedi u. Keyin eng g'alati hodisa yuz berdi. Uning ko'zlari barbekyu cho'g'lari kabi porlay boshladi. Barmoqlari cho'zilib, tirnoqqa aylandi. Ko'yilagi erib katta, terisimon qanotlar tusini oldi. Endi u odam emas edi. Bu yuzlari ajinga to'lgan, ko'rshapalak qanotli va sap-sariq qoziqtishlarga to'la og'zi bo'lgan jodugarning o'zi, meni lentalarga bo'lib tashlamoqchi edi”.

Mazkur parchaga diqqat qilsak, qahramon Persining o'limini istayotgan qasos ma'budasiga duch kelganini angelaydi. “Hag” tarjimada “qadim yunon mifologiyasidagi qasos ma'budasini anglatadi. Ular uchta bo'lishgan (yunonchasiga - erinniyalar). Qadimgi yunon mifologiyasida ular haqida birinchi bo'lib dramaturg Esxil (er.avv. 525-456 yillar) ko'zi qonga to'lgan, tishlari o'tkir va uzun tilli, sochlari o'rnida ilon g'imirlagan jirkanch kampirlar ko'rinishida tasvirlagan. Ko'chma ma'noda esa «Hag» istehzoli ma'noda g'azabnok, yovuz shalla ayolni anglatadi. Rik Riordan romanidan olingan yuqoridagi parchani shuning uchun ham reminissensiya deyishimiz mumkin, yovuzlik bilan, masalan, qasos ma'bulari bilan jangga kirishgan qadimgi yunon mifologik qahramonlariga o'xshab adibning qahramoni ham o'ziga ishonmaslik, o'z kuchini baholay olmaslik, o'zini aqlsiz degan shubhaga borish, o'zining o'rtoqlariga qaraganda boshqachaligini anglash singarilarda voqelangan o'z qo'rquvlari bilan yuzma-yuz keladi. Shunda ilk jasoratini amalga oshiradi, o'z qo'rquvini birinchi marta yenga oladi.

Keyingi epizodda Persi Jekson qarri kampirlar qiyofasidagi moyralar bilan yana bir xavf-xatarga to'la vaziyatga duch keladi. “The old lady in the middle took out a huge pair of scissors – gold and silver, long-bladed, like shears. I heard Grover catch his breath”.

“O'rtadagi kampir oltin va kumushdan yasalgan, dami o'tkir o'roqqa o'xshash qaychini qo'lga oldi. Men Grouverning nafas rostlaganini eshitdim”.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shu lahzada Persi va uning do'sti xavf-xatar ostida qolgan, ularning hayoti qandaydir kampirshoning qo'lidagi qaychiga bog'liq bo'lib qolgandi. Qadimgi Yunoniston miflari ruhida o'sgan Grouver darhol ro'paralarida kim turganligini aniq-tiniq angelaydi va dahshatga tushadi. Persi esa o'zining otasi deb bilgani Poseydon dunyosi, muhitini hali uncha yaxshi bilmagani tufayli xatarni to'la his qilmas, lekin do'stining yuzi burishib ketganini ko'rib, vaziyatning jiddiyiligini anglay boshlaydi. Ma'lumki, qaychi ko'targan ayol o'lim timsoli, uning real ko'rinishi edi. Dunyoning jamiyki xalqlari madaniyatiga daxldor qadimgi mif va afsonalarda o'lim uydirma tarzda biror-bir shaklda ifoda etiladi. Mazkur parchada ko'rsatilgan qaychi ko'targan ayol esa moyra Atropus edi. Rik Riordan reminissensiya yordamida o'limni yunon mifologiyasidagi o'qimishli kitobxonga ma'lum bo'lgan moyra orqali ifoda etadi.

“Percy Jackson”, Annabeth said, ‘meet Clarisse, Daughter of Ares’. I blinked. ‘Like... the war god?’ Clarisse sneered. ‘You got a problem with that?’

“- Persi Jekson, - dedi Annabet. – Klarisa bilan tanish, u Aresning qizi bo'ladi.

Men ko'zlarimni pipiratdim.

Urush ma'budi o'shami?

Klarissa miyig'ida kuldi:

U bilan biron kelishmovchiliging bormi?”

Yunon mifologiyasida urush ma'budi halokat va vayronalıklar keltiradi. Yunon miflaridagi boshqa ma'budlarga qaraganda unchalik ijobiy bo'lmagan. Chunki Zevs ham, o'z o'g'li bo'lsa-da, hadeb janjal keltirib chiqaraveradigan, odamlarni o'ldirib, daryolarda suv o'rnida qon oqqanda zavqqa to'ladigan Aresni uncha yoqtirmagan.

Yuqoridagi parchada ham badiiy obrazga tayanar ekan, Rik Riordan reminissensiyadan foydalanadi. Persi va urush ma'budi Aresning qizi bo'lmish Klarissa o'rtasida jang davom etadi. Rik Riordan Persi Jeksonning dovyurakligi va jasoratini ta'kidlab ko'rsatish maqsadida mazkur reminissensiyadan ongli ravishda va muayyan maqsadni ko'zlab foydalandi. Chunki asrlar davomida o'quvchi qalbiga qo'rquv solib kelgan naq urush ma'budining qizi bilan hech bir qo'rqmasdan jangga kirishish oson emas.

“Persi Jekson va chaqmoq o'g'risi” asarida u yunon ma'budlarining ismlarini bevosita keltirmasdan ularga ishora qilib o'tadi. Masalan, Aid haqida “Our friend way downstairs” – “bizning yerostidagi do'stimiz, “Old Corpse Breath” – o'liklarning qadimiy hidlovchisi” deydi, uning kimligini bilib olish kitobxonning o'ziga havola qilinadi. Bunda Aidning yerosti saltanati ma'budi ekanligiga ishora qiluvchi “yerostidagi” va “o'liklar” kabi so'zlar o'quvchiga yo'llanma beradi. Yoki dengiz ma'budi Poseydonni allyuziya yo'li bilan “Old Seaweed” – “qari suvchi”, bir o'rinda esa “Old Barnacle Beard” – “shahvatparast soqoldor” deb ataydi.

Xulosa va takliflar. Manbalarda keltirilishicha, muallif o'z-o'zining asarlariga murojaat, ishora qilishi mumkin va bu avtoreminissensiya deyiladi. Avtoreminissensiyani ba'zan o'z-o'zini takror bilan ham aralashtirib yuborishadi. O'zbek adabiyotida reminissensiyani bu ko'rinishi Murod Muhammad Do'st asarlarida ko'p uchraydi. Adabiyotshunos olim V.Xodasevichning fikriga ko'ra, reminissensiya ba'zan ijodkor haqida uning o'zi aytilganlaridan ko'proq narsani ayta oladi, ular ongosti ruhiy jarayonlarini yuzaga chiqaradi.

Reminissensiyani postmodernizm adabiyotining bir elementi deb oladigan bo'lsak, muayyan matnning uning yaratuvchisi bilan aloqasi baribir mavjud bo'lib qolaverishi haqidagi oldingi bobda aytilgan mulohazamiz yana bir karra tasdiqlanadi.

Persi Jekson sarguzashtlariga bag'ishlangan barcha romanlar nihoyatda qiziqarli va jozibali syujetga ega, kutilmagan yechimlar bilan kitobxonning e'tiboriga molik. Rik Riordan ulkan intellek sohibi sifatida qadim miflarni, umuman jahon tarixi va bugungi dunyo fakt hamda ma'lumotlarini katta mahorat bilan uyg'unlashtira olgan. Bu asarlar rik Riordaning postmodern adabiyotning ulkan vakili ekanini, shuningdek allyuziya va reminissensiyalar ustasi ekanini ko'rsata oladi.

ADABIYOTLAR

1. “Percy Jackson and The Lightning Thief” published in Great Britain by Puffin Books 2013. – P. 22.
2. “Percy Jackson and The Lightning Thief” published in Great Britain by Puffin Books 2013. – P. 26.
3. Бу ҳақда қ.: Кун Н. Легенды и мифы древней Греции. – Москва, Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1954. – Стр 52.
4. Бу ҳақда қ.: Ходасевич В. Собрание сочинений в 4 томах. Том 3. – Москва, “Согласие”, 1996. – Стр. 426. (594 стр.)
5. Барт, Р. (1974). S/Z (Пер. Р. Миллера). Издательство Hill and Wang. Деррида, Ж. (1976). О грамматологии (Пер. Г. Спивак). Издательство Джонса Хопкинса.

6. Женетт, Ж. (1997). Палимпсесты: литература во второй степени (Пер. К. Ньюмана и К. Дубинского). Издательство Университета Небраски.
7. Хатчин, Л. (1985). Теория пародии: учения о формах искусства XX века. Издательство Университета Иллинойса.
8. Изер, В. (1978). Акт чтения: теория эстетического восприятия. Издательство Джонса Хопкинса.
9. Джеймисон, Ф. (1981). Политическое бессознательное: рассказ как социально-символический акт. Издательство Корнелльского университета.
10. Кристева, Ю. (1984). Слово, диалог и роман (Пер. К. Волла). Издательство Колумбийского университета.



Feruz MURATXODJAEVA,
Oriental universiteti katta o'qituvchisi, PhD

O'zDJTU dotsenti Yuldasheva N.E taqrizi asosida

PSIXOLINGVISTIKA VA TILSHUNOSLIK: NUTQ VA TILNING PSIXOLOGIK MUNOSABATLARI

Annotatsiya

Psixolingvistika, psixologiya va tilshunoslik sohasida, til va inson ongi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishga oid muhim tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar o'rganiladi. Bu soha odamlarning tilni o'rganish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlarini o'rganadi, shuningdek, lingvistik bilishni o'z ichiga oladi. Psixolingvistika tadqiqotchilar tilning tuzilishi, ishlab chiqarish va o'zlashtirishga asoslangan kognitiv mexanizmlarni o'rganishga intiladi. Tilni tushunish va ishlatish bilan bog'liq aqliy jarayonlarni o'rganish orqali, inson ongingning ishlashi haqida tushunchaga ega bo'ladi. Psixolingvistika tilning tuzilishi va vazifalarini tahlil qilish uchun neyroimaging texnikasi va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanadi. Turli amaliy sohalarida tilni o'rganish, o'qitish va nutq terapiyasiga oid amaliyotlar ham olib boriladi. Psixolingvistika til va ongi o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqida chuqurlashtirilgan tushunchalar beradi va inson bilimi va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. **Kalit so'zlar.** Psixolingvistika, til, ong, lingvistika, tilshunoslik, semantika.

PSYCHOLINGUISTICS AND LINGUISTICS: PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIPS OF SPEECH AND LANGUAGE

Annotation

In the fields of psycholinguistics, psychology, and linguistics, important studies and researches related to the analysis of the complex relationship between language and the human mind are explored. This field studies the processes by which people learn, process, and use language, and includes linguistic cognition. Psycholinguistics researchers seek to study the cognitive mechanisms underlying the structure, production, and acquisition of language. By studying the mental processes involved in understanding and using language, they gain insight into the workings of the human mind. Psycholinguistics uses neuroimaging techniques and other research methods to analyze the structure and functions of language. Practices related to language learning, teaching and speech therapy are also conducted in various practical areas. Psycholinguistics provides an in-depth understanding of the complex relationship between language and consciousness and plays an important role in the formation of human knowledge and behavior.

Key words. Psycholinguistics, language, consciousness, linguistics, linguistics, semantics.

ПСИХОЛИНГВИСТИКА И ЛИНГВИСТИКА: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СВЯЗИ РЕЧИ И ЯЗЫКА

Аннотация

В области психолингвистики, психологии и лингвистики исследуются важные исследования связанные с анализом сложных взаимоотношений между языком и человеческим сознанием. Эта область изучает процессы, с помощью которых люди изучают, обрабатывают и используют язык, и включает лингвистическое познание. Исследователи психолингвистики стремятся изучить когнитивные механизмы, лежащие в основе структуры, производства и усвоения языка. Изучая психические процессы, связанные с пониманием и использованием языка, они получают представление о работе человеческого разума. Психолингвистика использует методы нейровизуализации и другие методы исследования для анализа структуры и функций языка. Практики, связанные с изучением языка, преподаванием и логопедией, также проводятся в различных практических областях. Психолингвистика обеспечивает глубокое понимание сложных взаимоотношений языка и сознания и играет важную роль в формировании знаний и поведения человека.

Ключевые слова. Психолингвистика, язык, сознание, лингвистика, лингвистика, семантика.

Kirish. Psixolingvistika – nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo'lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. [Madvaliyev A.2000]. Psixolingvistika, psixologiyaga yaqin turadi, chunki ular o'zaro bog'lanishli eksperimentlar va "semantik differensial" kabi tadqiqot usullaridan foydalanishadi. Ushbu sohada bir qator amaliy masalalar, masalan, ona tili va xorijiy tilni o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari, miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi, nutqiy ta'sir ko'rsatish muammolari (mas, ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ'ibot ishlarida), sud psixologiyasi va kriminalistika (mas, kishilarni ularning nutq xususiyatiga

qarab tanib olish, aniqlash), mashina tarjimai hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolari kabi mavzular tushuntiriladi. "Psixolingvistika" termini o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O'zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan, lekin haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Psixolingvistika, psixologiya va tilshunoslik chorrahasida, til va inson ongi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi. U odamlarning tilni qanday egallashi, qayta ishlashi va undan foydalanishini o'rganadi, lingvistik bilish sirlarini ochadi.

Z.D. Popova, I.A.Sterninlar [Popova Z.D., Sternin I. 2002] kognitiv tilshunoslik metodologiyasining asosiy pozitsiyasi til belgilarining semantikasini o'rganish orqali konseptosferaga yorib kirishda namoyon bo'lishini ta'kidladilar. U yoki bu xalq vakili uchun ijtimoiy hayoti

bosqichlari davomida nima muhimligini, boshqa bir xalq uchun ahamiyatli bo'lgan qanday narsalar uning nuqtai nazaridan chetda qolganini va buning sabablarini bilib olish mumkin bo'ladi.

Psixolingvistik metodologiya asosida nafaqat milliy, balki umummilliy tafakkur xususiyatlarini, individual-muallif konseptosferasining barcha belgilarini qamrab oluvchi kognitiv lingvistik metodologiyasi yuzaga keldi.

Z.D. Popova I.A.Sterninlar tomonidan kognitiv-semantik yondashuvni takomillashtiruvchi asosiy postulatlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

1. Inson tafakkuri noverbaldir, u predmetning universal kodlari yordamida amalga oshadi; inson kod birliklari yordamida kodlangan va universal kod bazasini tashkil etuvchi konseptlar yordamida tafakkur qiladi (Vigotskiy 1982, Jinkin 1958, 1982, 1998, Gorelov 1980, 2003, Gorelov, Sedov 1998).

Tadqiqot metodologiyasi. Til inson xatti-harakati va muloqotining asosiy jihati hisoblanadi. Psikolingvistika tilni tushunish, ishlab chiqarish va o'zlashtirishga asoslangan kognitiv mexanizmlarni ochishga intiladi. Tilni tushunish va ishlatish bilan bog'liq aqliy jarayonlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar inson ongining ishlashi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Psixolingvistikadagi asosiy savollardan biri bu odamlar tilni qanday o'rganishidir. Bu bolalarda birinchi tilni o'zlashtirishni va kattalardagi ikkinchi tilni o'rganishni o'z ichiga oladi. Empirik tadqiqotlar va nazariy modellar orqali tadqiqotchilar til o'rganishni shakllantiradigan kognitiv jarayonlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni o'rganadilar.

Psixolingvistikaning shakllanishi, masalalarining aniq belgilanishi, nazariy postulatlar qat'iylashgandan keyin kognitiv tilshunoslikning imkoniyatlari kengaydi. Aynan psixolingvistlar noverbal fikrlash mavjudligini, insonlar ongida doimiy ravishda o'zgarib va yangilanib boruvchi, kvant bilimlar – konseptlardan iborat koneptosfera mavjudligini asoslashdi. Psikolingvistik kuzatuvlaridan til belgilari insonlar tomonidan fikr almashish maqsadida, aniqrog'i nisbatan keng ko'larga ega bo'lgan va muloqot ehtiyojini shakllantiradigan konseptlar ifodasini ta'minlashi ma'lum bo'ldi. Til belgilari olimlar tomonidan konseptlar olamidagi ma'lum bir kontur chiziqlar sifatida baholangan. Konseptosfera til belgilari bilan ifodalash mumkin bo'lgan qismdan ancha keng doirani qamrab oladi. Demak, til birliklari konseptosferaning ma'lum jihatigina aks ettirar ekan. Psikolingvistika sohasida erishilgan yutuqlar kognitiv lingvistik metodologiyasi shakllanishi uchun asos vazifasini o'tadi.

Tahlil va natijalar. Psikolingvistika miyadagi tilning tuzilishi va tuzilishini o'rganadi. Funktsional magnit-rezonans tomografiya (fMRI) va elektroensefalografiya (EEG) kabi neyroimaging texnikasi tadqiqotchilarga til vazifalari davomida miya faoliyatini kuzatish imkonini beradi, bu esa tilni qayta ishlashning neyro asoslari haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

Psixolingvistikadagi yana bir muhim tadqiqot sohasi til ishlab chiqarishdir. Bu so'zlarni tanlashdan tortib to grammatik jihatdan to'g'ri jummalarni shakllantirishgacha bo'lgan so'zlovchilar tilni qanday yaratishini tushunishni o'z ichiga oladi. Psikolingvistik tadqiqotlar nutqni rejalashtirish va bajarish bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni yoritadi. Bundan tashqari, psixolingvistika til va fikr o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Psikolingvistik tadqiqotlar lingvistik kategoriyalar va tuzilmalar konseptualizatsiya va fikrlashni qanday shakllantirishini o'rganadi.

Psixolingvistika nazariy ahamiyatidan tashqari, turli sohalarda amaliy ahamiyatga ega. Bu tilni o'qitish amaliyoti,

nutq terapiyasi usullari va aloqa buzilishlari haqida ma'lumot beradi. Tilning kognitiv asoslarini tushunish orqali o'qituvchilar va klinitsyenlar tilni o'rganish va reabilitatsiya qilish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Psixolingvistika o'z mohiyatiga ko'ra til va ong o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi, til hodisalari va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochadi. Empirik tadqiqotlar va nazariy izlanishlar orqali psixolingvistlar tilning inson bilimi va xulq-atvorini qanday shakllantirishi haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishda davom etmoqdalar.

Psixolingvistika, psixologiya va tilshunoslikning keng qamrovli sohasidir va til bilish va inson ongining murakkab munosabatlarini tahlil qiladi. U odamlarning tilni o'rganish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlarini o'rganadi, shuningdek, lingvistik bilishni o'z ichiga oladi.

Til, inson faoliyati va kommunikatsiyasining asosiy qismi hisoblanadi. Psikolingvistika, tilni tushunish, ishlab chiqarish va o'zlashtirishga asoslangan kognitiv mexanizmlarni o'rganadi. Tilni tushunish va foydalanish bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar inson ongining ishlash jarayonlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Psixolingvistikadagi eng asosiy savollardan biri odamlar tilni qanday o'rganishidir. Bu bolalarda birinchi tilni o'zlashtirishni va kattalardagi ikkinchi tilni o'rganishni o'z ichiga oladi. Empirik tadqiqotlar va nazariy modellar orqali tadqiqotchilar tilni o'rganishni shakllantiradigan kognitiv jarayonlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni o'rganadilar.

Psixolingvistikadagi yana bir muhim tadqiqot sohasi til ishlab chiqarishdir. Bu so'zlarni tanlashdan tortib to grammatik jihatdan to'g'ri jummalarni shakllantirishgacha bo'lgan so'zlovchilar tilni qanday yaratishini tushunishni o'z ichiga oladi. Psikolingvistik tadqiqotlar nutqni rejalashtirish va bajarish bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni yoritadi.

Bundan tashqari, psixolingvistika til va fikr o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Sapir-Uorf gipotezasi deb ham ataladigan lingvistik nisbiylik, til bilish va idrokga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Psikolingvistik tadqiqotlar lingvistik kategoriyalar va tuzilmalar konseptualizatsiya va fikrlashni qanday shakllantirishini o'rganadi.

Psixolingvistika nazariy ahamiyatidan tashqari, turli sohalarda amaliy ahamiyatga ega. Bu tilni o'qitish amaliyoti, nutq terapiyasi usullari va aloqa buzilishlari haqida ma'lumot beradi. Tilning kognitiv asoslarini tushunish orqali o'qituvchilar va klinitsyenlar tilni o'rganish va reabilitatsiya qilish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Psixolingvistika o'z mohiyatiga ko'ra til va ong o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi, til hodisalari va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochadi. Empirik tadqiqotlar va nazariy izlanishlar orqali psixolingvistlar tilning inson bilimi va xulq-atvorini qanday shakllantirishi haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishda davom etmoqdalar.

Xulosa. Maqola psixolingvistika sohasidagi muhim izlanishlar va tadqiqotlarni belgilab beradi. U til va inson ongi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishga oid muhim konseptlarni ta'kidlaydi. Psikolingvistika tilni tushunish, ishlab chiqarish va o'zlashtirishga asoslangan kognitiv mexanizmlarni ochadi. Turli psihologik texnikalar va tadqiqot usullari tilning tuzilishi va vazifalarini tahlil qilishda muhim o'rin egallaydi. Ammo, maqola shu sohani kengroq tahlil etadi va amaliyotlar, o'qitish metodi va nutq terapiyasi kabi sohalarda psixolingvistikaning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi..

1. Carroll, D. W. (2008). *Psycholinguistics: Exploring the Psychology of Language*. Pearson Education.
2. Popova Z.D., Sternin I.A. *Ocherki po kognitivnoy lingvistike*.-Voronej, 2002. – 192 s.
3. Popova Z.D., Sternin I.A. *Kognitivnaya lingvistika*. – M.: AST: Vostok-Zapad, 2007. – 314 s.
4. Popova Z.D., Sternin I.A. *Semantiko-kognitivniy analiz yazika*.-Voronej: Nauchnoe izdanie, 2007. – 250 s.
5. Clark, H. H., & Clark, E. V. (1977). *Psychology and Language: An Introduction to Psycholinguistics*. Harcourt Brace Jovanovich.
6. Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
7. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2013). *An Introduction to Language*. Cengage Learning.
8. Gass, S. M., & Selinker, L. (2008). *Second Language Acquisition: An Introductory Course*. Routledge.
9. Harley, T. A. (2008). *The Psychology of Language: From Data to Theory*. Psychology Press.
10. Levelt, W. J. M. (2013). *A History of Psycholinguistics: The Pre-Chomskyan Era*. Oxford University Press.
11. Madvaliyev A. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
12. Marslen-Wilson, W. (1990). Activation, competition, and frequency in lexical access. *Psychological Review*, 97(3), 363-405.
13. Pinker, S. (2007). *The Language Instinct: How the Mind Creates Language*. Harper Perennial Modern Classics.
14. Traxler, M. J. (Ed.). (2012). *The Handbook of Psycholinguistics*. John Wiley & Sons.



Shahnoza MUSLIMOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti erkin tadqiqotchisi

Toshkent texnologiyalar universiteti professori v.b., f.f.n. S.Yakubov taqrizi ostida

YOM SANSOPNING “YILNING SO‘NGGI TUNI” HIKOYASIDA MAKTUB-YOZISHMA

Annotatsiya

Yom Sansopning ijodiy qiyofasi murakkab, serqirra va ziddiyatlarga to‘la. Adib hikoya janrida maktub yozishmalarni qo‘llagan ilk koreys yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga u milliy adabiyot tarixida estetizm va naturalizmi bir vaqtning o‘zida qo‘llash orqali nasrda yangi estetik qarashlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning ijodida ilgari surilgan romantik, milliy va gumanistik tendensiyalar boshqa adiblar ijodida ham kuzatiladi, ammo zamondosh yozuvchilardan farqli o‘laroq, adib nomukammal va noizchil so‘zlashuv uslubini o‘zgartira oldi. Yozuvchining “Yilning so‘ngi tuni” hikoyasi mazkur davr yoshlarining o‘zgarayotgan muhitga munosabati, javobi sifatida yangradi.

Kalit so‘zlar: maktub, yozishma maktub, ichki monolog, monolog-xotira, monolog-mushohada, o‘lim, hayot, nikoh, ajrashish.

ПЕРЕПИСКА В РАССКАЗЕ ЁМ САНСОПА «ПОСЛЕДНЯЯ НОЧЬ ГОДА»

Аннотация

Творческий образ Ём Сансопа сложен, красочен и полон противоречий. Писатель один из первых корейских писателей, использовавших переписку в повествовательном жанре. В то же время ему удалось сформировать новые эстетические взгляды в прозе, одновременно применив эстетизм и натурализм в истории национальной литературы. Романтические, национальные и гуманистические тенденции, развитые в его творчестве, наблюдаются и в творчестве других писателей, но в отличие от современных писателей писатель сумел изменить несовершенный и небрежный стиль речи. Рассказ писателя «Последняя ночь года» прозвучал как реакция и отклик молодежи этой эпохи на меняющуюся среду.

Ключевые слова: письмо, письменная переписка, внутренний монолог, монолог-память, монолог-наблюдение, смерть, жизнь, брак, развод.

CORRESPONDENCE IN YOM SANSOP'S STORY "LAST NIGHT OF THE YEAR"

Annotation

Yom Sansop's creative image is complex, colorful and full of contradictions. Writer is one of the first Korean writers to use letter correspondence in the narrative genre. At the same time, he managed to form new aesthetic views in prose by simultaneously applying aestheticism and naturalism in the history of national literature. The romantic, national and humanist tendencies advanced in his work are also observed in the work of other writers, but unlike contemporary writers, the writer was able to change the imperfect and casual style of speech. The writer's story "The Last Night of the Year" sounded as a reaction and response of the youth of this era to the changing environment.

Keywords: letter, letter correspondence, internal monologue, monologue-memory, monologue-observation, death, life, marriage, divorce.

Kirish. Yom Sansopning “Yilning so‘nggi tuni” hikoyasi tavba-tazarru, istig‘for shaklida yozilgan. Bu yerda hikoya xat – monolog tarzida beriladi. Asar mazmun jihatidan nisbatan jo‘n bo‘lsa-da, muallif uchun aynan hozirgi zamon koreys nasriga yangi shaklning kirib kelishi muhim sanaladi. Hikoyada epistolyar hikoya shakli dastlabki ikki hikoyaga qaraganda ko‘proq tosh bosadi.

“Odatda qahramonlarning ichki monologi asarda ro‘y berayotgan g‘oya kuchli dramatik hodisalar ta‘sirida murakkab vaziyatga tushib qolgan insonning ruhiy olamini chuqur tahlil etishga yordam beradi. Tashqi monolog esa asar voqealarini rivojlantirishga, bo‘lib o‘tgan, yoki, ayni chog‘da bo‘layotgan hodisaga munosabatini belgilashga, atrof-muhitni va odamlarni baholashga xizmat qiladi” [1].

Rus adabiyotidan oziqlangan hamda uni koreys adabiyotiga tatbiq etgan muallif o‘zining “Yilning so‘nggi tuni” hikoyasida zamonaviy koreys nasriga yangi ovoz, yangi ruh, yangi shakl va uslubni olib kiradi. Adibning rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy qissalari uslubidan ta‘sirlanganligi hikoya kompozitsiyasida ko‘zga tashlanadi. Xususan, “Yilning so‘nggi tuni” hikoyasida F. Dostoyevskiyning “Kambag‘allar” qissasidagi maktub yozishmadan unumli foydalanadi.

Adabiyotshunos olim M. Qo‘chqorova “Maktublar – qalb ko‘zgi” maqolasida jahon badiiy nasridagi maktubning o‘rni haqida shunday e‘tirof etadi: “Dunyoga mashhur nemis yozuvchisi I.V. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asari bejiz boshdan-oyoq maktub janri asosiga qurilmagan. Xuddi shuningdek, avstraliyalik adib Stefan Sveygning “Bir ayol maktubi” qissasi, Frans Kafkaning “Otamga xat” essesi ma‘lum badiiy maqsad, badiiy shakl imkoniyatlariga ko‘ra aynan maktub asosiga qurilgan...Shuning uchun ba‘zan yozuvchi epik asarlar kompozitsiyasini maktub asosiga qursa, ba‘zida esa asar tarkibida qahramonlarning bir-biriga yozishma maktublarini ilova qiladi”[2].

Umuman olganda, jahon adabiyotida keng tarqalgan maktub yozishma koreys adabiyotida Yom Sansop tomonidan ilk bor qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik boshqa ijodkorlar, xususan, Chxve Soxe ijodida yanada sayqallandi. Adib qalamiga mansub “Qochqinning maktubi” hikoyasi epistolyar shaklida yozilgan, chuqur psixologizm bilan sug‘orilgan. Hikoya ikki do‘st – qochoq Pak va Kimlarning maktublari asosiga qurilgan. Hikoya onasi, ayoli va farzandini tashlab ketgan Pakka do‘sti Kimdan kelgan, ta‘na so‘zlar bilan to‘la maktubdan boshlanadi. Javob xatida qochoq chekkan azoblari, chorasizligini batafsil bayon qiladi, hatto barcha oila a‘zolarini o‘ldirmoqchi bo‘lganligini bildiradi. Ammo yomonlik,

vahshilik kuchaygan dunyoda qotillar qatoriga kirib qolmaslik uchun ham uyni tark etgani, ozodlik uchun kurashayotgan partizanlar yashirin harakatiga qo'shilganligini ma'lum qiladi.

Asosiy qism. Hikoya istig'rof mazmuni bilan ajralib turadi, boy berilgan ozodlik uchun motam qo'shig'i sifatida yangraydi, yozuvchining hayotni real tasvirlashga bo'lgan harakatini ko'rsatadi.

Yom Sansopning "Yilning so'ngi tuni" hikoyasida yigit va qiz (er va xotin) o'rtasidagi yozishmalarda an'anaviy odob-axloq asosiga qurilgan oila, koreys jamiyati uchun yot unsur – ajralishlar, ijtimoiy qashshoqlik, mart harakatlari, hayot va o'lim haqidagi mushohadalarga yozuvchining tanqidiy qarashlari aks ettirilgan.

Muallif mazkur hikoyasida bosh qahramon maktub bitishdan oldin chuqur o'ylarga to'laydi: yozish kerakmi, yoki yo'q; yozganlaridan nima naf; maktubning yakuniy natijasi bormi? Maktub kimningdir vijdonini uyg'otadimi yoki achinish hissini kuchaytiradimi? Mana shu savollar girdobida qo'lga qalam ushlagan bosh qahramon o'z-o'zidan maktub yozishga kirishdi:

"So'ngi daqiqalar eng muhim vazifani bajaradi. Va mutloq yakun topadi. So'ng uning ortidan nima qoladi? Faqat, bo'shliq. U yerda bo'shliqdan bo'shliqqa oqib o'tuvchi mangu tasalli, mutloq ozodlik, haqiqiy poklik, ilohiylik va ezgulik bor" [3].

Bu yerda adib "so'ngi daqiqalar"da hayot va o'lim o'rtasidagi oraliqni nazarda tutadi. Bosh qahramon ruhiy kechinmasida mag'lubiyatga uchragan namoyish ishtirokchilari holati hikoya ekspozitsiyasi vazifasini o'taydi. Asar markaziga qo'yilgan bosh qahramon (hikoyachi obrazi) – ruhiyatida kechayotgan iztiroblar shar pufakchalari, bir tomondan, shamdek ajin bosgan, ikkinchi tomondan, shaftoli guli kabi tiniq yuz ifodasida yuzaga chiqadi. Bosh qahramon umrining yigirma beshinchi bahorida (adib bu hikoyani yozganida taxminan shu yoshda edi) vaqtning qisqa, shu bilan zerikarli ekanligiga amin bo'ldi. U (bu yerda bosh qahramon obrazida yangi bilimni egallagan, ammo vatan ozodligi uchun kurashda mag'lubiyatga uchragan yoshlarning umumiy tipi nazarda tutiladi) ayni kuchga to'lgan chog'ida barcha harakatlari xuddi sovun pufakchalari kabi omonat ekanligini anglab yetdi. Hatto minglab pufakchalar ham unga yordam bera olmaydi. Shaftoli guli kabi yuzlar bir kechada shamdek so'ldi, ajinlar bo'y ko'rsatdi. Ma'nosiz va ayanchli hayotni qabul qilish o'rniga u bo'shliqni – o'limni tanladi, kulguga qolmaslik uchun izziz yo'qolishni istadi. Sovun pufakchalari havo bosimida yo'qolib borayotgan bo'lsa, xalq istibdod bosimi ostida bo'shliqqa yuz tutdi.

"Quyosh botdi. O'ning ko'tarilishiga hali uzoq, sanoqsiz yulduzlar juda go'zal, ammo ular juda uzoqda va juda kichkina. Dalada qolib ketgan kabutarlar sovuq ayozda titraydi. Bo'yni bog'lab qo'yilgan tovusning oyoqlari tipirchilab, achchiq yig'laydi. Oh, hayotning hamma jabhalari qisqarib, bir vaqtning o'zida mazasini torttirgan to'rt oy! Nega men aqlan ozmaganimga hayronman. Qanday qilib ongim tiniq bo'lishi mumkin? His-tuyg'ularim qoldimi? Vijdonim qoldimi? Nega Yaratgan meni hali ham tirik qoldirdi? Bu ne'matmi? Bu jazomi?" [4].

Bosh qahramon yozayotgan maktubda muallif ichki monolog orqali uning ruhiyatini kashf etishda peyzaj tasviridan unumli foydalanadi. Fasohatli tun bosh qahramonni o'zining sirli domiga tortdi. Ichki his-tuyg'ulari bilan kurashayotgan u tun bilan yuzma-yuz qoldi. Adib quyosh botishi, tun cho'kishi, olisdagi yulduzlar, hali ko'kka ko'tarilmagan oyni mag'lubiyatga uchragan namoyish ishtirokchilari holatiga mengzaydi. *Quyosh botishi – mag'lubiyat, ko'tarilmagan oy – umidlarning sarobga aylangani, olisdagi yulduzlar – ushalmas orzular* istibdod silsilasi natijasidir. Shuncha zulm, zo'ravonlik, yo'qotishdan

keyin bosh qahramonning aqlan ozmagani uning e'tiqodi bilan uzviy bog'liq. Yom Sansop juda ham mohirlik bilan mazkur zamon silsilasida muhitga ta'sir ko'rsatayotgan yangi diniy qarashlar, e'tiqodini yo'qotgan insonlar, hayotdan ko'ra, o'limni chora sifatida ko'rayotgan yoshlar (bunday insonlar hatto ijod ahli o'rtasida ham mavjud bo'lgan, jumladan, koreys she'riyati quyoshi sanalgan Kim Sovol o'z joniga qasd qilgan edi) haqida qistirib o'tadi.

Bosh qahramon o'zini notavon, tirik murdadedek his qiladi, ammo o'z joniga qasd qilishni xurofot, deb biladi. Qanchalik og'ir, qiyin bo'lmasin, barchasiga chidashga, yengib o'tishga o'zidan kuch axtaradi. Juda ko'plab ijod ahlining o'z asarlarini o'lim bilan yakunlashidan ma'no axtargan yozuvchi dastavval o'lim hech narsani o'zgartirmasligiga amin bo'ldi, bu yuraksizlik ekanligini ta'kidladi. Ammo oxir-oqibat uning o'zi ham shu yo'ldan bordi:

"Biroq, Rojdestvo arafasida menga yuborgan o'sha kutilmagan maktubingiz o'zimni qayta anglash uchun aql va qat'yatlik bag'ishladi. Jajji oppoq qo'llar bilan topshirilgan xushxabar! Bu samoviy mavjudot tomonidan chiqarilgan oxirgi hukm edi. Bu yer yuzida hech bo'lmasa bir marotaba inson bolasining og'zidan yangragan Yaratganning xushxabari edi. Oh! Bir vaqtning o'zida tozalab yuvilgan xoch edi" [5].

Muallifning "Tajribaxondagi qurbaqa" hamda "Qorong'u tun" hikoyalari kabi bu asarda ham o'lim shohona libosda bosh qahramonni o'z izniga bo'ysundira boshladi. Uning ko'zlariga ma'nosiz hayotdan ko'ra, o'lim ulug'vor ko'rindi. Aslida bu adibning badiiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning dunyoqarashini to'liq namoyon etadi. O'lim nafaqat chora, balki panohga aylandi. Qahramon ruhiyatini taftish qilishda davom etgan muallif shunday yozadi:

"Ikkimizni o'rab turgan zulmat juda ma'yus va dahshatli...aylanayotgan zulmat shu qadar shavqatsizki, go'yo bu taqdirning achchiq haziliga o'xshaydi, buni Yaratganning inoyati, deb hisoblash achinarli" [6].

Mazkur parchada avvalgi hikoyalardan farqli ravishda ayol obrazi bor bo'y-basti bilan gavdalanadi, pokiza va munis, muloyim ayol unga yashashga umid, yorug'lik berishi lozim edi. Adib "monolog-mushohada" orqali ayol hayotini ham xavf ostiga qo'ygan, uni tashvishlantirgan bosh qahramonning nikoh haqidagi fikr-mulohazalarini tasvirlaydi. Ajdodlardan meros – an'anaviy nikoh qoidalariga ko'ra, sovchilarning qo'yilishi, tomonlarning bir-biri haqida so'rab-surishtirishlari, "atrofdagi"larning maslahatlari – bularning barchasi oila qurishda to'siqdek tuyuladi. Muallif ikki yosh o'z xohishiga ko'ra bir-biriga mehr qo'ysa, bu halokatning oldini oladi, degan fikrni ilgari suradi.

Choson davrining oddiy qizlari singari an'anaviy odob-axloq qoidalariga bo'ysunib, buni "qismat, taqdir" kabi qabul qilib turmushga chiqqan qizga qarata bosh qahramon shunday deydi: *"...turmushga chiqqaningizda, sizni quchog'iga olgan yosh kabutar emas, bir amaldorning la'natlangan tovus kabi isyonkor o'g'li edi..."* [7].

Ma'lumki, qator xalqlar, xususan, koreys adabiyotida kabutar obrazida sevishgan qalblar tasvirlanadi, tovus obrazida esa mumtoz davrda yaratilgan "Tustovuuq voqeasi" qissasidagi tabiat qonunlariga qarshi borgan, tabiiylikni qabul qilmagan, unga qarshi chiqqan nar tustovuuq gavdalanadi. O'zi uchun begona insonlar olamiga kirgan va ularning salbiy xislatlarini qabul qilish oqibatida halokatga uchragan tustovuuq asrlar davomida salbiy obraz sifatida qaralib kelinadi. Moda tustovuuq esa tabiat bilan homahanglikda yashagani uchun hayoti tinch, xotirjam o'tadi, shuningdek, u nar tustovuuqqa nisbatan sadoqatli bo'lib qoladi [8].

Bosh qahramon o'zi va qizning xatti-harakatlarini qarama-qarshi qo'yish orqali mazkur davr yosh yigit-

qizlarining hayot haqidagi fikrlarini oydinlashtirmoqchi, "oila – nima", degan savolga javob izlamoqchi bo'ladi. Yozishma maktublarda yigit qizning oilaga bo'lgan munosabatini e'tirof etadi, shu bilan birga uning taqdiriga tan berib, yigit (turmush o'rtog'i)ning xiyonatiga chidab yashashiga, mehrsiz, muhabbatsiz hayotga ko'nikib yashashiga toqat qila olmaydi. Hayotning so'qmoqlarida adashgan, ozodlik uchun kurashga kirishgan, ammo mag'lubiyatga uchragan, turli vajlar bilan o'zini tashlab ketgan erni kechirib yashayotgan ayol mehrini tushunish qiyin.

"Yilning so'ngi tuni" hikoyasi boshdan-oyoq ichki monologdan iborat, yozishma maktublar ajoyib kompozitsiyani hosil qilgan, unda faqat ikkita – yigit va qiz obrazi mavjud. Yigit va qiz maktublarida ifodalangan oila haqida o'ylar, o'lim va hayot chorrahasida turgan yoshlar oldida turgan tanlov kompozitsion butunlikni tashkil qiladi. Aslida to'rt oy davomida er-xotin bo'lib yashagan qahramonlar yigit va qiz sifatida talqin qilinadi. Maktublarda bitilgan fikrlar ularning oila, nikohgacha bo'lgan davrlariga taalluqli.

Maktublar orqali zamonaviy ta'lim olgan bo'lsa-da, qizning g'arb madaniyati ta'sirida kirib kelgan zohiriy muhabbatdan yiroqligi, ota-ona aytgan gaplaridan chiqmasligi, o'zini sevmagan insonga bor mehrini berishga intilganligi anglashiladi. Yigit qizning "odamlar ongiga tomoqqa tiqilib qolgan baliq suyagidek chuqur singib ketgan hamda belgilangan me'yorlar"ga amal qilishini tanqid qiladi, namunali xulq-atvor egasi bo'lsa-da, oila qurishda omadsizlikka uchragan qizni erkin nikoh haqida o'ylab ko'rishga chaqiradi. Yigit maktublarida nafaqat bosh qahramon, balki qizning ruhiy olami ham ochila boradi.

Azaldan koreys jamiyatida qabul qilingan, konfutsiychilikka asoslangan me'yorlarga ko'ra, qizning o'z tuyg'ularini ochiq oshkor qilishi uyat, nomus hisoblangan, ular o'z ota yoki akalarning mayliga rozi bo'lishgan, qismatining oila boshlig'i tomonidan hal qilinishiga ilojisiz ko'nishgan, buni "taqdir" deb qabul qilishgan. Majburan yigitning ayoli bo'lib yashash, aslida uning ixtiyorini bo'g'ib qo'ygan edi. Ammo shunga qaramasdan u yigitga – eriga mehr ko'rsatishga intiladi. Bu esa yigitning nafaqat g'ashiga tegadi, o'zini haqoratlangandek his qiladi.

Oradan yetmish besh kun (ayrim o'rinlarda to'rt oy deb beriladi) o'tib, qiz kutgan qismat ro'y berdi:

"15 sentabr! Bu sizning hayotingizda ham unutilmas kun bo'lsa kerak. Bu yetmish besh kunlik oilaviy hayotimizni bir zunda yutib yuborgan kun edi. Shu bilan birga, yigirma besh yoshni qarshilagan yigit, xuddi yangi niholdek, nihoyat, og'ir yukni qo'yib, chuqur nafas oladigan kun, inoyatga sazovor bo'lgan kun edi" [9].

Yigit shu kecha xuddi bir dahshatli voqea sodir bo'ladigandek, rosa ichdi, ammo u mast bo'lmadi, uyga qaytib, ayvonda ko'zini yumib, uzoq o'tirdi. Xizmatkor ayolni

chaqirganida, uning yuragi qinidan chiqib ketay dedi. Adib chizayotgan barcha manzaralar bir yo'lga qaratilgan, ro'y berishi muqarrar fojiga yo'naltirilgan edi:

"Dahshatli sukunat boshimni qo'rquvga chulg'adi. Bir daqiqa, ikki daqiqa,... besh daqiqa, olti daqiqa. Boshim uzra chiqillayotgan soatning ovozi sizning og'ir nafasingiz bilan hamohang edi. Darrov o'n daqiqa vaqt o'tdi. Soat 12. Biroq, o'lim kabi sukunat davom etardi. Asta-sekin fikrim tiniqlashdi, lekin bo'g'iq bezovtalik kuchayishda davom etdi" [10].

Ayol so'nggi kuchini to'plab, ilinj bilan erkakka qaradi, uxlashi uchun joy hozirlab berishi, uxlash vaqti kelganligini eslatdi. Kuzatganimizdek, adib ayol va erkak o'rtasidagi omonat rishtaning uzilishini soat chiqillashi, og'ir nafas, o'lim, sukunat kabi so'zlarda ifodalaydi. Og'ir nafas olishni soat chiqillashiga o'xshatgan muallif yanada badiiy bo'yoqdorlikka erishadi. Shu qora tun ichida turgan ayol – ramziy ma'noda xuddi o'limga mahkum etilayotgandek tasavvur uyg'otadi:

"...har qanday quyuv bulut yomg'ir bo'lib yog'masa, tarqalishi qiyin. Xonada qaynayotgan qozon bug'ini eslatuvchi bo'g'uvchi havo vujudimdan terni xuddi siqib chiqarar, ichim bo'shab borardi. Nihoyat qo'rqinchli sukunat tuzatib bo'lmaz darajada buzildi:

"Hammasi o'z qo'limda. Men tug'ilgan taqdirimni hisobga olsam, men buni uddalay olishim kerak. Hech qanday so'z kerak emas. Hech narsa eshitishimning hojati yo'q. Ertaga keting. Bundan boshqa hech narsa qila olmayman. Bu haqda o'ylab, bir-birimizga bundan ortiq yaxshilik qilishga chora yo'q. Seulga ketib, keyin nima qilishingizni men bilmayman...Hammasiga o'zim aybdormanmi, yoki beparvo, bilmayman, lekin o'z g'ururimni qurbon qila olmayman" [11].

Yom Sansop o'z zohiridan o'tkazgan his-tuyg'ularni o'quvchiga ishonarli va ta'sirchan yetkazib berishga erishgan.

Ayol ruhiyatini ochish, qalb kechinmalarini tasvirlashda, so'nggi hal qiluvchi suhbat oldidan muallif tun peyzajidan foydalanadi: "o'sha paytda vaqt allamahol bo'lib qolgan edi" "o'sha kuni hatto tunda ham shabada esmas, havo issiq va nam edi", "bu behalovot tun edi", "sizga xayrli tun tilab, men pashshaxonaga kirib oldim". Ajrashish haqida "hukm"dan so'ng esa "buzilgan suv charxpalagi", "to'xtab qolgan vaqt", "iztirob safrosi kabi ko'zyoshlar", "quruq ko'zlar", "ildizi qurub qolgan ko'z", "hayot va jilodan mahrum ruh" kabilardan foydalanadi.

Xulosa. Yom Sansop o'zining "Yilning so'ngi tuni" hikoyalari g'oyasini ochib berishda, qahramonlar ruhiyatini ochishda yangi shakl va yangi uslubdan foydalanadi. Xususan, "Yilning so'ngi tuni" hikoyasida rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy asarlaridan ta'sirlangan adib yozishma maktubdan unumli foydalanadi. Yishit va qiz yozishmalarida mazkur davr yoshlarining oila, nikoh, turmush, ajrashish haqidagi qarashlari to'qnashuvi mahorat bilan tasvirlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Solijonov Y. XX asrning 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filol. fanl. dokt...diss. avtoref. – Toshkent: 2002.
2. Saydazimova U.T. XVII-XVIII asrlar koreys nasrining ma'naviy-estetik konsepsiyalari. Filol. fanl. d-ri. diss. – Toshkent, 2018. – B. 188
3. Qo'chqorova M. Maktublar – qalb ko'zguisi. // Jahon adabiyoti. 2009. №11.
4. Eshmatova Yu. B. Iqtidor davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Filol.fanl.b.fals.d-ri (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent. 2020.
5. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 93. 쪽.
6. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 94. 쪽.
7. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 94. 쪽.
8. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 96. 쪽.
9. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 86.

10. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 155. 쪽.
11. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 157. 쪽.
12. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 158. 쪽.



UDC: 811(045)(575.1)

Nohida MUKHTOROVA,
ESP teacher, Tashkent State University of Law
E-mail: paradiseflower1999@gmail.com

Reviewer:

LINGUISTIC PROFILING

Аннотацион

This article addresses dialectical theory and established practice in sociolinguistics, specifically the study of linguistic biases based on spoken or written language. The article also presents the idea of "linguistic profiling" as an audio alternative to "racial profiling" in images. Also, possible safeguards against language profiling, such as legislative safeguards and educational campaigns, are reviewed and analyzed in this article.

Key words: linguistic profiling, prejudice, race, ethnicity, socioeconomic status

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПРОФИЛИРОВАНИЕ

Аннотация

Korpus lingvistikasi tilshunoslarning ta'riflariga binoan, “muvofiqlik asosida hosil qilingan satrlar va so'z ro'yxatini ekrandan qidirish bilan kompyuter dasturlari orqali katta matnlar yoki kichik matnlarning katta to'plamdagi hodisalarni tushunishga urinish”ning eng oson usuli sifatida ularning ongida shakllangan. Bu kabi matn izohlash usuli katta hajmga ega matnlardagi bir nechta kontekstda ifodalangan so'zlar va iboralarni to'liq qidirishga asoslangan bo'lib, ushbu usul yordamida XIII asrda injilshunos olimlar va ularning izdoshlari tomonidan injil sahifalari satrlarga va so'zlarga ko'chirilgan. Shuningdek, konkordans yohud muvofiqlik asosida injildagi so'zlarning alifbo tartibida, iqtiboslari hamda qaysi matnlarda qo'llanilganligini ko'rsatishning amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan holda boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, injildagi to'plangan matnlarning *concordance* deb nomlanishi ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq holda injilning shunchaki matnlardan tashkil topgan kitob emas, balki ushbu mashhaqqatli urinishning asl g'oyaviy asosi uning ilohiyatga uyg'unlashgan xabar ekanligi haqidagi da'vonni ta'kidlashdan iborat bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Korpus tarixiy silsilasi shundan dalolat beradiki, korpuslarni yaratish va korpus usullaridan foydalanish ko'p asrlik davrga ega bo'lib, birinchi davr elektronlashishgacha bo'lgan davr deb nomlanadi, ya'ni *pre-electronic*. Ushbu davr ikki bosqichdan iborat bo'lib, 1) miloddan avvalgi davrdan XVIII asrgacha; 2) XVIII asrdan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan mobaynni o'z ichiga oladi. Svartvikning nazariyasiga binoan korpus lingvistikasining shakllanib, rivojlanish jarayoni uch davrga bo'linadi:

- 1) *kompyuterlashtirilishgacha bo'lgan korpus lingvistikasi* – XIII asrdan XX asr o'rtalarigacha;
- 2) *kompyuterlashtirilgan korpus lingvistikasi* – 1960-yillardan 1970-yillargacha;
- 3) *korpus lingvistikasi* – 1980/1990 yillardan to hozirgi kunga qadar.

Birinchi bosqich – miloddan avvalgi V-IV asrlarda Panini tomonidan yaratilgan mashhur qadimgi hind grammatikasi dastlabki korpus namunasi sifatida og'zaki shakli saqlangan. Shuningdek, Sanskrit tilini ifodalovchi Veda matnlari korpusi Panini grammatikasiga asoslangan va boshqa ko'plab elektronlashishgacha bo'lgan korpuslar turli diniy kitoblar bilan ham bog'liq bo'lgan. Ular orasida Injil matnlari korpusi eng mashhur bo'lgan va eng ko'p o'rganilgan. Masalan, Antonio Padua injilning birinchi anonim konkordansi *Concordantiae Morales* bilan bog'liq *Vulgate* – injilning V asrga tegishli bo'lgan, lotin tilidagi muqobiliga asoslangan. Shu davrning o'zida anchayin mukammallashtirilgan nusxasi 1230 yil, Avliyo James

monastirida, Karolik Kardinal *Hugo* tashabbusi bilan tashkil etilgan 500 kishidan iborat Dominikan rohiblari jamoasi tomonidan “*so'zlar indeksi*” tuzilganligini kuzatish mumkin. Shundan buyon, injil konkordanslarining ko'plab boshqa tubdan o'zgargan muqobillari, jumladan, 1737 yil *Crudenning* “Muqaddas yozuvlarga to'liq muvofiqlik” va 1890 yil Strongning “Injilning to'liq muvofiqlik” kabi konkordanslari yaratilgan. Mazkur muqaddas kitobdagi so'zlar ro'yxatida keltirilgan havolalar simfoniya yoki konkordans deb nomlangan bo'lib, unga bog'liq ravishda ilk konkordanslar XIII asrning boshlarida paydo bo'lgan.

Shuningdek, Shekspirning asarlari ham konkordansning asosiy vositasi sifatida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shgan. Misol tariqasida keltirib o'tish joizki, Becketning [2] 1787 yilda Shekspirning asarlari asnosida yaratgan konkordansida so'z va uning lingvistik konteksti hamda joylashuvi berilgan bo'lib, adabiyot shinavandalari uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etgan. Lindquistning tadqiqotlariga muvofiq, “Shakespeare korpusi” *pre-electronic corpora* namunalaridan hisoblanib, korpus sifatida – “biror bir yozuvchining asarlari yoki muayyan matnlar to'plami” nazarda tutilgan.

Binobarin, Xristian dini rohibi Roberto Busa (Jesuit priest Roberto Busa) tomonidan 1950-yillarda boshlangan va 1970-yillarning oxirlarida yakunlangan, avliyo Tomas Akvinas (St Thomas Aquinas)ning to'liq asarlarini o'z ichiga qamrab oluvchi “*Index Thomisticus / Tomas indeksi*” nomli qisqa elektronik raqamlashtirilgan bazasining yaratilishi konkordansning elektron usulining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Shu o'rinda, yana ikkita asosiy manbani sanab o'tish kerak, masalan, leksikograflar va Chomskiydan oldin faoliyat yuritgan struktur tilshunoslarning tadqiqotlari ham zamin bo'la olgan. Har ikkala usul ham tadqiqotchilar uchun ma'lumotlarni to'plashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, doktor Samuel Jonson [13] (Dr Samuel Johnson)ning 1755 yilda chop etilgan birinchi “Ingliz tilining izohli lug'ati” ko'p yillar, jumladan, 1560-1660 yillar mobaynida qo'llanilgan qog'ozlarga tushirilgan misollarni yig'ish asnosida qog'ozda korpus yaratishning mahsuli bo'lib xizmat qildi. Ehtimol, uch milliondan oshiq qog'oz bo'laklari korpusida mujassamlashgan so'zlarning qo'llanishini amalda ta'minlovchi lug'at, ya'ni, 1880-yillarda Oxford English Dictionary tarkibiga kiritilgan. Dunyoning mashhur lug'atlaridan birini yaratishda ushbu millionlab qog'oz parchalaridagi so'zlar tahrirlangan holda matnning mazmunga ega bir qismiga aylantirildi.

Leechning [5] ta'kidlashicha, 1950-yillarda amerikalik strukturalistlar, jumladan, Harris, Fries and Hillarning tadqiqotlarida “ma'lumotlarni yig'ish” tushunchasi keng qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, ilk injilshunos olimlar va ingliz yozuvchilarining so'zlarni qidirish va indekslash borasidagi olib borgan chora-tadbirlari nafaqat, tilga oid ma'lumotlarni to'plash, balki, ona tilga xos bilimlarni tadqiq etish nuqtai nazaridan strukturalistlarning konkordans ilmi rivojida peshqadamligidan dalolat beradi. Ona tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish transkripsiyalangan ma'lumotlar – 1960-yillarda yaratilgan CHILDES [14] til bazasiga asoslangan bo'lsada, ushbu loyiha 1984 yildagina rasmiy tasdiqlangan. Shu o'rinda, badiiy asarlarning foydali korpusini yaratishda adabiyotshunoslarning qo'shgan hissalarini e'tirof etish joiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, bu davrda korporalardan foydalanishning mukammal usullarini ishlab chiqish borasida yutuqlarga erishildi. Ushbu davrning rivojlanishi 1980 yillarda kompyuter texnologiyalarining ommalashishi bilan bog'liq bo'lib, elektron hisoblash mashinalarining ixtirosi va keng tarqalishi bilan elektronlashishgacha bo'lgan davrda yaratilgan korpuslar o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Negaki, korpusni

avtomatlashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar shu davrda amalga oshirildi. 1980-yillardan boshlab, ushbu tadqiqotlardan olingan natijalar asnosida korpusni yangi usullar va vositalar yordamida o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy ishlar sababli, korpus lingvistikasi rivojlandi. McEnry and Wilsonlarning so'zlariga ko'ra, korpus lingvistikasi hozirda ham taraqqiy etib, metodologik jihatdan tobora yetuklashib va shuningdek, o'rganiladigan tillar soni har yili o'sib bormoqda. Biroq, tilshunoslikning ba'zi sohalarida qog'oz kartotekalar, qayin po'stlog'i yoki sopol bo'laklardagi matnlar bilan ishlash tadqiqot ishining muhim qismi bo'lib, ko'pgina tillar va matnlar uchun korpuslarning turlari hamda sonlarida katta tafovut mavjud edi.

1979 yilga kelib, Howard-Hillning tashabbusi bilan kompyuterlashtirilgan, ya'ni, "adabiyotni o'rganish uchun maqsadli ishlovchi dastur" konkordanslari yaratildi [4, 30]. Conradning sakkizta ishi jamlanmasi konkordanslari va shuningdek, Gerard Manley Hopkins va T.S.Eliotlarning konkordanslari 1985 yilda chop etildi. Ilk bor, 1950 yillar oxirlarida, kompyuterlashtirilgan, ya'ni, ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan perfokarta (punched-card technology for storage) yordamida boshqariladigan konkordanslar tuzildi. Perfokartadan foydalanishdagi kamchiliklardan biri, kompyuter xotirasiga ma'lumotlarni kiritishda uzoq vaqt sarflangan, masalan, oltin mingdan ortiq so'zlarni qayta terish uchun 24 soatdan ortiq vaqt ketgan. 1970 yillarda bu jarayon sezilarli darajada mukammallashib, joriy yildan boshlab kalit so'zlar konteksti konkordanslar (Key Word in Context (KWIC)) katalogini indekslovchi kartalarini almashtirish va mavzulashgan matn tahlilini avtomatlashtirish jarayonlariga e'tibor qaratildi. Ushbu usul kutubxonada axborot izlash va turli mavzular tahlilini boshqarishda keng foydalanilgan. Shuningdek, uning afzalligi, asarlardan keltirilgan iqtiboslarni tezkor topish va undan unumli foydalanishdadir.

Tahlil va natijalar. Ma'lumotlar ba'zasini yaratishga sarflangan mehnat va tuzuvchilar e'tibordan chetda qolib, bu go'yo kompyuterning mehnati sifatida talqin etilgan. Biz uchun hozirda ma'lum bo'lgan ma'lumotlar korpusi 80-90 yillarda yaratilgan bo'lib, tilshunoslikning barcha jabhalarida keng foydalanib kelinmoqda. Ilgari korpus tushunchasi bir xil mavzu doirasida yig'ilgan yoki jamlangan asarlarni ifoda etgan bo'lsa, endilikda u lingvistik terminologiyada keng qo'llanila boshlandi.

XVIII asrda korpusning yuqorida keltirilgan ma'noda ishlatilganligi, jumladan, olimlarning "Lotin shoirlari korpusi" yoki "qonunchilik korpusi"lariga murojaat etganliklari Oksford ingliz tili lug'atining yaratilganligi bilan dalillanadi. Oksford ingliz tili lug'atida korpus so'ziga keltirilgan iqtibos – lingvistik manbada ommaga tushunarli bo'lgan ma'no, ya'ni, "lingvistik tahlilga asoslangan yozma yoki og'zaki material to'plami" ifodalangan. Biroq, 1980-yil boshlarigacha bo'lgan davrda korpus lingvistikasi termini ommolashib ulgurmasdan,

ingliz tilidagi ma'lumotlar korpusining yaratilishi bilan amalda tadbiiq etila boshlangan. Shuningdek, korpus doirasida tadqiqotlar olib borilishining yo'lga qo'yilishi 40-yillardayoq boshlangan bo'lib, bunga – Bloomfield, Fritz, Bonders va boshqa tilshunoslarning ishlarini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Ushbu tadqiqotlarning davomiyligi W.N.Francis, Henry Kuceralarning korpus yaratish bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan ishlar orqali ta'minlandi.

Svartvikning [9] korpus lingvistikasi bo'yicha bildirgan fikriga muvofiq "Korpus lingvistikasi yetuklikka erishganligini xitob qilishi ushbu sohaning tilshunoslikning bir jabhasi sifatida shakllanib ulguraganligidan dalolat beradi. Keyinchalik, bu sohaga oid olib borilgan tadqiqotlarda yangi yo'nalish haqida bir-biriga nisbatan yaqin bo'lgan tavsiflar keltirila boshlandi. Masalan, E.Fineganning fikriga ko'ra, "korpus – matn yaratilgan vaziyat va unga tegishli ma'lumotlar, jumladan, so'zlovchi, muallif, adresat yoki auditoriya haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, mashina o'qiydigan formatga ega reprezentativlangan matnlar majmuasi" bo'lsa, McEnery va Wilsonlarning [6] nuqtai nazarida esa "korpus – til modeli sifatida foydalanish uchun aniq til mezonlari bo'yicha tanlangan til fragment (qism / parcha)lari to'plami". Ularning nazariyasiga muvofiq, *corpus* matnning xohlagan qismiga, yoki kompyuter vositasida avtomatlashtirilgan matnning bir qismiga yoki tilning xilma-xilligini ifodalovchi avtomatlashtirilgan matnlarning cheklangan to'plamiga tegishlidir. Demak, korpus shaklida bo'lmagan nutqiy ma'lumot muhim sanalsa-da, faqat korpusga asoslangan holda lingvistik tahlillarni amalga oshirishning imkoni yo'q.

Sinclair ularning fikridan farqli ravishda tashqi omillarga diqqatini qaratgan holda quyidagi xulosaga keladi: "korpus tilni yoki tilning o'zgarishini to'liq aks ettirish uchun tashqi mezonlarga muvofiq tanlangan elektron shakldagi matnlar parchalari to'plami" [10]. Ya'nikim, tilning holatini yoki turini tavsiflash maqsadida tanlangan, nutqimizda tabiiy ravishda mavjud bo'lgan til matnlari to'plami, aniqrog'i, so'zlar ifodasidagi xilma-xillik tilning leksik qatlamlarga ajratilishida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi milliondan ortiq so'zni korpus tarkibiga kiritilishiga sabab bo'ladi.

Renoufning ta'kidlashicha, "korpus tushunchasi lingvistik tadqiqotlar maqsadida kompyuterda saqlanadigan va qayta ishlanadigan yozma yoki og'zaki matnlar to'plami"ni ifodalaydi [8].

Xulosa va taliflar. Xulosa o'rmda keltirish joizki, turli tipdagi ma'lumot til korpusida o'zining tabiiy kontekstual shaklida joylashishi sababli, uni har tomonlama o'rganish uchun asos bo'ladi. Bir marta tuzilgan axborotlar massivi bir necha tadqiqotchi tomonidan ko'p marta turli maqsadlarda qo'llanilishi mumkin. Korpus tilni tadqiq etish, o'rganish, lug'at tuzishda eng zamonaviy va keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizimdir.

ADABIYOTLAR

1. Baker, M. "Corpora in Translation Studies: An Overview and some Suggestions for Future Research." *Target* 7.2: 1995. 223 – 43. Print.
2. Becket A Concordance to Shakespeare. London: Printed for G.G.J. and J.Robinson. viii, 1787. – 470 pages.
3. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopaedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press. 1995.
4. Howard-Hill, T. H. *British Bibliography and Textual Criticism: A Bibliography*. Oxford: Clarendon Press. 1979.
5. Leech, G. "Corpus linguistics and theories of linguistic performance". In, J. Svartvik (Ed.) *New Directions in Corpus Linguistics: Proceedings of Nobel Symposium 82*. Berlin: Mouton de Gruyter. 1992. Pp. 125-148.
6. McEnery, T. and A. Wilson *Corpus Linguistics*. Edinburgh: Edinburgh University Press. 1996.
7. Pápai, V. "A Universal of Translated Text" *Translation universals: do they exist?* 2004. – 143.
8. Renouf, A. *Corpus development*. In J. Sinclair (ed.) *Looking up*. London: Collins. 1987.
9. Svartvik J. *Corpus linguistics comes of age // Directions in Corpus Linguistics: Proceedings of Nobel Symposium 82 Stockholm, 4 – 8 August 1991 / ed. J. Svartvik*. Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1992. P. 7 – 14.
10. Viana V., Zyngier, S. & G. Barnbrook (Eds). *Perspectives on Corpus Linguistics*. Amsterdam: John Benjamins. 2011.
11. Zakharov V., Bogdanova S.) *Korpusnaya Lingvistika: uchebnik*. 2-y izd., pererab. – SPb.: S.-Peterb. 2011. – 215 s.

12. Zubov A.V., Zubova I.I. Informatsionniye texnologii v lingvistike: Ucheb. Pososbiye. – M.: Akademiya. 2004.
13. https://archive.org/details/johnsons_dictionary_1755
14. <https://childes.talkbank.org/access/>



Nodirjon OTAQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: nodirorient@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d A.Mamatov taqrizi asosida

KOLLOKVIAL FRAZEOLIGIZMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada kollokvial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari emotsional va ekspressiv potensialini ochishdagi pragmatik komponentning roli aniqlangan, nutqiy munosabatda pragmatik potensialning amalga oshishiga sabab bo'ladigan struktur-semantik omillar tahlil qilingan. Kollokvial frazeologizmlarning ichki shaklini aniqlashtirishda va ularning ma'nolarini ochib berishda, shuningdek og'zaki kommunikatsiyada faolligi hamda kollokvial frazeologik birliklarning semantik o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kollokvial, frazeologizm, kommunikatsiya, struktur-semantik, emotsional, ekspressiv, tagtil, sheva.

ХАРАКТЕРНЫЕ ЧЕРТЫ КОЛЛОКВИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Аннотация

В данной статье раскрывается специфика коллоквиальных фразеологизмов, выявляется роль их прагматического компонента в раскрытии эмоционально-экспрессивного потенциала исследуемых фразеологических единиц, анализируются структурно-семантические факторы, способствующие реализации прагматического потенциала в речевых отношениях. При выяснении внутренней формы коллоквиальных фразеологизмов, выявлении их значений, а также их активности в устном общении был анализ перован семантической специфики коллоквиальных фразеологизмов.

Ключевые слова: коллоквиальный, фразеологизм, коммуникация, структурно-семантический, эмоциональный, экспрессивный, диалект.

CHARACTERISTIC FEATURES OF COLLOQUIAL PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article reveals the specifics of colloquial phraseological units, reveals the role of their pragmatic component in revealing the emotional and expressive potential of the studied phraseological units, analyzes the structural and semantic factors contributing to the realization of pragmatic potential in speech relations. When clarifying the internal form of colloquial phraseological units, identifying their meanings, as well as their activity in oral communication, the semantic specificity of colloquial phraseological units was analyzed.

Keywords: colloquial, phraseology, communication, structural-semantic, emotional, expressive, dialect.

Kirish. Jahon tilshunosligida jonli og'zaki munosabat tilini o'rganishga sezilgan intilishni hamda tillarda kollokvial frazeologizmlar hosil qilishning sezilarli darajadagi tarqalganligini hisobga olib, bu birliklarni ancha mufassal ko'rib chiqishning zaruriyati shak-shubhasizdir.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar tillarni o'qitishning amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiq tuyiladi, chunki o'quvchilar nafaqat kitobiy-adabiy tilni, balki jonli so'zlashuv tilini ham egallashlari kerak. Ish jarayonida tuzilgan lug'atlar so'zlashuv tilining uslublarni hosil qiluvchi elementlarga o'qitish maqsadida qo'llanmalarni tayyorlashda qo'llanila boshlashlari mumkin, bu elementlarni egallash munosabatning norasmiy sohasida kommunikatsiyaning adekvat shakllarini ta'minlaydi.

Kollokvial frazeologik birliklar hozirgi lug'atlarning leksik korpusiga kirmasligi, shuningdek muayyan kontekstdan tashqarida amaliy jihatdan kelib chiqmasligi mumkin. Biroq ularning tadqiqi katta qiziqish namoyon qiladi, chunki hatto individual frazeologizmlar hosil qilinishining va qo'llanilishining qandaydir qonuniyati kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'zlashuv tilining xilma-xil aspektlarini o'rganib chiqish bilan bir nechta tadqiqotchilar shug'ullanganlar, bulardan Yu.M. Skrebnev, Sh.Safarov, A.Mamatov, M.Hakimov, A.Ko'chiboev, A.M.Vinokurov, L.Soudek, V.D.Devkin, K.M.Ryabova, E.A. Petru, T.G. Popova, Y.A.Nikitina, I.N. Maxova, N.V.

Makarova, T.A.Dunaevskaya kabi tilshunoslarni sanab o'tishimiz mumkin.

Kollokvial leksikaning oraliq holatini tilning va shevalarning territorial variantlarini tadqiq qilish bilan shug'ullangan A.M.Vinokurovning tadqiqotida ham ko'rish mumkin [3]. Uning asosiga chex tilshunosi L.Soudekning stratifikatsiyasi qo'yilgan [17]. Bizning tadqiqotimiz uchun bu muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu kollokvializmlarning boshqa leksik qatlamlarga nisbatan o'rni to'g'risidagi Yevropa lingvistikasi nuqtai nazarining yorqin ko'rgazmasi hisoblanadi, shuning uchun uni ishimizga kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shevalar xuddi so'zlashuv tiliga o'xshab, jargon so'zlarni ham qamrab oladi, bu periferiyaviy leksik qatlamlarga tegishlidir. Kollokvial leksikaning periferiyaviy leksik qatlamlarga yaqinligiga qaramasdan, har holda so'zlashuv tili tilning bir qatlami sifatida baholanadi. Kollokvializmlar neytral leksikadan keyin keladi, bu so'zlashuv leksikasiga xos bo'lgan qandaydir stilistik tus berilganlikning mavjudligini tasdiqlaydi.

O'zbek leksikografik amaliyotida biz kollokvial so'zlar uchun xarakterli bo'lgan quyidagi belgini aniqladik, *so'zlashuv nutqi, og'zaki nutq*, ya'ni norasmiy suhbatga xos bo'lgan, bu fransuzcha *informal* ga to'g'ri keladi, *so'zlashuv tilida*, ya'ni so'zlashuv tiliga xos bo'lgan, bu fransuzcha *colloquial* ga to'g'ri keladi. Xuddi o'sha leksemalarning lug'at

maqolalarini solishtirishda sodda so'zlashuv tili va so'zlashuv tili leksikografik adabiyotda aniq belgilanmaydi.

So'zlashuv tili muammosi lingvistikada g'arb tilshunosligida o'rganilganidek yaxshi o'rganilgan emas. Tadqiqotchilarning e'tiborini har xil o'zbek shevalarini o'rganish ko'proq tortadi. Bu yana shu bilan bog'liqlik, hozirgi o'zbek tili, razning lug'at tarkibi murakkab tarixiy va ijtimoiy-lingvistik jarayonning mahsulini ifodalaydi, unda tilning o'z-o'zidan yuzaga keladigan rivojlanishi jamiyatning ongli aralashuvi bilan uyg'unlashadi.

O'zbek tilini hozirgi bosqichda xarakterlaydigan yana bir o'ziga xos xususiyat – (o'ta, juda) soddalashtirilgan (beadab) leksikaning va jargon so'zlarning so'zlashuv leksikasi razryadiga o'zgarishi va ularning kundalik kommunikatsiyada erkin qo'llanilishidir. "Jo'n (oddiy)" leksikaning hozirgi so'zlashuv tiliga suqilib kirishi shu bilan bog'liqlik, har xil xususiy televizion va internet kanallarning hamda radio stansiyalarining ommaviyligi kuchayayapti, ular o'zlarining mahsulotini senzura uchun qilmaydi. Xilma-xil realiti-shoulder ishtirokchilarining nutqlari ayniqsa yoshlarning doirasida taqlid qilish uchun namunaga aylanayapti.

Shunday qilib, tilning rivojidadagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatib o'tishi hamda kundalik so'zlashuv tilini o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblash, bu til hozirgi paytda eng muhim o'zgarishlarni boshidan kechirayotganligidan darakdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslarning ishlarida so'zlashuv tili tushunchasi bir qator jiddiy ravishda farqlanadigan darajada talqin qilingan. L.V.Sherba so'zlashuv tilini tilda mavjud bo'lgan normaning ba'zi bir modifikatsiyalarining majmui sifatida baholaydi. N.Yu.Shvedova so'zlashuv tilini (yoki unda qo'llaniladigan til shakllarini) qandaydir ob'ektiv jihatdan mavjud tizim sifatida sharhlab beradi. V.D.Devkin [4] so'zlashuv tilini erkin, o'z-o'zidan yuzaga keladigan, og'zaki, asosan situativ jihatdan bog'liqlik, ko'proq dialogik va bir qadar jo'n (oddiy) nutq deb ta'riflaydi. N.A.Shigarevskaya so'zlashuv tili deganda umummilliy tilning funksional-uslubiy turlaridan biri deb tushunadi, u aholi o'qimishli qismining norasmiy sharoitlardagi munosabatining vositasi hisoblanishini ko'rsatib o'tadi [13].

"So'zlashuv tili" tushunchasi talqinlarining rang-barangligini biz hodisani o'zining murakkabligi bilan bog'laymiz. Keyingi paytda amaliyotda so'zlashuvchilikka bag'ishlangan ko'p fundamental ishlar paydo bo'ldi. Kollokvializmlar stilistik aspektida va nutq madaniyati planida o'rganiladi [1], tadqiqotchilar so'zlashuv tilining kommunikativ va funksional jihatiga qiziqish namoyon qildilar [10].

Mavjud tadqiqotlar so'zlashuv tilining tanlab olingan darajasida ishlashining ayrim struktur o'ziga xos xususiyatlarini va spesifikasini tasvirlashga e'tibor qaratadi. G.N.Zikovaning ishida kollokvial birliklarning o'ziga xosligini aniqlovchi hozirgi kollokvializmlarning differensial belgilari va ularning boshqa stilistik qatlamlarning leksikasidan farqi qarab chiqiladi [5]. Kollokvial leksik birliklar ishlashining qonuniyatlarini va adabiy-kitobiy normalarning so'zlashuv normalariga yaqinlashtirishga intilishni biz A.A.Xarkovskayaning ishida uchramiz [14]. K.M.Ryabova, so'zlashuv tagtilining o'ziga xosligini (spesifikasini) ajratib ko'rsatar ekan, mutlaqo spesifik birliklarning – kollokvializmlarning – minimal darajada jo'n, estetik ma'nolilikning shkalasida bevosita neytral so'zlardan keyin joylashgan leksik birliklarning mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Kollokvializmlarning so'zlashuv tagtil bilan bog'liqligi ularning norasmiy munosabatning sohaga funksional birlashtirilganligidan va ularning rasmiy-ishchanlik vaziyatida qo'llanilishining noo'rinligidan iborat. K.M.Ryabovaning ta'kidlashicha, til sohiblarining ijtimoiy statusi nutq muomalasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ma'lumot darajasi esa

ko'p jihatdan u yoki boshqa stilistik o'zgarib turadiganlarning tanlovini belgilaydi [12].

Tahlil va natijalar. Kommunikantning ijtimoiy mansubligi til vositalarining variativligiga ta'sir qiladigan yagona sabab hisoblanmaydi, buni L.P.Krisinning tadqiqoti ham ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikriga ko'ra, vaziyatga va munosabatning sohasiga qarab til umumiyligining vakillari turli, ushbu ijtimoiy-kommunikativ tizimning komponentlari hisoblangan va bir-birlariga qo'shimcha taqsimot munosabatida bo'lgan tagtillarni ishlatadilar [6]. Demak, norasmiy munosabatda tilning har xil funksional uslublariga aloqador bo'lgan leksik birliklar kuzatilishlari mumkin. Biroq kollokvializmlarning norasmiy munosabat sohasiga birlashtirilganligi shubha keltirib chiqarmaydi va *colloquial* so'zining ta'rifi bilan tasdiqlanadi: *colloquial – of, relating to, or characteristic of conversation especially of familiar and informal conversation* [18].

Kollokvialistika ob'ektining tabiatini va chegaralarini aniqlash maqsadida tilning tagtil tabaqalanishining muammosini qarab chiqar ekan, Yu.M.Skrebnev quyidagi xulosalarni chiqaradi: 1) til alohida tizimlarning, ya'ni tilning jamiyat hayotidagi global qo'llanilish sohasiga qaraganda, nutq faoliyatining ancha tor sohalari xizmat ko'rsatadigan cheklangan qo'llanilishli tillarning majmui sifatida baholanishi kerak; 2) tagtillar – bu nutq sohalari differensial leksik belgilari bo'yicha mustaqil tarzda ajralib turadiganlardan hosil qilingan; 3) tagtillar qisman tilning umumiy yadrosida (neytral sohasida) birga qo'shilgan; 4) uslub – bu tagtilning differensial xarakteristikasi, uning tagtillarning ushbu nomenklaturasida boshqalari bilan kesishmaydigan spesifik sohasi, nutq sohasi keyinchalik qismlarga ajralish xususiyatiga va bir-biriga yaqin sohalalar bilan birlashtirish qobiliyatiga ega, shuning uchun so'zlashuv tilining sohasini ajratib ko'rsatish shartli hisoblanadi. Shunday ekan, kollokvialistikaning ob'ekti kundalik-so'zlashuv munosabatining sohasiga xizmat qiladigan tagtil hisoblanadi, uning tadqiqotining haqiqiy predmeti esa – bu tagtil spesifik sohasining strukturasi [13].

V.A.Xomyakov so'zlashuv tilini qarab chiqishga ikkita yondashuvni ajratib ko'rsatadi. U "so'zlashuv" terminini shunday belgilaydi: bir tomondan, "*spoken*" (so'zlashuv) so'zini bu so'zning eng keng tushunishda ifodalaydi (lotincha: "*colloquium*" (suhbat) "*colloqui*" (suhbatlashmoq, gaplashmoq, so'zlashmoq)dan; *sot* – birga (together), *loqui* – gapirmoq (to speak). Boshqa tomondan, "so'zlashuv" (*colloquial*) termini ancha tor – "norasmiy" (*informal*) ma'noda qo'llaniladi [15].

G.A.Orlovning ta'kidiga ko'ra, struktur jihatdan so'zlashuv tilining ko'pfunksionalligini va bir xil emasligi, uning markazida adabiy norma tartadigan til vositalari bo'lgan, periferiyaga yaqinroqda esa – normativ birliklar va sodda so'zlashuv tili, jargon, sleng va boshqa noadabiy hosilalar o'rtasida sinxron ko'rib chiqishning o'tish zonasida boshqalari turgan ierarxik struktur sifatida ta'riflaydi [9].

Mavjud materialning tahlilida biz shunday xulosaga keldikki, "so'zlashuv tili" tushunchasi uning til uslublarini funksional tizimdagi chegarasini belgilash munosabati bilan tadqiqotchilar orasida munozarani keltirib chiqaradi. So'ngra so'zlashuv tilining nutq turlarining tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

N.V.Makarovning fikricha, so'zlashuv tilini adabiy til bilan taqqoslab ko'rilar ekan, "kundalik tilning ma'lum jo'nligini (oddiylikni) qayd qilish kerak emas, chunki turmush mavzusi albatta jo'nlikni ko'zda tutmaydi. Sodda so'zlashuv tili chegaralarining beqarorligi – so'zlashuv tilining asosiy jihatlaridan biridir. Kollokvializm faqat neytral yoki dabdabali til fonida ahamiyatlidir, kundalik tilda u sezilarli emas" [8].

T.G.Popova qayd qiladiki, "so'zlashuv tili hozirgi vaqtda nafaqat turmushda, balki intellektual kommunikatsion

sohalar deb ataluvchilarda ham kodifikatsiyalashtirilgan adabiy tilning ilgari ustunlik qiluvchi nutq shakllari bilan bir qatorda munosabatning to'la xuquqli quroliga aylanayapti" [11].

Shunday qilib, ko'pchilik mualliflar so'zlashuv tili ma'lum darajada adabiy tilga qarama-qarshi qo'yilgan, degan fikrga qo'shilishadilar, shuning uchun biz bunday deganda nima tushunilishi ustida to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiy til – o'qimishli kishilarning tilidir, ularning madaniy saviyasi ijtimoiy obro'ga ega. Bu tildan ibrat oladi, u namunaviy hisoblanadi. Demak, adabiy til deganda normallashtirilgan til tushuniladi, uning normalari to'g'ri va hamma uchun majburiy bo'lgan sifatida idrok qilinadi va u shevalarga hamda sodda so'zlashuv tiliga qarama-qarshi qo'yiladi [2].

So'zlashuv tili mohiyatining xilma-xil talqinlari sababli, O.A.Laptevaning so'zlariga ko'ra, "o'zining genetik, funksional va ekspressiv-stilistik belgilari bilan bir qator g'oyat bir-biridan farq qiladigan hodisalarni birlashtiradi" [7], biz T.G.Popovanning izidan borib so'zlashuv tili muammosining quyidagi asosiy talqinlarini ajratishimiz mumkin:

1) so'zlashuv tili – bu adabiy tilning eng muhim funksional-stilistik turlaridan biridir;

2) so'zlashuv tili adabiy tilning bir turi sifatida;

3) so'zlashuv tilida adabiy so'zlashuv tili ajralib turadi, u birliklarning spesifik to'plamiga va ular ishlashining spesifik qonunlariga ega bo'lgan alohida til tizimi hisoblanadi; bu tizim kodlashtirilgan adabiy tilga adabiy til ichida taqqoslab ko'riladi (qarama-qarshi qo'yiladi) [11].

Lingvistikada ikkita yo'nalish mavjud, ularning har birida so'zlashuv tili oraliq tur hisoblanadi:

adabiy til – so'zlashuv tili – shevalar;

adabiy til – so'zlashuv tili – sodda so'zlashuv tili.

Shunday qilib, biz ikkita oppozitsion guruhlariga ega bo'ldik. Ularning har biridagi so'zlashuv tilining statusini qarab chiqamiz.

Birinchi oppozitsion guruhda, uchta tushunchalarning lingvistik turli-tumanligini e'tiborga olib, quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

1) adabiy til va so'zlashuv tili bitta tilning funksional turlarini (tagtillarini) ifodalaydilar, sheva lingvistik jihatdan faqat ma'lum arealda ishlaydigan boshqa tilni ifodalaydi va shunday qilib, bitta tilning ikkita tagtili amalda geografik jihatdan cheklangan sohada tarqalgan boshqa tilga qarama-qarshi qo'yiladi;

2) tarixiy jihatdan hamda haqiqatda lingvistik jihatdan mustaqil til bo'lgan sheva, xususan, mustaqil tilning tagtillarga ajralish alomatiga egalik qiladi, garchi shevaning stilistik qatlamlarga ajralishi, umuman olganda tilning qatlamlariga o'xshab unchalik muhim bo'lmasada, har bir sheva sohasida, kam deganda, so'zlashuv tilidan farqli, ushbu shevaning alohida tagtilini ishlatuvchi folklor mavjud;

3) adabiy til uni shevaga qarama-qarshi qo'yilganda territorial biriktirilganlikka ega emas va umumiy tarqalganlikka egalik qiladi.

Shunday ekan, *adabiy til – so'zlashuv tili – sheva* qarama-qarshi qo'yilishi haqiqatan sheva tushunchasini shevaning so'zlashuv tagtili tushunchasi bilan almashtiradi, biroq "sheva" termini ma'nosining bunday torayishida haqiqatan har xil til kollektivlariga xizmat ko'rsatadigan til kichik tizimlarining taqqoslanishi g'ayriqonuniy tuyiladi.

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash mumkinki, pragmatik vazifalarni amalga oshirish kollokvial leksikaga qo'shimcha nozik farq bag'ishlaydi; sub'ektiv omilning ta'siri ostida kollokvializmlar meliorativ yoki peyorativ tus oladi. Kollokvializmlarning ekspressiv xarakteri haqidagi qoidaning to'g'riligida ushbu xususiyat absolyut hisoblanmaydi. Ekspressiv birliklar bilan bir qatorda so'zlashuv leksikasida kollokvial frazeologizmlar mavjud bo'ladi, ularning strukturasi ekspressiv komponent kirmaydi. Kollokvial frazeologizmlar nominatsiyaning eng tejamli usuli hisoblanadi, o'zlarini ifoda planida anchagina lo'nda hamda mazmun planida hajmli namoyon qiladi, bu bilan zamonaviy inson munosabatining ehtiyojlarini qondiradi.

ADABIYOTLAR

1. Андрюхина Т.В. Стилистические возможности сложного слова и способы их реализации в тексте: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М.: 1987. - 22 с.
2. Ахманова О.С. Синтаксис как диалектическое единство коллигации и коллокации. - М.: Изд. Моск. ун-та, 1969. - 183 с.
3. Винокуров А.М. Словообразование в территориальных вариантах и диалектах современного английского языка. – Калининград: 1988. - 83 с.
4. Девкин, В.Д. Вовлечение внутренней формы слова в механизм экспрессии и комизма. М.: 1994. - С. 9-19.
5. Зыкова Г.Н. Дифференциальные признаки современных английских кolloквиализмов-существительных. М.: 1983. - 16 с.
6. Крысин Л.П. Владение разными подсистемами языка как явление диглоссии. - М.: 1976.-С. 62-63.
7. Лаптева О.А. К вопросу о месте современной русской устно-разговорной речи в кругу явлений литературного языка. М.: 1968.-№1.-С. 38-45.
8. Макарова Н.В. Коллоквиальные субстантивные композиты в современном немецком языке: дисс. ... канд. филол. наук / Н.В. Макарова. - М.: -281 с.
9. Орлов, Г.А. Современная английская речь. М.: Высшая школа, 1991.-240с.
10. Петру Э.А. Социо-прагматические и структурно-семантические особенности экспрессивной коллоквиальной лексики. Пятигорск: 1993.-235 с.
11. Попова Т.Г. Коллоквиальные сложные слова английского языка: дисс. ... канд. филол. наук / Т.Г. Попова. - М.: 1998. - 281 с.
12. Рябова К.М. Коллоквиальная лексика современного английского языка: дисс. ... канд. филол. наук / К.М. Рябова. – Горький: 1979. - 192 с.
13. Скребнев Ю.М. Введение в коллоквиалистику / Ю.М. Скребнев. - Саратов: Изд-во Саратовск. ун-та: 1985. - 210 с.
14. Харьковская А.А. Лингвистические исследования разговорной речи. – Куйбышев: 1984. - 177 с.
15. Хомяков В.А. Введение в изучение сленга - основного компонента английского просторечия / В. А. Хомяков. – Вологда: 1971. - 104 с.
16. Soudek L. Shorter Oxford Dictionary / L. Soudek. - Oxford, 1967. - P. 18.
17. Webster's New Dictionary, 2004:103.



Miraziz RAUFOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: m.raufov@tsul.uz

O‘zDJTU f.f.f.d (PhD) Z. Abdusamadov taqrizi asosida

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MUQOBILSIZ BIRLIKLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz, o‘zbek tillarida muqobilsiz birliklar tushunchasi va ularning tasniflanishi bilan bir qatorda o‘zbek tilidan ingliz tiliga yoxud ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish yo‘llari, usullari haqidagi nazariy va amaliy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari muqobilsiz birliklar tarjimasiga doir jahonning hamda o‘zbek tarjimasunos olimlarining fikrlari, qarashlari ham o‘rganilgan bo‘lib, mazkur maqolada keltirib o‘tilgan. Ikki tilda (ingliz va o‘zbek tillari) muqobilsiz birliklarning tarjimalaridan misollar keltirilgan hamda qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: muqobilsiz birlik, ekvivalentlik, tarjima nazariyasi, realiyalar, transkripsiya, transliteratsiya, tasvirlash

NON-ALTERNATIVE UNITS IN UZBEK AND ENGLISH AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS

Аннотация

In this article, along with the concept of non-alternative units in English and Uzbek languages and their classification, it takes into account the theoretical and practical aspects of the ways and methods of translation from Uzbek to English or from English to Uzbek. In addition, the opinions and views of international and Uzbek translation scholars regarding the translation of non-alternative units have been studied and cited in this article. Examples of translations of non-alternative units in two languages (English and Uzbek) are given and a comparative analysis is made.

Key words: non-alternative unity, equivalence, theory of translation, realities, transcription, transliteration, description

БЕЗЭКВИВАЛЕНТНЫЕ ЕДИНИЦЫ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье представлен анализ понятия безэквивалентных единиц в английском и узбекском языках, а также их классификации и методов перевода между указанными языковыми системами. Также обсуждаются взгляды и мнения как международных, так и узбекских ученых-переводчиков относительно проблематики перевода безальтернативных единиц. В статье приводятся примеры перевода таких единиц на оба языка – английский и узбекский – а также проводится сравнительный анализ данных переводов.

Ключевые слова: безэквивалентные единицы, эквивалентность, теория перевода, реалия, транскрипция, транслитерация, описание.

Kirish. Bilamizki, til har qanday jamiyatning taraqqiy etganligini namoyon etuvchi ko‘zgudir. Xalqning millat darajasiga yetishida, shu xalqni tashkil etuvchi insonlarning orzu-maqсадlari yo‘lida birlashishida, shubhasiz, tilning o‘rni muhimdir. Mustaqil O‘zbekistonning istiqbolli, uning taraqqiyoti va ravnaqi, buyuk davlatga aylanishi – ilm-fan rivoji va texnik takomiliga, yangi jamiyat asoslarini barpo qilishga safarbar qilgan xalqimizning ma‘naviy-axloqiy barkamolligi, aqliy salohiyatining yetukligiga bevosita bog‘liqdir.

2023-yil 29-may kuni Prezidentimizning PQ-38 sonli “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlikka bir qancha asosiy vazifalar yuklangan bo‘lib, asosiy vazifalaridan biri sifatida “davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo‘nalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda ko‘maklashish” belgilandi[1]. Mazkur belgilangan vazifalardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zga tillardan o‘zbek tiliga yoki ona tilimizdan jahon tillariga tarjima qilish orqali ushbu belgilangan maqsadlarga erishish mumkin. Shu o‘rinda shuni alohida ta‘kidlash joizki, yurtimizda so‘nggi yillarda chet tili, tarjima sohaloriga bo‘lgan e‘tibor yaqqol ko‘zga

tashlanmoqda. Jumladan, Mazkur Qarorda 1000 ta xorijiy tilda yozilgan kitob o‘zbek tiliga tarjima qilinishi belgilandi. Bu borada esa tarjimaga katta ehtiyot seziladi.

Xo‘sh, tarjima aslida nima?

Tarjima - biror ijodiy ishning (kitoblardan tortib gapirayotgan nutqimizgacha) qayta yaralishidir. Tarjimada asl tildagi ruhiyatni, mazmun-mohiyatini anglash, asliyatdagi turli birliklarning leksik, grammatik, fonetik, frazeologik vazifalarini anglab yetish, tarjima qilinayotgan tilda esa ularga har tomonlama mos keladigan ekvivalentlar topish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimasunos olim L. S. Barxudarov esa bu holatni quyidagicha ta‘riflaydi: “Tarjimada ikki turli xil tillarga xos leksik birliklari o‘rtasidagi semantik muqobilligini topish muhim jarayon hisoblanadi”[2].

Shundan kelib chiqib, faqat ma‘lum xalqning yashash tarziga, dunyoqarishiga, narsalarni nomlashdagi o‘ziga xos xususiyatlar boshqa bir millatlarnikidan keskin farq qiladi. Bunday o‘ziga xosliklar shu xalqning tafakkur shakli, udumlari, milliy kiyimlari, milliy ovqatlari, urf-odatlar va boshqa xatti-harakatlari bilan boshqa millat va elatnikidan farq qiladi. Buning natijasida esa faqat shu millatga (yoki xalqqa) mansub bo‘lgan turli xil tushunchalarni ifodalovchi terminlare yuzaga keladi. Mazkur terminlar ma‘no anglatgan tushunchalar boshqa millatlar (yoki xalqlar) tilida uchramaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tarjimasunoslik va tilshunoslikda mazkur terminlarni “xos so‘zlar”, ya‘ni

“realiyalar” deb ataladi[3]. Mazkur xos soʻzlar esa muqobilsiz birliklarni yuzaga keltiradi.

Xalqar tillari va madaniyatlarini qiyoslashda bir-biriga mos keladigan hamda umuman mos kelmaydigan birliklar mavjuddir. Xalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan tilda ham mazkur unsurlarni uchratishimiz mumkin. Qiyoslanayotgan tillar va ularning birliklari oʻziga xos boʻladi. Mos kelmaydigan birliklarga, avvalambor, muqobilsiz birliklar va aynan oʻsha tilga xos boʻlgan soʻzlar hamda oʻzga tilda muqobili boʻlmagan birliklar kiradi[4].

Adabiyotlar tahlili. Muqobili mavjud boʻlmagan birliklar tarjimonida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Mamlakatimiz tilshunosligida ingliz, rus va oʻzbek tillarida muqobilsiz birliklar va ularning lingvokulturologik xususiyatlari hamda uning ilmiy-nazariy muammolari M. Galliyeva, O. Moʻminov, N. Qambarov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida oʻz aksini topgan. Masalan, O. Moʻminov muqobilsiz birliklarning sinxron hamda ogʻzaki tarjimada uchrashi haqida tadqiqot olib borgan boʻlsa, N. Qambarov ijtimoiy-siyosiy matnlarda uchraydigan muqobili yoʻq birliklar haqida ish olib borgan. M. Galliyeva esa diniy sohaga doir muqobilsiz birliklar tarjimasiga doir tadqiqot olib borgan[5]. G. Odilova sheʼriyat tarjimasidagi muqobilsiz birliklar tarjimasida ustida izlanishlar olib borgan[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ustidagi izlanish jarayonida asosan qiyosiy solishtirma **metodlardan** foydalanildi. Bunday tashqari maqola ustida ishlab mobaynida distributsion metod turlari (qoʻshimcha distributsiya, kontrast distributsiya, erkin almashinish distributsiyasi), transformatsion metodlar, komponent tahlil metodi, modellash metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Realialar klassifikatsiyasini chuqur oʻrgangan surxondaryolik olim I. Mirzayev shu sohada faoliyat olib borgan olimlarning fikrlariga qoʻshilgan holda xorijiy matbuot organlari nomlarini, xalq anʼanalari, urf-odatlarini, arxitektura yodgorliklari nomlarini frazeologizmlarda ifodalagan xos maʼnoli birliklarni ham realialar sifatida oʻrganishni taklif qiladi. Shundan kelib chiqib, muqobilsiz birliklarning asosiy elementi boʻlgan realiyaga quyidagicha taʼrif berish mumkin: realiya bu faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli boʻlgan moddiy madaniyat ashyolari, tarixiy faktlar, davlat institutlari nomi, milliy va folklor qahramonlarning ismlari, mifologik mavjudotlar va boshqa nomlaridir. Tillarni chogʻishtirganda ushbu holatlarni anglatuvchi soʻzlarni ekvivalentsiz leksikaga kiritadilar. Ekvivalentsiz leksika boshqa madaniyatda mavjud boʻlmagan va qoidaga koʻra boshqa tilga bitta soʻz bilan tarjima qilinmaydigan, oʻziga tegishli til doirasidan tashqarida muqobili boʻlmagan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan soʻzlar hisoblanadi. Ingliz tilidagi realialarni tarjima qilishda odatda tarjimonlar uzundan uzoq taʼriflarga tayanishgan yoki oʻzlarining neologizmlarini taklif qilishlariga togʻri keladi. Ekvivalentsiz leksika tillarni solishtirganda oson aniqlanadi, chunki unda mazkur til tomonidan voqelikning boʻlinib ketish spesifikasi va madaniyatning oʻziga xosligi yaqqol namoyon boʻladi. Agar ekvivalentsiz leksikaga nafaqat kundalik turmush realiyasi belgilarini, balki davlat-siyosiy tuzumi, xalqning madaniy hayoti va ishlab chiqarish turli sohalarining oʻziga xos nomlanishini kiritisa, har bir xalq tilidagi realialar soni yanada oshadi.

Til va madaniyatlarini solishtirganda anglanadigan (realiyadan tashqari) va anglatuvchi (shakldan tashqari) orasidagi farqni ajratib koʻrsatish mumkin. Anglanadiganlar oʻrtasidagi farq quyidagi holatlarda kuzatiladi:

1) Bir til jamoasiga xos realiya boshqasida mavjud boʻlmaydi. Masalan, *drug store - dorixona; Yellow pages - telefon maʼlumotnomasining sariqrang qogʻozli tijorat boʻlimi.*

2) Realialar ikki tilda ham mavjud boʻladi, ammo birida u alohida yoki maxsus holda ifodalanmaydi. Masalan, *clover leaf - beda yaprogʻi koʻrinishidagi avtoyoʻl chorrahasi.*

Ingliz tilidagi realialarga inglizlarga xos boʻlgan milliy kiyim kechaklar, oziq-ovqat va ichimlik turlari, umumiy ovqatlanish shahobchalari nomlari, pul birliklari va hakazolarni kiritish mumkin. Masalan, **oziq ovqatlar:** *biscuit, hamburger, sandwich, toast, hot dog, pudding, omlet, sausage, chips, crisp, jam, mash, celery, berkswell; ichimliklar: *frizzy drink (soda), yogurt, wine, cola, cocktail.**

Turli xil jamiyatlarda bir-biriga oʻxshash vazifalar har xil realialar (turli xil realialarning funksional oʻxshashligi) vositasida amalga oshiriladi. Masalan, (American English) hotdog - issiq sosiskali buterbrod; (American English) soda fountain - muzqaymoq kafesi.

Oʻxshash realialar funksional jihatdan farqlanadi. Masalan, *cuckoo's call "kakkuning sayrashi"* amerikaliklarning ishonchiga koʻra qiz bolaning turmushga chiqishiga necha yil borligiga ishora qiladi, ruslarda esa inson qancha yil umr kechirishini bildiradi.

Realiani tilning boshqa soʻzlari bilan taqqoslaganda uning farqli tomoni shuki, realiya ifodalaydigan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomondan xalq bilan va boshqa tarafdin vaqtning tarixiy boʻlagi bilan yaqin aloqasi hisoblanadi. Bundan milliy, mahalliy yoki tarixiy koloritning realiyaga xosligi koʻrinib turibdi.

Xuddi shunday oʻzbek tilidagi realialar oʻzbek xalqiga xos boʻlgan milliy oʻziga xoslikni ifoda etuvchi liboslar, milliy taomlar va ichimliklar, joy nomlari ham realiya sifatida oʻzga xalqlar tilida talqin qilinadi[7]. Masalan, Doʻppi - Oʻzbekistonda keng tarqalgan yengil milliy bosh kiyim. Doʻppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Doʻppi tikuvchi chevar “doʻppidoʻz”, doʻppi tikish kasbi esa “doʻppidoʻzlik” deyiladi.

Muqobilsiz birliklarga nafaqat realialar balki oʻsha xalqning turmush tarzidan kelib chiqib yaratilgan maqollar, matallar, hikmati soʻzlar ham kiradi. Quyida ana shunday birliklarning tarjimasiga doir nazariya va misollar koʻrib chiqamiz.

Maqol va matallar ingliz folklori repertuaridan keng oʻrin olgan boʻlib, ularda vatanparvarlik, mardlik, adolat, ilmni sevis, xotin – qizlarga hurmat, yaxshilik, ahillilik, odob – axloq, tarbiya, hurmat izzat, taʼlim, hunar, mehnatsevarlik va shunga oʻxshash bir qancha xususiyatlar oʻrin olgandir.

Masalan, inglizlarda “*One good turn deserves another*” oʻzbekchada “*yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar, yomonlik qilsang – yomonlik*” yoki “*Two heads are better than one*” “*bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla*” tarzida tarjim qilish mumkin.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, har ikkala tilda yuqorida keltirilgan matal va idiomatik birliklarning barcha komponentlari deyarli bir – biriga mos tushgan. Yana bir misol:

- *Speak of the devil and he will appear - Boʻrini yoʻqlasang qulogʻi koʻrinadi.*

Ikkala maqoldagi tayanch komponentlar, “devil” soʻzi “boʻri” tarjima qilinib, bu bevosita ikki tilde farq qilyapti. “Appears” esa “koʻrinadi” tarzida tarjima qilinib oʻzaro mos kelyapti. Biror kishi haqida gap ketganda, oʻsha kishi kelib qolsa, inglizlar “*Speak of the devil and he will appear*” degan maqolni ishlatishadi. Lekin ana shu maqolni oʻzbek tiliga “*Shayton haqida gapirsang, shayton koʻrinadi*” tarzida oʻgirsak, inglizlar va ruslar aytmoqchi boʻlgan mantiqiy fikr oʻz aksini topmaydi. “Shayton” soʻzi oʻzbek tilida tom maʼnoda “mugʻombir”, “hiylakor” kabi maʼnolarni anglatadi. Ammo oʻzbek tilida “boʻrini yoʻqlasang, qulogʻi koʻrinadi”, yoki betamiz insonlar haqida gap ketganda, qoʻpol maʼnoda aytilganda “eshakni yoʻqlasang, qulogʻi koʻrinadi” degan maqollar boʻlib, yuqoridagi inglizcha maqolni mana shu

maqollar bilan tarjima qilish mumkin. Inglizcha va o'zbekcha maqollarni qiyosiy tahlil qilsak, ularning bir – biridan farq qilishini ko'ramiz. Inglizcha maqolning obrazli asosini "devil" (shayton) tashkil etgan bo'lsa, o'zbek tilidagi maqolning obrazli asosini "bo'ri", "qulog'i" so'zlari tashkil etmoqda. Badiiy tarjimaning murakkabligi ham aynan mana shunda, har bir tilning o'zga tillardan farq qiladigan o'ziga xos milliyligi mavjud. Demak, tarjimon tarjimaning ijodiy jarayon ekanligini anglashi va o'zga tildagi xar bir ditalga ijodiy yondoshishi lozim.

Xulosa. Muqobili mavjud bo'lmagan birliklar bevosita tarjimondan yuqori bilim talab qiladi, ya'ni tarjimon uni tarjima qilishdan oldin bilishi, o'rganishi kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarjimon o'zi o'girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Muallif ilgari surgan g'oyadan chetga chiqolmaydi, tarjimon shunga qaramay til sohasida ijod qilar ekan, tilning asosiy qurilish materiali so'z bilan ishlaydi. Badiiy adabiyot uchun g'oyatda

muhim bo'lgan ko'rsatkichlar –badiiylik, obraz va obrazlilik, barchasi so'z zamirida yashiringan, so'z orqali reallashadi. Binobarin so'z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi realiyalarning xususiyatlarini tahlil qilib, ularni tarjima qilishdagi bir necha usullarni ko'rib o'tdik. Bunda asosan qilingan tarjimalar rus tili orqali amalga oshirilganligi sababli, tarjimon o'zbek tiliga amalga oshirgan tarjimasida asliyat matnini chuqur tushungan holda tarjima qilishi kerakligini kuzatdik. Muqobilsiz birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan nafaqat keng tarjimashunoslik to'g'risida nazariya bilimlardan, balki, o'zga xalqlar turmush sharoiti, madaniyati, urf-odatlariga haqidagi bilimlardan ham boxabar bo'lishi talab etiladi. Umuman badiiy asarni tarjima qilish, tarjimonning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, tarjimashunoslik sohasidan xabardorligiga, tarjima jarayoniga va matn uslubiga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR

Keltirilganlardan tashqari yana bir qancha zamonaviy tushunchalar ayrim turkiy tillarda milliy atamalar bilan nomlab kelinmoqda. Jumladan, *kreativ so'zi qozoq tilida иъгармаишылық, qirg'iz tilida чыгармачыл* (ijodiy, ijodkorlik), turk tilida *yaratıcı, ozarbayjon tilida yaratıcı* (yaratuvchi, ijodkor) so'zi orqali, *onlayn* (ingl. *online* – operativ rejim) so'zi qozoq tilida *желеде* (tarmoqda), turk tilida *çevrimiçi* (*çevrim+çi* – atrof / doira ichi) so'zi orqali ifodalanganini kuzatish mumkin.

Keltirilgan misollarga asoslanib aytish mumkinki, o'zbek tiliga, asosan, ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan yangi so'zlarni milliyilashtirishda zarur o'rinlarda qardosh turkiy xalqlar tajribalaridan unumli foydalanish o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin. Lekin bunda muayyan bir yangi so'zni turkiy tillarning birortasidan to'g'ridan to'g'ri ko'chirib olish kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Boshqa turkiy tillarda milliyilashirilgan birorta yangi tushunchani o'zbek tilining leksik, so'z yasash tizimiga, shuningdek, fonetik va grafik xususiyatlariga mosligini e'tiborga olib nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek tilining lug'at boyligida forscha va arabcha so'zlar salmoqli o'rinni band etadi. Tilshunos olim O.Shukurovning tadqiqiga ko'ra, o'zbek tili umumiy lug'at fondining 37,2 foizini o'zlashma qatlam so'zlari tashkil etib, shuning 10,9 foizi forscha, 10,7 foizi arabcha so'zlar ulushiga to'g'ri keladi [12; 52]. Forscha va arabcha so'zlarning katta qismi bir necha asrlar davomida o'zbek tilining faol leksik qatlamiga chuqur singib ketgan. Tilshunos olim M.Mirtojiyev ham o'z o'rnida buni e'tirof etib o'tgan: "Arabcha-forscha so'zlar o'zbek tili tabiatiga juda yaqin singishgani, o'zbek xalqi esa bu so'zlarni o'z ona tili so'zlari qatorida qabul qilgani ham bor haqiqat. Negaki, nutq egalari kundalik hayotda istifoda etayotgan ayrim shunday so'zlarni arabcha yoki forscha ekanini payqashmaydi, o'z til so'zlari qatorida qabul qilishgan" [13; 3].

Bugungi kunda *maymun, laylak, kalamush, jigar, kalla, anjir, bodom, meva, changal, kulol, oshpaz, nevara, shakar, tuxum, non, chit, arra, kalit, lekin* kabi yuzlab so'zlarning o'zbek tiliga forschadan o'tganligini tasavvur qilish qiyin. Bunday so'zlarning asl manbasini faqatgina soha mutaxassislari yoki maxsus etimologik lug'atlar ko'magidagina aniqlash mumkin.

O'zbek va fors-tojik tilining o'zaro aloqasi faqat tayyor leksik birliklar bilan cheklanmaydi. O'zbek tilida bir qismi fors-tojikcha so'zlardan tashkil topgan turli xil mavzuviy guruhga mansub bir qancha qo'shma so'zlar mavjud: *birdam, boshpana, arpapoya, yotoqxona, anjirqoqi, bodomqovoq, gulyuz, diltortar, jonkuyar* kabi. Bundan

tashqari, bir qator forscha so'z yasovchi qo'shimchalar o'zbek tilida so'z yasash xususiyatiga ega (*ulug'vor, archazor, yoldor, bebosh, notanish, sersuv, tilshunos, terifurush o'txo'r* kabi) yoki, aksincha, forscha asosdan o'zbekcha (turkiy) qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasash mumkin (*dutorchi, bandalik, andishali, mehrsiz, gunonsiramoq, bachkanalashmoq* kabi). Bu esa o'zbek va fors-tojik tillari nafaqat badiiy ijod orqali, balki uzoq asrlik siyosiy, madaniy va maishiy aloqalar orqali bir-biriga mustahkam bog'langanini ko'rsatadi.

O'zbek tiliga, asosan, din va ilm-fan tili sifatida kirib kelgan arabcha so'zlarning ta'siri tojik tiliga nisbatan uncha chuqur bo'lmasa-da [14; 32], hozirgi o'zbek tilining faol leksik qatlamida ular salmoqli o'rinni egallaydi. Xususan, *davlat, xalq, viloyat, qonun, muammo, shoir, usta, xola, tanqid, rasm, haykal, askar, xabar, savol, javob* kabi ko'plab so'zlardan muayyan soha vakillari, shu bilan birga, jonli xalq tilida keng foydalaniladi. Arabcha o'zlashmalarning bir qismi o'zbek tilida yangi so'zlar yasashda faol qatnashadi: *bo'yintumor, yondaftar, kelinsalom, ko'sulton, tilxat, dunyoqarash, asabbuzar, kitobsevar* kabi qo'shma so'zlar va *avvalgi, vazirlik, ibratli, maslahatchi, zamondosh* kabi sodda yasama so'zlarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Mustaqillikdan keyin ham yangi so'zlar yaratish, shuningdek, tilga majburan kiritilgan ruscha-baynalmilal so'zlarni almashtirish uchun lozim o'rinlarda fors-tojikcha va arabcha til birliklaridan foydalanildi. Masalan, *peshlavha, insonparvarlik, nogiron* (ruscha *инвалид* o'rnida) *ma'muriyat* (ruscha *администрация* o'rnida), *faol* (ruscha *актив* o'rnida), *tahlil* (ruscha *анализ* o'rnida), *rasmiyatchilik* (ruscha *бюрократия* o'rnida) kabi.

Keyingi paytlarda avvaldan ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lgan *jonli* so'zi (fors-tojikcha asos + o'zbekcha qo'shimcha) o'ziga yangi ma'nolarni ortirdi. Ular qo'shiqchilik sohasiga oid "qo'shiqni yolg'ondan (fonogramma usulida) emas, to'g'ridan to'g'ri o'z ovozi bilan aytish" (*jonli ijro*) va internet sohasiga oid "biror mediya dastur yoki sport musobaqasini real vaqt rejimida boshqa manzilga uzatish" (inglizcha *live*, ruscha *прямой эфир*) ma'nosi. Yoki ingliz tilida *link*, rus tilida *ссылка* nomlari bilan yuritiluvchi yana bir internetga oid tushuncha o'zbek tilida arabchadan o'zlashgan *havola* so'zi orqali ifodalanyapti.

Umuman, uzoq davrlar mobaynida o'zbek tilining takomiliga katta hissa qo'shgan, milliy so'z mulkinging ajralmas qismiga aylangan forsiy va arabiy so'zlar bugungi global dunyoda ko'plab tillar taqdiri xavf ostida qolayotgan bir paytda o'zbek tilining kelajagi uchun ham muhim yordamchi manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi lozim.

Xulosa va takliflar. Xullas, o'zbek tiliga xorijiy tillar ta'siri ortib borar ekan, yangi o'zlashmalarning muayyan qismini milliyilashtirish o'zbek tilining barqaror rivojlanishini kafolatlovchi asosiy tayanch kuch vazifasini bajaradi. Bunda, avvalo, jonli xalq tilida keng iste'molda bo'lgan o'z qatlam so'zlarini ishga solish, qolaversa, o'rni bilan qardosh turkiy xalqlar tajribalariga murojaat etish, shuningdek, keng jamoatchilik uchun tushunarli bo'lgan fors-tojikcha va arabcha so'zlardan unumli foydalanish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон: 1992. – Б. 62
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдли. II жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 171.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк.– Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 159.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B. 308.
5. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 299.
6. Исмаилов Ф. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 10.
7. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002. –Б. 19.

8. Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг мустақиллик даври ривожига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - 2006, №4. -Б.8
9. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 90.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B. 148.
11. Shukurov O. Mustaqillik davri o'zlashmalarining qisqacha izohli lug'ati. – Qarshi: Intellekt, 2022. – B. 18.
12. Шукуров О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография. – Қарши: Интеллект, 2022. – Б. 52.
13. Миртожиев М. Ўзлашган сўз – пайванд қуртаги. –Тошкент: Ўзбекистон: 1988. –Б. 3.
14. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? –Тошкент: Фан, 1972. –Б. 32.



Shaxzoda XAMROYEVA,
O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shkhamroeva@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d N.Normurodova taqrizi asosida

SEMANTIC-STYLISTIC TOOLS THAT REPRESENT AUTHORS MEDIATION

Annotation

In the second half of the 20th century, cognitive linguistics emerged based on an anthropocentric approach to linguistics-at the same time scientific research into the cognitive interpretation of the author's mediation behind the text was visible. Based on the purpose of the scientific work, the term author's mediation was introduced, which allows us to consider this phenomenon in the semantic-stylistic, structural and cognitive aspect of linguistics from the point of view of artistic discourse under the term "author's mediation", which is more broadly considered a literary concept. In the article, the author's mediations in English fiction are subject to semantic-stylistic analysis.

Key words: anthropocentric approach, author's digression, author's mediation, semantic-stylistic tools, text analysis.

СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ АВТОРСКОГО РАЗМЫШЛЕНИЯ

Аннотация

Во второй половине 20-го века возникла когнитивная лингвистика, основанная на антропоцентрическом подходе к лингвистике - в то же время были заметны научные исследования когнитивной интерпретации авторского посредничества, стоящего за текстом. Исходя из цели научной работы, был введен термин авторская размышления, который позволяет нам рассмотреть данное явление в семантико-стилистическом, структурном и когнитивном аспекте лингвистики с точки зрения художественного дискурса под термином "авторская размышления", который в более широком смысле считается литературным концептом. В статье семантико-стилистическому анализу подвергаются авторские размышления в англоязычной художественной литературе.

Ключевые слова: антропоцентрический подход, авторское отступление, авторское размышления, семантико-стилистические средства, анализ текста.

MUALLIF MUSHOHADASINI IFODALOVCHI SEMANTIK-STILISTIK VOSITALAR

Annotatsiya

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikka antroposentrik yondashuv asosida kognitiv tilshunoslik vujudga keldi shu bilan birga matn ortidagi muallif mushohasining kognitiv talqiniga oid ilmiy izlanishlar ko'zga tashlandi. Ilmiy ishning maqsadidan kelib chiqib muallif mushohadasi termini kiritildi va bu bizga ushbu hodisasi yanada kengroq ya'ni adabiy tushuncha hisoblangan muallif chekinishini "muallif mushohadasi" termini ostida tilshunoslikning badiiy diskurs nuqtai nazaridan semantik-stilistik, struktur va kognitiv aspektida ko'rib chiqishga imkon beradi. Maqolada ingliz badiiy asarlaridagi muallif mushohadalari semantik-stilistik tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: antroposentrik yondashuv, muallif chekinishi, muallif mushodasi, semantik-stilistik vositalar, matn analizi.

Kirish. Ma'lumki, matnni talqin qilish filologiyaning bir sohasi hisoblanadi. Ushbu tahlil stilistika, matn tilshunosligi, adabiyot nazariyasi, falsafa va germevntika singari bir qancha yondosh fanlarga asoslanib olib boriladi. Matnni talqin qilish orqali badiiy asar konseptiga kirib borish, muallifning lisoniy olam manzarasini va o'quvchiga hissiy ta'sirini anglash mumkin bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matnda muallif mushohadasining roli haqida ham qimmatli fikrlar berilgan. Asarlarda muallif chekinishlarning katta o'zni borligini ko'plab adabiyotshunos olimlar [M.B.Xrapchenko, Yu.M.Lotman, Yu.N.Tynyakov, T.I.Silman va boshqalar] qayd etib, ularni muallifning o'zini o'zi ifodalashning eng muhim vositasi, lirik ovozi deb hisoblaganlar. So'nggi paytlarda qo'shimchalar va matnning o'zaro ta'siri masalalari faol rivojlanayotgan ishlar paydo bo'ldi [Yu.N.Karaulova, N.V. Cheremisina, L.N.Murzina, L.M.Maydanova, L.G.Babenko], ammo asarga begona segmentlarni kiritish, matnning ichki tuzilmalarini o'rganish yanada chuqurroq nazariy izlanishlarni talab qiladi. Muallifning bayonotlari, garchi ular syujetdan tashqari element bo'lsa ham, asar g'oyasini tushunish uchun juda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bilamizki, fan sohasida qo'llaniladigan bilishning vosita va amallari umumlashmasi ilmiy tadqiqotlar metodini tashkil qiladi. Tadqiqot metodi, albatta, o'rganish uchun tanlangan ob'ektga monand tarzda turli xil bo'lishi mumkin. Ushbu ilmiy maqolada ham umumiy ham xususiy lingvistik tadqiqotning metodlari qo'llanilgan: tavsifiy metod, komponent tahlil metodi, semantik-stilistik metod, kognitiv modellashtirish metodi.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnning syujetdan tashqari elementlari, xususan, muallif mushohasi aks etgan qismlar ham yaxlit matn singari semantik-stilistik xususiyatlarga degan fikrni ilgari suramiz. Amerikalik yozuvchi Donna Tarttning Pulitzer mukofotiga erishgan "The Goldfinch" asarini tahlilga tortamiz. Ushbu asar rassom Karel Fabritiusning kichik bir surati asosida yaratilgan. Suratda Goldfinch qushining oyog'idan zanjir bilan bog'langani tasvirlangan bo'lib, asarda esa bu shunchaki natyumorat emas, balki qahramonning hayot yo'li timsolidir. Asarning bosh qahramoni Theoning sarguzashtlari orqali muhabbat, do'stlik hamda judolik qayg'usi kabi tuyg'ular ifodalangan. Asarning tub mazmuniga kirish uchun quyidagi muallif chekinishi hisoblangan parchani stilistik tahlilga tortamiz:

“But what does the painting say about Fabritius himself? Nothing about religious or romantic or familial devotion; nothing about civic awe or career ambition or respect for wealth and power. There’s only a tiny heartbeat and solitude, bright sunny wall and a sense of no escape. Time that doesn’t move, time that couldn’t be called time. And trapped in the heart of light: the little prisoner, unflinching. I think of something I read about Sargent: how, in portraiture, Sargent always looked for the animal in the sitter (a tendency that, once I knew to look for it, I saw everywhere in his work: in the long foxy noses and pointed ears of Sargent’s heiresses, in his rabbit-toothed intellectuals and leonine captains of industry, his plump owl-faced children). And, in this staunch little portrait, it’s hard not to see the human in the finch. Dignified, vulnerable. One prisoner looking at another”[4].

Fragment asarning eng oxirgi yakuniy qismi bo‘lib, ushbu parchada ishlatilgan til sodda, asosan kundalik hayotda ishlatiladigan lug‘atdan tarkib topgan. Murakkab va tushunarsiz so‘zlarning yo‘qligi, bu uslubning umumiy soddaligiga hissa qo‘shadi. Birinchi gapga e‘tibor qaratsak muallif birinchi shaxs nomidan so‘zga chiqib, kitobxon bilan bevosita dialogik nutq hosil qilmoqda.

“There’s only a tiny heartbeat and solitude, bright sunny wall and a sense of no escape” qismidagi “tiny heartbeat” birikmasi “t” tovushining takrori orqali fonetik stilistik qurilma – alliteratsiyani hosil qilgan. “Bright sunny wall” iborasida esa metoforik ma‘no ko‘chishini ko‘rish mumkin. “Tiny”, “bright” and “sunny” kabi tavsiflovchi so‘zlar (sifatlar) kitobxonida yanada aniq aqliy tasvir (mental image) yaratish uchun xizmat qilgan. “Tiny heartbeat” va “solitude” so‘zlari bilan “bright sunny wall” va “a sense of no escape” so‘z birikmalari hayot va tutqunlik o‘rtasidagi keskinlikni ta’kidlab, paradoksal kontrast yaratgan. “Bright sunny wall” va “sense of no escape” iborasida parallel konstruksiyalar bilan ifodalangan fikrlarning qarama-qarshiligi (“yorug‘ devor” va “qochib qutulishning imkonsizligi”)ga asoslangan leksik-sintaktik stilistik qurilma antitezadan foydalanilgan. Tart stilistik qurilma orqali shaxslar, ularning qochib bo‘lmaydigan azob-uqubatlariga ishora qiladi. Navbatdagi asar “Second skin” Caroline Castle Hicks tomonidan 1998-yilda yozilgan asardir. Muallif zamonaviy amerikalik yozuvchi bo‘lib, “Second skin” asarida onalik va uning muhim ahamiyati, onalik quvonchi, farzandiga g‘amxo‘rligi aks ettirilgani sabab uni avtobiografik ruhda deyish mumkin. Asardagi asosiy leksik maydonlar “kiyim”, “baxt”, “vaqt” va “farzand” deyish mumkin. Asarning boshlanishida keltirilgan epigraf asarning kuchli pozitsiyasidir, undan keyingi muhim kuchli pozitsiya esa bu asarni boshlab beruvchi muallif mushohasining birinchi gap:

“My favorite pair of old jeans will never fit me again. I have finally accepted this immutable truth. After nurturing and giving birth to two babies, my body had undergone a metamorphosis. I may have returned to my pre-baby weight, but subtle shifts and expansions have taken place – my own version of continental drift. (definition: the gradual movement of the continents across the earth’s surface through geological time.) As a teenager, I never understood the difference between junior and misses sizing; misses clothing just looked old. Now it is all too clear that wasp

waists and micro-fannies are but the fleeting trappings of youth. But that’s okay, because while the jeans no longer button, the life I exchanged for them fits better than they ever did”.

“Favorite pair of old jeans” iborasi kitobxon ongida nostalgik tuyg‘uni uyg‘otadigan yorqin tasvirni (image) yaratadi. Aniq va maxsus detallardan foydalanish jumladagi umumiy tasvirni yaxshilaydi.

“Fleeting trappings of youth” baholovchi konnotatsiyalar (evaluative konnotatsiya) aks etgan bo‘lib, o‘tgan zamonga ta’luqlilikni ko‘rsatadi va salbiy ma‘no ifodasiga ega.

Ushbu stilistik vositalar matn tub mohiyati va ifodasiga hissa qo‘shadi, ma‘no va hissiyot qatlamlari yaqqol aks etishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, “Not a penny more, not a penny less” Jeffrey Archerning qalamiga mansub bo‘lgan asarni tahlilga tortamiz. Jeffrey Archer asarlari eng ko‘p sotilgan ingliz yozuvchilaridan biri hamda sobiq siyosatchi. Uning kitoblari dunyo bo‘ylab kamida 250 million nusxada sotilgan. “Not a penny more, not a penny less” Jeffrey Archerning birinchi romanidir. Unda to‘rtta muvaffaqiyatga erishgan odamning bankrot bo‘lishi va ular boyliklarini qaytarib olish uchun kurashlari haqida hikoya qilinadi. Quyida ushbu romanning muallif mushohasi keltirilgan bo‘lib, u asarning boshlanish qismida kelgan:

“Making a million legally has always been difficult. Making a million illegally has always been a little easier. Keeping a million when you have made it is perhaps the most difficult of all. Henryk Metelski was one of those rare men who managed all three. Even if the million he had made legally came after the million he had made illegally, what put him a yard ahead of the others was that he managed to keep it all.”

Olingan fragmentda muallifning o‘ziga xos ifodalash usulini, stilistik qurilmalarni ko‘rish mumkin. Avvalo, “Making a million legally has always been difficult. Making a million illegally has always been a little easier” gaplarida millionni qonuniy va noqonuniy yo‘l bilan topish o‘rtasidagi qarama-qarshilik, shuningdek, “Keeping a million when you have made it is perhaps the most difficult of all” gapi bilan millionni topish va uni saqlashning qiyinligi antitezik tuzilmani hosil qilgan. Qolaversa, “Making a million legally”, “Making a million illegally” frazalari takrorlanib turli vaziyatlarga urg‘u began holda parallell struktura bermoqda, gap boshida bir xil so‘zlarning takrori esa anaphora, shu bilan birga qo‘shni so‘zlarda o‘xshash tovush takrori bilan alliteratsiya fonetik-stilistik vositadan foydalanilganini ko‘rish mumkin.

Ushbu stilistik qurilmalar parchaning boy ifodasi va murakkab tuzilishiga hissa qo‘shib, kitobxonning e‘tiborini jalb qiladi.

Xulosa va takliflar. Badiiy matnning voqealar rivojidan tashqari elementlari, xususan, muallif mushohasi aks etgan qismlar ham yaxlit matn singari semantik-stilistik xususiyatlarga ega ekanligining guvohi bo‘ldik. Ingliz badiiy matnlari tahlili jarayonida alliteratsiya, metafora, anafora, antiteza singari stilistik vositalardan foydalanilgani ma‘lum bo‘ldi.

ADABIYOTLAR

1. D.U.Ashurova, M.R.Galiev 2012 “Cognitive linguistics” 12b.
2. D.Quronov 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. ToshDO‘TAU. – Toshkent: Akademnashr. 213b.
3. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva 2010. Adabiyotshunoslik lug‘ati - Toshkent: Sharq. 124b.
4. Donna Tartt 2013 “The Goldfinch” 446b.
5. M.Egorova 1984. Типология со стилистические функции внутритекстовых авторских комментариев. Текст как объект комплексного анализа в ВУЗе. 236b.
6. N.Normurodova 2020. “Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе” dissertatsiya. 76b.

7. Новожилова К.Р.1989. Вводные текстовые единства, или авторские отступления, и их функционирование в художественном тексте.231b
8. Кукуева Г.В. 2001. Авторская ремарка как средство выражения авторской стратегии в диалоге с читателем. Текст: структура и функционирования. Барнаул. 204b.
9. Verdonk P. Stylistics. Oxford Introductions to Language Study Text. Series Editor
10. H.G. Widdowson. 2002 Oxford University Press. 566b.



UDK:811.1

Muxtor XUDOYQULOV,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

E-mail: masalchi@mail.ru.

O'zMU Jurnalistika fakulteti Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasini mudiri, dots. R.Abdusattarov taqrizi asosida

JURNALISTIKA VA PUBLISISTIKA

Аннотация

Mazkur maqola ommaviy axborot vositalari o'z funksiyalarini bajarishda doimiy ravishda amalga qiladigan qonuniyatlardan biri – uning publitsistika bilan hamkorlikda ish olib borishi haqidadir. Publitsistika adabiy, ijtimoiy-siyosiy ijodning bir turi bo'lib u mediada hozirgi zamon hayotiga doir muhim mavzular, muammolarni ko'tarib chiqish va uni ommaga etkazish, ijtimoiy hayotning muhim masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, matbuot, gazeta, jurnal, radio, televideniye, internet tarmoqlari. publitsistika, publitsistik ruh, publitsistika turlari, publitsistika janrlari.

ЖУРНАЛИСТИКА И ПУБЛИЦИСТИКА

Аннотация

В данной статье речь идет об одном из законов, который средства массовой информации постоянно реализуют при выполнении своих функций, - о сотрудничестве с публицистикой. Журналистика – это вид литературного, общественно-политического творчества, она служит для поднятия общественного мнения по важным вопросам общественной жизни, поднимает важные темы и проблемы, связанные с современной жизнью, в средствах массовой информации и доводит их до общественности.

Ключевые слова: журналистика, пресса, газета, журнал, радио, телевидение, интернет-сети, журналистский дух, виды журналистики, жанры журналистики.

JOURNALISM AND PUBLICITY

Annotation

This article is about one of the laws that the mass media constantly implements in the performance of its functions - its cooperation with publicism. Journalism is a type of literary, socio-political creativity, it serves to raise public opinion on important issues of social life, raise important topics and problems related to modern life in the media and convey it to the public.

Key words: journalism, press, newspaper, magazine, radio, television, internet networks, journalistic spirit, types of journalism, genres of journalism.

Kirish. Ma'lumki, matbuot ijtimoiy hayotni aks ettirish ko'rinishlaridan biri, real voqelikni bilish, tadqiq etish hamda unga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasidir. Matbuotning real voqelikni o'zida aks ettirishi, hayot voqea va hodisalarini keng ommaga etkazib berishi, shu zamonga doir muhim masala va muammolarni o'rganishi va jamoatchilik fikriga havalo etishida unga insoniyat aqliy faoliyatining yana bir yorqin ko'rinishi bo'lmish publitsistika yordamga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Publitsistikaning mohiyati va uning ommaviy axborot vositalaridagi ko'rinishi mavzusi rus matbuotshunos olimlari V.Uchenova, E.Proxorov, o'zbek olimlari O.Tog'ayev, F.Mo'minov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Shuni aytish kerakki matbuotshunos olimlar publitsistikaning ommaviy axborot vositalaridagi o'rni va vazifasi to'g'risida turli fikrlar bilib o'tganlar. Rossiyalik matbuotshunos olimi V.V.Uchenova matbuotda bosilgan barcha materiallar publitsistikaga oid degan fikrni olg'a sursa, E.P.Proxorov o'z asarlarida publitsistikaning asosiy vazifasi jamoatchilik fikrini uyg'otishdan iborat, degan fikrni olg'a suradi.. Professor V.M.Goroxov esa publitsistikaning vazifasi kishilarda grajdanlik faxr-tuyog'usini uyg'otishdan iborat degan fikrni maydonga tashlagan edi. Qoraqalpog'istonlik matbuotshunos T.Masharipova o'zining publitsistika nazariyasiga doir doktorlik dissertasiyasida publitsistikani ijtimoiy-siyosiy institut degan fikrni olg'a suradi. Ammo ijtimoiy institut deganda insonlarning ijtimoiy masalalar bo'yicha tuzilgan uyushmalari, masalan oila instituti, ijtimoiy

boshqaruv instituti kabi, matbuot kabilar kiradi, publitsistika esa inson faoliyatining mahsuli ekanligi, asosan yozilgan yoki aytilgan so'z shaklida mavjudligi bois uni ijtimoiy institutlar qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Shunday ekan, publitsistika ommaviy media, ya'ni jurnalistikaning tarkibiy qismi, muhim bir bo'lak sifatidagina ijtimoiy institut qatorida hisoblanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Publitsistika lotincha "Publicis" – ijtimoiy degan ma'noni bildirib, adabiy-siyosiy ijod turiga aytiladi. Publitsistika – ijtimoiy hayotni aks ettirishning alohida bir turi bo'lib, shu kundagi, ayni zamondagi muammolarni o'zida aks ettiradi va shu kunga, ayni zamonga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda publitsistika shu zamon muammolarini shu zamon kishilariga etkazish, ularga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg'otish maqsadiga xizmat qiluvchi ijod turidir. Uning ijodiy tarkibida fan, adabiyot, siyosat mavjud bo'lib, u bularning umumiy sintezidan tashkil topadi.

Shuni aytish kerakki publitsistikaning insoniyat jamiyatida ham umumiy ko'rinishi mavjud bo'lib, u har bir insonning faoliyati, ish tutishi va hatto qiyofasida ham mavjud bo'lishi mumkin. Bu – insonlarning boshqa insonlar bilan bo'lgan aloqasida, ijtimoiy holat va faoliyatida o'z aksini topadi. Masalan, har odam o'zicha xatti-harakat qiladi, so'zlaydi, faoliyat yurgizadi va bu boshqa odamlar uchun qanday ta'siri etishiga ham e'tibor beradi, bu esa uning kiyinishi, hatti-harakati va boshqalarda namoyon bo'ladi. Bunga jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan shaxslarning

xatti-harakati, yurish-turishlari, inosoniy imijlari misol bo'la oladi, ya'ni har bir inson o'zining kundalik hayoti, faoliyatida jamiyat bilan aloqada bo'ladi va unga o'z ta'sirini ko'rsatish uchun intilib yashaydi.

Publitsistik ruh insoniyat tomonidan yaratilgan barcha sohalarida, masalan, arxitekturada, tasviriy san'atda, muzikada, adabiy asarlarda ham mavjuddir. Bu esa qurilgan muhtasham binolar arxitekturasi, yaratilgan tasviriy asarlarning mazmun va ta'sir darajasi, quruvchi, haykaltarosh, rassom, bastakor, yozuvchi, shoirlarning duenyogarashi va mahoratiga bog'liq bo'lib o'sha madaniy va ma'naviy boylklarning ichki ruhidan kelib chiqadi. Bunga misol qilib dunyodagi ulkan va qadimiy arxektura yodgorliklari, butxonalar, masjidlar, saroylar, yo'llar, ko'priklar, turli obida va haykallar va boshqa moddiy madaniyat ko'rinishlari bilan bir qatorda ma'naviy faoliyat mahsullari bo'lmish buyuk adabiy asarlar, muzika asarlari, tasviriy san'at, haykaltaroshlik va ma'naviy madaniyatning boshqa ko'rinishlari kiradi. Publitsistik ruh insonning yaratish faoliyatida doimiy ravishda aks etilishi lozim bo'lgan yuksak insoniy, ijodiy yutuq hisoblanadi. Bunga javob bermagan har qanday yaratilmish narsa va asarlar unutilishga mahkumdur. Publitsistik ruh va bevosita auditoriyaga qaratilgan publitsistik murojaat insonning og'zaki nutqida ham mavjuddir. Kundalik murmush, ijtimoiy, ilmiy munozara va boshqa o'rinlarda ham tinglovchilarga bevosita murojaat asosiy o'rinni egallaydi va bu publitsistikaning tog'zaki turi hisoblanadi. Insoniyat tarixidan munosib o'rin olgan Demosfen, Sitseron kabi va boshqa notiqalar og'zaki publitsistikaning ajoyib namunlarini ko'rsatib tarixda qolganliklari ma'lumdur.

Ko'rinib turibdiki, publitsistika insonning ijtimoiy va ijodiy faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oladi, ammo uning keng va bemalol ish ko'radigan maydoni – matbuotdir. Ilo, matbuot, ommaviy axborot vositalari, ommaviy media ijtimoiy hayotni aks ettirish va unga ta'sir ko'rsatish bilan doimiy ravishda shug'ullanar ekan, har kuni, har soatda omma bilan, publika bilan ish ko'radi va shu boisdan publitsistikadan doimiy ravishda foydalanadi. Jurnalistikada publitsistika ijtimoiy hayotning har bir masalasi bo'yicha ommani xabardor qilish va jamiyatga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Publitsistika jurnalistikaning muhim bir bo'lagi, eng harakatchan, eng ta'sirchan qismi hisoblanadi. Yuqoridagi olimlarimizdan biri aytganidek matbuot materiallarining baprchasi emas, uning asosiy qismi, jamiyat hayotining muhim masalalaridan biri ko'tarib chiqilgan va ommaga yo'naltirilgan, jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qiladigan materiallarga publitsistik materiallar hisoblanadi. Publitsistika jurnalistikaning eng muhim, asosiy qismi, bir bo'lagi sifatida ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi va o'z navbatida ijtimoiy-siyosiy publitsistika, ilmiy publitsistika, adabiy-badiiy publitsistika, hajviy publitsistika va boshqalarga, janr nuqtai nazaridan esa axboriy, tahliliy va badiiy publitsistikaga bo'linadi. Ommaviy axborot turlariga nisbatan esa publitsistika gazeta va jurnal publitsistikasi, radio va telepublitsistika, internet publitsistikaga bo'linib ketadi. Publitsistika ham jurnalistikaning tarkibiy qismi sifatida uning barcha qonunlariga bo'ysunib faoliyat ko'rsatadi, jumladan u ommaviy axborot vositalarining biz taklif qilganimiz bo'yicha tasvir, tahlil va ta'sir funksiyasini bajarishda ishtirok etadi. Ya'ni ommaviy axborot vositalaridan o'rin oladigan har bir publitsistik material hayotdagi muhim bir voqea va hodisalarni o'zida aks ettiradi, tasvirlaydi, shu bilan birlikda uni ma'lum bir dunyogarash, siyosiy tizim nuqtai nazaridan tahlil qiladi hamda o'quvchilar ongida o'zgarishlar yasashi bilan bevosita, jamiyatdagi hukmron davlat, ijro va sud hokimiyatining aralashuvi va o'sha publitsistik materialda oldinga surilgan masalalarning hal etilishi bilan bilvosita ta'sir orqali hayotda o'zgarish yasaydi,

ma'naviy kuch bo'lgan publitsistik so'z moddiy kuchga aylanadi.

Xulosa va takliflar. Publitsistika shu bilan birlikda jurnalistikaning asosiy tamoyillariga ham amal qilib ish ko'radi. Ma'lumki tamoyillar ommaviy axborot vositalarining o'z faoliyatlarida amal qilishi lozim bo'lgan va mazkur jamiyatning bosh mafkurasi, amal qiluvchi ta'limoti, publitsistlarning dunyogarashidan kelib chiqib qonuniylik tusini oluvchi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlar bo'lib, ommaviy axborot vositalarining amal qilinishi shart bo'lgan yo'nalishlaridan iboratdir. Biz ommaviy axborot vositalari amal qilishi shart bo'lgan tamoyillarni umuminsoniylik, xalqchillimk, milliylik, haqqoniylik, ommaviylikdan iborat deb hisoblaymiz va publitsistika ham ana shu qonun tusini olgan tamoyillarga amal qilgandagina muvaffaqiyatga erishishi mumkin deb hisoblaymiz. Shuningdek, publitsistika matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarida jamoatchilik fikrining ifoda etilishi, matbuotda tradisiyalar va novatorli kabi qonuniyatlarga amal ishi lozim. Publitsistikada ommaviy axborot vositalarining informasion, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlari ishtirok etadi, shu bilan birlikda uning vazifasi informasiya berishgina emas mazkur masala bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otish bo'lganligi boisdan unda tahliliy janrlar – maqola, sharh, kuzatuv, taqriz va badiiy publitsistikaga xos bo'lgan lavha, ocherk, esse kabilardan keng foydalaniladi. Publissistikaning hayot voqealarini ijtimoiy kulgu vositasi bilan aks ettiruvchi hajviy turida esa fel'eton, pamflet kabi hajviy janrlar qo'llaniladi.

Insoniyat va uning muhim qismi bo'lgan jurnalistika tarixidan ma'lumki jahon taraqqiyoti va har bir davrning ijtimoiy hayotining sivilizasiyalashgan davrida publitsistika muhim o'rin olgan. Insoniyatning ilk sivilizasiyasi davrida materialistik qarashlarning hayotga tabiq etilishida muhim o'rin tutgan Yunoniston tarixida Aristotel, Platon, Sokrat va boshqalarning ilmiy-falsafiy publitsistikasi muhim o'rin tutganligi ma'lumdur. O'rta asrlar davrida Evropadan chiqqan Volter, Didro, Tomas Mor va boshqalarning ilmiy-publitsistik qarashlari muhim o'rin tutdi. Rossiyada asrlar davomida hukm surib kelgan ijtimoiy istibdod va qoloqlikni tanqid qilishda A.I.Gersen, N.G.Chernishevskiy, A.S.Pushkin va boshqalarning ijtimoiy-adabiy publitsistik chiqishlari insoniyat ozdlik tarixida muhim o'rin egalladi. XVIII asrdagi fransuz inqilobi mafkurasilari J.Marar, K.Demulen va boshqalarning o'sha davr matbuotidagi publitsistik chiqishlari tarixda qoldi.

Sharqda hali matbuot tashkil topmagan paytda og'zaki va yozma adabiyot uning vazifasini bajarib kelganligi ma'lumdur. Buyuk tukrkiyazbon shoir A.Navoiy, Mashrab, Muqimiy, Zavqiy va boshqa shoirlar o'z asarlarida xalq manfaatlarini ifoda etib o'zbek adabiy publitsistikasiga asos soldilar, shoir Furqat boshlab bergan ma'rifatparvarlik g'oyalari davom ettirgan o'zbek jadid publitsistlari M.Abdurashidxonov, M. Behbudiy, A.Avloniy, A.Qodiriy, H.H.Niyoziy va boshqalar ommani ilmu taraqqiyot yo'liga undovchi jadidchilik ta'limotiga asos solishda publmsistikadan keng foydalandilar. Hozirgi kunga kelib tinchlik va oqilona barqarorlik yo'lidan, xalq farovonligini ta'minlash yo'lidan, borayotgan O'zbekiston respublikasi ommaviy axborot vositalari faoliyatida publitsistika keng o'rin olib kelmoqda va omma ongiga eng ilg'or g'oyalarni, xalqparvarlik, demokratiya, erkinlik qarashlarini singdirishdek muhim vazifani bajarib kelmoqda. Buni o'zbek ommaviy axborot vositalarining barcha turlari – gazetalar, jurnallar, radio, teleko'rsatuvlar va matbuot maydonida tabora keng o'rin olib kelayotgan internet saytlari materiallarida yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek publitsistlaridan Sh. Qudratxo'ja, A.Meliboev, X.Do'stmuhammad, Q.Norqobil va boshqalarning ommaviy axborot vositalarida bosilib turgan publitsistik maqolalari, televizion chiqishlari hozirgi zamon

ijtimoiy-siyosiy publisistkasining yorqin namunalari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Proxorov E.P. Publisist i deystvitel'nost, Izd-vo MGU, 1973.
2. Proxorov E.P. Vvedenie v teoriyu jurnalistiki. Izd-vo MGU, 2005.
3. Goroxov V.M. Jurnalistika i jizn. Vestnik MGU, seriya 10. Jurnalistika. 1958.
4. Mo'minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. - T., 1998.
5. Masharipova T.J. Publitsistika nazariyasining yaxlit konsepsiyasi (ilmiy-metodologik tahlil. Qoraqalpog'iston respublikasi matbuot materiallari misolida. Avtoreferat. 2021.
6. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. Toshkent: Tafakkur, 2013.



UDK:420.372.62:006.2(045)

Nazokat XAZRATQULOVA,
Qarshi davlat universiteti talabasi
E-mail:hazratqulovanazokat@gmail.com

Qarshi DU katta o'qituvchisi N.Amirqulova taqrizi asosida

SOCIOLINGUISTICS AS A MAIN DEPARTMENT OF LINGUISTICS

Аннотация

This article explores the concept of sociolinguistics and its role as a link between language and society, the various types and methods of sociolinguistics, important content related to explaining the change and development of language in society, the importance of language in society, historical, social, economic, political problems, customs, communication methods, and variability are analyzed as important points.

Key words: social, linguistics, nation, state language, social context, communication, scientific analysis, cultural, political processes, society, popularization, population, methods.

СОЦИОЛИНГВИСТИКА КАК ГЛАВНАЯ КАФЕДРА ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация

В данной статье исследуются понятие социолингвистики и ее роль как связующего звена между языком и обществом, различные виды и методы социолингвистики, важное содержание, связанное с объяснением изменения и развития языка в обществе, значение языка в обществе, исторические в качестве важных моментов анализируются социальные, экономические, политические проблемы, обычаи, методы общения и изменчивость.

Ключевые слова: социальное, лингвистика, нация, государственный язык, социальный контекст, коммуникация, научный анализ, культурные, политические процессы, общество, популяризация, население, методы.

IJTIMOYIY LINGVISTIKA, LINGVISTIKANING ASOSIY BO'LIMI SIFATIDA

Аннотация

Bu maqolada ijtimoiy lingvistika tushunchasi o'rganiladi va uning til va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi roli, ijtimoiy lingvistikaning turli turlari va metodlarini, ularning jamiyatdagi tilning o'zgaruvchanligini va rivojlanishini tushuntirishga oid muhim mazmunlar, tilning jamiyatdagi ahamiyati, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolar, odatlar, kommunikatsiya usullari, va o'zgaruvchanligi muhim nuqtalarga aylanganli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, lingvistika, millat, davlat tili, ijtimoiy kontekst, kommunikatsiya, ilmiy tahlil, madaniy, siyosiy jarayonlar, jamiyatda, ommalashuv, aholi, metodlar.

Kirish. Jamiyatlar tilni o'rganish va uning o'zaro muloqotini tahlil qilishda muhim bir rolini o'ynaydi. Bu muloqotning o'zgarish qo'llab-quvvatlovchi elementlari, jamiyatning qiyinchiliklari, siyosiy, madaniy va ijtimoiy konteksti, insonlar orasidagi munosabatlar va ko'plab boshqa ko'rsatkichlar, tilning o'zgaruvchanligini va rivojlanishini ta'sir qiladi. Ijtimoiy lingvistika bu ko'rsatkichlarni tushuntirish, ta'riflash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Ijtimoiy lingvistikada turli turlar va metodlar mavjud bo'lib, ular jamiyatdagi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, va madaniy muammo va ko'rsatkichlarni o'rganishga yordam beradi. Bu fan, tilni va uni aholi tomonidan qabul qilinishini o'rganish, odatlar, tabiiy so'zlashish usullari, va uning o'zgaruvchanligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa yo'nalishlar bilan solishtirilganda, ijtimoiy lingvistika tilni o'rganishning, tarixiy va ijtimoiy tarbiyalanishning, insonlarning identifikatsiya va til orqali o'zlarini ifoda etishning tushunchalarini yanada rivojlantirish uchun muhim bo'lib, kommunikatsiyada munosib tilni va o'zgaruvchanligini tahlil etish uchun ara research tahlil qiladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy lingvistika til o'rganish va uni amal qilishdagi jamiyatdagi o'zgarishlarni tahlil qiladi, buning natijasida jamiyatdagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o'zgarib turadi. Bu esa, jamiyatning o'zini tushunishga yordam beradi va o'zgarishlarga ta'sir qilishga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy lingvistika, lingvistika fanining asosiy bo'limi sifatida, tilning jamiyat bilan bog'liqlikni o'rganadi va o'zgaruvchanligini tahlil qiladi. Bu esa, jamiyatning o'zini

tushunish, o'zgarishlarni tasdiqlash va uning kommunikatsiya jarayonlarini tahlil qilishda juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til, insonlar o'rtasidagi muloqotning esas vositasi va jamiyatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonlarni tahlil qilish uchun ijtimoiy lingvistika, yoki jamiyat tilshunoslik, adabiyotlar va tadqiqotlar sohasida keng qamrovli vaqtincha o'z ajoyib o'rnini egallab kelgan. Ushbu maqolada, ijtimoiy lingvistika tushunchasi va uning jamiyatdagi asosiy ahamiyati, turli turlar va metodlarining ta'riflari, tilning jamiyatdagi rollari va o'zgarishlariga oid muhim ta'riflar va tahlillar tahlil qilinadi. Ijtimoiy lingvistika, tilni o'rganish, uning o'zgaruvchanligini va jamiyat bilan bog'liqlikni tushuntirish, ta'riflash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Til, jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy jarayonlarni tushunishda asosiy vosita sifatida, ijtimoiy lingvistika til o'rganish va uni amal qilishdagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Ushbu maqolada, turli turlar va metodlar bo'yicha ijtimoiy lingvistika ilmiy tadqiqotlarining muhimligi belgilanadi. Tilning o'zgaruvchanligi, kommunikatsiya usullari va jamiyatdagi o'zgarishlarga qanday ta'sir etishi tahlil qilinadi. Ijtimoiy lingvistika jamiyatning o'zini tushunish va o'zgarishlarga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa, jamiyatdagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, tilni va uni aholi tomonidan qabul qilinishini o'rganish, odatlar, tabiiy so'zlashish usullari, va uning o'zgaruvchanligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy lingvistika, kommunikatsiya va jamiyatdagi

o'zgarishlarni tushuntirish, tasdiqlash va o'zgarishlarga ta'sir qilishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli tillarning jamiyatdagi ro'li, Masalan, ingliz tili global muloqotlar uchun amaldadir va dunyo bo'ylab ko'p mamlakatlarda rasm tili sifatida qabul qilinadi. Ushbu tillar jamiyatda kommunikatsiya, biznes, madaniyat, va siyosat sohalarida ahamiyatga ega. Boshqa misollar esa rus tili, arab tili, ispan tili kabi tillarni o'z ichiga oladi, ular jamiyatda o'zining o'ziga xos muhitni, tarixiy va madaniy aspektlarini ta'kidlaydi. Turli tillarning jamiyatdagi roli tahlil qilinishi, ularning o'ziga xos teskari va musbat jihatlari ko'rsatilishi maqbuldir. Bundan tashqari turli tillarning mavjudligi va uning qardosh xalqlar o'rtasida keng o'rganilishi mamlakatlar o'rtasidagi nafaqat iqtisodiy rivojlanishni oldinga suradi balki, urf-odat an'analarni ham keng targ'ib qilishga yo'l ochib beradi. Bundan tashqari Toshkent MTU universiteti "Ijtimoiy – gumanitar fanlari" bo'limi mudiri majburiyatlarini vaqtinchalik bajaruvchi – Usmanova A.A. tilning boyligi va go'zalligi, mamlakatning xalqaro miqyosdagi obro'sini shakllantirishda beqiyos ro'l o'ynashini ta'kidlaydi.

Ijtimoiy tilning o'zgaruvchanligi, Ijtimoiy tilning o'zgaruvchanligi jamiyatda kommunikatsiya, identifikatsiya va madaniy muloqotlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu o'zgaruvchanlik tilning o'zining jamiyatdagi rollarini va funksiyalarini o'z ichiga oladi va uning o'zgaruvchanligi jamiyatdagi o'zgarishlar va rivojlanishlarga ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi muhim nuqtalar ijtimoiy tilning o'zgaruvchanligi haqida malumot beradi:

1. Identifikatsiya va ko'rsatkichlar: Ijtimoiy til, insonlarning o'zlarini ifoda etish va guruh bilan bog'liqliklarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Til o'zgarishi, jamiyatdagi identifikatsiya va birlashtiruvchi ko'rsatkichlarni ham o'zgaritadi.

2. Kommunikatsiya usullari: Ijtimoiy tilning o'zgaruvchanligi, jamiyatda kommunikatsiya usullarining o'zgarishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yangi texnologiyalar, globalizatsiya va madaniy o'zgarishlar tilning jamiyatda o'zgarishi va rivojlanishiga olib keladi.

3. Madaniy aloqa: Til o'zgarishi, jamiyatdagi madaniy aloqalarni ham o'zgartirishi mumkin. O'zgaruvchanligi tufayli, jamiyatda turli madaniy mamlakatlar o'rtasida o'zaro munosabatlar va muloqotlar rivojlanishi mumkin.

4. Odatlar va adabiyotlar: Ijtimoiy tilning o'zgaruvchanligi, jamiyatdagi odatlarni, adabiyotlarni va kommunikatsiya shakllarini ham o'z ichiga oladi. O'zgaruvchanlik, odatlarning va adabiyotlarning ham o'zgarishi bilan bog'liqdir.

5. Siyosiy va iqtisodiy ta'sir: Til o'zgaruvchanligi, jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli tillarning o'zgarishi, jamiyatda siyosiy va iqtisodiy qonunlar, siyosiy tizimlar va iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tilning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati: Tilning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati jamiyatda o'zining o'ziga xos rolini o'z ichiga oladi. Quyidagi muhim nuqtalar tilning siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini ta'riflaydi: Til, jamiyatda identifikatsiya va milliyatning ahamiyatli bir vositasi hisoblanadi. Turli tillar o'zining o'ziga xos mamlakatlar, qabilar yoki etnik guruhlar uchun ahamiyatga ega bo'lib, ularga identifikatsiya va birlik hissiyatini ta'minlaydi. Til, siyosiy kommunikatsiyada katta ahamiyatga ega. Politik dasturlar, xalqaro munosabatlar, diplomatik muloqotlar va siyosiy jiddiyatlar til orqali amalga oshiriladi. Bu esa, tilning jamiyatdagi siyosiy muammolarni hal etishda va mamlakatlar o'rtasidagi muzokaralar va muzokaralar olib borishda katta rolini ko'rsatadi. Til, iqtisodiy faoliyatda ham katta ahamiyatga ega. Biznes, savdo, marketing va moliyaviy aloqalar o'rtasidagi kommunikatsiya til orqali olib boriladi. Tilning to'g'ri va samarali ishlatilishi

iqtisodiy rivojlanishga olib keladi va jamiyatdagi iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Tilning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati jamiyatda xalqaro munosabatlarda ham o'z ahamiyatini ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlar, diplomatik tashkilotlar va xalqaro biznes faoliyati jamiyatda turli tillarni o'rganish va uning o'zgaruvchanligini tushuntirish bilan shug'ullanadi. Shu o'rinda tadqiqotlar natijasi o'laroq sotsiologiyaviy dastlab AQSH da taraqqiy etgan deb e'tirof etilsada, uning jamiyatda tutgan o'rni, siyosiy va iqtisodiy masalalarda keng ravishda qo'llanilishi yapon, ingliz, chex, nemis tilshunoslari tomonidan o'rganilgan va keng tadbir etilgan.

Tahlil va natijalar. Ko'p tillar mavzusidagi ko'rsatkichlar: Ko'p tillar mavzusidagi ko'rsatkichlar o'zgaruvchan jamiyatlar va global kommunikatsiyada ahamiyatga ega. Quyidagi misollar ko'p tillarning jamiyatga ta'siri va ularning ahamiyatini ko'rsatadi: Kultur almashirish: Turli tillar jamiyatda turli madaniyatlarning tarixiy yodgorligi bilan bog'liqlikka ega bo'lib, ularga turli milliy g'oyalarni, qadriyatlarini va adabiyotlarni ifodalashda xizmat qiladi. Diplomatiq munosabatlar: Ko'p tillar diplomatiq munosabatlarda katta ahamiyatga ega. Xalqaro muzokaralar va muzokaralar olib borishlar, mamlakatlar o'rtasidagi muzokaralar til orqali olib boriladi. Biznes va savdo: Ko'p tillar global biznes va savdo aloqalarida muhim ahamiyatga ega. Xalqaro kompaniyalar, korporatsiyalar va savdo institutlari turli tillar orqali kommunikatsiya o'rniga kelishadi. Turizm: Turli tillarning o'rganilishi turizm sohasida ham ahamiyatga ega. Turistlar mamlakatlarga safar qilish uchun o'zgaruvchan tillarni o'rganishadi va ularning madaniy va tabiiy boyliklariga murojaat qiladi. Axborot va media: Turli tillar axborot va media sohasida ham muhim rol o'ynaydi. Xalqaro media kompaniyalari turli tillarda xizmat ko'rsatadi va global xabarlar va ma'lumotlar jamiyatga o'tkaziladi. Akademik almashirish va ilmiy tadqiqotlar: Turli tillarning o'rganilishi akademik almashirishlar, ilmiy tadqiqotlar va akademik aloqalar o'rtasida ham muhim ahamiyatga ega. Akademik o'quv markazlari va ilmiy jurnallar turli tillar bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Sociolingvistika fani yutuqlari shuni ko'rsatadiki, tillar bir-biriga leksik jihatdangina ta'sir etib qolmay, bir-birining ichki tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga muvofiq hozirgi zamon tilshunosligida «tillar ichki tuzilishining o'zaro hamkorlik jarayoni» degan tushuncha shakllangan. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi o'sha mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlar madaniyatining yaqinlashuviga zamin hozirlaydi, natijada tillar xam bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, bunday hamkorlik o'z navbatida tillarning ichki rivojlanishini ta'minlaydi. Hozirda tilshunoslikda sociolingvistik tadqiqotlarning tez rivojlanishiga strukturalizm bevosita salbiy tomonlama ta'sir o'tkazib kelmoqda, chunki strukturalizm til birliklariga xos bo'lgan shakl va ma'no birligini imkor etadi, faqatgina shaklan o'rganishga ko'prok e'tibor qaratgan edi. Ammo jamiyatning rivojlanib borishi buning aksini isbotladi, ya'ni, biror tilning yoyin-ki u o'rganilishi jihaatdan oson yoki qiyin bo'lsin uning yashashi va rivojlanishi shu tilda muloqot olib borayotgan xalq va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ekani ma'lum bo'ldi. Jahon Ijtimoiy tilshunoslik tadqiqotlari Rossiyada, AQSH, Fransiya va Angliya kabi mamlakatlarda jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Tilning o'zgarishi va rivojlanishi jamiyatda madaniy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Turli tillarning o'rganilishi, madaniy iltimoslari, adabiyotlar va san'atlar jamiyatning madaniy shakllanishida katta rol o'ynaydi. Til, insonlarning identifikatsiyasi va jamiyatning birligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Turli tillar o'zining o'ziga xos odatlar, atrof-muhit va kommunikatsiya shakllarini taqdim etadi va insonlarning jamiyatga integratsiyasiga yordam beradi. Til, jamiyatda kommunikatsiya va o'zaro tushunchalar tuzilishida

muhim rol o'ynaydi. Turli tillar o'zining o'ziga xos tushunchalarni va mantiqiy strukturalarni taqdim etadi, bu esa o'zaro muloqotni osonlashtiradi va insonlar orasidagi munosabatlarni kuchaytiradi. Tilning o'zgarishi, iqtisodiy rivojlanish va biznes sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Turli tillarning o'rganilishi va qabul qilinishi, xalqaro savdo, korporativ kommunikatsiya va boshqa iqtisodiy faoliyatlar jamiyatdagi o'zgarishlarni kengaytiradi. Texnologik o'zgarishlar va globalizatsiya, turli tillarning jamiyatdagi rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Internet, telekommunikatsiya vositalari, elektron pochta va boshqa texnologik imkoniyatlar jamiyatdagi tilni o'rganish va uning o'zgarishini kuchaytiradi. Bu jarayonlar tilning jamiyatdagi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi va jamiyatdagi turli sohalar uchun muhim ahamiyatga ega. Tilning o'zgarishi jamiyatning o'zini tushunishiga, integratsiyasiga va rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga ko'pgina yozilgan adabiyotlar va turli mnabalaridan ma'lumki til o'z-o'zidan qisqa muddatda boyishi va ommaviylashuvi, jamiyatda rivoj topish ehtimoldan ancha yiroq bo'lgan holat sanaladi. O'z navbatida tilning rivojlanishini va keng ta'dbiq e'tilishida turli asoslar muhim rol o'ynaydi. Masalan chetidan kirib kelgan so'zlar orqali boyitilish. Bu tildagi ma'nodoshlikni yanada oshirib yangi so'zlar safining kengayishiga sabab bo'ladi. Keyingi turki bu tilidan foydalanuvchilarning safining kengayishi hisoblanadi. Chunki tarixdan ham ma'lumki til qachon rivojlanadi qachonki u keng miqyosda ishlatilishni boshlansa, qachon yo'qlikka yuz tutadi, qachonki jamiyat tilidan foydalanishni to'xtatsa. Aynan shu hodisalar sababli o'tmishdan bizgacha faqat qisman ma'lumotlarinigina yetib kelgan tillar mavjud va hozirda ularning ko'pchilik qismi o'lik til hisoblanadi. Shu o'rinda jamiyat orasida tilning keng ta'dbiq etilishida xukumatning ham atroficha o'rni bor. Yani jamiyatni turli o'yinlar, madaniy tadbirlar va umumiy ko'rinishdagi til va adabiyotga bag'ishlangan kechalari orqali jamiyatning faol qatnashuvchilariga tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usini oshirishni ta'dbiq e'tishlari mumkin.

Xulosa va takliflar. Hulosa qilib aytganda, Ijtimoiy lingvistika, tilning jamiyatda o'zining o'ziga xos rollarini va funksiyalarini, shuningdek, jamiyatning rivojlanishida o'ynagan katta ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu ilm soha, tilning tahlil qilinishi, o'rganilishi va o'zgarishlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, til va jamiyatning o'rtasidagi bog'lovchi

yoki birlashtiruvchi guvohnoma sifatida faollik ko'rsatadi. Ijtimoiy lingvistika, turli tillarning jamiyatdagi o'zgarishlarini va rivojlanishini tahlil qiladi. Tilning tarixiy o'zgarishlari, turli jamiyatlar va madaniyatlarning til o'rganish metodlari va tajribalari, kommunikatsiya o'zgarishlari va boshqa ko'rsatkichlar jamiyatdagi tilni o'rganish va uning o'zgaruvchanligini tushuntirishda katta ahamiyatga ega. Bu soha faqatgina bitta til bilan cheklanib qolmaydi har bir jamiyatda faol ishlatilayotgan tilni Ijtimoiy lingvistika hisobidan ko'rsa bo'ladi. Bu yo'nalishning turli fanlar bilan xusuaan terminalogiya va psihologiya bilan aloqadorliklari mavjud bo'lib, o'z ichiga ko'p qirralari ma'lumotlarni qamrab oladi. Xususan tilning rivoj topishi, uning rivojlanish bosqichlari va tarixi, madaniyatlar va urf-odatlararo aloqadorligi kabi omillarga bog'liq. Bu maqolada, ijtimoiy lingvistika tushunchasi ta'riflanadi va uning jamiyatda o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishi, turli tillarning jamiyatda o'zgarishlarini ta'kidlaydi. Tilning jamiyat bilan bog'liqlikni o'rganish, turli jamiyatlar orasidagi munosabatlarni tushuntirishda va insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonlarini tahlil qilishda muhimdir. Ijtimoiy lingvistika, til va jamiyatning o'zaro bog'lanishini tushuntiradi va jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'sir qiladi. Bu esa, jamiyatning o'zini tushunishga, o'zgarishlarni tasdiqlashga va uning kommunikatsiya jarayonlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bundan ko'rinib turibdimi til nafaqat jamiyat a'zolariz o'rtasida ma'lumot almashinuv vosidasi balki shu almashinuvning qanday olib borilishiga bevosita hamda bilvosita ta'siri o'tgazuvchi muhim bir manba sanaladi. Shuningda sotsiolingvistikada aniq bir belgilangan tillar jadvali yoki kategorilari mavjud emas u o'z navbatida mahalliy til (dilekt), o'lik til, sun'iy til, asabiy hamda klassik tillarni ham o'rganish va taqiqot olib borishdan cheklanmagan. Hozirgi kunda sotsiolingvistika (Ijtimoiy lingvistika) 2 turdagi keng ko'lamli ma'noga ega a'tama bo'lib kelmoqda. 1- tildagi jamiyatning rivojlanishiga ahamiyatli muammolarni o'rganish, 2-millat va xalqning rivojlanishi asosida tilda vujudga keladigan muammolar va farqlarni o'rganish. Bu borada turli yillarda yashab o'tgan va shu sohasida izlanishlar olib borgan olim, tadqiqotchilarning fikr mulohazalarini o'rganish, turli mnabalaridan foydalanish asosiy yordamchi bo'lib hizmat qiladi.

ADABIYOTLARTLAR

1. Shavkatovna, B. F. (2023). "INGILIZ TILI LINGVISTIKASI. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).
2. Niyazova, G. (2022). Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik aspektida o'rganilishi. Uzbekistan: Language and Culture, 3(3).
3. Sheraliyevna, M. O., & Mardievna, B. M. (2023, October). DUNYO TILSHUNOSLIGIDA PRAGMATIKANING RIVOJLANISHI VA PRAGMATIK QARASHLAR. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 05.10, pp. 460-464).
4. Sobirova, S. (2023). KORPUS LINGVISTIKA MASALALARI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(6 Part 2), 26-29.
5. MUHAMMADQOSIMOVNA, P. N., & T. I. O. (2023). LINGUOPOLITOLOGY AND ITS COGNITIVE PRAGMATIC CHARACTERISTICS IN MODERN LINGUISTICS. Novateur Publications, (4), 1-91.
6. Usmonov S, Umumiy tilshunoslik, T., 1972;
7. Budagov R. A., Chelovek i yego yazik, M., 1974;
8. Berezin F. M., Golovin B. N., Obsheye yazikoznaniye, M., 1979;
9. Reformatskiy A. A., Vvedeniye v yazikovedeniye, M., 1998.
10. Austin, Peter K; Sallabank, Julia "Introduction", Cambridge Handbook of Endangered Languages. Cambridge University Press, 2011.



Muxlisa CHORIYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: m.j.chorieva@buxdu.uz

BuxDU dotsenti, PhD M.Axmedova taqrizi asosida

ARTISTIC REPRESENTATION OF THE CONCEPT "PRIDE" IN THE CHARACTERS OF THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"

Annotation

The article delves into the concept of "pride" in Jane Austen's novel "Pride and Prejudice," focusing on its thematic significance, linguistic expressions, and character development. It explores how pride is portrayed through the characters, primarily Mr. Darcy and Elizabeth Bennet, and how it evolves throughout the narrative. The analysis includes discussions on the societal perceptions of pride, its manifestation in characters' behaviors, and its role in character evolution. Additionally, the article examines the translation of the novel and its impact on the portrayal of pride, particularly in relation to cultural nuances and linguistic differences.

Key words. Pride and Prejudice, Jane Austen, characterization, social norms, evolution, class pride, character development, translation, cultural nuances, linguistic differences, social hierarchy, moral and ethical concepts, antagonism and reconciliation, literary analysis, cultural adaptation.

“ANDISHA VA G‘URUR” ROMANI PERSONAJLARIDA “G‘URUR” TUSHUNCHASINING BADIY IFODASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jeyn Ostenning “Andisha va g‘urur” romanidagi “g‘urur” tushunchasi chuqur o‘rganilib, uning mavzuiy ahamiyati, lingvistik iboralar va xarakter rivojlanishiga e‘tibor qaratiladi. U qahramonlar, birinchi navbatda, janob Darsi va Elizabet Bennet orqali mag‘rurlik qanday tasvirlangani va uning hikoya davomida qanday rivojlanishini o‘rganadi. Tahlil jamiyatda g‘urur haqidagi tasavvurlar, uning qahramonlarning xatti-harakatlarida namoyon bo‘lishi va xarakter evolyutsiyasidagi roli haqida munozaralarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, maqolada romanning tarjimai va uning g‘urur tasviriga ta‘siri, xususan, madaniy nuanslar va til farqlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Andisha va g‘urur, Jeyn Osten, tavsif, ijtimoiy me‘yorlar, evolyutsiya, sinfiy g‘urur, xarakter rivojlanishi, tarjima, madaniy nuanslar, til farqlari, ijtimoiy iyerarxiya, axloqiy tushunchalar, antagonizm va yarashuv, adabiy tahlil, madaniy moslashuv.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТЕ «ГОРДОСТЬ» У ГЕРОЕВ РОМАНА «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ»

Аннотация

В статье исследуется понятие «гордость» в романе Джейн Остин «Гордость и предубеждение», уделяя особое внимание его тематическому значению, языковым проявлениям и развитию характера. В нем исследуется, как гордость изображается через персонажей, в первую очередь мистера Дарси и Элизабет Беннет, и как она развивается на протяжении всего повествования. Анализ включает дискуссии о восприятии гордости в обществе, ее проявлении в поведении персонажей и ее роли в эволюции характера. Кроме того, в статье рассматривается перевод романа и его влияние на изображение гордыни, в частности, с учетом культурных нюансов и языковых различий.

Ключевые слова. Гордость и предубеждение, Джейн Остин, характеристика, социальные нормы, эволюция, классовая гордость, развитие характера, перевод, культурные нюансы, языковые различия, социальная иерархия, морально-этические концепции, антагонизм и примирение, литературный анализ, культурная адаптация.

Introduction. In the novel "Pride and Prejudice" (1797), the concept of "pride" represents one of the key concepts, the main meaning and connotative nuances of which more specifically express the ideational and thematic coloration of the analyzed text than others. For the purpose of studying the artistic picture of the world by Jane Austen, we will analyze the units representing the associative background of this concept. Within the framework of the presented research, it consists of words, phrases, idiomatic expressions, synonymous and antonymous series, constant epithets, and fragments of text united by the idea of pride. This concept, based on the material of the novel "Pride and Prejudice," is revealed in the opposition of two popular concepts reflected in the characterization of the characters: pride as a sense of one's own dignity, honor, respect; pride as haughtiness, arrogance, vanity, snobbery. These elements constitute the semantic core of the concept of "pride" in the novel.

Methods. In this article, comparative, hermeneutic, distributive analysis methods were used.

Results. Since pride is a characteristic of human qualities, it is primarily realized in the figurative system. It is not accidental that V. Woolf noted: "...the main thing for Jane Austen is character". Anglo-American critics emphasize Jane Austen's fundamentally innovative approach to depicting female character. J. Brown, for example, believes that Elizabeth Bennet is perceived by readers as a "rational creature" [4, 22]. This is manifested in her defense of her right "to define her own emotional needs" and make independent decisions, choosing a life partner. D. Bush emphasizes the author's desire to adhere to truthful depiction: "Elizabeth is not like fictional heroines, endowed with a constant income, flawless beauty, and all the virtues of heart and mind; she is a quite natural human blend, above average (...) independence, candor, in gaily satirical wit, in a balance of sense and

sensibility - in short, very much like her creator" [5, 91]. Austen breaks stable literary traditions in character depiction. The author shows the dependence of the human psyche on material position and social laws existing in society.

Moral and ethical concepts of "pride" and "prejudice," brought into the title of the work, determine the ideological meaning of the novel. Jane Austen in her work paid great attention to the study of the complexity and contradiction of human nature, motives of behavior, and character evolution. The author's favorite compositional pattern: a misinterpreted situation in which the heroine (or hero) finds herself - a certain prejudice or misconception that she (he) experiences in connection with this - reassessment of her prejudice in the process of life experience under the influence of reflection or chance - correction of actions dictated by misconception, contributes to the happy resolution of the conflict. Austen is interested in a reasoning, doubting hero, who is capable of evolving as the plot unfolds.

The concept of "pride" we are analyzing is most often used in the novel in relation to the main character, mainly as a characteristic of his behavior. Social pride, elevated to cult status, becomes an insurmountable barrier between Darcy and his surroundings. Darcy is not understood by society, even wealth and name cannot shield the impressions of his haughty demeanor. However, according to D. Bush, he is the "the most exalted of Jane Austen's heroes," in whose character Byronical traits are distinctly felt, for example, alienation and introversion [5, 92]. From the beginning of the narrative, Darcy appears before readers as a romantic figure: he is surrounded by a mysterious aura from the moment he appears at the ball, and the image is surrounded by the most incredible rumors and conjectures. Individualism in Darcy's character aligns him with Byron's heroes: indignation at the ignorance, vulgarity, and insensitivity of society, heightened demands on the surrounding world, which become obstacles to communication.

In the eyes of society, the hero appears as someone whose external behavior is observable; it observes how the hero is "eat up with pride," "everybody is disgusted with his pride," and "frightened by his high and imposing manners." Based on the data from explanatory dictionaries reflecting English mentality about the concept of pride, we believe that Mr. Darcy had every reason to be proud of himself: he was wealthy, noble, the owner of a large estate in Pemberley, intelligent, and, as a result of all these qualities, very proud. Most of the novel's characters acknowledge the hero's right to be proud. Everyone understands why Darcy should feel proud: "...the owner of an estate of ten thousand a year"; "One cannot wonder that so very fine a young man, with family, fortune, everything in his favor, should think highly of himself." The grounds for Darcy's justified pride, according to the novel's characters, include wealth, nobility, and intelligence, conditions that reflect the specificity of the perception of the concept of "pride" in the English national worldview. These facts allow us to define Darcy's pride as a sign and attribute of a successful, prosperous aristocrat.

Comparing the claims of the hero with the claims of other characters, we see that both Bingley sisters "considered themselves as well-born as the rest of society, and as rich as any in their connections," they were proud and conceited. Through the thoughts of her heroine Elizabeth, Jane Austen characterizes these characters as "proud and conceited." In the excerpt, the author's irony is palpable: "considered themselves as well-born." Austen points out that not all claims to importance by these characters are justified: "spending more than they had." For Darcy, the most difficult aspect was communicating with other people whom he considered unworthy conversationalists: "In this society, I would be unbearable," "saw a group of people who were ugly and

completely tasteless." Thus, one of the external manifestations of pride in the novel is intolerance towards other people, born out of cultivating one's own superiority ingrained since childhood. The concept of "pride" in the novel is presented by the following associative series, where pride is perceived as a flaw: pride - egoism - authoritarianism - disdain / contempt - haughtiness - conceit - self-satisfaction - intolerance towards others - arrogance.

The work also presents a positive connotation of the word: "...almost all his actions, somehow or other, have been guided by pride. His pride often "led him to be liberal and generous," "It has often led him to be liberal and generous." In this case, the word "pride" is interpreted as the basis for condescension and generosity, as a criterion of morality, allowing the hero to have self-respect. In this case, pride is perceived as a virtue.

In the text, there is a meaning of "experiencing pride, being proud of someone, an action, or deed of another person, that is, approving, sympathizing." Y.D. Apresyan attributes this meaning to the category of "mental state." In the text, it is realized as follows: "...she was proud of him. Proud that in a cause of compassion and honor he had been able to get the better of himself." With this thought is associated the combination "wounded pride." In this case, social evaluation leaves its mark on these feelings: "He spoke well, but there were feelings besides those of the subject of the heart to be detailed and he was not more eloquent on the subject of tenderness than of pride."

In the novel's text, the words "pride" and "vanity" enter into synonymous relations: "Pride and vanity are different things, though the words are often used as synonyms. Pride is more connected with our own opinion of ourselves, vanity with what other people's opinions are, which we would like to be" In the English explanatory dictionary, "vanity" is included in the interpretation of the word "pride." The meaning of the word "vanity" is: 1. a very great feeling of pride about your appearance, cleverness, etc., used showing disapproval; 2. the small value or worth that something has when it is compared with things. That is, this word denotes unjustified pretension to one's own importance. Based on such a meaning, the characters of the novel distinguish these concepts. This difference can be illustrated by the characters of Mr. Darcy and Mr. Collins. Darcy's claims to a high opinion of himself are based on the following characteristics: wealthy (money, real estate: ten thousand pounds annual income, ancestral estate of Pemberley), noble lineage, education, intelligence, taste. Based on these qualities, which are included in the interpretation of the concept of "pride" according to the English explanatory dictionary, the image of an outstanding young man is formed.

Elizabeth Bennet is characterized by pride as a sense of self-worth, based on an awareness of the value of her personality, on a striving to maintain independence of judgments, actions, and feelings. But in the character of this heroine, there is no pride and vanity, firstly because she has no social reasons for vanity, and secondly, she is inclined to self-irony and self-criticism, which block the possibility of displaying pride based on magnifying her own successes. Darcy is characterized by both pride and vanity, externally accompanied by arrogance, because he is successful in society, well-educated, noble, rich, sheltered from the constant humiliation in which Elizabeth is forced to dwell. Love, as an emotionally complex and contradictory feeling, contributes to the transformation of this hero. He becomes capable of seeing his own shortcomings and treating them indulgently, with irony.

The evolution of feelings reflects the process of liberation of the characters from prejudice and pride. Elizabeth and Darcy find themselves in similar situations, both equally

prejudiced against each other, offended by the infringement of their pride. Such parallelism plays a significant role in the development of the plot: the similarity of the reactions of young people to events emphasizes their spiritual closeness. Despite this closeness, there are several social reasons that hinder the understanding between the characters. Austen expresses this obstacle at the semantic level: to create the image of Elizabeth, the author uses words of the semantic field "feeling," and to create the image of Darcy - "reason," therefore, they find it difficult to find a common language.

"But Elizabeth still felt their superciliousness" (p.27); "Elizabeth, really anxious" (p.27); "was in agony" (p.81); "she continued to be teased" (p.82). Austen, in creating the image of Elizabeth, endows her speech with evaluative vocabulary: "terribly" (p.64), "unheard of" (p.66), "unprecedented" (p.66), with expressive syntax, expressed in repetitions: "capable of such low revenge, such injustice, such inhumanity" (p.65).

The quality that Darcy valued most in people and in himself is intelligence. Throughout the novel, his image correlates with the semantic field of "mind, reason": "...complaining about such a passing of time, which excluded the possibility of a reasonable conversation. He was too absorbed in his thoughts" (p.22). This meaning is an inherent attributive meaning of the concept of "pride," it is not accidental that Austen emphasizes the presence of this property in the hero: "Darcy was really clever" (p.18).

The relationship between the characters resembles a verbal duel, but in the end, they manage to adapt to each other's thought patterns, which contributes to their mutual understanding: "Did it not occur to you, Mr. Darcy, that in convincing Colonel Forster to give a ball at Meryton, I presented quite weighty arguments?" "You spoke with great energy. Well, what lady wouldn't be enthusiastic about such a topic!" (p. 23). This passage vividly illustrates that the characters try to communicate in a language understandable to the interlocutor, using words from their semantic field.

The process of reevaluating their own feelings and actions contributes to the moderation of the pride of the characters. Regarding Mr. Darcy, this process is accompanied by reconciliation with society. Condescension and tolerance towards the surrounding ignorance, tactlessness, concentrated in people, become the most painful and complex trial for Darcy also because he does not know how to perceive the surrounding world with a light touch of irony. In this respect, he is much weaker in terms of willpower than Elizabeth, whose sense of humor reconciles her with many unpleasant circumstances. Darcy takes life too seriously, he does not know how to joke, so he unnecessarily dramatizes events. Subsequently, the heroine infects him with her ironic attitude towards life, realizing that for Darcy, this is the most optimal solution to the problem of communication with others. By carefully dosing her own jokes, Elizabeth acquaints Darcy with the surrounding world from which his upbringing and education have distanced him.

It seems to us that, despite his intelligence, the hero lives within the stereotypes offered to him by high society. Even before meeting Elizabeth, Darcy is prejudiced against her society, preferring the company he is familiar with. This feeling is based on the hero's opinion that neither the appearance nor the behavior of Miss Bennet corresponds to the ideal that Darcy has invented for himself based on the stereotypes prevailing in society: "... he found more than one deviation from the ideal in her appearance" / "... Elizabeth's behavior differs from what is accepted in polite society" (p. 22). Thus, thanks to the rules of behavior accepted in society, Darcy already has a biased attitude towards Elizabeth, which indicates the hero's lack of independent thinking and his dependence on public opinion. Under the influence of

Elizabeth, Darcy undergoes a process of breaking stereotypes, which changes his character.

Discussion. So, the word "pride" is placed in the title of the novel, it is a strong position of the text, characterized by a high frequency of use. Austen resolves the problems posed in her novel in an ethical vein, from the point of view of improving the moral and ethical qualities of a person. Education of feelings, formation of character, critical attitude towards oneself are the main themes of this novel. The author shows that despite Darcy's pride, justified by English mentality, and Elizabeth's offended sense of her own dignity (which also implies pride), the characters can, based on their personal life experience, identify their flaws and try to correct them.

We believe that there is no evaluative attitude towards pride in the English consciousness. Presumably, this is explained by the fact that the word encompasses too many shades of meaning. The main reference point in all the definitions of pride we have considered is the fact that the feeling must correspond to a person's own idea of themselves. It cannot be good or bad, it can either correspond to the idea or not. However, this fact does not exclude self-criticism, which is a fine line between pride as a sense of self-worth and pride as arrogance and vanity.

In the artistic perception of Austen, the idea of pride is realized on two levels: a sense of self-worth as responsibility for one's actions, a sense of alienation from people. In the image of Mr. Darcy, we find both cases of the manifestation of such a conceptual content of pride, which relates to the sphere of emotional, personal attitude of a person to the world and to themselves.

The hero undergoes an evolution: at the beginning of the narrative, he is presented as a romantic figure, cultivating his alienation and introversion, his opposition to society. By the end of the novel, his character acquires traits of tolerance of a loving person, sacrificing his interests for the sake of the interests of the beloved woman. Darcy's class pride becomes the cause of his spiritual loneliness, which can only be overcome by meticulous critical work on his character.

As we can see, Austen is characterized by the motive of testing the heroes with pride, in connection with which this concept carries a special semantic load in character development. It testifies to the degree of integrity of the hero, to his ability to evolve and to improve his character and behavior based on personal experience.

Since the author and translator belong to different linguistic mentalities, their worldview is also different. This study notes that in the precise translation of the novel by I.S. Marshak, the reader's priorities are shifted because the concept of "pride" and potential semantic features associated with it have their own national specificity. Moreover, in the English language, in addition to the moral-ethical aspect of the concept, there is also a material basis. The word "pride" in the novel is realized through potential features such as 'wealth', 'nobility', 'intelligence', which have a purely national specificity and complicate the adequate translation of the text.

In the novel, the word "pride" appears in such combinations as: "family pride"; "filial pride"; "brotherly pride"; "very proud of what his father was". These combinations indicate that the main character Darcy belongs to a certain social group united by the degree of kinship and nobility of origin, based on the qualities mentioned above. This group is a closed, conservative social association, asserting its rights to exclusivity and inviolability.

Thus, the negative aspect of the attitude towards the main character by I.S. Marshak still brings in, while Austen does not have this, since nobility and social status as the basis of pride are denoted by the English explanatory dictionary. The writer does not dispute the hero's right to exclusivity.

Therefore, she does not dispute the feeling of pride that he experiences in this regard. Thus, the novel presents a class, aristocratic pride, which has every reason to be considered fair.

The words "pride" and "spiritual humility" in the novel act as contextual antonyms. This opposition modifies the idea of the novel. In the literary encyclopedia, it is defined as follows: "Heroes can and should comprehend certain values through their own experience and rid themselves of vices" [Encyclopedia of Literary Characters 1997: 135]. The translator sets himself the task of bringing closer the cultural layers of different countries, making the work more understandable and mentally closer to the Russian reader. Marshak, while preserving the artistic specificity of the novel (style, images, correspondences to the era and the color of the country), translating it optimally close to the text (examples see above), nevertheless explicitly indicated the religious theme by opposition pride-humility. Despite the fact that humility can be considered from a purely ethical point of view: "A moral quality characterizing a person's attitude toward oneself, expressed in self-abasement, in submission to

external forces, readiness to submit to fate <...> the assertion that a person cannot become God, the perfection he strives for" [Culturology. XX century 1997: 323], the religious theme is still observed in this case.

Conclusion. We believe that Marshak attempted to bring the idea of the novel closer to the Russian mentality, emphasizing in his translation that only through spiritual humility, through the readiness to submit to fate, can a person come to reevaluate himself and achieve his happiness. And since in this novel by Jane Austen there is no such final point as humility in the evolution of the hero's spiritual world, we can assume that in Marshak's translation, the traits of the Russian language consciousness are reflected. There was an imposition of the "language of culture" of two countries, England and Russia, which allows us to judge the partially incorrect translation of the novel by I.S. Marshak. This, in turn, allows us to ensure that the study of the concept of "pride," applicable to the analysis of a specific novel, gives us the opportunity to determine the idea of the work of art as accurately as possible, which is important in the analysis of a translated work.

REFERENCES

1. Austen Jane. Emma I J.Austen. - Oxford, New York, 1995. - 448p.
2. Austen Jane. Emma/by Introd. J.E.Burrows / J.Austen. - Sydney, 1968. - 445p.
3. Austen Jane. Pride and Prejudice I J.Austen. - Moscow, 2000. - 305p.
4. Brown J.P. Jane Austen's novels. Social change and literary / J.P.Brown. - Cambridge, 1979. - 234p.
5. Bush D. Jane Austen / D.Bush. - London, 1975.- 105p.
6. Jane Austen and her Times by G.E. Mitton Kennikat Press. - London, 1970. - 113p.
7. Jane Austen: A Collection of Critical Essays. - Englewood Cliffs, 1963. - 378p.



Sherzod SHAVKATOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: sherzodbek.shavkatov.uzb@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori J. Ibragimov taqrizi asosida

INGLIZ TILIDA FE'LNI FE'LGA BOG'LOVCHI VOSITA SIFATIDA INFINITIVE VA GERUNDIYNING O'RGANILISHI

Аннотация

Ingliz tilida ikki fe'l o'zaro birikishi uchun ulardan biri muayyan shaklda bo'lishi talab etiladi. Chunki fe'l boshqa so'zlarni o'z atrofida uyushtirishga xoslangan turkum hisoblanadi. Fe'l+fe'l birikuvida tobe maqomdagi fe'l shunday xususiyatga ega turkumlarga yaqinlashadi. Ammo bunday so'zlarda fe'l turkumiga xos xususiyatlar ham saqlanib qoladi. Ingliz tilida fe'lning bunday shakllari o'rganilishi uzoq tarixga ega.

Kalit so'zlar: gerundiy, infinitive, fe'l, bog'lovchi vosita, gibrid shakl

ИЗУЧЕНИЕ ИНФИНИТИВА И GERUNDA КАК СРЕДСТВ СВЯЗИ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В английском языке, чтобы спрягаться два глагола, один из них должен быть в определенной форме. Потому что глагол - это группа, которая организует вокруг себя другие слова. В сочетании [глагол + глагол] глагол в подчинительной позиции приближается к категориям с такими характеристиками. Но в таких словах сохраняются и характеристики глагольной группы. Изучение таких глагольных форм в английском языке имеет долгую историю.

Ключевые слова: герундий, инфинитив, глагол, союз, гибридная форма.

STUDYING THE INFINITIVE AND GERUND AS MEANS OF CONNECTING VERBS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

In English, in order to conjugate two verbs, one of them must be in a certain form. Because a verb is a group that organizes other words around itself. In the combination [verb + verb], the verb in subordinating position approaches categories with such characteristics. But in such words the characteristics of the verb group are also preserved. The study of such verb forms in English has a long history.

Key words: gerund, infinitive, verb, conjunction, hybrid form.

Kirish. So'zlarning o'zaro birikishini o'rganish bevosita so'z ma'nosini o'rganish bilan bog'liq hodisa bo'lganligi tufayli ham tilshunoslarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan masalalardandir. Birm necha yuz yilliklar davomida sintagmatikaga oid to'plangan ma'lumotlar o'tgan asrning boshlarida nazariy sintagmatika, birikuvchanlik va valentlik nazariyasi kabi fan tarmoqlarining shakllanishi va taraqqiy etishi uchun asos vazifasini bajardi. Sanalgan fan tarmoqlariga qiziqish kuchaygandan kuchayib bordi. Chunki tilshunoslikning eng muhim obyekti bo'lgan so'z tadqiqi uning birikuvchanlik xususiyatlarini o'rganmasdan amalga oshmasligi aniq. Masalan, ingliz tilidagi *to catch* fe'lning "jalb qilmoq" ma'nosi mavjud ekanligi *someone's eye* so'zlari bilan birikkandagina yuzaga chiqadi. Zero, *to catch someone's eye* birikmasida fe'l "jalb qilmoq" ma'nosini ifodalaydi. Anglashiladiki, so'z birikmalardagini o'zining barcha leksikogrammatik xususiyatlarini namoyon etadi. Bu esa tilshunoslikda so'zlarning o'zaro birikish usullari, ularni biriktiruvchi vositalarning va birikmaning xususiyatlarini o'rganish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. "Jahon tilshunosligida ilmiy qarashlar yo'nalishi va aniq maqsadlar oqimining o'zgarishi, zamonaviy tilshunoslikda inson omili yetakchilik qiladigan antroposentrik yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishi kognitiv tarmoqlarning taraqqiy etishi sintagmatikaga, so'zlar birikuvi, shuningdek, valentlik nazariyasiga e'tibor yanada kuchayishi lozimligini ko'rsatmoqda" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida so'zlarni biriktiruvchi vositalarning

o'rganilishi bevosita so'zlar birikuvining tadqiqi bilan bog'liq holda amalga oshirilganligi tabiiy holdir. Chunki biriktiruvchi vositalar birikmalarni hosil qilgandagina o'z mohiyatini namoyon qiladi. Ingliz tilidagi so'zlarning birikuvi masalasi bilan amerikalik olim L.Blumfeld birinchilardan bo'lib shug'ullangan edi. Olim so'zlar birikuvi tushunchasini muayyan so'zlar guruhi bilan chegaralamaslikni taklif etadi. L.Blumfeldning fikriga ko'ra birdan ortiq so'zdan iborat sintaktik birliklarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) endotsentrik birikmalar; 2) ekzotsentrik birikmalar [2]. Bunda endotsentrik birikma sifatida tarkibidagi istalgan so'z boshqa birikmada butun birikmaning o'rnida qo'llana oladigan birikmalar baholanadi. Boshqacha aytganda, birikmadagi istalgan so'z keyingi gap yoki birikma tarkibida endotsentrik birikmaning ma'nosini anglatadi. Masalan, *go swimming* (*suzishga bormoq*), *enjoy dancing* (*raqs tushishdan zavqlanmoq*) fe'l+fe'l birikmasi endotsentrik birikmalar hisoblanadi. Chunki birinchi birikmadagi *go* so'zi keyingi gaplarda aynan suzishga borishni anglatadi, ikkinchi gapdagi *enjoy* so'zi keyingi birikmalarda raqs tushushdan zavqlanishni anglatadi. Ekzotsentrik birikmalarda esa tarkibidagi so'zlardan biri matndagi boshqa birikmalarda butun birikma o'rnida qo'llana olmaydi. Umuman olganda, L.Blumfeldning so'z va uning birikuvchanligi tadqiqiga qo'shgan hissasi va erishgan natijalari keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajardi. Olimning so'zlar birikuvi haqidagi fikrlari, misollarda ko'rib o'tilganidek, fe'l+fe'l shaklidagi birikuvlarga ham taalluqli edi. So'zlarning, xususan fe'llarning o'zaro birikuvini L.Blumfelddan keyin G.Suit, Ch.Xokket kabi olimlar

tomonidan taqiq qilindi [3,4]. Jumladan, G.Suit o'tgan asrning boshida so'z birikmasi ma'nosini beruvchi, ammo ko'p ma'noli atamaga aylangan *phrase* atamasi o'rniga *word group*, *wourd cluster* atamalarini qo'llashni taklif etadi. Ch.Xokket esa L.Blumfeldning endotsentrik birikmasi sifatida ajratgan birikmalarini yana ichki guruhlariga ajratdi.

Ingliz tilida fe+fel ko'rinishidagi birikmalarni hosil qilishda bir qancha vositalardan foydalanish mumkin. Masalan: 1) fe'ning bosh shakli (infinitiv); 2) gerundiy (harakat nomi); 3) iboraviy fe'llar; 4) modal fe'llar. Bu vositalarni o'rganish bosqichlarini tahlil qilish fe'l+fe'l shaklidagi birikmalarining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Sanalgan ingliz tilidagi fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning har biri chuqur o'rganilgan. Masalan, ingliz tilida infinitiv fe'ning shaxs va son ko'rsatmaydigan, ya'ni shaxssiz shakli sifatida o'rganiladi. Shuningdek, infinitiv fe'ning noaniq shakli sifatida lug'atlarda keltiriladi. Ba'zi tillarda fe'ning bu shakli bosh shakl sifatida talqin qilinadi. Infinitiv fe'lni boshqa bir fe'lga birlashtirishda zarur bo'ladigan fe'l shakli hisoblanadi. Infinitivning bizning tadqiqotimiz uchun zarur bo'lgan sintaktik xususiyatlari O.Yespersen, J.Nesfeld, E.Sonnenshayn, A.Eshton, D.Bolinger, E.Anderson, P.Dafley kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan [5,6,7,8,9]. Hatto ingliz tilidagi infinitiv shaklining boshqa tillarga tarjimai bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan [10,11]. Infinitivning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan va uning boshqa fe'l shakllaridan farqli xususiyatlari yoritilgan [12]. Infinitivning tashqi belgisi sifatida mustaqil ma'noga ega bo'lmagan va urg'u qabul qilmaydigan *to* birligi keltiriladi. Masalan, *like to swim* birikmasida *swim* so'zining infinitiv ekanligini *to* birligi bilan qo'llanganligi orqali bilib olish mumkin. Fe'ning infinitiv shaklining leksik va grammatik xususiyatlari ot turkumiga o'xshash bo'lishi tabiiy. Aks holda fe'ning bu shakli boshqa bir fe'lga birikmagan bo'lardi. Masalan, "infinitiv har qanday ot singari gapda to'ldiruvchi (He teaches her to sing), ega (To skate is pleasant), ot kesim (Your duty was to inform me of it immediately) vazifalarini bajaradi" [13]. Keltirilgan misollar otga xos sintaktik xususiyatlarga, shu jumladan, boshqa fe'lga birikish xususiyatiga fe'l infinitiv shakliga kirgandan keyingina ega bo'lishini ko'rsatadi.

Shu o'rinda infinitiv shakli ingliz tilida *to* birligisiz ham qo'llanishi mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Infinitivning bu xususiyati ham ingliz tilshunosligida atroflicha tadqiq qilingan. Masalan, *can (could)*, *may (might)*, *must* kabi modal fellar, *to make*, *to help*, *to let* kabi fe'llar bilan qo'llanganda infinitiv shakli *to* birligisiz qo'llanishi bir qancha tadqiqotlarda qayd etilgan. Shuningdek infinitiv shaklining muayyan munosabat ifodalovchi fe'llar bilan (masalan, hissiy va irodali munosabatlarni ifodalovchi fe'llar) birikandagi sintaktik, struktur va uslubiy xususiyatlari alohida o'rganilgan [14]. Ammo o'zbek tilshunosligida infinitivning fe'lni fe'lga birlashtiruvchi vosita sifatidagi tipologik tadqiqotlar nisbatan kamligi bu borada bajarilishi zarur bo'lgan ishlarning dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fe'ning gerundiy (the Gerund) shakli ham ingliz tilida fe'lni fe'lga bog'lashda xizmat qilishi mumkin. Gerundiy ham infinitiv singari fe'ning shaxssiz shakli hisoblanadi. Bu shakldagi fe'l o'z xususiyatlariga ko'ra ot so'z turkumiga o'xshaydi. Buni gerundiyning gap tarkibidagi sintaktik vazifalarida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni gerundiyning gapda ega (*Swimming is my favority activity*), ot kesim (*A beneficial activity for health is walking*), to'ldiruvchi (*I remember reading this book*) vazifasida kelishi uning otga xos sintaktik xususiyati hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, gerundiy infinitivga nisbatan otga yaqinroq fe'l shakli hisoblanadi. Gerundiy

shaklidagi fe'ning predloglar bilan birikishi (*I am interested in learning new languages*), ba'zi olmoshlarni tobe qilib kelishi (*Their taking part in the charity event is greatly appreciated*) infinitivda mavjud bo'lmagan ot turkumiga xos xususiyatlar ekanligi fikrimizni dalillaydi. Gerundiyning o'rganilishi uning ham ot, ham fe'l turkumi xususiyatlariga egaligi bilan bog'liq. Ingliz tilidagi gerundiyli birikmalar tadqiqi qarama-qarshi fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi [16]. Jahon tilshunosligida gerundiyli o'rganish uning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini qamrab oladi. Tilshunoslar gerundiyning kelib chiqishi, turli tillarda qo'llanishi, gapdagi vazifasini qiyoslaydilar. Shuningdek, dunyo tilshunosligida gerundiyning tarixiy taraqqiyoti, diaxronik o'zgarishi ham tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlarda fe'ning gerundiy shakli vaqt o'tishi bilan qanday taraqqiy etganligi, unga boshqa lingvistik omillar ta'siri tekshirildi [17]. Umuman olganda, gerundiy amaliy grammatikada ham gapning struktur va semantik qismi sifatida faol o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Gerundiy fe'ning otga xoslangan shakli sifatida fe'lni fe'lga bog'lash xususiyati uning tilshunoslar diqqat markazida bo'lishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Masalan, *She started laughing after reading the joke* gapida *reading* fe'li boshqa bir fe'l – *started* ga birikishi uchun u *-ing* shaklini, ya'ni gerundiy hosil qiluvchi shaklni qabul qilishi lozim bo'ladi. Anglashiladiki, gerundiy shakli fe'ning boshqa bir harakat bilan bog'liq belgisini bildirish uchun matnlarda qo'llanadi.

Ingliz tilida gerundiy shakli aksariyat o'rinlarda predloglar bilan birga qo'llanadi. Ma'lumki, predloglar, odatda, ot turkumiga oid so'zlar bilan birikmalarda ishtirok etadi. Shu sababli har qanday fe'l predlog bilan birikishi uchun u avval gerundiy shakliga kirishi talab etiladi. Gerundiyning predloglar bilan birga qo'llanishi tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bunday fe'l shakli gapda vositali to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol va ot kesim vazifasini bajaradi. Predloglar bilan birikmagan fe'ning gerundiy shakli esa gapda fe'l kesim, ot kesim, vositasiz to'ldiruvchi va ega vazifalarini bajarishi mumkin. Anglashiladiki, predloglarning gerundiya birikishi fe'ning otga xoslangan shakli sintaktik xususiyatlarini boyitadi. Shuningdek, uning semantik xususiyatlarini ham rang-barang qilishga ko'maklashadi. Masalan, *There are several beneficial aspects of reading* (O'qishning bir qancha foydali jihatlari bor) gapida gerundiy shaklidagi fe'ning qaratqich aniqlovchi vazifasida kelganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Fe'ning gerundiy shakli aniqlovchi vazifasida kelish uchun *of* predlogi bilan birikishi talab etildi. Xuddi shunday *on*, *before*, *after*, *in* kabi predloglar yordamida gerundiy shaklidagi fe'l gapda hol vazifasini bajarishi ham mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, gerundiy shaklidagi fe'ning predloglar bilan qo'llanishi uning sintaktik va semantik jihatlariga ta'sir qilishi tilshunoslarning nazaridan chetda qolgan emas. Gerundiy hosil qiluvchi shakl (*-ing*) ni boshqa morfologik shakllardan farqlash, ularning grammatik va semantik xususiyatlarini qiyoslash ham tilshunoslarni doimiy qiziqtirib kelgan masalalardan hisoblanadi. Masalan, *-ing* shakli yordamida gerundiyan tashqari davomiylikni ifodalovchi fe'l (*She is singing*), hozirgi zamonni ifodalovchi ravish (*The running man*), harakat tarzi (*They left the house, laughing and talking*) kabilarni ifodalashi mumkin. Boshqacha aytganda, *-ing* muayyan harakat nomini (gerundiy) ifodalashdan tashqari payt (zamon), harakat tarzu, holat kabilarni ham ifodalashi mumkin. Ularning grammatik maqomini belgilash, ya'ni shaklning harakat nomi, ravish, sifat, otning fe'lga xoslangan, yoki aksincha, fe'ning otga xoslangan shakli ekanligini aniqlash ham tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

1. Ibragimov J. O'zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari. Filol. fanl. dokt. (DSc) diss. – Qarshi. 2023. – 237 b.
2. Bloomfield L. Language. – Chicago: The University of Chicago Press, 1984. – 565 p.
3. Sweet H. A New English Grammar, Logical and Historical, p.II, Oxford, 1930, – P.18-19.
4. Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics, N-Y.: Macmillan, 1958, – P.186.
5. Jespersen O. Essentials of English Grammar. – London: Routledge, 1933. – 387 p.
6. Nesfield J. Outline of English Grammar. – London: Macmillan and Co Limited, 1927. – 168 p.
7. Sonnenschein E. New English Grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1945. – 483 p.
8. Ashton A. Mason's New English Grammar. Intermediate. – London: Bell, 1921. – 218 p.
9. Anderson E. On Verb Complementation in Written English // Lund Studies in English. – Lund: CWK Gleeruo, 1985. Vol 71. – 293 p.
10. Рахимов А. Инфинитив в современном таджикском и английском языках. Дисс. канд. филол. наук. – Душанбе. 2013. – 122 с.
11. Гиясова С., Усмонов К. Субстантивные признаки инфинитива в английском и таджикском языках // Вестник ТГУПБП. 2014. №5. – С.237-247.
12. Ефремова О. Модальная семантика инфинитива в английском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2005. – 134 с.
13. Качалова К., Израилевич Е. Практическая грамматика английского языка. – Киев: Методика, 2003. — 364 с.
14. Лебедева А. Синтаксическая функция инфинитива в сочетаниях с глаголами, выражающими волевые и эмоциональные отношения // Исследования по синтаксису английского языка. МГУ. Ученые записки. – Москва: 1961. – С.13-14.
15. Куклина А. Синтаксические функции инфинитива в составе глагольных инфинитивных конструкций // Вестник Самарского государственного университета. № 10. 2006. – С. 148-153.
16. The Old English Version of Bede's Ecclesiastical History of the English People // edited by Th.Miller, Oxford: EETS, 2003. – 312 p.
17. Bernard A. The Gerund with an Object and Its Equivalent Gerundive in Preparatory Latin // The Classical Journal, 1910. Vol 5, №5, – P.214-219.



Saodat SHAMSHIYEVA,
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: baxridinovaetibor@gmail.com

O‘zDJTU dotsenti, PhD M.Y.Baxtiyorov taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OLAMNING FRAZEOLOGIK MANZARASIDA GENDER KONSEPTLARINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida gender mavzusidagi frazeologizmlarga bog‘ishlangan bo‘lib unda, har ikkala tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlar va ularning structural va semantic tadqiqi, olimlarning bildirgan fikrlari tahlil qilinadi. Kirish qismi ushbu maqolaning umumiy mazmunini ochib beradi. Bunda gender muammosiga to‘xtalib o‘tilgan. Adabiyotlar tahlili qismida qaysi o‘zbek va ingliz tilshunos olimlari ushbu sohada tadqiqotlar olib borganligi, ilmiy ishning bazasini yaratilishida asos bo‘lib xizmat qilgan manba adabiyotlar to‘g‘risida fikr yuriladi. Metodlar va nazariy asoslar qismida gender muammosiga umumiy ta‘rif beriladi. Genderlingvistika tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlardan biri sifatida rivojlanib kelmoqda. Hozirgi davr tilshunosligida gumanitar fanlar qatorida insonning, ya‘ni erkak va ayolning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning ruhiy olami va tili ijtimoiy, madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq qiluvchi genderlingvistika fani muhim bo‘lib bormoqda. Genderlingvistikaning shakllanishi XX asrning so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi.

Kalit so‘zlar: gender, lingvistika, ibora, turg‘un birikma, stereotip, ayol, erkak

THE FORMATION OF GENDER CONCEPTS IN THE PHRASEOLOGICAL LANDSCAPE OF THE UNIVERSE IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article is devoted to the topic of phraseology in English and Uzbek with the participation of the words Female and Male, which analyzes the existing phraseology in both languages and their structural and semantic study, the views of scholars. The introductory part describes the general content of this article. In the section on the analysis of the literature on gender issues, it is considered which Uzbek and German linguists have conducted research in this field, the source literature that served as the basis for the creation of the basis of scientific work. Methods and theoretical foundations give a general description of the gender problem. The world is constantly evolving. Therefore, the analysis of the world is inherent in human beings. Classifying people by gender is a common process. Gender is one of the most important characteristics of a person's age and character. Gender is also determined in the passport, and people have a certain place in society. Even before a baby is born, expectant parents want to know if their baby is a boy or a girl. Gender linguistics is developing as one of the modern trends in linguistics. Gender linguistics, which studies the role of man and woman in society, their spiritual world and language, social and cultural features, is becoming more and more important in modern linguistics. The formation of gender linguistics dates back to the last years of the twentieth century.

Keywords: gender, linguistics, phrase, stable combination, stereotype, ayol, male.

ФОРМИРОВАНИЕ ГЕНДЕРНЫХ ПОНЯТИЙ ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОМ ЛАНДШАФТЕ МИРА НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Данная статья посвящена теме фразеологии в немецком и узбекском языках с участием слов женского и мужского рода, в которой анализируются существующие фразеологии в обоих языках и их структурно-семантическое изучение, мнения ученых. Во вступительной части описывается общее содержание данной статьи. В разделе, посвященном анализу литературы по гендерным вопросам, рассматривается, какие узбекские и английские лингвисты проводили исследования в этой области, какая исходная литература послужила основой для создания базиса научной работы. Методы и теоретические основы дают общее описание гендерной проблемы. Мир постоянно развивается. Поэтому анализ окружающего мира присущ каждому человеку. Классификация людей по гендерному признаку - это обычный процесс. Гендер - одна из важнейших характеристик возраста и характера человека. Пол также определяется в паспорте, и люди занимают определенное место в обществе. Еще до рождения ребенка будущие родители хотят знать, мальчик это или девочка. Гендерная лингвистика развивается как одно из современных направлений в лингвистике. Гендерная лингвистика, изучающая роль мужчины и женщины в обществе, их духовный мир и язык, социальные и культурные особенности, приобретает все большее значение в современной лингвистике. Становление гендерной лингвистики относится к последним годам XX века.

Ключевые слова: гендер, лингвистика, словосочетание, устойчивое сочетание, стереотип, айол, мужчина.

Kirish. Bugungi kunda frazeologizmlarni har tomonlama tadqiq etish dolzarflik kasb etadi. Jumladan, frazeologik birliklarning gender tahlili o‘z tadqiqini kutayotgan masalalardan biridir. Iboralarda gender stereotiplari bevosita yoki bilvosita aks etishi mumkin. Keyingi paytlarda televideniya, matbuotda, internet

tarmoqlarida Gender bilan bog‘liq turli mavzular muhokama qilinmoqda. Tadqiqot ishimi uchun muhim bo‘lgan Gender bilan bog‘liq frazeologizmlar ingliz tilida mavjudmi, mavjud bo‘lsa, lug‘atlarda keltirilgan iboralardan “erkaklarga nisbatan” qo‘llanilgan va “ayollar haqida” aytilganlarini qanday ajratamiz va undagi muammolar haqida ushbu

maqolada batafsil yoritdik. Genderlingvistika tilshunoslikning yangi sohasi bo'lishiga qaramasdan ko'plab tilshunos olimlar mazkur soha bilan shug'ullanishmoqda. Lekin Gender bilan bog'liq frazeologizmlar ustida juda kam tilshunos olimlar ilmiy tadqiqotlar qilishgan. Nazariy jihatdan Genderfrazeologizmlarni tadqiq qilgan olimlar sifatida Elisabeth Piirainen, Yohan Shternkopflarni sanab o'tish mumkin. Olim Yohan Shternkopf 1995- yilda nemis tilidagi mavjud bo'lgan jinslarni ifodalovchi frazeologizmlarni atoqli otlar, qarindoshlik darajasiga ko'ra "Mann", "Frau" so'zlari qatnashganlarini tadqiq qildi[1;48]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nemis tili frazeologiyasida jinslarni ifodalovchi frazeologizmlar ko'p emas. Tadqiqot ishimizda frazeologizmlarni izlab topish va ma'nosini tushinishda Duden 11, 1992 va 2008 (Redewendungen) va Friedrih Volfning "Moderne deutsche Idiomatik"(1995) (Zamonaviy nemis tili idiomalari) kabi kitoblardan foydalandik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, tillararo lingvistika va madaniyatlararo muloqot sohaslarida zamonaviy jihatlar doirasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib bormoqda. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi kommunikativ xulq-atvorni, jinsiy munosabatlarni aniqlashda odamlarning nutqining rolini belgilash, turli tillardagi jinsga oid birliklarni solishtirma o'rganish uchun ilmiy-uslubiy bazani ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu hodisa inson tasavvuri va milliy mentalitet asosida o'rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir fanning tadqiqot ob'ekti bo'lgani kabi genderlingvistikaning tadqiqot ob'ekti gender hisoblanadi. "Gender" tushunchasi fanga biologik jinsning, ya'ni ular asosida erkak va ayolga ajratuvchi "jins" tushunchasidan ajratish uchun kiritilgan. "Gender" erkak va ayolning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilovchi tushunchadir. Bu ikki termini bir biridan farqlash kerak. "Gender" tushunchasi ingliz tiliga lotin tilidagi "genus" so'zidan o'tgan bo'lib "jins" degan ma'noni bildiradi[2; 96]. Bu tushuncha ikki xil talqin qilinadi: 1) Jins ya'ni biologik tushuncha 2) Ijtimoiy tushuncha. Jins va gender tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi urinish 1968 yil Kaliforniya universiteti professori psixolog Robert Stoller va endokrinolog Jon Money tomonidan amalga oshirilgan. Evig Goffman ham "gender" terminini birinchilardan bo'lib qo'llagan sotsiolog Sofiya Babayan fikriga ko'ra, "Gender" ijtimoiy tushuncha. Olim "Ayol yoki erkakning benuqson timsoli, xronologik va geografik muhitning rang-barangligi, milliy an'analari, dini, tarixi, milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi" deb yozadi. Gender ayollar va erkaklarga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ijtimoiy jarayonlarda mavjud. O.A.Voronina XX asrning 80-yillarini "Ayollar tadqiqoti rivojlanishining yangi fazasi" deb hisoblaydi. Olim patriarxat (erkakning jamiyatda ustun bo'lishi) va matriarxat (ayolning jamiyatda ustunlik qilishi) tajribasini tahlil qilib, gender sistemasi tahliliga o'tishni shunday ta'riflaydi: "Ayollar omili va erkaklar ustunligini tahlil qilishda, gender mavjud ekan, barcha ijtimoiy holatlarda erkak va ayol uchun birdek tegishli bo'lgan ta'kidlanayotgan va aytilayotgan tahlilga o'tishda sekin asta aksentlarning aralashuvi kuzatilmoqda." Jan Jak Russoning fikriga ko'ra, erkak va ayol o'rtasidagi o'xshashlik bu avvalo, ularning bir biologik tur vakillari ekanligidir: ular ko'p jihatdan tengdirlar – organlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar. Biroq jamiyat a'zolari sifatida teng emas. Bunga sabab, ularning tug'ma xususiyatlaridir. Erkaklar uchun bu xususiyatlar – mustaqillik, rostgo'ylik, dadillik, qo'rqmaslik va h.k.lar; ayollar uchun esa uyatchanlik, ayyorlik va o'zgalar fikri bilan hisoblashish va h.k.lar. Russo fikriga ko'ra ayollar ancha teran fikr va aqlga egadirlar. Yozuvchi va faylasuf Yozef Gorres ta'kidlashicha, hamma insonlarning tabiiy jinsi va tabiiy jinslararo tengsizlik XIX asrdan qolgan va to hozir XX asrning

o'rtalarigacha saqlanib qolgan. Bu "Jinslar o'rtasidagi tabiiy tengsizlik" jinslarning turli xilligi bilan asoslanadi[3;29]. Faylasuf Immanuel Kant uchun erkak va ayol boshqaruvchi va boshqarilmidir. Ya'ni erkaklarning jamiyat siyosiy hayotidagi faoliyati aktiv, ayollarniki passiv. Kant tomonidan bayon etilgan gender stereotiplari qatorida turuvchi ushbu fikr, ya'ni ayollarning siyosiy yoki boshqa muhim qarorlar qabul qilishga qodir emasligi bugungi kunda ham ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi. Ko'rinib turganidek o'tmish arboblari jinslar o'rtasidagi farqlarni qayd etishgan va bu ularning fikricha, tabiiy holdir. Bunday gender stereotiplar hech qanday isbot talab etmaydi. Zamonaviy fan esa bunday fikrlarga ma'lum isbot va asoslar talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarda shaxsiy ot kishilik zamirlari bilan (u, u, uning, uni) jins belgilanadi: Uning Hazrati xizmatchilari - aktyorlar; u shunchalik ahmoqki, siz unga Bruklin ko'prigini sotishingiz mumkin. Biroq, ko'plab ingliz maqollarida shaxsiy ot kishilik zamiri bilan jinsning neytrallashuv hodisasi kuzatiladi va bunday maqollar ayollar haqida ham ishlatilishi mumkin: kim oxirgi kulsa, yaxshi kuladi. Bu ingliz tili grammatikasida androtsentriзмning namoyon bo'lishidir. O'zbek tilida esa grammatik mezon yordamida jins rangli frazeologik birliklarni aniqlash qiyin, chunki unda ma'lum bir jinsni ko'rsatuvchi zamirlar yo'q.

Lexik mezon asosida jins belgilangan frazeologik birliklarni tanlash ingliz va o'zbek tillarida quyidagi tarkibiy qismlar mazmuniga ko'ra aniqlanishi mumkin:

a) O'z ismlar, ya'ni erkak va ayol ismlari: Xo'ja Ahrorning moli - bu Khoja Akhrga tegishli narsalar (ya'ni hech kimda bo'lmagan narsalar); katta Jon - yangi kelgan.

b) Umumiy ot kishilik leksemalar, ma'lum bir jinsni ko'rsatuvchi: payg'ambar yoshi - Muhammad payg'ambarning yoshi (ya'ni 63 yosh); oppoq qiz - chiroyli qiz (qizga muloyim murojaat); keksa ayol - ona, keksa ayol; erkinlik odami - ta'til yoki ruhsatda bo'lgan dengizchi.

c) Jinsni ko'rsatuvchi qarindoshlik atamallari: oppoq dada - bobo; agar onamiz hozir bizni ko'rsa, qanchalik maroqli ekanimizni bilardi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologiyalarda jins stereotiplari ikkiga bo'linadi: 1) erkak stereotipi va 2) ayol stereotipi.

Gender stereotipi til tizimi darajasida faoliyat yuritadi, jins tushunchasi esa gender stereotipidan ancha kengroq taqdim etiladi. Gender tushunchasi leksik va frazeologik darajada va butun matnlar darajasida yangilanishi mumkin. Jins tushunchasi doimo gender stereotipiga mos kelmaydi, aksincha, zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida gender stereotiplari va gender tushunchalari o'rtasida ba'zi farqlar mavjud. Jamiyat rivojlanmoqda, odamlarning mavjud yoki mavjud bo'lgan erkaklar va ayollar modellari haqidagi stereotipik fikrlari o'zgarib turibdi va bu o'zgarishlar doimo vaqtda belgilanib, tilga, xususan, leksikografik manbalarga aks ettirilmaydi.

Ingliz tilida erkak stereotipi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: karera, oilani boqish roli, erkaklik, ayollarga g'amxo'rlik qilish, turmush, otalik, do'stlar, ko'ngilochar. O'zbek tilida erkak stereotipi ta'lim, ish, oila, oilani boqish roli, mas'uliyat, ota-onalik g'amxo'rlik, martaba oshirish, bolalar kelajagini ta'minlash, nevaralarga g'amxo'rlik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Her ikki tilda erkaklik, martaba o'sishi, oilani boqish roli, oila bir xil. Biroq, o'zbek tilida oila va keksa ota-onalarga g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq erkaklarning stereotiplashtirilgan vazifalari ko'proq ta'kidlanadi va kengroq.

Xulosa va takliflar. Gender frazeologizmlar – tarkibida genderga oid so'zlar qatnashgan bo'ladi. Masalan: ayol yoki erkak ismi, qarindoshlik darajasini bildiruvchi so'zlar. Lekin bunday frazeologizmlar ma'nosi umuman

boshqacha. Ularda erkak va ayol farqini ko'rsatuvchi hech qanaday ma'no mavjud emas. Gender frazeologizmlar – bunday frazeologizmlar tarkibida genderga oid so'zlar bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin. Lekin ular ayol va erkak farqlarini ko'rsatuvchi ma'noga ega. Birinchi guruhga kiruvchi gender frazeologizmlarni a) atoqli otlar qatnashgan va b) qarindoshlik darajalarini ko'rsatuvchi so'zlar qatnashgan frazeologizmlar kabi ikkita guruhga bo'lib tahlil qildik.

Ikkinchi guruhga kiruvchi iboralarni a) insonning tashqi ko'rinishini ifodalovchi iboralar, b) ijtimoiy va madaniy faktorlarga ko'ra, s) hayvon komponentli iboralar kabi guruhlariga bo'lib tahlil qildik. Maqollarni tushunish boshqa frazeologizmlarga ko'ra oson. Maqollarning yaralishidan maqsad, xalqning kundalik hayotdan olgan tajribalarni keyingi avlodlarga yetkazishdir.

REFERENCES

1. ISSUE 4 | 2021 Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1 1. Зариф, Кувонов (2020). Немис тилига франсуз тилидан ўзлашган сўзларнинг структурал-семантик тадқиқи, XXI аср тилшунослиги ва таржимашунослигининг долзарб муаммолари: назария, амалиёт, инновация
2. Кувонов, Зарифжон (2020). Немис тилига ўзлашган сўзларнинг келиб чиқиш тарихи. Проблемы и перспективы развития современной науки в странах Европы и Азии – XXIV Международной научно-практической интернет конференции.
3. Shahnoza Razakova (2020). Tarjimada paydo bo'ladigan muammolar Uz.Academia.№1
4. Rakhmatov, F. (2020). Tillarda zamon kategoriyasini umumiy-qiyosiy o'rganish. Academic research in educational sciences, (3).
5. Abdukhaliyeva, D. S. (2019). The formation of double words and their place in linguistics. Proceedings of the scientific-practical conference "Young philology of Uzbekistan - 2019". Tashkent, National University of Uzbekistan.
6. Usmonhodjae, M. A. (2021). Psychological Basis Of Teaching German Language. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 446-450.
7. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhaliyeva, D. (2020). Nemis va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Science and education, 1(8).
8. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhaliyeva, D. (2020). Nemis va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Science and education, 1(8). 9. Рахматов, Ф., & Тилолова, Г. (2013). Чет тилини уқитишда хориж тажрибаси ва грантларнинг аҳдмияти. Чет тилини уқитишда методика, малака ва тажриба, 259-261. 10. D Abdusalilova, F Raxmatov - Academic research in educational sciences, 2021



UDK:811.113:512.133+87'1 (575.1)

Guljaxon SHARIPOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: guljaxonsharipova758@mail.com

O‘zMU dotsenti, f.f.d G.Kurbonova taqrizi asosida

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz va o‘zbek tillarida maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Unda maqollarning argumentativ funksiyasi obrazli motivlanganligi orqali izohlanadi. Fransuz va o‘zbek tilidagi maqollarning etimologiyasi ularning genetik belgilarini ko‘rsatadi. Shuningdek, proverbial frazeologizmlarning xalq hayotini, turmush tarzini, dunyoqarashini, urf-odatlarini ifodalovchi argumentativ xususiyatlarga ega ekanligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: maqol-matal, proverbial frazeologizm, argumentativ funksiya, etimologiya, genetik belgi, urf-odat.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируются особенности пословиц во французском и узбекском языках. В ней аргументативная функция пословиц объясняется через образное толкование. Этимология пословиц во французском и узбекском языках показывает их генетические признаки. Также анализируется, что пословичные фразеологизмы обладают аргументативными характеристиками, которые отражают жизнь, уклад жизни, мировоззрение, обычаи народа.

Ключевые слова: пословица-матал, пословичный фразеологизм, аргументативная функция, этимология, генетический признак, традиция.

NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF PROVERBS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the features of proverbs in French and Uzbek. In it, the argumentative function of proverbs is explained through figurative interpretation. The etymology of proverbs in French and Uzbek shows their genetic characteristics. It is also analyzed that proverbial phraseological units have argumentative characteristics that reflect the life, way of life, worldview, and customs of the people.

Key words: proverbial matal, proverbial phraseology, argumentative function, etymology, genetic trait, tradition.

Dunyoda ko‘pgina millatlarning o‘ziga xosligini ifodolovchi iboralar mavjud. Masalan, fransuzlar haqida “ustasi farang” ifodasi qo‘llanilsa, nemislar haqida so‘z ketganda, “nemischa hisob-kitob” esga olinadi yoki yuksak zakovat, tinib-tinchimaslik xususiyati ko‘proq yaponlarga xos ekanligi ta‘kidlanadi. Yunonlarning “dunyodagi jamiki odamlarni yunonlar va yunon bo‘lishni istovchilar”ga ajratishi asrlardan-asrlarga o‘tib kelmoqda.

Inson qancha ko‘p tilni bilmasin, bu tillarning xususiyatlarini bir-biriga qiyoslab o‘rganmasin, uning uchun eng mukammal va qadrdon tili bitta, bu – ona tilidir. Boshqa har qanday tilni u ona tili vositasida o‘rganadi. Bir necha tilni bilish esa bir qulfga tushadigan bir necha kalitni topish bilan barobar.

Bugunga kelib chet tillarni mukammal bilish davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda, ayniqsa, xalqaro arenada o‘z ovozi va o‘rniga ega bo‘lib borayotgan yoshlarimiz uchun chet tilini butun jozibasi, sir-asrori bilan o‘rganish zaruratga aylanib qoldi. Bu talablar yangi-yangi tadqiqotlarni talab etadi. Shulardan biri – filologik yo‘nalishda qiyosiy-tipologik, etimologik izlanishlardir.

“Etimologiya” so‘zlarning va frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixini o‘rganar ekan, so‘z etimologiyasi bilan frazeologik birliklar etimologiyasi o‘rtasida katta farq borligini kuzatamiz. Biror so‘zning kelib chiqish tarixi bilan, FBning yaratilish tarixi bir-biriga mos kelmaydi, chunki FBlar so‘zga nisbatan murakkabroq semantik tuzilishga egadir [1].

Masalan, fransuzlarda “Vin” – vino- so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, qo‘rqinch ma‘nosini ham beradi, “vin

cuit”, ya‘ni kuydirilgan vino atamasi esa, 1538 yili, “vin doux” – shirin vino atamasi 1564 yili ushbu xildagi vinolar ixtiro qilinishi bilan fransuz tiliga kirib kelgan. “Quand le vin est tiré, il faut le boire” [4]. PF esa tamomila ko‘chma ma‘noni anglatib, boshlangan ishni yakunlash kerak, degan ma‘noda ishlatiladi. So‘zma-so‘z vino quyildimi, uni ichish kerak, – deb tarjima qilish mumkin [3].

“Raisin”–uzum so‘zi fransuz tiliga XIII asr oxirlarida lotin tilidan o‘zlashgan, “Racimus”, “class racimus” – bir bosh uzum [3]. Trouver les raisins tropes verts – uzumni hali juda xom deb hisoblash yoki ko‘chma ma‘noda “o‘zi yetolmagan narsaga puf-sassiq deyish” mazmunini ifodalaydi. Mazkur iboraning yaratilish tarixi Lafontenning “Tulki bilan uzum” masaliga borib tutashadi. Unga ko‘ra, och tulki baland shoxda osilib turgan uzumni ko‘radi, har qancha harakat qilsa ham yetolmaydi va *Ils sont tres verts – ular juda xom ekan*, deydi.

FBlar etimologiyasi, ushbu birlikning paydo bo‘lish manbaini va tarixini sharhlash, frazeologizm va ularning variantlari, shuningdek, sinonimlari orasidagi genetik bog‘liqlikni o‘rganadi. «Ba‘zi hollarda etimologik tahlil ma‘lum bir iboraning yaratilgan joyi, agar iqtibos bo‘lsa muallifni aniqlash muhitini yuzaga keltirishi mumkin» deydi V.Pizani o‘zining etimologik tahlil muammolariga bag‘ishlangan asarida [6].

Ba‘zi maqollar orqali muayyan ma‘noda millatning xarakteri ham aks ettiriladi. Fransuzlar: *Il faut compter sept fous avant de couper*; o‘zbeklar: *Yeti o‘lchab bir kes va ruslar: Семь раз отмерь, один раз отрежь, ya‘ni yetti*

o'lchab bir kes, deya muayyan vaziyatga baho bersalar, inglizlar: ikki o'lchab bir kes – Measure twice cut once, – deydilar [4]. Shuning o'ziyoq fransuz, o'zbek va ruslarning maqol doirasida o'xshash jihatlarni ko'rsatsa, inglizlar bilan farqli tomonlarni, har bir millat faoliyatidagi o'ziga xoslikni namoyon qiladi.

Fransuzlarning xarakteri, tashqi qiyofasi, o'zgaralar bilan munosabati, ichki va tashqi dunyosi kabi xislatlari ko'chma ma'noda hayvonlar nomlariga bog'lanib, qaysidir jihatlarni o'xshatish orqali ta'riflanadi. Quyidagi tashbehli iboralarda fransuzlarga xos milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo'ladi: *Le français dort comme un lion, a une faim de loup, un oeil de lynx, une vie de chien. Pour être toujours prêt a se faire aussi gros qu'un boeuf ou a passer par un trou de souris, il lui faut être rusé comme un renard. Quoique l'amour, dont il fait souvent son cheval de bataille, le rendre gai comme un pinson et léger comme une plume, il n'aime pas faire le pied de grue et rester comme l'oiseau sur la branche. Si donc on lui pose trop de lapins, surtout par un froid de canard, il aura vite la puce a l'oreille et (...) n'hésitera pas a prendre le taureau par les cornes (...). Il en tombera peut être malade comme un chien, au points d'en avoir une fièvre de cheval, mais il saura rester, sur ses mésaventures, muet comme une carpe car, s'il est parfois bavard comme une pie, il sait aussi mettre un boeuf sur sa langue, avouer que c'est un drole de zebre[4].*

Rus faylasufi A.Karmin [5] fransuzlar biror ishni boshlashdan oldin obdon o'ylab, reja, dastur tuzadi, kodeks, mo'ljalni oldindan rejalashtiradi, keyin ishni boshlaydi, deb yozadi. Fransuz adiblarining asarlarida motivlarni anglash, tahlil qilish yuqori turadi. Fransuz yozuvchilarida ichki hissiyotni tasvirlash ustunlik qiladi, sevgi-muhabbat, “sevgi fani” fransuz adabiyotining mevasi hisoblanadi.

Fransuzlar to'g'risida inglizlar: “Les français sont plus sage qu'il ne semble” – Fransuzlar ko'rinishlariga qaraganda ancha aqlli, deb aytadilar. Italyanlar esa “Il n'y a rien de mieux que ce que les français font bien et rien de pire que ce qu'ils font mal” – Fransuzlar yaxshilik qilsa undan a'losi yo'q, yomonlik qilsa undan badtari yo'q, der ekanlar. Fransuz tilida mo'ylovsiz bo'sa pishloqsiz taom degan ibora mavjud, ya'ni: *Baiser sans moustache - repas sans fromage*. Ushbu ibora faqat fransuzlargagina xos. Rus tilida “*Поцелуй без усы – обед без сыра*” degan ibora yo'q [2]. Chunki fransuzlardagi bu ibora – ushbu millat odamlarining har bir taom bilan pishloq iste'mol qilishi hamda Fransiyada 300dan ortiq pishloq turining mavjudligi kabilar bilan bog'liq bo'lgan milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan proverbial frazeologizm hisoblanadi. Yuqorida qayd etganimizdek, bunday iboralarning muqobillari bo'lmaydi, faqatgina so'zma-so'z tarjima yoki sharh berish orqali ifodalanadi.

Ushbu misolda stilistik okkazonal transformatsiya hodisasini ham kuzatish mumkin: *Voilà, dis-je, un dimanche sans viatique, pour moi, c'est comme-il leva la main. Pas de comparaisons profanes surtout dit-il. Peut être pensait -il, au baiser sans moustaches ou rosbif sans moutarde [4].*

O'zbek tili naqadir boy til. Uning imkoniyatlari milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalaydigan so'z, gap, so'z birikmalari, maqollar, frazeologik birliklar, aforizmlar fransuz va rus tillaridagi mavjud bunday ifoda shakllaridan ko'p kam emas. Alisher Navoiy o'z davrida turkiy tilning boyligi va afzal jihatlarga dalil sifatida turkiy xalqlar tomonidan qo'llaydigan so'zlarni keltirib, bu tilning imkoniyatlari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon yaratadi. Masalan, otalarning yoshi va zotiga qarab qulun, toy, g'o'non, do'non, to'lan, to'buchoq, arg'umoq, yaka, g'obu shaklida ishlatilishining ta'kidlanishi e'tiborli. O'rdaklarni nomlashda jo'rki va erka, suqtur va olmabosh chaqirqanot va temirqanot, alapaka va bog'chol kabi atamalar qo'llanilgan [2]. Oradan ikki asr o'tib, fransuz adibi Fransua Rablening “Gargantuya va

Pantagryuel” asarida 153 xil o'yin, 138 xil ovqat, 98 xil ilon nomini fransuz tilidan topib ishlatishi, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn”da tutgan yo'lga o'xshashligini Pirimqul Qodirov “Til va el” kitobida aytib o'tgan. Demak, o'zbek va fransuz tillaridagi so'zlarni qiyosiy o'rganish bo'yicha tadqiqotlar XIV–XV asrlarda boshlangan.

Faqat o'zbek xalqi hayotini, turmush tarzini, dunyoqarashini, urf-odatlarini ifodalovchi proverbial frazeologizmlar – bu o'z xalqi maqollari orasidagi milliy paremiologik qatlam hisoblanadi. Bu qatlamga mansub maqol va matallarning milliy o'ziga xosligi – bevosita o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va maishiy hayotini aks ettirishda, o'zbeklarga oid toponomika, o'simliklar, hayvonlarning ishtirok etishida, o'zbek xalqiga xos xarakter, xislatlarning ifodalanishida, urf-odatlar va marosimlarning mavjudligi hamda adabiy-badiiy tilidadir. O'zbek tilidagi maqol, matal va iboralar milliy-madaniy xususiyatlariga bog'lab oxirigacha to'liq o'rganilgan, deb bo'lmaydi. O'rganilgani sayin ularning ochilmagan qirralarini topish mumkin. O'zbek tilida xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi PFlar asrlar osha odamlar og'zidan-og'ziga o'tib, nutqimizga jilo berib kelmoqda. Jumladan, *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi* iborasi tarkibidagi milliy bosh kiyimi bo'lmish «do'ppi» komponenti orqali milliylik aks ettirilmoqda. Do'ppi kiyish uchun bosh omon bo'lishi kerak. Ko'chma ma'noda “*tashvishlanma, jafa chekma, bu gal yutqazgan bo'lsang, keyingi safar yutasan, jonajon ro'zg'oringdan ayrilding, nadomat chekma, g'arib boshing omon bo'lsa do'ppi topilib, ishli ro'zg'orli bo'lasan*”, kabi dalda beruvchi ibora tarzida ishlatiladi. Tavakkal, shahd ma'nolari ham bor. Do'ppini ol, desa bosh olmoq iborasida ikki tomonlama milliylik seziladi. Birinchidan, «do'ppi» komponenti bo'lsa, ikkinchidan ushbu proverbial frazeologizm ma'no jihatidan o'zbek millatining ma'lum ma'nodagi xarakterini ko'rsatadi. Do'ppisini osmonga otmoq iborasi, asosan, o'zbeklarga xos bo'lib, uning o'rniga kepkasini yoki shlyapasini osmonga otmoq ko'rinishida ishlatib bo'lmaydi. Shuningdek, *Bosh yorilsa do'ppi ichida, qo'l sinsa-yeng ichida* mazmunidagi maqolda dardini birovga doston qilishga iymnadigan, kamtarlik xislatiga ega bo'lgan millatning xarakteri do'ppi komponenti orqali milliylik aks ettirilgan. *Atlasni ko'rmoq bor, kiymoq yo'q iborasi* “*Ko'rmoq bor, yemoq yo'q*” maqolidan milliy lashtirib, o'zgartirilgan frazeologik birlik sifatida, atlas ham milliy mato sifatida hammaga tanish.

Ba'zan maqol va matallar frazeologizmlar tarjimasining sanab o'tilgan usullari (ekivalent, analog, adekvat va kalka)dan birortasiga to'g'ri kelmaydi. Tarjimon har qancha tajribali bo'lmasin, tarjimada ular mazmunining tavsifi katta bo'lib ketadi. Bunday hollarda tarjimon boshqa tildan qilingan tarjima usulini olib kirishi mumkin. Masalan, *L'Habit ne fait pas le moine* maqolini o'zbek tiliga berish g'oyat mushkul. So'zma-so'z tarjima, shubhasiz, ma'nosizlikka olib keladi. Rus tiliga u bunday tarjima qilingan: *He всяк танцор, кто пляшет*. Ruscha analogda biz maqol negizida yotgan ramzni to'la his etamiz. Fransuzcha maqol ma'nosini berish uchun ruscha analogni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin: *O'yinga tushgan bilan — o'yinchi bo'lmas*. Bu og'ir tarjimani cheklab o'tish imkonini beradi.

Ayrim fransuzcha maqol va matallarda na qofiya, ohangdoshlik bor, ularni oddiy gaplardan ajratib bo'lmaydi. Quyidagi maqol va matallar shular jumlasidandir:

L'espérance est la viatique de la vie, celui qui envoie les bouches, envoie aussi les vivres, celui qui avale une brique, en avalerait bien deux va boshqalar [2]. O'zbek va boshqa tillarda bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu turkumdagi maqol va matallar boshqa tillarga nisbatan oson tarjima qilinadi, qofiya va ohang

yoki tovushlarning ohangdoshligiga rioya qilingan proverbial hikmatlarga o'xshagan emas.

Maqol va matallarda milliy o'ziga xoslikni ifodalash xususida kelsak, bu – g'oyat og'ir ish. Aynan milliy o'ziga xoslik stilistik bo'yoqlarda katta rol o'ynaydi. Kitobxon asliyatda yoki tarjimada o'qishiga bog'liq ravishda stilistik kolorit turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, fransuzlar eng avvalo maqol va matallarning nutq uslubiga mansubligiga e'tibor qiladi. U qo'llanayotgan maqol va matalning asarning umumiy fabulasi, muayyan shartlari, obrazdagi tipik qahramonlar bilan uyg'unligi haqida o'ylaydi. Milliy kolorit uning e'tiborini tortmaydi. Aksincha, fransuz asari tarjimasida o'zbek kitobxonini maqollarning nutq uslubiga mansubligidan ko'ra milliy kolorit ko'proq jalb qiladi.

Binobarin, bu yerda ikki jarayon o'zaro hamkorlik qiladi: bir tomondan, kitobxonning ona tiliga odatlanishining ma'lum darajasi, ikkinchi tomondan – ifoda shakli va maqoldagi mulohaza(lar) mazmuniga o'xshab, g'ayrioddiylik, yangilik tufayli qilingan tahlil. Albatta, uning ham, buning ham rolini oshirib yubormaslik kerak, biroq idrok etishning bu psixologik xususiyatini tarjimon mensimasligi kerak emas. Shu bois, maqol va matallarni tarjima qilganda ularning milliy o'ziga xosligi saqlab qolinishi kerak. Buning uchun faqat bitta usul bor – ularning o'zbek tilining alohida, tarjimaning boshqa usuliga to'g'ri kelmaydigan maqol va matallar transliteratsiyasi bilan omuxta bo'lib kelgan vositalari ila ijodiy qayta tiklash. Ko'r-ko'rona kalkalash, albatta, bu vazifani bajarishga yaramaydi. Buning uchun yanada qulayroq usullar kerak.

Maqol va matallarning o'zbekcha tarjimasida quyidagi hollar uchirashi mumkin: 1. Tarjimada asliyatning milliy koloritini tarjima tilining milliy o'ziga xosligi bilan almashtirish. Masalan: *L'abime appelle l'abime*. – Beva xotinga Buxorodan it huradi. “Après fait ne vaut souhait – Hayit o'tgandan so'ng hironi yuzingga surt”. Keltirilgan analoglar milliy realiya-so'zlar hisoblanadi: Buxoro – O'rta Osiyoning tarixiy shaharlaridan biri; hino – musulmonlar bayramida barmoqlarga surtiladigan pardoz bo'yog'i [7].

Bu hol fransuz tilidan o'zbek tiliga maqol va matallar tarjimasiga xos emas, chunki u tarjima nuqsoni hisoblanadi.

Shunday bo'lsa-da, bunday hollar tarjima amaliyotida uchrab turadi. Asliyatning xolis maqoliga yorqin ifoda etilgan milliy o'ziga xoslik tusini berish asliyatga putur yetkazish bilan ham bog'liq.

2. Asliyat tili koloritini tarjima qilinayotgan til koloriti bilan almashtirish: Qui langue a à Rome va. – Язык до Киева доведёт. – So'rab-so'rab Makkaga boribdi.

Garchi bunday tarjimalar o'zbek kitobxoniga juda tushunarli va yaqin bo'lsa-da, ular asliyat to'g'risida to'g'ri tasavvur bermaydi.

Shunday qilib, quyidagi hollarda tarjima soxta milliy kolorit bilan kelib chiqadi: a) maqol va asliyat ekvivalenti tarkibiga kishi ismlari va milliy o'ziga xos realiyalarni kiritish bilan so'zma-so'z tarjima qilganda; b) tarjima qilinayotgan tilning milliy o'ziga xos maqol va matallarini tarjima qilganda.

3. Milliy-fransuz koloritini xolis kolorit bilan almashtirish:

Asliyatdagi maqol va matallarning milliy o'ziga xos (kolorit)ligini xolis vositalar bilan almashtirish hollari ham uchrab turadi. Masalan: Se que Jeannot n'apprend pas, Gros - Jean ne le saura jamais. - Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'ljaga qolar.

Katta imkoniyatlarga ega bo'lgan bu usul ma'lum kamchiliklarga ega:

a) odatda tarjimada milliy o'ziga xos koloritning yo'qolishi umuman uslubiy ekpressiyaning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ammo agar tarjimon uslubiy ekpressiyaning boshqa sifatleri bo'yicha tarjima qilinayotgan maqolga ekvivalent vositalar topsa, vazifa ado etilgan bo'lishi mumkin [2].

b) bunday uslubni ko'p qo'llab yuborish asarning tarjimada “rangsizlanishi”ga olib keladi. Shu boisdan, shunday almashuvga imkon beruvchi zarur hollardagina, kontekst talabi doirasida murojaat qilgan yaxshi. Ammo bu shunday almashiruvning asar milliy koloriti tusi, asar qahramonlarining nutq tavsifi imkoniyatlarini to'g'ri baholash bilan bog'liq va h.k.

Shunday qilib, yorqin ifoda etilgan milliy buyoq hisoblanuvchi unsurlarni bartaraf etish uslubi bilan milliy bo'yoqli maqol va matallarni boshqa tilga tarjima qilish mumkin bo'ladi. Ammo bu milliy maqol va matal kontekstlarida qo'llashning ma'lum sharoitlarini hisobga olishni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. Даль В.И. Пословицы русского народа. Сборник В. И. Даля/авт.-сост. Даль В.И. - М.: Рус. яз. Медиа, 2004. - 814 с.
2. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. fanl. dokt.... diss. avtoref. – T.: Fan, 2000. – B.5.
3. Nosirov A.A. Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt. (DsS) diss... avtoref. – T., 2016. – 32 b.
4. Rey A. Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – P.: Le Robert, 1997. – 1085 p.
5. Кармин А. С. Культурология. 2-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Издательство «Лань», 2003. - 928 с.
6. Черкасский, М.А. Опыт построения функциональной модели одной частной семиотической системы. // Паремнологический сборник: Пословица, загадка (структура, смысл, текст). - М.: Наука. - 1978. – С. 35
7. Sodikovna, Kurbonova Gulsara. “Fransuz va o'zbek tillaridagi to'qima frazeologizmlarning chog'ishtirma tahlili”. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 222-226.



Mahliyo SHERQULOVA,
O'zDJTU tayanch doktoranti
E-mail:mahliyo0707@mail.ru

O'zDJTU dotsenti, f.f.f.d M.A. Abduvahabova taqrizi asosida

REKLAMA DISKURSIDA QO'LLANILADIGAN PRAGMA-KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR

Annotatsiya

Maqolada lingvopragmatika nuqtai nazaridan tadqiq etiluvchi reklama diskursi xususiyatlari va unda qo'llaniladigan pragma-kommunikativ strategiyalar bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi. Maqolaning maqsadi reklama sloganlarini diskurs turi sifatida o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash hamda reklama sloganlaridan ko'zlangan asosiy maqsadga erishishda unda qo'llaniladigan strategiyalarni yoritib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: diskurs, lingvopragmatika, pragmatik effekt, pragma-kommunikativ strategiya, perlokutiv akt, slogan.

PRAGMA-COMMUNICATIVE STRATEGIES IN ADVERTISING DISCOURSE

Annotation

The article discusses the characteristics of the advertising discourse studied from the point of view of linguo-pragmatics and the problems related to the pragma-communicative strategies used in it. The purpose of the article is to describe the characteristics of advertising slogans as a type of discourse and to explain the strategies used in achieving the main goal of advertising slogans.

Key words: discourse, linguopragmatics, pragmatic effect, pragma-communicative strategy, perlocutionary act, slogan.

ПРАГМА-КОММУНИКАТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ В РЕКЛАМНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В статье рассматриваются особенности изучаемого рекламного дискурса с точки зрения лингвопрагматики и проблемы, связанные с используемыми в нем прагмакоммуникативными стратегиями. Цель статьи – описать особенности рекламных слоганов как вида дискурса и объяснить стратегии, используемые при достижении основной цели рекламных слоганов.

Ключевые слова: дискурс, лингвопрагматика, прагматический эффект, прагма-коммуникативная стратегия, перлокутивный акт, слоган.

Kirish. XX-asr oxiriga kelib ommaviy axborot vositalari taraqqiyoti natijasida reklama sohasi minglab kishilarni ish bilan ta'minlaydigan global sanoatga aylandi. Reklama sanoati tarixida ommaviy reklamadan target guruhlar uchun mo'ljallangan reklamalarga bo'linish evolyutsiyasi bo'ldi. Hozirgi zamonaviy jamiyatda reklama mahsulot va xizmatlarni yanada tanitish maqsadida yaratiladigan sanoat turi hisoblanadi. Reklama bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borib, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning o'ziga xos shartiga aylandi. Aytish joizki, mahsulot ishlab chiqarishning kengayishi, xizmat ko'rsatish turlarini ko'payishi bilan bozorlardagi raqobat ham keskin o'sib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining reklamaga bo'lgan talabini kuchayishiga olib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Reklama asli nima ekanligini tushunish va uni konseptualashtirishga bo'lgan jamiyat ehtiyoji sababli, reklama diskursi turli munozaralar mavzusi bo'lib kelmoqda. Reklama matnlari turli sohalar nuqtai nazar bilan tadqiq qilinmoqda: iqtisodiy, sotsiologik, madaniy, huquqiy, psixologik, ijtimoiy-falsafiy, lingvistik va boshqalar.

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan J. Braun va J. Yul, N. D. Arutyunova, E. G. Borisova, L. A. Nefedova, E. Y. Sheygal, M. Fuko, E. A. Terpugova, P. B. B. Parshin, O. N. Rybakova va Yu. K. Pirogova reklama bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. O'zbek tilshunosligida Ch. Abdullayeva, B. Abdullayev, D. Mamirova reklama diskursni tahlil qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish pragmalingvistikaning quyidagi asosiy muammolarini aniqlashga imkon beradi:

- nutq aktlari nazariyasi;
- implikatsiyalar nazariyasi va bilvosita nutq aktlari;
- nutqiy muloqotning kommunikativ tamoyillari va postulatlari;
- pragmatik muloqot strategiyalari;
- lingvistik shaxs tushunchasi;
- ta'sir va pragmatik aloqa samaradorligi;
- vaziyat va kommunikativ-pragmatik kontekst;
- nutq va nutq tahlili tushunchasi [5, 55].

Tahlil va natijalar. Birinchi bo'lib Guy Cook reklamani diskurs turi sifatida talqin qilgan. Buning sababi esa nutq ishtirokchilari, nutq vaziyati, paratil vositalarisiz (nutqning so'zsiz tarkibiy qismlari) hech bir muloqat shakli mavjud bo'la olmaydi. Cook reklamani "deyarli barcha zamonaviy jamiyatlarda mashhur nutq turi" deb ta'riflagan [2,27]. Reklama auditoriyani (tomoshabinlar, o'quvchilar yoki tinglovchilar) muayyan harakatlarga undash, ishtirish, manipulyatsiya qilish yoki ta'sir o'tkazish uchun amalga oshiriladigan marketing aloqasining bir turi sifatida ishlatiladi. Reklamanning asosiy vazifasi esa o'quvchini taklif qilingan tovar yoki xizmatlarni sotib olishga ko'ndirishdir.

Tilshunoslikda reklama nutqda uslubiy vositalardan juda oqilona foydalanishdir. Reklama nutqi uchun eng qat'iy talab minimal so'zlar bilan maksimal ma'lumotni taqdim etishdir. Matn reklamanning eng muhim tarkibiy qismidir. U kerakli ma'lumotlarni taqdim etish, potentsial xaridorga to'g'ri fikrni etkazish uchun mo'ljallangan va yakuniy natija matn qanchalik malakali va professional tarzda yozilganiga bog'liq [1,2].

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida reklama

tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: reklama - har qanday reklama vositalaridan foydalangan holda tarqatiladigan, mazmuni O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan reklamadan foydalanuvchilarga qaratilgan va reklama obyektiga e'tiborni jalb qilish, unga bo'lgan qiziqishni shakllantirish yoki qo'llab-quvvatlash, shuningdek uni bozorda bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida ilgari surish uchun mo'ljallangan maxsus axborot [7].

Reklama matnini o'rganishga pragmatik yondashuv matn tuzuvchining kommunikativ maqsadiga erishishda uning samaradorligi nuqtai nazaridan qabul qiluvchiga ta'sir qiluvchi ko'plab lingvistik va nolingvistik usullarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lingvistik birliklarni tanlash, ulardan foydalanish, muloqot ishtirokchilariga ta'siri o'rganiladi. Bu qoidalar kontekst sifatida keng ma'noda, nutq jarayoniga bog'liq holda o'rganiladi. Bu yo'nalishda til hodisalarini tahlil qilish ulami u yoki bu muhitda qo'llashning to'siqlari va cheklovlarini aniqlash imkonini beradi. Lingvistik tahlilning asosiy maqsadi - tilning amaliy faoliyatida uning qo'llanilishiga nisbatan tabiati yoki boshqacha qilib aytganda, vazifa doirasida identifikatsiyani amalga oshirish [3, 76].

Bir qancha tadqiqot natijalariga ko'ra, reklama shiorlarining samaradorligiga bir qancha omillar, jumladan, xabarning maqsadli auditoriyaga mosligi, qo'llanilayotgan so'zlarning ishonarli va jozibadorligi hamda ularning iste'molchilarga hissiy ta'siri ta'sir qiladi [4, 109].

Tilshunoslarning reklamaga munosabati turlicha bo'lishining sabablaridan biri bu g'oya bilan bog'liq bo'lgan ob'yektlarning semantikasi, matn o'lchami va kompozitsion konstruksiyasi jihatidan hatto janrlar bo'yicha ham juda xilma-xilligidir [6, 4].

Reklamani o'rganish qiyin, chunki u mobil va dinamik. Reklama ta'sirini amalga oshirishning yangi shakllari va usullarini izlash reklama diskursi tahliliga yondashuvlarini muntazam yangilashni talab qiladi, buning natijasida noyob janrlar, ma'lumotlarni taqdim etishning noan'anaviy usullari va boshqalar paydo bo'ladi.

Reklama sloganlarida pragmatik maqsadga erishish uchun ko'plab nutq strategiyalaridan foydalaniladi. Bulardan biri pragma-kommunikativ strategiyalardir. Pragma-kommunikativ strategiyalar - bu reklama beruvchi va tinglovchi (iste'molchi) o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy ta'sirlarni rivojlantirish yoki qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan aloqa komponentlaridir. Quyida reklama shiorlarida tez-tez qo'llaniladigan kommunikativ taktikalar keltirilgan:

Noyob sotuv taklifi: Reklama sloganlari odatda brendning asosiy farqlovchisini yoki noyob savdo nuqtasini ta'kidlaydi. Shiorlar brendni raqobatchilardan nimasi bilan ajratib turishini ta'kidlab, xaridorlarga uning qiymat taklifini samarali etkazishi mumkin. Reklama shiorlarida foydalanilganda, noyob savdo taklifi mijozlarni jalb qilish va brendning qimmatli taklifini ta'kidlashga yordam beradi. *"Melts in your mouth, not in your hand"* - M&M reklama shiori bu taktikaning eng mashhur misollaridan biridir. M&M shokoladli konfetlarining hatto issiq qo'llarda ushlanganda ham mustahkam va buzilmas bo'lib qolish qobiliyati ularning o'ziga xos sotuv taklifidir, chunki ular tezda erishi mumkin bo'lgan boshqa shokoladli konfetlardan ajralib turadi.

1. *Subway: "Eat Fresh."* - Ushbu jozibali ibora Subwayning sendvichlarida faqat eng yangi mahsulotlardan foydalanishga sodiqligini ta'kidlaydi va ularni muzlatilgan yoki qayta ishlangan oziq-ovqatlardan foydalanishi mumkin bo'lgan raqobatdosh fast-fud tarmog'laridan ajratib turadi.

2. *BMW: "Ultimate Driving Machine"*. - Ushbu shior BMW kompaniyasining avtomobil haydash borasida yaxshi

amaliyot taqdim etish majburiyatini bildiradi va kompaniyani avtomobil dizaynida ishlash va aniqlik bo'yicha yetakchi sifatida belgilaydi.

3. *Domino's Pizza: "You get fresh, hot pizza delivered to your door in 30 minutes or less or it's free."* - Tez va samarali pizza yetkazib berish taklifi bilan qulaylik va o'z vaqtida xizmat ko'rsatishni qadrlaydigan mijozlarni jalb qiladi.

4. *Bounty: "The quicker picker-upper."* - Ushbu slogan *Bounty*ni boshqa qog'oz sochiq mahsulotlaridan ajratib turadi, uning ajoyib singdiruvchanligi va tozalash qobiliyatini ta'kidlaydi.

Hikoya qilish: Hikoya - reklama shiorlarida qo'llaniladigan yana bir kuchli kommunikativ yondashuv. Brend yoki uning mahsulotlari haqida qiziqarli hikoyani ishlab chiqish orqali shiorlar iste'molchilarni o'ziga hissiy bog'lashi va doimiy taassurot qoldirishi mumkin.

1. *Tesla: "Accelerating the World's Transition to Sustainable Energy"* - bugungi ekologik inqiroz sharoitida o'zining innovatsion avtomobili bilan bunga yechim taklif qilish va ekologik ma'suliyat haqida hikoya qiladi.

2. *American Express: "Membership Has Its Privileges"* (brend bilan bog'liq eksklyuziv imtiyozlar va mukofotlarni ta'kidlaydi)

Xushomad qilish: Reklamachilar ko'pincha iste'molchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish va mahsulot yoki brend bilan ijobiy aloqani rivojlantirish uchun ushbu usuldan foydalanadilar. Reklamachilar maqsadli auditoriya bilan munosabatlarni va ishonchni mustahkamlashga harakat qilishadi, chunki bu ularning xarid borasidagi qarorlariga ta'sir qiladi. Shu sababli, iste'molchilarning umid va istaklarini qondirish uchun reklamada xushomadgo'ylikdan foydalanish mumkin.

1. *L'Oréal: "Because You're Worth It"*. - Hashamat va zavqlanish tuyg'usini kuchaytirish orqali iste'molchilardan o'z qadr-qimmatiga mos bo'lgan ushbu mahsulotdan foydalanishga undaydi.

2. *MasterCard: "There are some things money can't buy. For everything else, there's MasterCard."* Xarid qilish uchun MasterCarddan foydalanish iste'molchilarga bebaho tajribalar va pul sotib ololmaydigan tovarlarga ega bo'lish imkonini berishi mumkinligini nazarda tutgan holda, bu shior mijozlarga hayotdagi eng nozik narsalarni qadrlaydigan dono xaridorlar sifatida xushomad qiladi.

Yumor: Reklamada yumordan to'g'ri foydalanish brendni ko'proq eslab qolish va yoqimli qilish imkonini beradi. Yumor - bu mijozlarni jalb qilish va firma bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish uchun reklama shiorlarida tez-tez ishlatiladigan taktika.

1. Artel kompaniyasi o'zining yangi konditsionerlarini quyidagi shior bilan reklama qiladi: *"Issiq-sovuq qilamiz"*

2. Kofe brendi o'zining kuchli qahvasini quyidagi shior bilan targ'ib qiladi: *"Wake up and smell the coffee... or just drink it and pretend you're a morning person!"*

3. Tozalash mahsulotlari kompaniyasi o'zining dog'larni tozalash vositasini sotishda ushbu shiordan foydalanadi: *"Say goodbye to tough stains and hello to your new superhero sidekick - Stain Slayer! Because even your messiest mishaps deserve a happy ending."*

4. Fast-fud tarmog'i uchun: *"Yigitlardan oldin kartoshka - chunki baxt bir mashinada!" Fries before guys - because happiness is just a drive-thru away!"*

5. Avtomobilni sug'urtalovchi kompaniya uchun: *"Don't drive yourself crazy - let us handle the bumps in the road!"*

Mutaxassisga murojaat qilish: Iste'molchilar o'rtasida ishonchni mustahkamlash uchun reklama shiorlarida ko'pincha mutaxassisga murojaat qilish taktikasi qo'llaniladi. Kompaniyalar mashhur shaxslar, ekspertlar yoki ma'lum bir

sohadagi taniqli shaxslarni keltirish orqali maqsadli auditoriyani mahsulot yoki xizmatlari yuqori sifatli va foydali ekanligiga ishonitirishga harakat qiladilar.

Masalan, tish pastasi brendi uchun "Tish shifokorlari tomonidan tavsiya etilganidek" yoki sport anjomlari uchun "Eng yaxshi sportchilar tomonidan tasdiqlangan" kabi shiorlar iste'molchilarni mahsulot sinovdan o'tgan va soha mutaxassislari tomonidan tasdiqlanganiga ishonitirishga yordam beradi. Bu qonuniylik va ishonchlilik tuyg'usini yaratishi mumkin, bu esa iste'molchini xarid qilish ehtimolini oshiradi.

1. "10 shifokordan 9 tasi tavsiya qiladi" - yangi dori vositasini targ'ib qiluvchi farmatsevtika kompaniyasi shiori.

2. "Yetakchi moda dizaynerlari tomonidan taklif qilingan" - kiyim brendining shiori uning sifati va uslubini ta'kidlaydi.

3. *Preferred by professional athletes* - energetik ichimlik shiori uning samaradorligini oshiradigan afzalliklarini ta'kidlaydi.

4. "Go'zallik sohasidagi eng yaxshi mutaxassislari tomonidan tavsiya qilinganidek" - terini parvarish qilish mahsuloti shiori uning soha mutaxassislari orasida mashhurligini namoyish etadi.

5. *The choice of dentists everywhere - Our toothpaste guarantees a brighter smile!* - tish pastasi mahsulot shiori

6. "Vaqt bilan sinalgan sifat" - Akfa kompaniyasining yangi mahsulotlari uchun tanlangan shiori.

His-hayajonli nutq reklama shiorlari uchun juda muhim. Bu tanlangan so'zlar orqali maqsadli auditoriyada istak, hayajon, baxt, sog'inish yoki hatto daxshat kabi his-tuyg'ularni uyg'otish, ularning e'tiborini jalb qilish va harakatga undash uchun mo'ljallangan. Reklamachilar emotsional tildan foydalanib, iste'molchilarda eksklyuzivlik yoki shoshilinchlik tuyg'usini uyg'otishi mumkin, bu esa ularni o'zlarini targ'ib qilayotgan mahsulot yoki xizmat muhim ekanligiga ishonishlariga undaydi. "Cheklangan vaqtli taklifni qo'ldan boy bermang!" va "Hech qachon bo'lmagan hashamatni his eting" kabi shiorlar bunga misol bo'ladi.

1. Akfa: "Vaqt bilan sinalgan sifat" - Bu shior nostalgia va g'urur tuyg'usini uyg'otadi, chunki Akfa mahsulotlari avlodlar davomida o'zbek xonadonlarining

ishonchli mahsuloti bo'lib kelgan. Ushbu hissiy jozibadorlik brend va iste'molchilar o'rtasidagi aloqani yaratadi, brendga sodiqlikni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, his-hayajonli til mijoz va kompaniya o'rtasida chuqur hissiy aloqani rivojlantirishi mumkin. Shiorlardagi "sevgi", "oila", "uy" yoki "baxt" kabi so'zlar mijozlarga kompaniya bilan hissiy bog'liqlik doirasida munosabatda bo'lishga yordam beradigan qulay va do'stona muhitni yaratadi.

2. *Coca-Cola: "Open Happiness"* - Coca-Cola shiori odamlarni baxtli his qilishga va nekinlik, quvonch va nostalgia tuyg'ularini uyg'otib, o'z yaqinlari bilan sifatli vaqt o'tkazishga undaydi.

3. *McDonald's: "I'm Lovin' It"* - ushbu shior orqali lazzatlanish, qoniqish va zavqlanish tuyg'ularini uyg'otib, o'zlarining taom borasidagi tanlovlarida qulaylik va qadrdonlikni qidiradigan mijozlar bilan bog'lanadi.

4. *Disneyland: "The Happiest Place on Earth"* - Disneylendning ushbu slogani bolalar uchun sehirli va quvonchli tajriba va'da qilib, hayrat va zavq izlashga jalb qilish uchun emotsional tildan foydalanadi.

5. *Airbnb: "Belong Anywhere"* - inklyuzivlik, aloqadorlik va tegishlilik haqidagi xabar orqali sayyohlarni yangi joylarni kashf etishga va unutilmas tajribalarga ega bo'lishga undaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pragma-kommunikativ strategiyalar reklama diskursi xususiyati sifatida mijozlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi.

Reklama shiorlaridagi xushomadgo'ylik, ishonitirish va emotsional nutq kabi strategiyalardan to'g'ri foydalanish reklama beruvchilarga maqsadli auditoriya bilan samarali bog'lanish, brendga sodiqlikni o'rnatish va savdoni oshirish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, pragma-kommunikativ taktikadan oqilona foydalangan holda, reklama beruvchilar mijozlarni jalb qiladigan va raqobat muhitida muvaffaqiyat qozonadigan jozibali xabarlarni yaratishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari marketing sohasida va tegishli tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdumutaljonovna, P. S. (2022). Main Characteristics of Advertising Discourse in Modern Linguistics. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*. 2022
2. Cook, G. *The Discourse of Advertising*. London and New York. 2001
3. Safarov, Sh. *Pragmalingvistika*. 2008
4. Sherqulova M. X, Abduvahobova M. A Importance of pragmatics and semantics while creating advertising slogans. *European journal of economics, finance and business development*, Volume 1, issue 1, April, 2023
5. Ашурова Д.У. Прагматическое направление в стилистике//O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — В. 54-73.
6. Вежбицкая А. Речевые акты. Новое в зарубежной лингвистике. — М., 1985
7. <https://lex.uz/docs/-6052631>



Dilnoza EGAMBERDIYEVA,

National Institute of Fine Arts and design named after Kamoliddin Behkzod The teacher of English language

E-mail: husanovadilya24@gmail.com

Alfraganus universiteti dotsenti, f.f.n N.Jurayeva taqrizi asosida.

THE PROCESS OF CREATIVITY IS COMPLETELY DIFFERENT IN DIFFERENT DOMAINS

Annotation

In this article, we will have a discussion about creativity, and its importance in our life. When we learn about creativity, we see that it has several processes. Also, we will have a knowledge about different processes in different domains. There are several stages of creative process and this article explores how these stages work during the creative process. The most interesting thing is that those stages are the same however, the creators do different actions in these stages in different aspects.

Key words: Creativity, Creative process, innovative solutions, stages of the creative process: Preparation, Incubation, Illumination, Evaluation, Implementation.

ПРОЦЕСС ТВОРЧЕСТВА В РАЗНЫХ ОБЛАСТЯХ СОВЕРШЕННО РАЗЛИЧЕН

Аннотация

В этой статье мы поговорим о творчестве и его значении в нашей жизни. Когда мы узнаем о творчестве, мы видим, что оно состоит из нескольких процессов. Кроме того, у нас будут знания о различных процессах в разных областях. Существует несколько этапов творческого процесса, и в этой статье рассматривается, как эти этапы работают в творческом процессе. Самое интересное, что эти этапы одинаковы, однако создатели в разных аспектах делают на этих этапах разные действия.

Ключевые слова: Креативность, Творческий процесс, инновационные решения, этапы творческого процесса: Подготовка, Инкубация, Озарение, Оценка, Реализация.

TURLI SOHALARDA IJODKORLIK JARAYONINI BUTUNLAY FARQLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz ijodkorlik va uning hayotimizdagi ahamiyati haqida suhbatlashamiz. Ijodkorlik bilan tanishganimizda, uning bir nechta jarayonlari borligini ko'ramiz. Shuningdek, biz turli sohalardagi turli jarayonlar haqida bilimga ega bo'lamiz. Ijodiy jarayonning bir nechta bosqichlari mavjud va ushbu maqola ijodiy jarayon davomida ushbu bosqichlar qanday ishlashini o'rganadi. Eng qizig'i shundaki, bu bosqichlar bir xil bo'lsa-da, ijodkorlar bu bosqichlarda turli jihatlarida turli harakatlar qiladilar.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, Ijodiy jarayon, innovatsion yechimlar, ijodiy jarayonning bosqichlari: Tayyorlash, Inkubatsiya, Yoritish, Baholash, Amalga oshirish.

Introduction. There are many different fields in our life. Developing and making more beautiful these aspects is on our hands. In this case, creativity comes to help us. Creativity is a fascinating topic, and it has different processes in these different fields. I will share my thoughts about the difference between them.

Before writing about creativity, we should define "What is it?" Creativity defies precise definition. Due to this complexity, creativity has been approached differently either as achievement, as ability or disposition or attitude." (Baron Harrington ,1981, p.441). As shown the ideas of scientists, creativity is a broad concept; however, I would like to define it with my own words: Creativity is an ability that brings new ideas into existence and finds innovative solutions or possible alternatives which would be useful to the problems. It helps us to perceive the world in new ways.

Review of literature. Psychology professor Ruth Richard says: "Engaging in creative behaviors, makes us more dynamic, conscious non-defensive, observant, collaborative and brave. Creativity provides opportunities for self-actualization. It makes you more resilient, more vividly in the moment, and at the same time, more connected to the world. "Creativity helps us to live in a new world and get some pleasure from it. Also, it helps a person to develop in all aspects, and during this time a person's worldview expands even more. Because he reads and searches more during the

process to create a new thing and to find proper solution for the problem.

What is a creative process? Before discussing the difference creative process in different domains, we should know what creative process is. The creative process is the flow of thoughts, and the final stages of those ideas are defined by actions. Individuals who have light on their innovative capability and changed their thoughts into reality are always in this process. This process would occur when a person works on some original and useful things. Problem solving and critical thinking abilities are required in this process in order to transform ideas into reality. Creative processes help you to be more vulnerable and to boost your self-esteem. For instance, if your product that you have created is less successful, you further develop your ideas, and this creative process helps you. When people innovate something new, they will get confidence because they trust themselves, their intuition and follow it. This assurance can help to make a decision easier in different aspects of life. We can call this process an artistic process so, when people act producing some original ideas and make real these ideas come true, it can give them pleasurable sense and happiness. These emotions can lower all stresses and help to improve quality of life. Moreover, creative process would be a direction to take risks and allows you freedom. Because when you try to innovate

new things, you may overcome your shyness and the ability to communicate with others and with the world would improve.

As Azizova's article Think-aloud modeling is a thinking process in which speech is used to solve a specific problem. Increase creative thinking. For example, a teacher may verbalize their strategies for finding the main idea. In contrast, vocal modeling is the verbal expression of thoughts and solutions to problems while fully completing the task. For example, a teacher may verbally describe his strategy and show a written solution to a word problem. Finally, modeling by execution ended with simply showing the task. For example, the teacher can model constant silence, reading a book and moving his lips, smiling funny, part of the story, he running his finger along the lines of the text as he reads. It does not involve any verbal explanation. (Hogan and Pressley, 1997, p. 20). 2. Imitation. At this stage, students imitate the example modeled by the teacher. Students first carefully observe the example shown by the teacher, and then complete the task independently. The teacher observes, monitors and evaluates the students during the independent completion of the task. At this stage, the teacher checks the students' understanding of the topic and asks them questions. 3. Removal of "scaffolding". The third stage is when the teacher begins to gradually remove the "scaffolding". In this, the teacher reduces the help given to the students and directs them in the right direction, focusing on making mistakes without the help of the teacher. 4. Achieving "success". At this final stage, students reach the expert level. They can perform a new task without the support of the teacher and without any help. Supporting Vygotsky's idea, Stone (1998) states that the "scaffolding" strategy is used in group work on topics, tasks, and assignments that are difficult for students and involve them in the learning process. This is an effective method. In the scaffolding strategy, the teacher acts as a "guide", that is, first teaches students new skills, and then constantly evaluates their understanding by giving them comments and questions. At the next stages, students can complete tasks independently without the help of the teacher, and at the last stage, they take full responsibility and begin to complete the task independently. As we know to be independent also means to be creative. So, we can easily say that the scaffolding method is effective for art students and in art fields.

Also, learning a foreign language using Scaffolding is an effective method. Alshumaimeri (2012) states that it is a specific type of support that helps students develop new skills, concepts or levels of understanding. Thus, scaffolding is a temporary aid in the learning process through which a teacher helps a student learn to do something so that the student can later perform the same task independently. It is a future-oriented and effective way to increase student independence.

Saumell (2012) explained a simple step-by-step methodological framework for using scaffolding techniques in language teaching. As one of the steps, he mentioned learning and analyzing the language using the questions asked. This can be done by filling in the gaps in questions, sentences or rules, or by using appropriate examples and rules. Students' cognitive potential is used in their group work, analysis, hypothesis, comparison and learning.

The stages of the creative process.

1. Preparation: This stage may be internal or external. In the internal stage the creator thinks deeply and gets some inspiration to generate ideas. It involves also brainstorming. In the external one, he gathers data, searches for some resources.

2. Incubation: In this step, individuals can move away from their thoughts and focus on other ideas. This step may

seem counterintuitive, but it helps the ideas develop unconsciously.

3. Illumination: This is the realization stage. In this level, one can make new connections with own ideas. All data collection comes together into a solution. Realization can in any unrelated time. You may be at a party, or you are walking in the street.

4. Evaluation: The next step may allow us to assess the validity of the ideas and compare one with another. A person who is a creator can revert to the preparation stage or continue with the created ideas.

5. Implementation: At this last stage, a person comes to the end of his design and shares it with the world. "If the individuals can be creative in many domains, such as in sports, are not necessarily innovative in other domains." Kaufman, Glaveanu, & Bayer. (2017). Yes, of course, because those people have ability in these fields, and they are not able to create other things in another domain. The stages of creative process may be the same but the actions which creators do in these processes are different. That is why, person who is creating something new cannot manage to do another action." This evidence suggests that levels of creative performance on tasks in one domain are essentially unrelated to levels of creative performance on tasks in other domains." J. Bayer. Domains of creativity. (2011). This means that one person has a high level of creativity in one domain, and he has a very low level of creativity in another domain because he should do different tasks in different processes. If we take an example of some domains, we can notice the difference between them. Linguists should have the ability to understand sounds, and meaning of words and they do these actions during the creative process. A musician has the ability to understand pitch, timbre and musical expressiveness. In the creative process, he does several actions. Graphic artist craft visuals that capture the viewer's eye. They design images and rendering using a variety of media.

Now, we will see the given examples in creative process stages. " Domain-generality and domain-specificity have long been debate fodder for the creativity field. As the two positions have begun to converge, the need emerges for a new reference work that both explores the general topic and offers in-depth coverage of creativity for particular domains." James C. Kaufman, Vlad P. Glaveanu and John Bayer. Creativity across different domains. (2017). Imagine a scientist with inventive discoveries about the human body, a businessman with inventive firm management techniques, or a novelist with inventive ideas for books. Which are they more like or unlike? What unique characteristics set them apart? An important topic that remains unanswered in creativity research is whether creativity is a generic ability or if it is domain specific.

Conclusion. In the preparation stage the musician thinks about some music notes and aligns them. Graphic artist has thoughts about new graphics, lines. In the second stage- incubation, musicians think about other notes and music, but graphic artists come across other drawings. The next stage is illumination. The musicians have some ideas for new music, graphic artist finds eventually a new graphic. In the fourth stage, Musician can compare one music with another. The graphic artist put into comparison his new drawings. In the last stage, the musician shares his new product, new music with others, and the graphic artist shows his new sketch to the world.

We analyzed two creative processes and compared them, and we saw the difference between them.

REFERENCES

1. J. Bayer. (2011). Domains of creativity.

2. Vlad Petre Glaveanu & Todd Lubart. (2014). Decentering the creative self: How others make creativity possible in creative professional fields.
3. Vlad Petre Glaveanu. (2010). Creativity as a cultural participation.
4. <https://uk.indeed.com/career-advice/career-development/creative-process>
5. <https://www.creativelive.com/blog/25-creative-jobs-career-paths-for-creative-people/>
6. <https://www.monster.ca/career-advice/article/different-types-of-creative-careers>
7. https://www.creativitypost.com/article/domain_specificity_of_creativity_theory_research_and_practice
8. James C.Kaufman ,Vlad P. Gaveanu and John Bayer. Creativity across different domains. (2017).
9. John Bayaer. Creativity across domains. (2005).
10. G.Sh.Azizova. Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 10, p.2385-2392 “The Importance Of Scaffolding Method In Improving Esp Students` Communicative Competence”
11. <http://journalppw.com>



UDK:420=943.75:413(045)

Zohidjon ELCHAYEV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:zohidjonelchayev1975@gmail.com

Fiologiya fanlari doktori, prof. B. Mengliyev taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI XULQ-ATVOR FE'LLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotation

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida xulq-atvor fe'llarining grammatik xususiyatlari o'rganiladi. Inson xatti-harakati bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar lingvistik ifodada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qiyosiy tahlil orqali ushbu tadqiqot har ikki tildagi fe'llarning sintaktik va semantik xususiyatlarini o'rganadi, ularning morfologik tuzilishi, argument tuzilmalari va birikma qoliplarini o'rganadi. Ingliz tili va o'zbek tilidagi xatti-harakatlar fe'llari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarga oydinlik kiritib, ushbu tadqiqot og'zaki semantika va sintaksisdagi tillararo o'zgaruvchanlikni tushunishimizga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, xulq-atvor fe'llari, grammatik xususiyatlar, morfologiya, sintaksis, semantika, so'z turkumlari, so'z birikmalari, qiyosiy tahlil, ingliz va o'zbek tillari.

ГРАММАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье исследуются грамматические особенности поведенческих глаголов английского и узбекского языков. Поведенческие глаголы, описывающие действия, связанные с поведением человека, играют решающую роль в языковом выражении. Посредством сравнительного анализа в этом исследовании изучаются синтаксические и семантические свойства поведенческих глаголов в обоих языках, изучаются их морфологические структуры, структуры аргументов и коллокационные модели. Пролывая свет на сходства и различия между английскими и узбекскими поведенческими глаголами, это исследование способствует нашему пониманию межъязыковых различий в глагольной семантике и синтаксисе.

Ключевые слова: лингвистика, поведенческие глаголы, синтаксис, семантика, морфология, части речи, словосочетания, сопоставительный анализ, английский и узбекский языки.

GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF BEHAVIORAL VERBS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article explores the grammatical features of behavioral verbs in English and Uzbek languages. Behavioral verbs, which describe actions related to human behavior, play a crucial role in linguistic expression. Through a comparative analysis, this study investigates the syntactic and semantic properties of behavioral verbs in both languages, examining their morphological structures, argument structures, and collocational patterns. By shedding light on the similarities and differences between English and Uzbek behavioral verbs, this research contributes to our understanding of cross-linguistic variation in verbal semantics and syntax.

Keywords: Behavioral verbs, grammatical features, English language, Uzbek language, syntax, semantics, comparative analysis, morphology, collocational patterns.

Kirish. Grammatik nuqta nazardan so'z grammatik shakl va mohiyat uyg'unligi demakdir. Asosiy grammatik xususiyatlar esa leksemdagi shakl va so'z yasalishi, kategorial ko'rsatkichlar va sintaktik xususiyatlar uyg'unligidan tashkil topadi.

Ma'lumki, mustaqil tillarning aksariyatida fe'l turkumiga oid so'zlar o'z qatlamga oid yirik etimologik plastni shakllantiradi. Albatta, fe'l turkumi doirasida o'zlashma so'zlar butunlay yo'q deyish no'rin. Biroq bu turkum doirasida ko'p sonli o'z qatlam so'zlari joylashishi

white – whiten

rough – roughen

soft – soften

weak – weaken

awake – awaken

hast – hasten

mad – madden

muqarrar. Ingliz tilida ham fe'llar sirasida sof o'z qatlam birliklari ko'p uchraydi. Derivativ jihatdan fe'llarning salmoqli ulushi boshqa turkumlardan suffikslar vositasida shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Quyidagi suffikslar fe'l yasovchi elementlar deb ajratiladi:

-en suffiksi ot va sifat turkumidan fe'l hosil qiladi. Bu suffiks fe'lning asosidagi lug'aviy ma'noga "bo'lib qolmoq", "qilmoq", "aylanmoq" va "aylantirmoq" semasini yuklaydi.

worse – worsen

strong – strengthen

stiff – stiffen

red – redden

heart – hearten

quick – quicken

quiet – quieten

O'zbek tilida bu sifat, otlardan yasalgan fe'llarining suffikslari bir-biridan farqlanadi. Oqarmoq, qo'pollashmoq,

yumshamoq, tezlashmoq, telbalanmoq, yomonlashmoq, bujmaymoq, qizarmoq, ruhlanmoq, sokinlashmoq kabi fe'llar

asosga -a, -ala, -ar suffikslarini qo'shish yordamida hosil bo'ladi. Demak, bu suffiksning o'zbekcha muqobillari bir nechta.

simple – simplify
clear – clarify
pure – purify
dignity – dignify
justice – justify
stupid – stupefy
test – testify

Yuqoridagi sifat va otlardan yasalgan fe'llar o'zbek tilidagi osonlashtirmoq, oydinlashtirmoq, tozalamoq, ulug'lashtirmoq, oqlamoq, ahmoq qilmoq, guvoh bo'lmoq, tinchlantirmoq, qo'rqitmoq, birlashtirmoq, tortishmoq, qo'pollashtirmoq, sohtalashtirmoq, minnatdorchiлик bildirmoq leksemalarga ekvivalent hisoblanadi. Anglashilganidek, inglizcha -fy suffiksi o'zbek tilida -ala, -la, a, ortirma nisbat suffiksi -tir va birikma shakliga ega bo'la oladi. Buning yaqqol bir qonuniyatini shakllantirish mushkul masala. Umumiy qilib sifatdan yasalgan fe'llarning -fy suffiksi -ala, -

priority – prioritize
philosophy – philosophize
moral – moralize
economy – economize
apology – apologize
critic – criticize
character – characterize

Bu suffiks vositasida yasalgan so'zlarni hajman ekvivalent shaklda o'zbek tilida topish mushkul masala. Masalan, birinchi leksema o'zbekchada ishni muhimlik darajasiga ko'ra *tartiblamoq* ma'nosiga to'g'ri keladi. Asli otning o'zi ham shunday yirik mazmuniy qolipga egaligi bois fe'ning tarjimai murakkablashadi. Aksincha, falsafa otidan yasalgan fe'l *falsafiyashtirmoq* leksemasiga to'g'ri keladi. Moralize *axloqiyashtirmoq*, economize *tejamomq* leksemasiga teng. O'zbekcha *axloqiylashtirmoq* derivatsionligi, *tejamomq* esa tub fe'lligi bilan farqlanadi. *Tanqid qilmoq*, *kechirim so'ramoq*, *vayron qilmoq* birikma shaklidagi xulq-atvor fe'llari, *xarakterlamoq*, *uyg'unlashtirmoq*, *qo'pollashtirmoq*, *tashkillashtirmoq*, *ideallashtirmoq* fe'llari esa -ize derivatsion suffiks va ortirma nisbat birikuviga teng bo'la olishini isbotlaydi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek tillaridagi nisbat kategoriyasi assimetriyasini ta'kidlab o'tish joiz. Ingliz tilida aniq va majhul nisbat sintaktik xarakterlanadi. Ko'pincha fe'ning ortirma nisbati ingliz tilida mavjud emas degan qarash ilgari suriladi va darhaqiqat bu nisbat barcha fe'llarga birdek qo'shilishi mumkin bo'lgan konstruktsiya sifatida mavjud emas. Biroq alohida olingan fe'llarda aynan shu -fy yoki -ize qo'shimchalari ortirma nisbat grammatik semasini hosil qila oladi. Ortirma nisbat grammatik ma'nosi bu siffiksiga ega barcha inglizcha leksemalarda aniqlanmaganligi bois uni suffiksning muntazam semik tarkibiga kirita olmaymiz.

-ate suffiksi ikki yoqlama xarakterlanadi. Uning birinchi funksiyasi tub fe'ning tarkibida bo'lish yoki otdan fe'l yasashga xizmat qila oladi.

Masalan: fascinate – fascination, regular – regulate, alien – alienate, appreciate – appreciation.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu suffikslardan yasalgan fe'llar va shu suffiks bilan yakullangan sof fe'llar ham o'zbek tiliga hayratlantirmoq, boshqarmoq, begonalashtirmoq kabi leksemalar tarkibidagi ortirma nisbat, -la, -ala, -la

-fy suffiksi sifat, ot, ba'zan fe'ldan fe'l yasashga xizmat qiladi. Bunda suffiks so'zning umumiy ma'nosiga -ala, -la grammatik semasini qo'shadi. Masalan:

peace – pacify
horror – horrify
unit – unify
argue – argue
brutal – brutify
false – falsify
grateful – gratify

la, -a va ortirma nisbat shakliga teng bo'ladi, otdan fe'l yasalganda bu faqat -ala, -la, -a suffikslarining o'ziga teng keladi deya olamiz. Ba'zi o'rinlarda otning -fy suffiksi yordamidagi o'zgarishi o'zbek tilida birikma shaklidagi xulq-atvor fe'lga ekvivalent bo'ladi.

-ize suffiksi esa ot turkumiga mansub so'zlardan fe'l yasashda qo'llanadi. Quyidagi leksemalar insonning munosabati, o'zini tutishiga oid xulq-atvor fe'llariga misol bo'ladi.

terror – terrorize
drama – dramatize
harmony – harmonize
vandal – vandalize
brutal – brutalize
organization – organize
ideal – idealize

qo'shimchalariga teng bo'ladi. Anglashilganidek, ingliz tilidagi xulq-atvor fe'llari sifat va ot turkumidan qator suffikslar vositasida yasaladi. O'zbek tilidagi xulq-atvor fe'llari derivatsiyasi quyidagicha:

Murakkab – murakkablashtirmoq, mukammal – mukammallashtirmoq, oson – osonlashtirmoq, yengil – yengillashtirmoq, asab/asabiy – asabiylashtirmoq.

Yuqoridagi leksemalar insonning holat, narsa buyum, shaxsga nisbatan ta'sirini ifodalaydi, bu sema ortirma nisbat va so'z yasovchi suffiks vositasida ifodalangan. Bu ta'sirning ijobiy yoki salbiyligiga qarab xulq-atvor bo'yoqdorligini belgilaymiz. Bo'yoqdorlik o'z navbatida ayni leksemaning boshqa so'z bilan birikuv natijasida ya'nada yaqqollashadi. Masalan, *vaziyatni murakkablashtirmoq*, *munosabatlarni murakkablashtirmoq* birikmalaridan biror narsaga salbiy ta'sir o'tkazish, salbiy xulq-atvor anglashiladi. *Ishni mukammallashtirmoq*, *jarayonni mukammallashtirmoq* esa ijobiy ta'sir, yaxshilanish, rivojlanish sari xatti-harakat ekanligini ko'rsatadi. Yengillashtirmoq lug'aviy ma'nosidan yaqqol ijobiy sema, insonning og'irini *yengillashtirmoq*, mushkulini yengillashtirmoq ijobiy xulq-atvori anglashiladi, aksincha, *asabiylashtirmoq* esa hech qanday illyustrativ dalillarsiz ham salbiy semani aniq ko'rsatib turibdi. Bu so'zlarning barchasida suffiks so'z yasab unga ta'sir semasini yuklash bilan shug'ullanadi. Jumladan:

Og'ir – og'irlashtirmoq, do'st – do'stlashmoq, yovuz – yovuzlashmoq, dushman – dushmanlashmoq, hazil – hazillashtirmoq, yovvoyi – yovvoyilashtirmoq.

Yuqoridagi so'zlar esa ortirma nisbat suffiksiga ega emas, shunday ekan, ularda ta'sir xulq-atvori ma'nosi yo'q. Bu so'zlardagi suffiks esa ot, sifatdan fe'l yasash bilan birga unga vaziyatning o'zgariganligi, almashganligi semasini ham yuklaydi.

Derivatsiyadan tashqari mustaqil so'z turkumlari qator grammatik kategoriyalar bilan xarakterlanadi. Shu

kategoriyalardan biri o'timlilik va o'timsizlik xususiyatidir. bo'ladi. Masalan:
Xulq-atvor fe'llarining yirik ulushi har ikki tilda ham o'timsiz

<i>To cry – yig'lamoq</i>	<i>The girl cried over her problems. Qiz muammolar sabab yig'lab oldi.</i>
<i>To shout – baqirmoq</i>	<i>My brother shouted at his best friend. Aka eng yaqin do'stiga baqirdi.</i>
<i>To laugh – kulmoq</i>	<i>I laughed during entire show, it was hilarious. Tomosha davomida tinmay kuldim, juda qiziq ekan.</i>
<i>To soften – yumshamoq</i>	<i>Your voice softened when speaking the children. Bolalarga gapirganingda ovozing yumshadi.</i>

Tahlil va natijalar. Orttirma nisbat shakli va suffiks yordamida yasalgan fe'llar, shuningdek, tub fe'llar orasida ham o'timli xulq-atvor fe'llari ko'p uchraydi. Bu borada ingliz va o'zbek tilida parallelar uchraydi.

<i>To simplify – osonlashtirmoq</i>	<i>We must try to simplify our communication. Muloqotimizni osonlashtirishga harakat qilishimiz kerak.</i>
<i>To characterize – xarakterlamoq</i>	<i>Stubborn behavior characterizes teenagers. Qaysar fe'l-atvor o'smirlarni xarakterlaydi (ajratib turadi).</i>
<i>To push – turtmoq</i>	<i>When playing football I unintentionally pushed my friend. Futbol o'ynayotganimda do'stimni bilmadan turtib yubordim.</i>
<i>Pacify – tinchlantirmoq</i>	<i>Classical music pacifies the nervous system better than pop songs. Mumtoz musiqa asab tizimini pop musiqadan yaxshiroq tinchlantiradi.</i>

Anglashilganidek, ingliz tilida *-fy*, *-ize* suffikslariga ega xulq-atvor fe'llarining o'zbek tilida orttirma nisbatga ekvivalent emasi o'timlilikdan dalolat beradi.

Fe'lni ajratib turuvchi yana bir kategorial belgisi shaxs-sondir. Ingliz tilida shaxs-son tuslanishi yaqin emas, unga ishora faqat davomiy zamondagi *- to be* yoki hozirgi noaniq zamon va qisman hozirgi tugallangan zamon negizida mavjud. O'tgan oddiy, uzoq o'tgan, kelasi zamon shakllarida

esa shaxs-son kategoriyasi umuman yo'q. O'zbek tilida esa fe'l shaxs-soni barcha zamonlarda yaqqol kuzatiladi.

Xususan, zamon har ikki tilda ham turli ma'nodagi fe'llarning eng salmoqli kategoriyasidir. Ingliz tilida hissiyot va aqliy faoliyat kabi muayyan ma'no turdagi fe'llar davomiy zamonda tuslanmaydi. Biroq xulq-atvor fe'llarida bunday cheklov yo'q ular uch asosiy zamon, o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarning barcha tarz shakllari tugallangan, davomiy, tugallangan davomiy subkategoriyalarida tuslanadi:

Past simple (indefinite)	Present simple (indefinite)	Future simple (indefinite)
<i>I apologized for being impolite.</i>	<i>I apologize for being impolite.</i>	<i>I will apologize for being impolite.</i>
Past continuous (progressive)	Present continuous (progressive)	Future continuous (progressive)
<i>Teacher's voice was softening while retelling a story.</i>	<i>Teacher's voice is softening while retelling a story.</i>	<i>Teacher's voice will be softening while retelling a story.</i>
Past perfect (participle)	Present perfect (participle)	Future perfect (participle)
<i>A student had murmured his answer.</i>	<i>A student has murmured his answer.</i>	<i>A student will have murmured his answer.</i>
Past perfect continuous	Present perfect continuous	
<i>The story had been fascinating entire class.</i>	<i>The story has been fascinating entire class.</i>	

Ko'p hollarda ingliz tili ta'limi metodikasida bir yanglish xulosaga ko'zimiz tushadi. U ham bo'lsa ingliz tilida zamon shakllari yuqorida sanab o'tilganidek, boshqa tillarda bunday polemika kuzatilmagani haqidagi xulosa. Biroq, vaqt, voqelik va nutq munosabati inson ongida bir xil shablonlar hosil qiladi. Shunday ekan, turli tillarda zamonning asosiy

shakllari ham, tarz formalari ham mohiyatan parallel turadi. Biroq turli tizimli tillarda aynan shu sistem tafovut sababli shakliyl farqlar aniqlanishi mumkin. Xususan, o'zbek tilida xulq-atvor fe'llari barcha fe'llar qatori quyidagi zamon tuslanishi xarakteristikasiga ega.

O'tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon
<i>Qizning ovozi birdan muloyimlashdi.</i>	<i>Qizning ovozi birdan muloyimlashadi.</i>	<i>Qizning ovozi birdan muloyimlashadi.</i>
O'tgan davomiy zamon	Hozirgi davomiy zamon	Kelasi davomiy zamon
<i>Mehmon kelishidan oldin bolalarni tinchlantirayotgandim.</i>	<i>Mehmon kelishidan oldin bolalarni tinchlantirayapman.</i>	<i>Mehmon kelishidan oldin bolalarni tinchlantirayotgan bo'laman.</i>
Uzoq o'tgan zamon	Hozirgi tugallangan zamon	Kelasi tugallangan zamon
<i>Uni chin qalbindan kechirgandim.</i>	<i>Uni chin qalbindan kechirib bo'ldim.</i>	<i>Uni chin qalbindan kechirgan bo'laman.</i>
Uzoq o'tgan davomiy zamon	Hozirgi tugallangan davomiy zamon	
<i>Birov minnatdor bo'lsin deb tinmay zahmat chekardim.</i>	<i>Birov minnatdor bo'lsin deb tinmay zahmat chekib keldim.</i>	

Yuqoridagi xulosaning isboti o'laroq mohiyatan, mazmunan ingliz va o'zbek tillaridagi zamon kategoriyasi umumiy jihatlarga ega. Biroq ifoda shakllari va vositalari o'zaro farqlanadi. Xususan, hozirgi va kelasi zamon shakllari omonim, ularning farqini faqat vaqt indikatorlari va kontekst orqali anglash mumkin. Davomiy zamon shakllari suffiks vositasida ifodalanadi va faqat kelasi davomiy zamon shaklida

bo'lmoq ko'makchisidan foydalaniladi. Uzoq o'tgan zamon past perfect zamoniga teng, birida suffiks, ikkinchisida sifatdosh shakli va yordamchi fe'l qo'llangan. Kelasi va hozirgi tugallangan zamonda asosiy fe'lga *bo'lmoq* ko'makchisi qo'shilishi kerak. Davomiy tugallangan va hozirgi tugallangan davomiy shakllarda ravishdosh shakli zamonga aniq ishora qilmogda.

Xulosa va Takliflar. Morfologik sathda xulq-atvor fe'llari affiksial o'zgarishlar bilan harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh shakllariga o'zgaradi va natijada sintaktik sathning ko'plab funksiyalarini o'z bo'yniga oladi. Xulq-atvor fe'llari gapda bevosita kesim, yoki muayyan morfologik transformatsiyalar bilan ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifalarini bajaradi. Bunday polifunksionallik barcha fe'llarga xos va fe'lning til tizimidagi zalvorli o'rni belgilab beradi. Masalan: *Bolalar yig'lashini sirayam istamayman. – I don't want children to cry.* Bu jumlada harakat nomi shaklidagi xulq-atvor fe'li, ingliz tilida *infinitive* fe'l gapda

to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda. *Kulish insonni yoshartiradi. – Laughing makes a person younger.* Bu o'rinda fe'l harakat nomi shaklida, ingliz tilida gerund ko'rinishida gapdagi ega vazifasini o'tamoqda. Participle/sifatdosh shakli esa gapda aniqlovchini hosil qiladi. Masalan: *Pacified players congratulated the rival team with victory. – Tinchlangan o'yinchilar raqib jamoani g'alaba bilan tabriklaydi.* Bu misollar esa ingliz va o'zbek tillaridagi xulq atvor fe'llari aynan bir xil sintaktik vazifalar, voqelanish imkoniyatlari ko'lamiga ega ekanligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Авилова Н. Вид глагола и семантика глагольного слова. М., 1976. – С.40-42
2. Сильницкий Г. Соотношение глагольных признаков различных уровней в английском языке / Минск., 1990.
3. Харитончик, З. О многозначности суффиксального производного слова (на материале прилагательных современного английского языка)/Романское и германское языкознание. – Минск: МГЛУ, 1976. – Вып. 6. – С. 62 – 71.
4. Касевич В. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М.: Наука, ГРВЛ, 1988. – 311 с.
5. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990;
6. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1992.
7. Elchayev Z. Xulq-atvor fe'llarining so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni. Tamaddun nuri, Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal, 53-62 betlar, 2023-yil.



Qahramon ESHBOYEV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail:eshboyev202020@gmail.com

Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d L.Raupova taqrizi ostida

THE NEED TO APPLY THE PRINCIPLE OF LEVELING TO LEXICOGRAPHY

Annotation

This article describes the interpretation of issues such as synonymy and graduonymy, which are types of lexical-semantic relations, the state of study of graduonymy in Uzbek linguistics, and the need for implementation.

Key words: linguistics, lexicography, graduonymy, gradation, grading, synonymy, antonymy, denotation, dominant.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА УРОВНЯ В ЛЕКСИКОГРАФИИ

Аннотация

В данной статье описывается трактовка таких вопросов, как синонимия и градуонимия, которые являются видами лексико-семантических отношений, состояние изученности градуонимии в узбекском языкознании и необходимость ее внедрения.

Ключевые слова: лингвистика, лексикография, градуонимия, градация, грейдинг, синонимия, антонимия, денотат, доминанта.

LEKSIKOGRAFIYAGA DARAJALANISH TAMOYILINI TATBIQ ETISH ZARURATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada leksik-semantik munosabatlarning turlariga kiruvchi sinonimiya va graduonimiyaning bir-biridan farqli tomonlari, graduonimiyaning o'zbek tilshunosligida o'rganilish holati, tatbiq qilish zarurati kabi masalalar talqini yoritilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, leksikografiya, graduonimiya, gradatsiya, darajalanish, sinonimiya, antonimiya, denotat, dominant.

Kirish. So'nggi davrlarda so'zlararo ma'noviy munosabatlar doirasi kengayib, ma'nodoshlik (sinonimiya) va zid ma'nolilik (antonimiya) hodisalarini o'rganish bilan cheklanib qolmay, ma'noviy darajalanish (graduonimiya) kabi ma'noviy munosabat ham lisoniy-lug'aviy tizimda mavjudligi tan olina boshlandi. Bu holat esa sinonimiya va graduonimiya munosabatlariga ham oydinlik kiritishni taqozo qildi. "O'zbek tilining sinonimlar lug'atida ma'nosi darajalanuvchi so'zlar ko'p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma'nosi darajalab ko'rsatuvchi so'zlar ko'p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Graduonimiya va sinonimiya hodisalarining o'zaro munosabati xususida O.Bazarov tilshunos I.G.Pavlovning fikrini quvvatlab, quyidagicha yozadi: "Graduonimiya va sinonimiya hodisalari asos belgilariga ko'ra keskin farqlanadi. Zero, sinonimiya ikki va undan ortiq leksema va frazemalar sememalarining aynanligiga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalardagi gradatsiyali farqlanuvchiga tayanadi. Bundan sinonimlarda asosiy ma'nolarning tengligi, graduonimiyada esa, teng emasligi ma'lum bo'ladi"[2].

Aynan hozirgi tilshunoslik, ko'proq farqliliklarga katta e'tibor qaratadi. Biroq farqliliklarni shakllantiruvchi ozayib yoki ko'payib boruvchi aynanliklar e'tibordan chetda bo'ldi. *Go'dak – bola – o'spirin – yigit* so'zlari qatorini asosan "yosh" semasi birlashtiradi. Lekin ushbu birlashtiruvchi "yosh" semasi ushbu qatordagi har bir so'z uchun turli daraja ifodasidir. Demak, mazkur qatorni umumiy "yosh" ma'no jihatidan birlashtiradi va "yosh"ning darajalanuvchi tizimdagi ma'no qirralari (1 yosh (go'dak) – 7 yosh (bola) – 15 yosh (o'spirin) – 20 yosh (yigit)) ularni farqlaydi. So'nggi yillarda

bu kabi leksik qatorlar (munosabatlar) graduonimik (darajali) qatorlar (munosabatlar) sifatida qabul qilinmoqda[3].

Alisher Navoiyning "Xazoyin-ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi") asarida shaxs yoshining bosqichlari bilan bog'liq tasnifga doir mantiqiy fikrlarni uchratamiz. Navoiy inson umrini turli bosqichlarga ajratadi, nomlaydi va har bir umr faslini ifodalovchi birliklarni devoniga nom sifatida qabul qiladi. "Asarda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini "G'aroyibu-s-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari") deb nomladi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va "Navodiru-sh-shabob" ("Yigitlik nodirliklari") deb atadi. 35-45 yoshni umrning kuziga qiyos etdi va "Badoye'u-l-vasat" ("O'rta yosh go'zalliklari") deb nomladi. 45-60 yoshni umrning qishiga o'xshatib, "Favoyidu-l-kibar" ("Keksalik foydalari") deb atadi"[3]. Ko'rinadiki, yuqorida (O'TIL) da berilgan yosh semasiga aloqador graduonimik qator bilan A.Navoiy asaridagi yosh xususiyatiga tegishli fikrlar mantiqan bir-birini to'ldiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslik tadqiqotlarida ma'noviy darajalanish hodisasi maxsus ajratilmay, ma'noni darajalab beruvchi so'zlar deyarli barcha holatlarda sinonimlar tarkibiga singdirib yuborilganligi sababli, *pichirlamoq-gapirmoq-baqirmoq* so'zlar qatori sinonimlar lug'atidan o'rin ololmas edi. Sinonimlarni ajratishning, so'zlarni sinonimik paradigmalariga birlashtirishning asosiy omili sinonim so'zlar anglatgan, ular nomlaydigan, ataydigan narsa, voqea, hodisa, belgi, xususiyat va boshqalarning aynanligidir. Mana shu keskin farq graduonimiyani sinonimiyadan ajratib turadi. Sinonimik qatorlarni birlashtirishda yetakchi omil sinonimik paradigma so'zlarining bitta umumiy denotat (atalmish)ga ega bo'lib, o'z paradigmasi ichida, asosan, uslubiy bo'yoq, qo'llanilish doirasi bilan farqlansa, graduonimik paradigmadagi so'zlar turli denotatlarni atab kelish bilan birga

ma'noni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ham ega hisoblanadi. Denotatlar orasidagi farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlaridir. Shuningdek, bitta denotat bilan bog'lanib, uning belgisini turli darajada ifodalovchi birliklar qatori ham darajalanish bilan bevosita bog'liqligini ham qayd qilish lozim bo'ladi.

“Ma'lumki, lug'atda ma'nodosh so'zlarning ba'zan ko'proq qo'llaniladigan variantlari berilib, so'ng kamroq uchraydigan sinonimlari keltirilsa, darajalanish lug'atida, leksemalar hajming ortishiga ko'ra, ishlalish ko'lamiga ko'ra, tezlikning oshishiga ko'ra, hashamning ortishiga ko'ra qator belgilar asosida joylashtirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, graduonimiya hodisasining sinonimiyadan farqli tomonlarini ochishga xizmat qiladi. Sinonimlar va antonimlar asosida tuzilgan darajalanish qatori har doim ham barcha sinonimlar va antonimlarni o'z ichiga olmasligi odatiy hol, chunki ba'zi sinonimlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, okkazional, kontekstual yoki kognitiv sinonim bo'lishi mumkin. Graduonimiya va sinonimiya hodisalari tashqi tomondan bir-biriga o'xshasa-da, ular mohiyatan boshqa-boshqa hodisalaridir”[2]. Yuqorida qayd qilingan holat va yondashuvlar asosida lug'aviy ma'nodoshlik va darajalanish munosabatini quyidagicha baholash, tavsiflash mumkin bo'ladi: “sinonimik munosabatlar bilan bog'langan so'zlar paradigmasining a'zolari ayni bir denotat, ayni bir voqelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog'langan so'zlar paradigmasi a'zolari esa turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o'sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi. Bir qarashda sinonimiya va graduonimiya orasidagi chegara aniqqa o'xshaydi – denotatlar bir xil bo'lsa – *sinonimiya*, denotatlar har xil bo'lsa-yu, bu denotatlar o'zaro sifat belgilarining, so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda shu so'zlarning miqdori har xil bo'lsa – *graduonimiya* hisoblanadi. Sinonimiya, asosan, so'zning ma'no tarkibidagi ifoda va vazifa semalari orasidagi (ya'ni, konnotativ semalar orasidagi) farqlarga tayansa, graduonimik lug'aviy paradigmalarni ajratish, so'zlarning atash, nomlash, (denotativ) semalari tarkibidagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan aloqador bo'lgan sifat farqlari semalariga tayanib ajratadi. Shuning uchun graduonimik qatoridagi yondosh so'zlar sinonimik munosabatlarga kirisha oladi”[4]. Darhaqiqat, sinonimlar orasida bevosita darajalanish kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Graduonimik qator a'zolarini sinonimik qator birliklaridan ajratishdagi asosiy belgi ma'no va mazmun jihatidan darajalarda farqlanishidir. Ammo hozirgi kungacha ko'pgina tillardagi sinonimlar lug'atlarida ular aralash holda keltirilishi graduonimiyani tushunishga, ajratishga to'sqinlik qilmoqda. So'zlar graduonimik lug'atlarining yaratilishi sinonimlar va graduonimlarni o'zaro farqlash, bir-biridan ajratishga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn lug'atlar, albatta, leksemalarning sinonimlari, antonimlarini aks ettirish bilan birga darajali qatorni tashkil qiluvchi graduonimlarni ham ifodalashi maqsadga muvofiq. Davr talabi va yoshlarning ko'proq kompyuter, internet bilan mulqot qilishining ortib borishi, ular orqali ma'lumot, bilim olish imkoniyatlarining yuqoriligi onlayn lug'atlarni ham takomillashtirishga katta e'tibor berish, yangi tadqiqotlardagi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash kabilarni taqozo qiladi[2].

Darajalanish hodisasining mazmun-mohiyatini belgilash, baholashda muayyan belgi (hodisa) miqdorining o'zayishi yoki ko'payishi bosh mezon hisoblanadi. Darajalanishning falsafiy asoslari va undagi shakllanish ko'lamini shuni ko'rsatadiki, bu hodisa tillarning tiplari orasida, tillar oilasi va bir til shevalari o'rtasidagi bog'lanishlarda, umuman, tilning barcha sathlari, ularning birliklari, umumiy va xususiy tizimlarda o'z ifodasini topadi[2].

Tilshunos olim H.Ne'matov tomonidan darajalanish hodisasi turli sath birliklari misolida atroflicha talqin qilinganligini ham kuzatish mumkin. Qayd qilingan manbalarga ko'ra, darajali ziddiyat eng kamida uchta til birligi orasida bo'ladi, chunki graduonimiyaning asosiy belgisi uch a'zoli qatorda yaqqol ko'rinadi va bu birliklar muayyan bir belgi-xususiyatning darajasiga, ya'ni belgining oz-ko'pligiga ko'ra ham o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan: *[tuzuk]-[durust]-[yaxshi]-[ajoyib]*. Bu til birliklarining barchasi ijobiy baho belgisini ifodalaydi. Ayni vaqtda ushbu belgi *[tuzuk]*dan *[ajoyib]*ga tomon o'sib boradi. *[shivirla]:[pichirla]:[ayt]:[gapir]:[baqir]:[hayqir]* qatori “ovoz miqdori” belgisi asosida tuzilgan bo'lib, bu belgi *[shivirla]* dan *[hayqir]*ga tomon o'sib boradi. Yana qiyoslang: *[ninni]:[chaqaloq]:[go'dak]:[bola]:[qiz/yigit]:[xotin/erkak]:[kampir/chol]* qatorida “yosh” belgisi o'sib boradi va darajali ziddiyat qatorini hosil qiladi. Darajali ziddiyatlar tilning lug'at boyligini o'rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Chunki darajali ziddiyatlar tilning lug'at tizimida juda keng tarqalgan. *[hujra]:[kulba]:[uy]:[hovli]:[qasr]:[koshona]:[ko'chat]:[nihol]:[daraxt]:[toy]:[qulum]:[g'o'non]:[do'non]:[ot]:[imilla]:[sudral]:[qimirla]:[yur]:[yugur]:[chop]:[yel]* kabi lug'aviy birliklarning qatorlari shular jumlasidandir[4].

Graduonimik munosabatga tilshunoslikda turlicha yondashuvning paydo bo'lishi uzoq tarix bilan bog'liq. Faylasuflar ham narsalar mantig'i haqida gapirganda darajalanishni nazarda tutganlar. Tadqiqotimizning oldingi o'rinlarida keltirib o'tilganidek, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy “Muhokamat-ul-lug'atayn” asarida ma'nosi darajalanuvchi so'zlarni alohida so'zlar sifatida “yig'lamoq” fe'li misolida ajratadi. Tilshunoslikda bu hodisaning rivojlanishi E.Sepir nomi bilan bog'liq, olim graduonimiya qatorining mavjudligini muayyan misollar asosida sharhlaydi[5]. L.Bolinjer ingliz tili materiali asosida bu hodisani (u gradatsiya deb nomlagan) tadqiq etib, uning to'rt kategoriyasini ajratadi[6]. Shuningdek, ayrim olimlar ravishlar misolida gradatsiya shkalasi tuzilishining assimetriyasini ko'rsatishgan[7], ba'zilar gradatsiya shkalasida belgining eng yuqori cho'qqisini berishgan[8], ayrimlari esa intensivatorlarning tasniflarida belgi rivojlanishi (o'sishi yoki pasayishi)ning darajasini ko'rsatuvchi belgilar shkalasini ko'rsatishadi[9]. Yu.S.Stepanovning fikricha, hamma so'zlar cheksiz gradasion qator hosil qiluvchi sinonimlar bo'la oladi[10]. Binobarin, leksika va fonologiyadagi gradual munosabatlar yuzasidan N.D.Arutyunova, N.A.Yeskova, C.O.Karsevskiy, N.S.Trubesskiy, T.Givon kabi tilshunos olimlar o'z fikrlarini bildirishgan.

Semantik guruhlardagi gradual munosabatlar semantik munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida ajratilishi R.Safarovaning nomzodlik dissertatsiyasida o'z ifodasini topgan. Olima leksikada giponimik munosabatlarni o'rganar ekan, sinonimiya, omonimiya, giponimiya bilan birgalikda graduonimiya, partonimiya, iyerarxonimiya va funksionimiyani ham ajratadi[11].

Darajalanish hodisasining lingvistik tadqiqi bevosita lug'atlar bilan bog'liq holda muhim natija va xulosalarni ham taqdim qiladi. Shu bois so'zlar darajalanishi masalasi doirasida lingvistik va akademik lug'atlardagi so'zlarning leksikografik talqinlarini ham nazarda tutishi tabiiy. Akademik lug'atlar deyilganda, “O'zbek tilining izohli lug'ati” (O'TIL) va “O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati” kabilar nazarda tutilsa, demak, ularning tarkibidan joy olgan so'zlar hamda ularning ma'nolari tavsifida darajalanish bilan bog'liq belgi-xususiyatlari ham o'z aksini topishi zarur. “O'zbek tilining izohli lug'ati” (O'TIL)da darajalanish bilan bog'liq bo'lgan belgi-xususiyat, ma'noni o'zida aks ettirgan lug'aviy birliklarga e'tibor qaratib o'tish joiz. Masalan, *yetuk-barkamol-raso* sinonimlaridan tarkib topgan darajalanish

qatorini kuzatamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu leksemalar quyidagicha tavsiflangan:

YETUK 1 Jismoniy jihatdan to'la rivojlangan, kamolotga erishgan.

BARKAMOL [bar.. + kamol] 1 Jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga erishgan, voyaga yetgan.

RASO [f. – to'liq, butun, yetarli; mukammal] 1 Kami yo'q, to'liq, but.

Keltirilgan so'zlarning ma'no izohidan ma'lum bo'ladiki, "voyaga yetish, ulg'ayganlik" darajasi *yetuk*dan *rasoga* tomon o'sib borishi kuzatiladi. Aksincha, ushbu daraja *rasodan yetukkacha* pasayib boradi.

Jinni-telba-devona darajalanish qatoridagi har bir so'zning "O'TIL"dagi leksikografik izohiga e'tibor qaratamiz va ulardagi bitta denotat bilan bog'liq turli darajadagi ma'noning kuchli/kuchsiz ifodalanishiga guvoh bo'lamiz. Bu holatda ma'noni kuchli ifodalash darajasiga ko'ra **darajalanish qatori hosil qilingan.**

JINNI [a. – jin, ruh] 1 Aqldan ozgan, ruhiy kasallikka yo'liqqan; telba, savdoyi.

TELBA 1 Aqldan ozgan, devona, jinni.

DEVONA [f. – telba, aqlsiz] 1 Aqldan ozgan, esi past; telba, savdoyi.

Bu leksemalar orasida darajalanish munosabati kuchli sezilmasa-da, lekin *telbadan devonaga* tomon "aqldan ozish" belgi darajasining kuchayib borishini kuzatish mumkin.

Kuchli-baquvvat-zabardast graduonimik qatorida "jismoniy kuch-quvvat" belgisining turli darajadagi holati mavjud, bu belgi *zabardast* so'zida kuchli so'ziga nisbatan kuchli ifodaga ega yoki kuchli so'ziga nisbatan baquvvat so'zida "jismoniy kuch-quvvat" belgisi kuchliroq ifodaga ega deyish mumkin. Bu leksemalarning "O'TIL"dagi izohiga e'tibor qaratamiz:

KUCHLI 1 Jismoniy qobiliyati, kuch-quvvati nisbatan ortiq; baquvvat.

BAQUVVAT [ba.. +quvvat] 1 Kuch-quvvati normal darajadan ortiq, zo'r jismoniy kuchga ega bo'lgan; kuchga to'la, kuchli.

ZABARDAST [f. – qo'li baland, kuchli; ishbilarmon] 1 Jismoniy jihatdan baquvvat, kuchli; qudratli.

2 *ko'chma* Yetuk, o'tkir, taniqli.

3 Og'ir, katta, zalvorli.

Keltirilgan izohlardan ko'rinadiki, leksemalarning ma'no tarkibida darajalanish bilan bog'liq tavsiflar o'rin

olgan. Leksemalar izohidagi "kuch-quvvati nisbatan", "normal darajadan ortiq", "jismoniy jihatdan baquvvat" belgilari ularning bitta darajalanish qatorini hosil qilishi va qatordan qayd qilingan belgisi asosida o'z o'rnini egallashi omili bo'lib xizmat qiladi.

So'zlarning darajalanish qatorini hosil qilishi, bu darajalanish qatori so'zlarning ma'no tarkibidagi atash yoki ifoda belgisi asosida ta'minlanishini yuqorida qayd qilinganlar ham ko'rsatib turadi. Bu kabi so'zlar darajalanish qatorini hosil qiluvchi so'zlarni "O'TIL" tarkibi orqali ko'plab kuzatishimiz mumkin. Ishning hajm talabidan kelib chiqqan holda yuqoridagilar bilan cheklanamiz. Tadqiqotimiz oldiga maqsad qilib qo'yilgan zamonaviy yangi avlod so'zlar darajalanish o'quv lug'atini tuzish jarayonida akademik lug'atlardagi darajalanishga tegishli bo'lgan leksemalarining barchasini lug'at tarkibiga kiritamiz va tartiblashtiramiz.

Yuqoridagilarga asoslangan holda aytilish mumkinki, keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida so'zlararo ma'noviy munosabatlarning yana bir turi bo'lgan graduonimiya munosabati bilan bog'liq yondashuv va qarashlarning ommalashayotganligi o'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi oldiga muhim vazifalarni hal etishni dolzarb qilib qo'ymoqda.

Xulosa va takliflar. Shu o'rinda sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati haqida tadqiqotchi G'.Rahmonovning fikri ham e'tiborli. Sinonimiya ma'nolari bir xilligi, o'zaro yaqinligi yoki o'xshashligi hodisalariga asoslansa, graduonimiya esa farqlilik omillariga tayanadi. Demak, sinonimiya va graduonimiya hodisalari o'zaro keskin farqlanadi. Biroq shunga qaramay, ular o'rtasida ma'noviy munosabat mavjud. Bu ma'noviy munosabat qay yo'sinda namoyon bo'ladi. Aslida sinonimlardan biri o'rnida ikkinchisini kontekstual qo'llash imkoniyati mavjud bo'lsa, denotativ ma'nolarga asoslangan graduonimlarda bunday bo'lishi mumkin emas, biroq barcha hollarda graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Bunday hollarda sememalardagi o'xshashlik ortadi va bu holat ularda ma'noviy yaqinlikni (sinonimlardagi kabi birlikni, aynanlikni emas) keltirib chiqaradiki, natijada ular ayrim kontekstual omillar hisobiga biri o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib qoladi. Shularga qaramay, sinonimiya va graduonimiya munosabatiga doimo ular shakllanishining bosh omillari bo'lgan aynanlik va farqlilik hodisasi nuqtai nazaridan qaramoq kerak[3].

ADABIYOTLAR

1. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 113 б.
2. Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларида лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент, 2017. – 210 б.
3. Раҳмонов Ф. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – 137 б.
4. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
5. Сепир Э. Градуирование. НЗЛ. Выпуск XVI. Лингвистическая прагматика. – М. 1985. – 504 с.
6. Bolinger D. Degree words. – Paris: Lions, 1972. – 324 p.
7. Апресян Ю.Д. Лексикическая семантика: синонимическая средства языка. – М., 1995. – 472 с.
8. Червенкова И.В. О показателях меры признака (на материале современного русского языка) // Годишник на Софийския университет, Факультет по славянски филологии, том 68 (1). – София, 1975. – С. 7-110.
9. Григоренко Т.Н. Семантические типы интенсификаторов (на материале современного языка). Лексико-семантическая структура в языке и речевой деятельности. – М, 1983. – С. 62-79.
10. Степанов Ю.С. Антонимо-синонимическая группы слов. Основы общего языкознания. – М.: Провещение, 1975. – 270 с.
11. Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 142 с.



Dildor ESHMURATOVA,
Teacher of English language and Literature кафедра
Mahliyo ESHBOYEVA,
Termiz State of University, Faculty of Foreign filology

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) Sh.Kayumova taqrizi asosida.

POLITICAL DISCOURSE IN THE MEDIA AND TRANSLATION

Annotation

This article is dedicated to an analysing political discourse in journalism as well as translation, among which a special attending is given to the theory of media and translation of political discourse. Publication and media are developing drastically through translation. The internet users should take essential data on usual human lifestyle, careers and so on. Media and translation have confusion in terms of translation process. The article analyzes some aspects of political discourse as well as provides solution to various problems encountered in translation and media.

Key words: political discourse, theoretical, discursive, critical reading source language, delimitation, framework, pragmatists, plea.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA SIYOSIY MUHOKAMA VA TARJIMA

Annotatsiya

Ushbu maqola jurnalistikadagi siyosiy nutqni, shuningdek tarjimoni tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular orasida ommaviy axborot vositalari nazariyasi va siyosiy nutq tarjimasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Nashr va ommaviy axborot vositalari tarjima orqali keskin rivojlanmoqda. Internet foydalanuvchilari insonning odatiy turmush tarzi, martaba va boshqalar haqida muhim ma‘lumotlarni olishlari kerak. Ommaviy axborot vositalari va tarjimada tarjima jarayonlari nuqtai nazaridan chalkashliklar mavjud. Maqolada siyosiy nutqning ayrim jihatlari tahlil qilingan, shuningdek, tarjima va ommaviy axborot vositalarida uchragan turli muammolarga yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy nutq, nazariy, diskursiv, tanqidiy o‘qish manba tili, chegaralash, ramka, pragmatistlar, iltimos.

ПОЛИТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС В СМИ И ПЕРЕВОД

Аннотация

Данная статья посвящена анализу политического дискурса в журналистике, а также переводу, среди которого особое внимание уделяется теории медиа и переводу политического дискурса. Публикация и средства массовой информации стремительно развиваются благодаря переводу. Пользователям Интернета необходимо собрать необходимые данные об обычном образе жизни человека, карьере и так далее. СМИ и перевод путают процессы перевода. В статье анализируются некоторые аспекты политического дискурса, а также предлагаются решения различных проблем, возникающих в сфере перевода и СМИ.

Ключевые слова: политический дискурс, теоретический, дискурсивный, критическое чтение исходного языка, разграничение, рамки, прагматики, призыв.

Introduction. In this article authors explore some to the seemingly naive question “What is the political discourse analysis?”. Analysing political discourse is interesting for everyone in the way language is used in the world of politics. According to Aristotle’s idea that we are all political animals, able to use language to pursue our own ends, the book uses the theoretical framework of linguistics to explore the ways in which we think and behave politically.

Written in a lively and engaging style, Analysing Political Discourse offers a new theoretical perspective on the study of language and politics, and provides an essential introduction to political discourse analysis. Vilayanur S. Ramchandran feel that, remember that politics, colonialism, imperialism and war also originate in the human brain. Obviously, the notion of Political Discourse Analysis (henceforth PDA), is ambiguous. Its most common interpretation is that PDA focuses on the analysis of ‘political discourse’, although we then still need to determine which discourse is political and which is not. On the other hand, there is also a more critical reading of the label, viz., as a political approach to discourse and discourse analysis, e.g., in the way understood in contemporary Critical Discourse Analysis (CDA). This respect at the same time formulates a

plea (a legal suit or action) that advocates a broader use of discourse analysis in political science. Of course such a plea can make an impression only if we have something to sell that political scientists want to buy. To present the argument that most phenomena in politics are forms of text and talk may be obvious, especially to a discourse analyst, but it is as such not a good reason for political scientists to change their current approach to a more discourse analytical one: Few scholars are prepared to ‘reduce’ their field, or their methods, to those of another field. Hence, we must show that problems in political science can in principle be studied more completely and sometimes more adequately when it is realized that the issues have an important discursive feature.

Literature review. Political discourse specified by Paul Chilton’s theory, only in and through language can one issue commands and threats, ask questions, make offers and promises – provided one has convinced one’s interlocutors that one has the requisite resources to make the speech act credible. And only through language tied into social and political institutions can one declare war, declare guilty or not guilty, prorogue parliaments, or raise or lower taxes. Speech acts have been treated by ‘ordinary language’ philosophers and some pragmatists within linguistics as a largely

technical problem. It is clear, however, that the non-logical parts of meaning-making cannot be easily separated from social and political interaction, its conventions and institutions. Mey (2001: 115–16) captures this point nicely in pointing out that language is always reflects 'the conditions of the community at large': Among these conditions are institutions that society, that is, the social humans, have created for themselves: the legislative, the executive, the judiciary, and other organs of the state; the various religious bodies such as faiths and churches; human social institutions such as marriage, the family, the market and so on. In all such institutions and bodies, certain human agreements and customs have become legalized, and this legalization has found its symbolic representation in language.

Frankly, the identical is true for the definition of the field of media discourse, which also needs to focus on its audiences. And also in medical, legal or educational discourse, we not only think of participants such as doctors, lawyers or teachers, but also of patients, defendants and students. Hence, the delimitation of political discourse by its principal authors' is insufficient and needs to be extended to a more complex picture of all its relevant participants, whether or not these are actively involved in political discourse, or merely as recipients in one-way modes of communication.

The co-evolution of language and politics? If it is granted that language is an innate organ of the human mind/brain, we can ask how it evolved, and whether this casts any light on how we might think about possible links between language, society and politics. There are two views as to how this 'language organ' has arisen techniques and procedures used to identify and analyze information regarding a specific research connected with political discourse. It contains all the important aspects of social, cultural, communicational including research design, data collection methods which the research is conducted. While these points can help you understand what is research methodology, you also need to know why it is important to pick the right methodology. In this point of our article some views have consequences for thinking about the relationship between language and politics. We have discussed speculation about the origins of language was banned by the Paris Linguistics Society in 1866, so wild and ill-founded had it become, just six years after the publication of *The Origin of Species*. However, the present re-emergence of Darwinian evolutionary theory, and new computational, archaeological, neurological and philosophical methods of investigation, have given rise to renewed and more rigorous enquiry into how language evolved in homo sapiens (see for example, Bickerton 1990; Hurford et al. 1998; Jackendoff 2002: 231–64). While the debate remains very much open, two clear lines of thought have been established, and both have implications for thinking about the relationship between language and politics. According to the first line of thought, language evolved from an arbitrary genetic mutation

that was beneficial to evolving humans. It does not build on prior properties of emerging human brains, but is an entirely novel and species specific ability. This is the position apparently taken by Chomsky (e.g. Chomsky 1975, 2000). What are the implications of such a view for question of the relationship between language and political behavior? It is possible to sketch possible conceptual links between this view of the evolution of language and important ideas that are familiar in the tradition of political thought. If this version of the emergence of a language Lability in the human brain were correct, language would have no direct genetic or neurological link with social grouping or social manipulation.

Analyses and results. The ideal of free communication there is a further domain of thinking about language, in this case specifically about language and society, that involves a similarly idealised 'in principle' kind of argumentation. It comes not from linguistics but from the social theorist Jürgen Habermas (1971, 1973, 1979, 1981). It is valuable to consider this kind of thinking here by way of conclusion to this chapter, since it has been often mentioned by analysts with a commitment to the politically oriented analysis of discourse (e.g. Fairclough 1989; Wodak 1996)

Political discourse involves metaphorical reasoning. Cross-domain metaphorical mappings make it possible to draw inferences that could not be drawn on the basis of direct evidence or the basis of direct experience. In political discourse metaphors are often not just embellishments of literal propositions, but modes of reasoning about, for example, the future and about policies.

Politics and language: 1 This account leaves out relations between states – the international arena. It is often argued that beyond the state the international sphere lacks differentiated institutional functions and is anarchic in the technical sense. Such a model does indeed characterise the foreign policy of most states. Opponents of this view of international relations point to the development of international law, the increasing porosity of state boundaries, and global economic and communication networks, all of which increasingly lead to world politics. This dimension, though arguably continuous with domestic politics, does require separate treatment and is not dealt with directly in the present volume.

Conclusion. To sum up centres of the brain this hypothesis emerged during our investigation of texts in Chapter 7, but is relevant to others as well. Whether there are indeed specific emotions that could be called 'political' remains arguable. However, some politically relevant feelings, such as territorial belonging and identity ('home'), love of family, fear of intruders and unknown people have certainly shown up in our analyses. Such emotions might have an innate basis and be stimulated automatically in the political use of language.

REFERENCES

12. Teun A. Van Dijk, "What is political discourse analysing", University of Amsterdam (2006).
13. Paul Chilton's "Analysing political discourse theory and practice " (2004).
14. Aristotle (1932) *Politics*. With an English Translation by H. Rackham, London, Heinemann.
15. "What is the political discourse?" by Teun A. Van Dijk/Universitet Van Amsterdam(2007).
16. Abadi, A. The Speech Act of Apology in Political Life. *Journal of Pragmatics*. Article 1990.14(3):467-471.
17. Chilton, P. Words, Discourse and Metaphors: The Meanings of Deter, Deterrent and Deterrence. In P. Chilton ed, *Language and the Nuclear Arms Debate: Nukespeak Today*:(1985)103-127. London: Pinter.
18. Chilton, P., & Ilyin, M. 1993. Metaphor in political discourse: The case of the common European house. *Discourse & Society* 4(1): 7-32.



Maxmuda YULDASHEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mahmudauldaseva@gmail.com

ToshDO'TAU dotsent v.b., PhD M.Jabborova taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY IN LITERATURE LESSONS

Annotation

This thesis examines the processes of teaching students creativity, thinking and independent thinking in literature lessons, heuristic teaching methods, methods of heuristic analysis of a work of art and the main essence of the application of heuristic methods in the process of literary education, as well as methods of teaching students to search for knowledge in combination with their discovery, tasks and exercises based on heuristic method, help students to take initiative and together they develop the following abilities, namely independence, dexterity, analysis allows you to effectively form such abilities as decision-making.

Keywords: creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, heuristic training, creative task.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В данной дипломной работе рассматриваются процессы обучения учащихся творчеству, мышлению и самостоятельному мышлению на уроках литературы, эвристические методы обучения, методы эвристического анализа художественного произведения, а также основная сущность применения эвристических методов в процессе литературного образования, а также как методы обучения учащихся поиску знаний в сочетании с их открытием, задания и упражнения, основанные на эвристическом методе, помогают учащимся проявлять инициативу и совместно развивать у них следующие способности, а именно самостоятельность, ловкость, анализ позволяют эффективно формировать такие способности, как принятие решений.

Ключевые слова: творчество, творческая деятельность, эвристический метод, интерактивный метод, эвристическое обучение, творческая задача.

ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiy ta'lim berish jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni ya'ni mustaqillik, epcillik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik yondashuv, interfaol metod, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.

Kirish. Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri tahsil oluvchilarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa o'quvchilarning ijodiy erkinligini, ijodiy tafakkuri va faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

1. O'quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash.

2. O'qituvchi va o'quvchilarning munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish.

3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Hozirgi davrda o'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan evristik va muammoli ta'lim o'quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish masalasi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish qanday zarur

bo'lsa, shu qadar zaruriy jarayondir. Yagona o'quv mashg'uloti bo'yicha tizimli mashg'ulotlar evristik yo'naltirilgan faoliyat asosida sodir bo'ladi. Evristik o'qitish jarayonida o'qituvchi evristik topshiriqlar va metodlardan samarali foydalanishi uchun ularni mazkur metodlarni qo'llashga imkon beradigan pedagogik bilimlar va tajribalar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq.

O'ziga xos yondashuvlar mavzu doirasida tez, aniq va qulay o'zlashtirish asosi bo'lgan usul va metodlar orqali namoyon bo'ladi. "Maktab amaliyotida usul, ko'pincha, metod bilan bir narsa yoki metodning bir qismi deb qaraladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta'limning muammoli metodi muammoli vaziyat yaratish, o'quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta'limning mantiqiy metodlarida ham o'rganilayotgan o'quv materialidan muhimni ajratish, o'rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash singari usullardan foydalaniladi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quvchilarni ijodiy faollikka, ijodkorlikka yo'naltiruvchi Evristik ta'lim metodi bo'yicha quyidagi metodist olimlar ham samarali

izlanishlar olib borishgan. Jumladan, S.V.Stolbunova, L.M.Perminova, Ya.A.Ponomarev, N.S.Leytes, V.S.Shubinskiy, P.Ya.Galperin, V.I.Zagvyazinskiy, A.Z.Zak, o'zimizning tadqiqotchi-olimlardan J.Tursunov, G.Ne'matova, N.S.Mamatov, R.Hamroyevlarning asarlarida bolalar ijodkorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Boshqa qator ilmiy tadqiqotlarda esa ta'limda o'quvchilar faolligi va dars jarayonida mustaqil fikrlay olish ko'nikmasiga egaligi muammosi keng o'rganilgan. Shunday izlanishlar sirasiga I.A.Allayorov, V.M.Karimova, R.N.Sunnatova, R.N.Tojiboyeva kabi qator olimlar o'tkazgan tadqiqotlar kiradi.

Rus olimasi S.V.Stolbunova bir maqolasida "Insonning ichki olami, kechinmalarining estetik hissiyotlar bilan bog'liqligi, go'zal hissiyotlarning ijodkorlikka – ijodiy fantaziyaga olib kelishi"[2]ni ishonarli faktlar bilan tavsiflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Evristik yondashuv bo'yicha fizika, matematika kabi fanlar doirasida ma'lum izlanishlar olib borilgan. Biroq adabiy ta'limda evristik yondashuv asosida o'qitish asoslari alohida tadqiq etilmagan. Ayni vaqtda zamonaviy didaktika tamoyillariga asoslangan evristik metodlar yordamida o'quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatarni shakllantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ma'lumki, Evristik yondashuv o'quvchilarda topqirlikni, faollikni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish hisoblanadi. An'anaviy ta'limda o'quvchi ta'lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ta'lim jarayonidagi ijodkorlik faoliyatida esa o'quvchi ta'limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi; bu jarayonda esa bilimning hajmi, malakasi, faoliyat turlari hamda o'quvchining foydalanadigan usullari cheklanmagan bo'ladi.

Psixolog olim V.A.Lektorskiy ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida mavjud kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;

o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish [3].

Olimning yuqoridagi tadqiqotidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish hamda o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish g'oyasiga mos keladi.

Adabiy ta'limda evristik yondashuvga qo'yiladigan psixologik talablar quyidagicha bo'lishi kerak:

- o'quvchining ta'limdan keyingi hayotida amaliy ishlashi uchun zarur bo'lgan bilimlarga o'qitish;
- ta'lim oluvchining yoshi, ijtimoiy-psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim va tarbiyani kasbiy yo'naltirilganligi;
- ta'limni fan, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy bog'lanishi.

Biz o'z tajribamiz, pedagogik faoliyatimiz davomida ko'p marotaba duch keladigan adabiyot darslaridagi muhim muammolardan biri bu o'quvchi tomonidan badiiy asarni

Ravshanning xarakteri	Mening xarakterim

Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar berilgan jadvalni ijodiy yondashgan holda mustaqil fikrlarini yozib to'ldirishadi. Bu usulni qo'llash orqali o'quvchilarda asar qahramonining o'ziga xos fazilatlarini yoki xususiyatlarini solishtirib o'rganish orqali o'zlariga, o'z xarakterlariga nisbatan tanqidiy qarash ko'nikmasi hosil bo'ladi.

idrok etish bilan bog'liq psixologik muammolardir. Ma'lumki, bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, bevosita ta'lim oluvchilarning estetik, kitobxonlik va hissiy tajribalari bilan bog'liqdir. Masalan, o'quvchi tomonidan biror asarning qabul qilinishi jarayonida, albatta, u o'sha asar voqealari bo'lib o'tgan joy, tarixi, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar haqida ham qisman bo'lsa-da ma'lumotga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bu esa asar voqealari tasvirlangan davrdagi mavjud bo'lgan qoidalar, qonunlar hamda qahramonlar harakati, voqealar rivoji o'quvchilar tomonidan birmuncha osonroq qabul qilinishiga ko'mak beradi.

Tadqiqotchi K.Shokarimova ilmiy maqolasida quyidagi fikrni keltirib o'tadi: "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishi ko'zda tutilgan adabiy ta'lim asosida hech kimga o'xshamagan alohida shaxsni, mutolaa qiladigan, mohiyatini anglaydigan, tahlil etib, xulosa chiqaradigan qahramon holatini his etadigan, o'zgaralar dardiga sherik bo'ladigan, ularni tushunadigan va shu asnodda o'zini ham "kashf" eta biladigan barkamol insonni tarbiyalash maqsadi turadi"[4].

Albatta, bir narsa har doim yodimizda turishi lozimki, adabiyot darsliklari tarkibiga kiritilayotgan adabiy asarlar bola yoshi hamda psixologiyasiga mos ravishda bo'lmog'i zarur. Aks holda, bolalarda fandan zerikish paydo bo'lishiga hamda fanning yo'nalish kesimlaridagi kasblarga qiziqish so'nishiga olib kelish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Odatda har bir darslik va qo'llanmalarda mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash uchun savol va topshiriqlar beriladi. Ular o'tilgan mavzuni mustahkamlashga, o'quvchilar xotirasida saqlanishi uchun xizmat qiladi, albatta. Mana shu jihat uchun tanlab olinadigan mashq va topshiriqlar o'quvchining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi tabiiy.

Izlanishlarimiz va amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni evristik faoliyatga undovchi metodlar, topshiriqlar va mashqlardan bugungi kunda ta'lim amaliyotida yetarlicha foydalanilmayapti.

Dars berish jarayonida o'quvchi-yoshlarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan va o'z pedagogik tajribam orqali amaliyotda sinalgan samarali usullarni namuna sifatida keltirib o'tmoqchiman.

"Men bo'lajak musavvirman" o'yini. Bu o'yin orqali o'quvchilarda psixologik jihatdan zavqlanish hissini rivojlantirish bilan birga ularni ijod qilishga undaladi. Ushbu jarayonda o'quvchilarga 7 daqiqa davomida o'qilgan asardagi tabiat tasviri yoki qahramonlar xarakterini ochib berishda yordam beruvchi, tasavvuridagi portretni yaratish, illyustratsiya chizish topshirig'i beriladi. To'g'ri, bu o'yinda o'quvchilar tomonidan san'at asari yaratilmasligi mumkin, ammo berilgan topshiriq orqali asar mohiyati va qahramonlar holatini chuqurroq his etishlariga erishiladi.

Ijod maktablari uchun yozilgan 8-sinf "Adabiyot" darsligining I qismi[5]da "Ravshan" dostoni, "Kichkina shahzoda" qissasi, xuddi shu sinf darsligining II qismi[6]da Thokurning "Shubxa", Usmon Nosir she'rlari o'rganish uchun taqdim qilingan. Mana shu mavzular bo'yicha mustahkamlash darslarida evristik yondashuvdan foydalangan holda quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

Uyga vazifa sifatida "Ravshan va men" mavzusida xarakterlar solishtirmasi jadvalini to'ldirib kelish topshirig'i beriladi.

Keyingi topshiriq orqali esa o'quvchilarning tafakkuri, mustaqil mulohaza yuritishlari hamda badiiy san'atning nozik qirralarini uqish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasi uchun ishlangan ushbu suratga e'tibor bering.



1. Suratni sharhlashga harakat qiling.

2. Qissa matnidagi obrazlar bilan suratni qiyosiy o'rganing.

3. Siz qissa qahramonlarini qanday tasavvur qilgan edingiz?

Ilyustratsiya bu tasavvurlaringizga qanchalik ta'sir o'tkazganini ayting.

4. Suratdagi obrazlilik va ifodaviylikni tadqiq qiling.

Tasavvur har bir ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, badiiy ijodda uning ahamiyati katta. Yuqoridagi

topshiriqlarni bajarish asnosida o'quvchilarning tasavvuri yanada boyiydi.

Darslikdan joy olgan keyingi asar Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" qissasi. Bu asar bilan tanishishda qissaning darslikda berilgan parchalaridan tashqari radiopostanovka va multfilm talqinlaridan ham foydalanish mumkin. Bu orqali o'quvchilar bir asarni turfa xil yondashuvlar bilan o'rganadi.

1-topshiriq:

"Kichkina shahzoda" qissasining radiopostanovka talqinini tinglang va quyidagi jadvalni to'ldiring:

Savollar	Fikrlaringizni asoslab yozing
Obrazlar uchun berilgan ovozlari to'g'ri tanlanganmi?	
Bezak uchun berilgan musiqa va shovqin tinglashga xalaqit qilmaydimi?	
Nima deb o'ylaysiz: Siz uchun asarni o'qigan yaxshimi, eshitganmi?	
Nima uchun?	
Siz radiospektaklni nimalar bilan to'ldirgan bo'lar edingiz?	

2-topshiriq:

"Kichkina shahzoda" asarining multfilm talqinini asarning asl matni varianti bilan qiyoslang:

Obraz va syujetdagi o'zgarishlar	Kiritilgan yangiliklarning ahamiyati

Ijod maktablari o'quvchilari uchun amalda bo'lgan 8-sinf darsligining II qismida berilgan Thokurning "Shubxa" asarini o'rganishda o'quvchini fikrlashga, asar g'oyalardagi, tasvirlardagi mushtaraklikni topishga qaratilgan topshiriq:

Topshiriq

"Qani endi Shubxa suv parisi bo'lsa?!"

Ushbu holatni Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi bolaning ulkan orzulari bilan qiyoslang. Ularning tabiat bilan munosabatlari va kechinmalaridagi umumiylikka to'xtaling.

Darslikning II qismidagi Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ri matnini tahlil qilish jarayonida quyidagi topshiriqni bajarish mumkin.

Topshiriq

She'rdagi lirik qahramonning Rimga bergan quyidagi sifatlashlari ildizini she'r matni va tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayangan holda asoslangva quyidagi jadvalni to'ldiring.

Sifatlashlar	Izoh va sabablar
"gado Rim"	
"yalang'och Rim"	
"ahmoq Rim"	
"Rim – o'yindan o'lim kutgan jinni teatr"	

Bu topshiriq orqali darsda fanlararo integratsiya jarayoni olib boriladi.

Ijodiy topshiriq bilimlarni mustaqil egallash ehtiyojini yuzaga keltirishda muhim poydevordir. Topshiriq ijodiy xarakterda bo'lmasa, o'quvchi mustaqil bilim olishga ehtiyoj sezmaydi[7].

Bu metod, usullarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday darslar jarayonida har bir o'quvchi chetda qolmasdan, eshitgan, o'qigan, ko'rgan, bilgan fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiha ega bo'ladilar. Buning natijasida o'quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi hamda o'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi.

Evristik usullarni dars jarayonida maqsadli qo'llash orqali fan o'qituvchisi quyidagi samaradorliklarga erishadi:

– keng ko'lamdagi yoki murakkab tushunchalarni, shuningdek, g'oyalarni kichik va sodda qismlarga ajratish orqali ma'lumotni oson tasavvur qilish yoki taqdim etishga yordam beradi;

– o'quvchilarga dars jarayonida faol ishtirok etish va mavzuni mukammal tushunish imkoniyatini yaratadi;

– aqliy hujum, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tarkibni tasniflash va birinchi o'ringa qo'yish, mulohaza yuritish kabi bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;

– mavzuga oid avvalgi bilimlarni eslab qolishga va uni tezda yangi ma'lumotlar bilan boyitish hamda bilimlar zanjirini davom ettirishga ko'maklashadi;

– o'z ustida ishlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi tuyg'ularni shakllantirish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, evristik ta'lim o'quvchining uchta integratsion qobiliyati ya'ni ijodiy qobiliyati, bilishga doir hamda faoliyatga oid qobiliyatiga tayanadi. Demak, evristik ta'lim deyilganda o'quvchining ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi imkoniyatlar majmuasi tushuniladi. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

- Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi.. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – B. 111.
- Столбунова С.В. Развитие критического мышления. Журнал «Русский язык». – Ярославль. 2003. №28. – С.63.

3. Лекторский В. А., «Субъект, объект, познание». – Москва: Наука. 1980. – С. 358.
4. K.Shokarimova. Pedagogik qobiliyat va mahoratning ta'lim-tarbiya berishdagi ahamiyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.23.
5. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism): darslik / J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022. – 204 b.
6. 8-sinf adabiyot darsligi (II qism): darslik / J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022. – 204 b.
7. M.Saidov. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: Ped.fan.nomz.diss.avtoreferati. – Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – B.43.